



Tog'ay Murod

Saylanma

I jild

TOG'AY MUROD

TOG'AY MUROD

SAYLANMA

I
JILD



ZITOB HASER

SAYLANMA AND IQTIBAR FOTOGRAFIYA SERVIS INSTITUTI

Toshkent

2019

AGROROT RESURS MARKAZI

K. J. P. 917



Men Surxon dalalarida olti oy kezdim. Surxon oftobida olti oy kuydim. Surxon changlarini olti oy yutdim.

— Men o 'zbek xalqiga haykal qo 'yaman!

Men ana shunday orzuda dalalar bilan xayr-xo 'shlashdim.

TOG'AY MUROD

Tog'ay Murodovichcan tash-hamshbat bo'lish ²²M
cavagan, lekin uni yozuvchi sinishi taqigamning xiyla bo'ldi.
Yozuvchining „Ovchindazoren odamlari“ qissasini o'qiganim-
da tensiz bir taassurot ichki bo'lqitani chayxona-mazze qilib
o'qishni rost-i. Bu yea qilib berpendek qilgan bo'ndek edil-
din „Qahar Bon May Nomidan opdaniy-shabz“ wujusi ekanligi, fakum
qurashchi shaxsiyati kelin“ deyildi. Tog'ay Murodovichning “maza

OTAMDAN QOLGAN DALALAR

ROMAN



ZIYO NASHR

SAMARQAND AND IOTI¹ 1897

Toshkent

2019

AXBOROT RESURS MARKAZI

FUNDAMENTALS

No 37957

UO'K: 821.512.133-3
KBK 84(50')6
M 89

- Murod, Tog‘ay.**
M 89 **Otamdan qolgan dalalar** [matn]: roman / T. Murod, – T.: “Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019 – 320 b.
ISBN 978-9943-5706-1-0

Mas’ul muharrir
Ma’suma Ahmedova

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Tog‘ay Murodning el orasida dovrug‘ qozongan ikki romanidan tashkil topgan II jildli „Saylanma“si siz aziz kitobsevarlarga taqdim etilmoqda.

Mazkur „Saylanma“ning birinchi jildiga adibning Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan, o‘zbek kitobxonlari kitob javonidan munosib o‘rin egallagan „Otamdan qolgan dalalar“ romani kiritildi. Romanda o‘zbek xalqining bir asrlik tarixi badiiy talqin etiladi.

UO'K: 821.512.133-31
KBK 84(50')6

ISBN 978-9943-5706-1-0

© Tog‘ay Murod
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019.

Nasrda bitilgan dostonlar

Tog‘ay Murodni shaxsan tanish, hamsuhbat bo‘lish nasib etmagan, lekin uni yozuvchi sifatida taniganimga xiyla bo‘ldi. Yozuvchining „Oydinda yurgan odamlar“ qissasini o‘qiganimda ismsiz bir taassurot ichida qolganimni eslayman: mazza qilib o‘qiganim rost-u, birovga aytib bergudek voqeasi yo‘qdek edida!.. Qahramonlari ham binoyideg-u, insho yozganingda „falon-chiga o‘xshagim keladi“ deydigan emas-da!..

Bu yanglig‘ taassurotning sababini keyinroq angladim: adabi-yotimiz yangilanayotgan payt ekan, Tog‘ay Murod shu yangilanishni boshlaganlardan biri – bizning adabiyot haqidagi tasavvurlarimizni yangilagan avlodning ilg‘orida borgan vakillaridan ekan...

I

„Otamdan qolgan dalalar“ nafaqat dolzarb mavzusi, balki badiiy jihatlari bilan-da adabiyotimizda jiddiy voqeа bo‘ldi. Asarning o‘ziga xos qurilishi, betakror ifoda yo‘sini, tildagi jozib ohang, samimiyat – bularning bari uning muvaffaqiyatini ta’milagan asosiy omillardir. Bir suhbatda asar xususida so‘z borib, „Otamdan qolgan dalalar“ janr e’tibori bilan romanmi? – degan savolni o‘rtaga qo‘ygan edim. Ha, janrning risoladagi tablalaridan kelib chiqilsa, bu savolni qo‘yish asoslidek. Zero, roman markazida inson taqqidi turgani holda u tugal maqsad emas, romaniy qahramon dunyoni badiiy idrok etish, dunyo haqidagi, uning joriy holati haqidagi yaxlit badiiy konsepsiyanı shakllantirish va ifodalash vositasi, xolos. Shunga ko‘ra, odatda romaniy qahramon – o‘z muhitiga sig‘mayotgan, muhit bilan ziddiyatga kirishgan, izlanayotgan shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Dehqonqluda esa bu xususiyatlar ko‘rilmaydi, u – kechagi kunini muhit izmida sassizgina yashab o‘tgan, endi kechmishtini mu-shohada qilayotgan odam. Dehqonqulning to‘laqonli romaniy qahramon sifatida bo‘y ko‘rsatishiga rivoyaning birinchi shaxs tilidan berilgani monelik qilgan, ayni chog‘da, xuddi shu nar-sa – rivoyaning birinchi shaxsdan berilgani – asarda lirik ibtido-

ni kuchaytirgani ham yaqqol ko'rindi: asarning ko'p o'rinalarda voqeani tasvirlash (yoki narsa-hodisa, holatni tavsiflash) emas, ularga munosabat bildirish maqsadi yetakchilik qiladi. Bularning natijasi o'laroq, asarda lirik ibtido salmoqli, badiiy jihatdan belgilovchi o'rin tutadiki, „Otamdan qolgan dalalar“ nasrda bitilgan romantik xarakterdagi „poema“dek, „dostondek taassurot qoldiradi. Asardagi ifoda yo'sini hamda vogelikni badiiy idrok etish usulining xalq dostonlariga eshligi uning muvaffaqiyatini ta'minlagan qo'shimcha omil emasmikin?!

...romanning maqsadi dunyo haqidagi, uning joriy holati haqidagi yaxlit badiiy konsepsiyanı shakllantirish va ifodalash, romanıy qahramon shuning vositasi, dedik. Shunga tayanib, „Otamdan qolgan dalalar“ janrning risolaviy talablariga javob berishiga shubha ham bildirdik. Boshqa tomoni, axir, unda vogelikni qalbidan o'tkazib, uning ta'sirida tug'ilgan kechinmalarini, munosabatini ifodalayotgan lirik qahramon – Tog'ay Murodning o'zi bor-ku?! Dunyo bilan ziddiyatdagi, nasib etgan taqdiridan imkonı kengroq bo'lganidan muhitga sig'mayotgan, aniqrog'i, elining bir asrdan ziyod muhit – mustamlaka tuzumiga sig'may kelganini o'zida namoyon etib turgan Tog'ay Murodning o'zi risoladagi romanıy qahramon emasmi?!

„Otamdan qolgan dalalar“ni realistik asar deganimiz holda, unda realistik shartlilik darajasining yuqoriligi va bu narsa qat'iy realizm talablaridan jiddiy chekinishlarga olib kelganligini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Bu nimalarda ko'rildi? Avvalo, vaqtning shartliligi: 20-yillarda es tanigan bolakay 60-yillarda ham bolaligicha qoladi. Bugina emas, umuman, asarda tasvirlangan (yoki eslatilgan, ishora qilingan) voqealar, tafsilotlar real xronologiyaga doim ham muvofiq kelavermaydi. Undagi qator obrazlar (mas., Ideologiya, kinochilar, mustamlakachilar va b.) realistik obraz-

lar sifatida emas, ko'proq shartli, ramziy „maska“ sifatida bo'y ko'rsatadi. Shunga o'xshash, asarda haqiqiy familiyalari ostida harakatlanuvchi sho'ro hukumatining taniqli arboblari (Poltoratskiy, Kolesov, Uspenskiy va b.), murakkab taqdir egasi polkovnik Chanishevlarining bitta hayotiy holat – Aqrab qo'rбoshining qo'lga olinishi doirasida tasvirlangani ham shartlilikdan o'zga emas. Bulardan ko'rindaniki, asarda mustabid tuzumning tom ma'nodagi realistik obrazi emas, uning shartli obrazi yaratiladi: o'quvchining ko'z oldida insoniylikdan butkul mahrum yovuzlik timsoli gavdalantiriladi. Asarning umumiyligi ruhini, „xiyla keskin – tendensioz“ ruhini belgilagan bu kabi usulning (yovuzlik lagerining o'ta shartliligi-yu ezgulik lagerining hayotiy tasvirlanishi) ildizi ham, aslida, xalq og'zaki ijodidan oziqlanadi...

...me'yordan ortgan tendensiozlik – qusur, uning realizmga xos emasligi isbot talab qilmaydigan ayni haqiqat. Ammo „Otamdan qolgan dalalar“ – davrning badiiy hujjati, unda jamiyatning mustamlakachilik barham topib, istiqlol ne'matiga noil bo'lgan paytdagi ruhiyati akslangani ham bundan aslo kam bo'lman haqiqat. Zero, unda hammamizning – „dehqon“ („dehqon – yer egasi demak emasmi?!) bo'la turib „qul“likda umrguzaronlik qilgan siz-u bizning kayfiyatimiz, parchalangan zanjirlar ostida turgancha kechmishimizga sog'lom nazar solgan, mustabid tuzumni yanib turgan holatimiz akslangan. Donishmandlardan biri „Insoniyat o'z o'tmishi bilan kulib xayrlashadi“, degan ekan. Asar yozilgan paytda na Tog'ay Murod, na siz-u biz o'tmish bilan kulib, kulish qayda, xotirjam xayrlashishga ham qodir emas, negaki, istibdod zanjirlari qoldirgan yaralardan hali qon sizib turgandi. Shu ma'noda, „Otamdan qolgan dalalar“ – uzoq yillar yig'ilgan dardning misoli vulqonday otlishi, mustamlaka bilan xayrlashayotgan xalqning yig'iyo'qlovi. Yo'q, mustamlakaga kuyib emas, toptalgan qadri, g'ururini o'ylab chekkan nolasi; yurakni ezadigan, ruhni tushiradigan emas, aksincha, kishi ruhini yuksaltiradigan, qaddini tiklaydigan nola...

...modomiki mohiyatdan kelib chiqar ekanmiz, unda „Jamo-liddin ketmon – Aqrab qo‘rboshi – Dehqonqul“ silsilasining bir butun ekanini ko‘rmaslik mumkin emas, bas, shu silsila butuni-cha bosh qahramon emasmi? Qiziq-da, yozuvchi silsila boshiga boshqa odamni, jilla qursa, bosqinchilarga qarshi bosh ko‘targan Mulla Namoz yigitlaridan birini qo‘ysa durustroq bo‘lmasmidi? Yo‘q, bo‘lmas ekan-da! Negaki, adib o‘zini san’atkor deb biladi, dilidagini hamisha san’atkorona – obrazli tarzda, ramz-u ishoralar bilan ifodalashga intiladi. Ishoralar esa fikrni mohiyatga qarata-di – ma’nini inkishof etishga yo‘naltiradi. Qarang: Jamoliddin ketmon „olam bexabar“ edi, bilgani – kalima o‘girgancha ketmon chopmoq; mo‘min-u muslim edi, shunchalarki, dalasi-yu suvini bulg‘aganlardan qochib-qutulmoqdan o‘zga chora topmadni, izla-madi ham. O‘g‘li Aqrabning shuurida esa istilo dahshatlari chuqur iz qoldirgan – u qochib-qutulmoq munosib tadbir emasligini biladi, shu bois mujohidlik yo‘lini tutdi – shahid ketdi. Albatta, go‘dak Dehqonqulning murg‘ak shuurida bu voqealar izsiz ket-madi, faqat... faqat u o‘zini butkul dalasiga bog‘ladi, paxtasiga bog‘ladi – olamni unutdi, bobosi kabi „olam bexabar“ bo‘ldi. Xul-las, adib talqinida uch avlod silsilasi g‘oyat teran ramzga – millat-ning mustamlaka zamonidagi umumiy chizgilari quyuqlashtirilib, bo‘rtiq qilib bor bo‘yicha ishlangan portretiga aylandi.

... Tog‘ay Murod chizgan manzaralar kishini dahshatga sola-di, shunchalarki, kun kelib cho‘pchak deb o‘ylashmasa edi, de-gan andisha inadi ko‘ngilga. To‘g‘ri-da, qoq pishiqchilik payti qirmizi olmaga boshqorong‘i ayolining shugina istagini qondi-rishga arning ojizligi ko‘ngillarda ishtiboh uyg‘otsa, mubo-lag‘aning haddi a‘losidek ko‘rinsa aslo ajablanarli emas. Adib qalamga olgan davrdan uzoqlashganimiz sari bu ishtibohning kuchayib borish ehtimoli ham yo‘q emas. Axir, hali uncha ko‘p ham bo‘lmadi, „sho‘ro zamonini maqtash uchun o‘tmishni

Saylanma

qoralagan“, deya Abdulla Qahhorni ayblaganlar Turobjonning bir donagina anor topa olmaganini ham ro‘kach qilmadilarmi?!. Nachora, o‘tmish haqidagi gaplarning vaqt o‘tishi barobari cho‘pchakka do‘nib borishi qonuniyat maqomida ekan-da. Bir-roq Tog‘ay Murodning yozganlari aslo cho‘pchak emas, yo‘q, bularni xalqimiz haqiqatda boshdan o‘tkazgan. Faqat butun bir millatning sho‘ro davridagi fojiasi Dehqonqul obrazida g‘oyat quyuqlashgan ifodasini topganki, unga san’at mezonlari bilan-gina yondashish lozimdir.

„Otamdan qolgan dalalar“ning, umuman, Tog‘ay Murod nasrining tili o‘ziga xos, uslubi o‘ziga xos. Sirasi, ko‘nikib ol-maguncha g‘alat ko‘rinsa ham, ehtimol. Ehtimoli nimasi, asli ham shunday-da!.. „Otamdan qolgan dalalar“ni o‘qiganda rah-matli bobomning So‘fi Olloyorni o‘qishi, o‘qishi emas, xirgoyi qilishini eslayman, beixtiyor xirgoyi qilishga o‘taman... Siz ham urinib ko‘ring-a, tilning nechog‘li jozib ekanini his qilasiz... Ha, darvoqe, tilingiz xirgoyi qilganida, qalbingiz some’ bo‘lsin: chanqovuz, nay nolalari ortidan elas-elas jang nog‘oralari – dovul sasini ilg‘aysiz, borgan sari bu sas kuchayib boradi...

... hozircha „Otamdan qolgan dalalar“ tanqidchilikda ko‘proq g‘oyaviy-mazmuniy jihatlaridan kelib chiqib baholand, uning poetik xususiyatlari, badiiy o‘ziga xosligini atroficha o‘rganish, asarning jozibasini ta’min etgan omillarni ochib berish bugun va ertaning vazifasi bo‘lib turibdi. Shunga qaramay, bir gapni dadil aytish mumkin: „Otamdan qolgan dalalar“ning janrini roman deymizmi yo boshqami, unda voqelik realistik tasvirlangan deymizmi yo norealistik, yozuvchi munosabatini tendensioz deymizmi va yo obyektiv – bulardan qat’iy nazar, u yurtimiz tarixining muayyan bosqichida vujudga kelgan badiiy fenomen, yaxshi va betakror asarligicha qolaveradi.

II

... adabiyotimizni yangilagan avlod deb aytdik. Bu yangilanish, avvalo, insonga munosabatda yuz ko‘rsatdi. Endi insonni „buyuk g‘oya“ga aloqasi yo unga qilgan xizmatidan kelib chiqib baholash emas, uni bir inson sifatida anglash, dard-u quvonchi, orzu-yu armonlarini ko‘rsatishga intilish kuchaydi. Qarasak, atrofimizda yelib-yonib yo g‘ivirsib-tutab yurgan odamki bor, bari INSON ekan – har qaysisi olam ichra bir olam ekan. Tog‘ay Murod shu oddiy haqiqatni ko‘pchiligidan avvalroq anglagan, kal chavandoz yoki befarzand qariyalarning o‘y-tashvishlari, dard-armonlari, tuyg‘u-kechinmalar ancha-munchadan qolishmaydi, „kichik odam“larda-da katta qalb bo‘ladi, degan aqida bilan ijod maydoniga kirgan ekan ...

Botir firqani ko‘pchilik „Qizil“, deb so‘kadi, uning uchun faxr bo‘lgan ordenlarni uloqtirishni, e’tiqod qilib, yashab o‘tgan umrining mazmuni sifatida har vaqt yonida iftixor bilan olib yurgan partbiletni yoqishni talab qilishadi...

„Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi“ romani xuddi shunday – minglab „botir firqalar“ oyoq qo‘ygan zamin birdan yo‘qolib, o‘tmish va kelajak orasida muallaq turib qolgan bir davrda yozilgan...

Tog‘ay Murodning hech bir asarida „qizillik“ ko‘rilmagan, u hech vaqt „qizil“ bo‘lgan emas. Shunday ekan, u ham ko‘p qatori Botir firqani yerparchin qilsa, bundan o‘z vaqtida mo‘maygina siyosiy dividend olaqolsa bo‘lmasmidi? Bo‘lmas ckanki, Botir firqada bir inson fojiasini ko‘rishga intilgan-da... chinakam san’atkor uchun g‘oya emas, inson birlamchi degan e’tiqod bilan qalam tebratgan-da, axir...

....„oldin bahor – oxir xazon bo‘ldi“, nima bo‘lganda ham, Botir firqa umrini yashab o‘tdi: Botir qo‘shchi edi – „Botir firqa“ bo‘ldi, so‘ngra „o‘rtoq Esonov“ bo‘lib davr surdi: kimga-

Saylanma

dir yaxshilik qildi, kimgadir yomonlik; nimadir qurdi, nimanidir buzdi... – barini elga xizmat qilyapman, el uchun qilyapman, el saodati uchun qilyapman, degan ishonchda qildi. Kun kelib, xizmatlari bir pul bo‘ldi: yov qochgach, ko‘paygan botirlar uni „qizil“ dedilar, millatning dushmani dedilar...

Axir, „Siz kimning surriyotini bozorga olib chiqqanizingizni bilyapsizmi?“ – deya eshonzodalar fojiasiga kuygan ham, „Shugina bir... go‘dakni boqib bo‘lmay qoldimi?“ – deya el ahvolidan yuragi sel bo‘lgan ham, „aziz zotlarni bevasi, juda tabarruk zotlarni surriyoti“, deya ularni NKVDchilardan tilab olgan ham Botir firqa emasmi?! Qarang-a, Saidxo‘ja eshon xonaqosi buzilganida: „El-yurt nafas yutdi. El-yurt suv sepmishday jimjit bo‘ldi. El-yurt aza tutdi“, xolos... Botir firqa bir tadbir qilmoqchi bo‘lganida, „Faol zoti bor – o‘zini olib qochdi“, – bejiz emas. Botir firqa „yakkash o‘zi o‘yladi. Bir eskicha, bir yangicha o‘yladi. Eskicha bilan yangichani qo‘shib o‘yladi“ va „yurak yutib... bir ishga qo‘l urdi“: xonaqoning „mumtoz ustalar“ yasa-gan darvoza-derazalarini o‘tinxonaga yashirdi...

„O‘zingiz qanday bo‘lsangiz, sizga shundoq amirlar qo‘yilur“, deyiladi muqaddas bitiklarda. Yashirib nima qildik, yov qochgach, hammamiz-da botirlandik va... borki kulfatlar uchun aybni kechagi kunning yurt og‘alariga yukladik-qo‘ydik... O‘zni aybdor his qilish og‘ir, o‘zgani ayblash oson – ko‘ngilni xotirjam etdik go‘yo. Tog‘ay Murodning bezovta qalbi bunga ko‘nmadi, ko‘nolmadi...

Bejiz emas, dedik... bejiz demadik...

Botir firqa ochlikdan nobud bo‘lgan hamqishloqlari haqiga duo qilishga chog‘landi va shu on yonida NKVDchilar borligini eslab, sezib qolishmadimi, deya hadikda qoldi... Botir firqa ocharchilikka qarshi g‘aroyib kurash usulini ko‘rib, „O‘z el-yurtingiz emasmi, odamga pitcha botar ekan. Uncha-muncha malol kelar ekan“, deya ojizgina e’tiroz qildi, dilidagining ozrog‘ini tiliga chiqardi. Biroq NKVDchilar bu „Sovet hukumatining buyrug‘i! Sovet hukumatining xohish-irodasi! Yoki sovet

hukumatidan norozimisiz?“ – deya uni darhol o‘ziga keltirishdi:
„Ana shunda, Botir firqa bir seskanib oldi“...

Seskangani gunohmi? Darhol o‘zini o‘nglab, qaddini tik tutgancha “Yashasin, Sho‘ro hukumati!“ – deya tantanavor hayqirgani aybmi?.. Ayplashga haqlimizmi?.. Dadil bir narsa deyish qiyin: bu o‘rinda har kimning hukmi o‘zicha to‘g‘ridir, balki?! Ehtimol, biroq shu o‘rinda bir qiyos o‘tkazgim keldi. Murtadlik – dindan qaytish, eng og‘ir gunoh sanaladi. Shariatga ko‘ra, murtad o‘limga mustahiq. Lekin agar kishi o‘lim xavfi oldida noiloj dindan qaytgan bo‘lsa, bu jazoga mustahiq emas; agar o‘lim xavfi oldida ham dinidan qaytmasa, o‘limni tanlassa, u shahid maqomidadir... Bu-da bir diniy qadriyat. Bas, mustabid tuzum qurbanib bo‘lgan shahidlarga hurmatimiz shunga mos-u, omon qolganlarga munosabatimiz zid kelib qolmayaptimi?!

Tog‘ay Murod qahramoniga evrilib ko‘rdi, Tog‘ay Murod qahramoniga yog‘ilgan ta’na-malomatlarni o‘z tanasida sinab ko‘rdi... Tog‘ay Murod qahramoniga evrilgan chog‘i taxminan shunday o‘yladi, shu boisgina bizning o‘y-mushohadalarimizni ham shu o‘zanga soldi, sola bildi...

Qabristonlarni ziyorat qilib turish buyurilgan bizga. Bejjiz emas. Qabriston – o‘tmish bilan kelajakni tutashtirgan joy: hammamizning ajdodlarimiz shunda, hammamizning borar joyimiz – shu. Qabriston dunyoning foniyligini, inson umri juda qisqaligini, kishi o‘z amallari uchun ham o‘tmish, ham kelajak oldida birdek mas’ulligini eslatib turadi...

Botir firqa ruhiyatidagi burilish, yangilanishda qabriston ziyoratlari hal qiluvchi turtki bo‘ldi... Janozasiz ko‘milgan „ray-kom To‘raqulov“ qabri boshidagi beo‘xshov tilovati, „ho‘ng ho‘ng yig‘lab qo‘ya bergani... o‘kirib-o‘kirib yig‘lab qo‘ya bergani“ – Botir firqaning tazarrusi, qo‘lidan kelgancha amallagan tavbasi.

Tilovat asnosи „o‘rtoq Yagoda qilichlaridan aylanib o‘tgan, Yejov o‘qlariga chap bergen, Beriya qamoqlaridan eson-omon

o‘tgan“ Botir firqa „urush-urush“ o‘ynagan bolalarni KGB fahmlab dahshatga tushdi... Bejiz emas: „ilon chaqqan kishi ola arqondan qo‘rqadi“... zarb izlari kaltaklangan tanadan ketar-u, kaltaklangan ruhdan aslo ketmaydi. Botir firqa muttasil qo‘rquvda yashadi, shu qo‘rquv uni dilidagi norozilikni o‘ldirib yashashga ko‘niktirdi. Sobiq raykom To‘raqulovni partiyaviy dafn etish haqida partiyaviy topshiriq olganida, ko‘ngli bunga oson-gina ko‘ngan emas: tuni bilan uxlayolmay chiqadi, lekin... ertasi marhumni janozasiz ko‘mdiradi...

Insonda tanlov imkoniyati hamisha bor... Aytaylik, Botir firqa-da muttasil qo‘rquv ostida yashash yoki tik turib o‘lish imkonlari mavjud edi. Firqa birinchi imkonni tanladi. Tog‘ay Murod tanlash uning haqqi deb biladi, qoralamaydi – tasvirlab ko‘rsatadi: o‘quvchisi qarshisida tanlov imkoniyatini yaratib, e’tiqodiga sodiqligi-cha shahidlik yo‘lini tutganlar ko‘paysa, deya umidlanadi...

... ma’ni deganlari juda serqirra narsa: qay tarafdan qarama, uning qator qirralari nigohingdan pinhon; qay tomondan qarasang, shunga mos qirralari ko‘z oldingda namoyon: hamma qirralarni birdan va birdek ko‘ra olish odam bolasining chekiga tushmabdi. Roman finalini o‘zimcha angladim, o‘zimcha mag‘zini chaqqan bo‘ldim...

Botir firqa ekkan chinorlar qo‘porib tashlandi, Botir firqa yaratgan bog‘ o‘rnidan Buyuk ipak yo‘li o‘tar bo‘ldi... Umr beiz ketdi – umr beiz ketmadi... el o‘sha chinorlar soyasidan bahra olgan, bog‘ mevalaridan elning og‘zi chuchigan... E-voh, soya o‘tkinchi, tot o‘tkinchi... – umr beiz ketdimi?.. Alhazar... buna-qada nafaqat Botir firqa, umuman, inson umri ma’nisz, benaf bo‘lib chiqmaydimi?! Yo‘q, Botir firqa bunga ko‘nmaydi... aniqrog‘i, Tog‘ay Murodning bezovta qalbi bunga ko‘nmaydi, ko‘nolmaydi – u javob izlaydi, o‘rtanib javob izlaydi, yuragi yonib, jizg‘anak bo‘lib javob izlaydi... Izlagan – topadi: Botir firqa ham javob topdi, to‘g‘rirog‘i, uning vositasida Tog‘ay Mu-

rod javob topdi. Ruhiy iztiroblari adog'ida o'zi izlagan ma'niga yaqinlashgan Botir firqaning holatini ko'ring:

„joni achidi... tani kuydi“ – „tan-joni... shodlandi“;

„ichi kuydi“ – „ichi kuldi“;

„ko'zlarida qayg'u bo'ldi“ – „ko'zlarida bayram bo'ldi“.

Botir firqa o'zi uchun „biz ekkan chinorlar... Buyuk ipak yo'li bo'ldi“, degan haqiqatni kashf etdi, „biz endi Buyuk ipak yo'lida yuramiz“, deya faxr etdi. Avvalgi „biz“ boshqa, keyingisi boshqa. Avval u o'zini tamom ortiqcha sezgan, o'zini el-dan ajratgan edi – endi qo'shilyapti, uni „qizil“, deya chiqitga chiqarmoq bo'lishgandi – chiqarolmadilar: „odamning chiqiti bo'lmaydi“; uni songa qo'shdilar – u qayta tirildi...

Ha, har qanday amal... ezgu niyat bilan qilingan amal-da o'tkinchi, uning mahsuli-da o'tkinchi, faqat EZGU NIYATning o'zigma sobit, shuning o'zigma boqiy. Ezgu niyat – avlodlar orasidagi ko'rmas zanjir, ezgu niyat o'tmish bilan bugun va ertani birlashtiradi – hammamizni, hech bir „chiquit“ siz bitta tomirga mansub etadi. Ezgu niyat elni, millatni xalq qiladi, ezgu niyat atrofida birlashsagina Buyuk ipak yo'lida millatning yo'li unadi... Tog'ay Murod anglagan ma'ni – shu, to'g'rirog'i, uning kaminaga ayon bo'lgan qirrasi – shu...

III

Tog'ay Murod ezgu niyatlarni diliga tugib ijod qildi...

Tog'ay Murod ezgulik mavqeyida mustaqim bo'lishga intildi...

Tog'ay Murod ezgulik urug'larini qalblarimizga sochib ketdi...

O'zida polvonlarga xos tantilik, shoirlarga xos injalik, darveshlarga xos g'aroyiblik, el-yurtiga, farzandga xos beg'araz muhabbatni jam etgan o'zbekning katta adibidan meros ikki romanning qayta nashri barchamizga muborak bo'lsin...

Dilmurod QURONOV,
professor, filologiya fanlari doktori

*„Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi –
Ozod O'zbekiston uchun bitdim“*

Muallif



BIRINCHI BOB

1

Men farg‘onachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo‘laman.

2

Bobomiz hovlisi Farg‘onada bo‘ladi.
Dalasi Farg‘ona adog‘ida bo‘ladi.
Bobomiz dalasi oldidan bir ariq suv oqadi.
Suv gavhar zilol-gavhar zilol suv bo‘ladi.
Suv egilmish tollar majnun-majnun sollanadi.
Ariq o‘ngida shahardan kelajak yo‘l bo‘ladi.
Yo‘l ariq yoqalab o‘tadi. Yo‘l majnuntol soyalab o‘tadi.
Bobomiz ana shu yo‘ldan sahar-sahar dalalaydi.
Tolga xurjun iladi. Tahorat oladi. Qiblatib belbog‘ yo-
yadi.

Cho‘lpon yulduz poyida qulqoq qoqadi. Cho‘lpon yulduz
poyida sajda etadi.

3

Bobomizda nima bo‘ladi – ketmon bo‘ladi. Ketmon
emas – bir baloyi bad bo‘ladi!
– Jamoliddinni ketmoni dalasiday keladi! – deydi el.
El qayerda qanday ulkan nima ko‘rsa bo‘ldi – bobomiz
ketmoniga nisbat beradi.
– Ol-a, Jamoliddinni ketmoniday keladi-ya! – deydi el.

4

Bobomiz urmish ketmonni o‘zidan o‘zga yerdan tortib
ololmaydi.

Bobomiz kalima qaytarib-qaytarib ketmon chopadi. Xudoni yodlab-yodlab ketmon chopadi. Xudoga shukrona aytib-aytib ketmon chopadi.

Yo'ldan o'tkich-ketkichlar bobomizga hormang etadi.

Bobomiz yo'lga qiyo-da boqmaydi. Daladan bosh ko'tar-mayin bor bo'ling, etadi.

Shu bois, yo'ldan kim o'tadi-kim ketadi – bilmaydi. Bil-gisi-da kelmaydi. Kim bo'lsa-da – bir mo'min, musulmon-da, deydi.

5

Saraton jingirtob-jingirtob kuydirmish bir mahal yo'ldan ajabtovur ovozlar eshitiladi.

Ajabtovur ovozlar o'z yo'lida keta beradi. Bir og'iz hor-mang etmaydi.

Shunda, bobomiz ketmonini yer botiradi. Engashmish ko'yi tizzalariga kaft tiraydi. Yer ostidan yo'lga ko'z tash-laydi.

Bobomiz ko'zimga ter tomdi-yov, deya o'ylaydi. Qo'li yuzi bilan ko'zlarini artadi.

Bobomiz boshqatdan qaraydi.

Vo darig'o, shu ko'rinnish ajina bo'ldimi? Ha, yo'g'-a! Umri shu dalada o'tdi – bir nima-da ko'rmadi.

Yo, shu ko'rinnish tush bo'ldimi? H-a, yo'g'-a! O'lik-ti-rik sergak vaqt-a!

Musichalar uzib-uzib ku-kulaydi.

Kun yonadi.

Saraton sap-sariq tovlanadi.

O'tkinchi balolar saratonday sap-sariq bo'ladi.

Saraton balolardan sariq bo'ladi, balolar saratondan-da sariq bo'ladi.

Bobomiz qad rostlab qaraydi. Yo'lga betma-bet bo'lib qaraydi. O'ng kaftini qoshi uzra soyabon qilib qaraydi.

Bobomiz pichir-pichir kalima qaytaradi. Ketmonini yelka ola-ola qadamlaydi.

Ariq labida yuvinib-chayinadi. Xurjunidan tushligini ola-di. Ariq bo'yida yoyadi.

Bobomiz chordona qurib o'tiradi. Ariqqa non botirib-non botirib tushlik qiladi. Ariqdan qo'shhovuchlab-qo'shhovuch-lab suv olib tushlik qiladi.

6

Kun qiyomdan qiyom bo'ladi.

Yo'ldan Salohiddin bo'yrachi o'tadi. Bobomiz bo'yrachi-ni gapga soladi.

– Sizdan oldin ashiyoqqa bir balo o'tdi, – deydi bobomiz.

Salohiddin bo'yrachi ariq o'ngida oyoq iladi.

– Ajina bo'lib ajina bo'lindi, odam bo'lib odam bo'lindi, – deydi bobomiz.

Bo'yrachi ariq bo'yida soyalaydi. Bobomiz bilan muqobil bo'ladi.

– Ko'rdirim, Ketmon, ko'rdirim, – deydi bo'yrachi. – O'zimni yo'ldan chetga olib turdim.

– Nega-nega?

– G'ayridinlar bilan yo'lim bir bo'lmasin, dedim-da.

Bizning ko'chamizda g'ayridinlar... ycb yuribdimi?

– E-e, Ketmon, Ketmon. Senga ketmon bo'lsa bo'ldi. Sen ham odamday bo'lib, ketmondan bosh ko'tarsang ekan, dun-yodan xabardor bo'lsang.

– Mana, ketmondan boshimni olib o'tiribman?

– Qorning ochgandir-da. Bo'lmasa, ketmondan bosh ko'-tararmiding.

Salohidin bo'yrachi shunday deya, yo'l bosh-adog'iga qarab oladi. Bobomiz oldiga lik etib sapchib o'tadi. Bobomiz qabatiga cho'kadi. Bobomiz bilan yelkama-yelka bo'ladi.

– Farg'onag'a Oqposhsho keldi, – deya pichirlaydi.

– Mullalar Oqposhsho bizni ololmaydi, deyatib edi-yu?

– Olibdi-da.

– Qo'qondan Olimquli lashkarboshi Chimkanga lashkar tortib ketibdi, deyatib edi-yu?

– Olibdi, olibdi. Ololmas ekan-u, Buxoro amiri Muzaffarxon o‘tirib qo‘yibdi. Olimquli lashkarboshi Chimkanda Oqposhsho yelkasini yerga tekkizibdi. Oqposhsholilarni bitta qo‘ymay qilichdan o‘tkazmoqchi bo‘lib tursa, Muzaffarxon bizning Qo‘qonga daf‘a qilibdi.

– Bo‘laman degich el, bir-birini botirim deydi, bo‘lmayan degich el, bir-birini etini yeydi.

– Olimquli lashkarboshi g‘azot maydonini tashlab, o‘zimizning Qo‘qonni o‘zimizning Buxoro amiri bilan mudofaa-lash uchun qaytib kelibdi. Oqposhsho bundan foydalaniibdi. Chalajon oq lashkarlar tag‘in daf‘a qilibdi. Oldin Chimkanni olibdi, keyin Toshkanni olibdi.

– Ha, tavqi la’natlar! Toshkanniyam olibdimi-a?

– Olibdi, Toshkanniyam olibdi. Saidazimboy degich savdogar boy Oqposhshoga Toshkanni sotibdi. Toshkanda Kaykovus degich ulkan bir ariq bor ekan. Toshkan yolg‘iz ana shu Kaykovusdan suvlar ekan, Saidazimboy Oqposhshoga ana shu Kaykovusni chippa bo‘g‘ib, Chirchiqqa burib yuborishni maslahat beribdi. Oqposhsho Saidazimboy gapi bilan Kaykovusni chappa qayrib, Chirchiqqa oqizibdi. Ana shundan Toshkan qirq ikki kecha-kunduz suvsiz qolibdi. Xalq holdan toyib, Toshkanni mudofaa qilolmay qolibdi. Oqposhsho saharlayin Toshkanni bosibdi.

– Il-a-bila, Qo‘qongacha kelibdimi-a?

– Toshkan bilan Qo‘qon orasi ikki qosh oralig‘iday keladi. yetib keladi-da. O‘zimizning Qo‘qon xoni he yo‘q, be yo‘q, shahar darvozasini ochib beribdi. Marhamati uchun Oqposhshodan „Aslzoda“ faxriya unvoni olibdi, nishon olibdi...

Bobomiz chaparasta-chaparasta so‘kadi:

– He, ena...!

Xudo bermish kun bo‘ladi – yo‘lda Oqpodsho bo‘ladi.

Bobomiz Oqpodshoga ket burib ketmon chopadi. Bobomiz Oqpodshoga ters bo‘lib ketmon chopadi.

Bobomiz Oqpodsho betini ko'rmayin-da, kuymayin-da, deydi.

Oqpodsho arava minib o'tadi. Oqpodsho soz chalib o'tadi. Oqpodsho ashula aytib o'tadi. Oqpodsho hushtak chalib o'tadi.

Bobomiz shunda-da Oqpodsho betiga qayrilib qaramaydi. Enkaymish ko'yi butlari orasidan mo'ralaydi.

Oqpodsho oyoqlari osmonda bo'lib ko'rindi, boshlari yerda bo'lib ko'rindi.

Oqpodsho olabo'ji bo'lib ko'rindi!

Bobomiz tushlikda-da Oqpodshoga ket burib o'tiradi.

Dalasiga yuz solib-yuz solib tushlik qiladi.

Oqpodsholik arava ariq yoqasida oyoq iladi.

Aravadan tap-tap Oqpodsho tushadi.

Bobomiz Oqpodsho tarafga ko'z qirida qaraydi. Shunda ajab sinoat ko'radi.

Bir juft oqbadan-oqbadan olabo'ji dala oralab boradi. Oldin-ketin boradi. G'oz-g'oz boradi.

Oqbadan olabo'jilar boradi-boradi – dala kindigida oyoq iladi. G'oz turadi-turadi – uzala tushib yotib oladi.

Bobomiz ko'zlarini yumib-ochib qaraydi. Bobomiz ko'zlarini pirpiratib qaraydi.

– Yo, tavba-a! – deydi.

Bobomiz ohista-ohista to'rkaladi. Ketmonini yelka oladi. So'qmoq bo'ylab boradi.

Bobomiz bir kapa joyni kaftday pollab edi. Tuprog'ini kaftlarida ezib-ezib maydalab edi. Kepakday-kepakday mulo-yimlab edi. Kepak tuproqqa don sepib-sepib tashlab edi. Chumchuq terib ketmasin deya, kepak tuproq uzra un misol tuproq sepib-sepib qo'yib edi.

Ana shu kepak tuproqda, ana shu un tuproqda bir juft Oqpodsho yalpayib-yalpayib yotadi!

Oqpodsho qip-yalang'och yotadi! Oqpodsho onadan endi tug'il mishday yotadi!

Erkakzot Oqpodshoda aqalli bir enlik lungi bo'lmaydi.

Ayolzot Oqpodsho mammalari osma qovunday-osma qovunday osilib yotadi.

Bobomiz bilaklari bilan betlarini bekitadi.

– Iyya-iyya! – deb chappa buriladi. Oqpodsholar ana shunda kalla ko‘tarib qaraydi. Yonbosh yotib qaraydi. Ko‘z qisib qaraydi. Erkakzot Oqpodsho kaftida tuproq o‘ynaydi.

– Tuprog‘ingni biz uchun muloyimlab qo‘yibsan, minnatdorchilik bildiramiz, – deydi.

– Yurib-yurib, oxiri sening tuprog‘ingni tanladik. Baxting bor ekan, – deydi ayolzot Oqpodsho.

– O‘ziyam bizbop tuproq bo‘libdi-da.

– Ana endi, quyoshda mazza qilib toblanib yotamiz.

– Nima uchun yuzingni yashirasan? Sen ham quyoshda toblan.

Bobomiz shu zayli lo‘killab-lo‘killab qayta beradi.

Bobomiz ariq labida muztar bo‘lib-muztar bo‘lib o‘tiradi. Betlarini changallab-changallab o‘tiradi.

Bobomiz nima ko‘rdi, qachon ko‘rdi – aqli-da bovar etmaydi.

Oqpodsholar joyidan jiladi. Dalani qoq oralab keladi. O‘zlarini suvga tashlaydi.

Oqpodsholar suv shaloplastib-suv shaloplastib cho‘miladi.

Oqpodsholar bobomizga taqlidan bilaklari bilan betlarini bekitadi.

– Iyya-iyya! – deya, bobomizni mayna etib-etib suv g‘arqob bo‘ladi. – Iyya-iyya! – deya xoxolashib-xoxolashib suv g‘arqob bo‘ladi.

Oqpodsholar qiyqirib-qiyqirib cho‘miladi.

Tollarda tushlamish chumchuqlar gurr-gurr uchadi.

Gavhar suv bo‘tana bo‘ladi.

Shu-shu bo‘ladi – bobomiz dalasi yuzini qaytib ko‘rmas bo‘ladi.

– Toqqa ketaman, – deydi bobomiz. – Tog‘dan yer olaman.

-
- Tog‘ olis-da, – deya ming‘illaydi momomiz.
 - Olis bo‘lsa bo‘lar. Ana, tog‘dan yer olib ishlayaptilar. O‘lib qolmayaptilar.
 - Endi deyman-da, olisni sho‘rvasidan yaqinni yovg‘oni, deyman-da.
 - Dalamda musulmon oyoq bosar yer qolmadi. Dalamda dehqon oyoq bosar yer qolmadi. Bo‘ldi, endi qaytib oyoq bosmayman.
 - Dalada nima ayb.
 - Kofir yumalab yotar dalada fayz qoladimi? Momomiz quvvatlamish bo‘lib bosh irg‘aydi.
 - Tanasida mana muncha libosi bo‘lsa, o‘lsin agar! – deydi bobomiz. – Bir joylari dalamda mana bunday dirkillab turibdi!
 - Momomiz og‘zini ushlab-ushlab kuladi.
 - Bir yotsa, yotibdi-da.
 - Bo‘ldi, endi u daladan baraka ko‘tarildi.
 - Bosib-bosib suvlang. Suv nimalarni yuvmaydi.
 - Suv? Suv qoldimi! Oq to‘ng‘izday ariq ag‘nay berib, suvni-da haromladi! It-da ariq labidan yalab-yalab suv ichadi! Oqpodsho bo‘lsa, oq to‘ng‘izday ariq ag‘nadi!
 - Momomiz gap bilan andarmon bo‘lib bilmaydi.
 - Ko‘ylak etaklari yig‘iladi-yig‘iladi – tizzalab boradi. Tag‘in yig‘iladi-yig‘iladi – tizzadan sonlab-sonlab boradi.
 - Momomiz lozim ulog‘lari namoyish bo‘ladi. Bobomiz bo‘sh piyolani zarda bilan to‘ntarib tashlaydi. Lik etib joyidan turadi.
 - Etagingizni yopsangiz bo‘lmaydimi? – deya o‘shqiradi. – Nima, Oqposhshomidingiz?

9

Bobomiz tog‘lab borolmay qoladi.
Hufton vaqtি-hufton vaqtি guzardan achchiq-achchiq baqiriq-chaqiriq keladi.
Bobomiz nima gap, deya chopqillab-chopqillab boradi.

Guzar olato‘ polon bo‘ladi. Guzar olatasir bo‘ladi.

– G‘azot, g‘azot!

– Muhoraba, muhoraba!

Bobomiz o‘z dardini o‘zi tuyadi. Bobomiz o‘z kuyigini o‘zi tuyadi.

Gap yo‘q, so‘z yo‘q – qinidan pichog‘ini oladi.

Birov pichoq oladi. Birov tayoq oladi. Birov tosh oladi.

El oqkaltak-qorakaltak bo‘ladi.

El mulla Namozni oppoq kigiz soladi. Kigiz to‘rt burchi-dan oladi.

El kigiz ko‘tarib-ko‘tarib takbir aytadi. El kigiz ko‘tarib-ko‘tarib zikri samo‘ aytadi.

El ushbu kigizdayin oppoq ot yetaklab keladi.

El mulla Namozni ana shu oppoq kigizdan ana shu oppoq otga mindiradi.

– Pirim, yo‘l boshlasinlar! – deydi.

Mulla Namoz oq otda kaft ochadi.

El yoppa baraka omin qiladi.

Mulla Namoz oq otda yo‘l oladi.

El ko‘tariladi. El oq otliq ketidan yo‘l oladi.

Yo‘lda ushoqday Ibodin soqov qatiq sotadi. Elga kadida qatiq tutadi. „Ap-ap-ap“, deydi.

„Qatiqdan ichib ketinglar, qatiqdan“, demoqchi bo‘ladi.

Alvir-shalvir Ibodin soqov Hayotxon degich momoning yolg‘iz o‘g‘li bo‘ladi. Tug‘ma soqov Ibodin iljayib-iljayib yuradi. Baqrayib-baqrayib yuradi.

Yolg‘iz o‘g‘il Ibodin, soqov o‘g‘il Ibodin, qatiq sotib ona boqadi.

El Ibodin soqovni aylanib o‘tadi. El Ibodin soqovni yo‘ldan qoch, deya turtib o‘tadi.

Ibodin soqov keti bilan o‘tirib qoladi.

Bobomiz ushoqday Ibodin soqovni dast ko‘tarib, chet ola-di. O‘ngiri bilan bet-boshini artadi. Qatig‘ini bir ko‘tarish-da ichadi. Qo‘liga chaqa beradi. Yelkasiga qoqa-qoqa uyiga jo‘natadi.

El Oqpodsho qarorgohilab kelgunichayin olaqaroq tun bo'ladi.

El o'qlog'day-o'qlog'day cho'yan panjaralar bilan o'ral-mish qarorgohni o'rabi oladi.

Oq otliq qarorgoh eshididan ot qo'yadi.

Oqkaltak-qorakaltak el-da o'zlarini eshik uradi.

Eshikog'alar dang qotib qoladi. Otishlarini-da bilmaydi, otmaslarini-da bilmaydi.

Eshikdan boshlab qon to'kiladi.

El ikkita eshikog'ani-da pichoqlab o'ldiradi.

El ichkarida oyoq uzatib yotmis Oqpodsholarni joyida bosadi.

El Oqpodshoni bo'g'ib-bo'g'ib o'ldiradi. El Oqpodshoni bo'g'izlab-bo'g'izlab o'ldiradi. El Oqpodshoni pichoqlab-pichoqlab o'ldiradi.

Qarorgohda tirik jon qolmaydi.

Ana endi qarorgohga o't qo'yib yuborajak bo'ladilar.

– Minba'd, musulmonlar, minba'd! – deya amr beradi oq otliq. – Bu imoratni Oqposhsho Peterburgdan olib kelmadi! Bu imorat o'zimizning imoratdir! Onqadarkim, Oqposhsho kelib joylashib oldi! Shunday ekan, minba'd imoratga ziyon bermangiz.

El tutantiriqni oyoq ostiga tashlaydi. Tepkilab-tepkilab o'chiradi.

– Musulmonlar – zafarona deydi oq otliq. – Mana, Oqposhshoni yer bilan yakson etdik! El-yurtimizni Oqposhsho-dan ozod etdik! Alhol, endi o'z yurtlaringizga o'zlarining bek bo'lib kun kechirgaysizlar!

El shod-xurramligini shoyi etish uchun karnay-surnay yo'qlaydi. Zim-ziyo tunda karnay-surnay qani?

Shunda el hovuchlari bilan karnay chaladi. Hovuchlari bilan surnay chaladi. Hovuchtari bilan sibizg'a chaladi.

G'aflatda yotmishlar uylaridan tashqarilaydi. Alang-jalang bo'ladi.

– Nima bo'ldi? – deydi.

El zafarlarini shoyi etadi:
– O‘z yurtimizni qaytib oldik!
– Oqposhshoni pichoqdan o‘tkazdik!
El ana shunday kayfiyatda tarqaladi.

10

Oqposhsho keladi – ana endi keladi!
Farg‘onani Oqpodsho bosadi.
Oqpodsho shahar oralaydi.
Shaharda tirik jon bo‘ladi – guzar haydaydi.
Oqpodsho bobomiz uyini-da bosadi. Momomiz bilagidan
olib otadi.
Momomiz jalp etib tashqari tushadi.
Momomiz uvvos-uvvos yig‘laydi. Momomiz yer tayanib
turayin, deydi – turolmaydi.
Oqpodsho momomiz sochidan buraydi. Oqpodsho momo-
miz sochidan sudraydi.
Momo yer quchib-quchib yig‘laydi. Momomiz yer tirnab-
tirnab yig‘laydi.
Momomiz qopqora qaqlaydi.
– O‘ldim, o‘ldim-a!.. – deya vovaylo etadi.
Momomiz nimkala soz-nimkala soz oyoq oladi.
Momomiz munkib-munkib odimlaydi. Momomiz al-
pon-talpon odimlaydi.
Ketidan ushoq o‘g‘lonlari iyaradi.
Oldilaridan Ibordin soqov kelib qoladi. Qo‘ltig‘ida bir
kadi qatiq bo‘ladi.
Ibordin soqov elga iljayib-iljayib o‘tadi. Ibordin soqov Oq-
podshoga baqrayib-baqrayib o‘tadi.
Oqpodsho birov-biroviga qarab oladi. Ajabona-ajabona
yelka qisadi.
– Ey, chuchela, yo‘l bo‘lsin? – deydi. Ibordin soqov ilja-
yib-iljayib o‘ta beradi.
– Ey, chuchela, senga aytayapman??!

Ibordin soqov Oqpodshoga qayrilib-da qaramaydi. Baqrayib-baqrayib o'ta beradi.

Oqpodsho otini yo'rttirib boradi. Ibordin soqov oldini oladi.

Ibordin soqov ot tumshug'iga iljayib qaraydi. Otliq podshoga iljayib qaraydi. Otliqni aylanib o'tarman bo'ladi.

Shunda, boshqa bir otliq to'g'anoq bo'ladi.

Ibordin soqov bir o'ng otliqqa iljayadi, bir chap otliqqa iljayadi. Bo'sh qo'lini guzar taraf „nish“ etadi. „U-u-u“, deydi:

„Hay, anavi guzarga ketayapman“.

So'g'in, qo'ltig'idagi qatiqqa ishora beradi:

„Qatiq olib ketayapman“.

Oqpodsho qatiqqa egilib qaraydi.

– Qatig'ini olib ichamizmi? – deydi.

– Qo'y-ye, bularni qatig'ini ichib bo'ladimi!

– Kim biladi, enasini sog'ib qatiq qiladimi!

Oqpodsho qamchi sopini Ibordin soqov peshonasiga muqilaydi.

– Oldimga tush! – deya zug'umlaydi.

Ibordin soqov elga bir qarab oladi. Boshini sarak-sarak etadi. „Pa-pa-pa“, deydi:

„El oldidan o'tdim, biroviyam qatiq so'ramadi“.

Ibordin soqov iljayib-iljayib tura beradi. „Av-av-av“, deydi:

„Endi guzarga boraman. Guzarda qatiq ketadi“.

Oqpodsho kadiga egilib qaraydi. Qatiqqa tupuradi. Balg'amlab-balq'amlab tupuradi:

– Tuf, ah, tuf!

Oqpodsho etik uchi bilan Ibordin soqov iyagiga turtadi.

– Bo'ldimi, chuchela? – deydi. – Qani, endi yur.

Ibordin soqov bir qatiqqa qaraydi, bir Oqpodshoga qaraydi. Lablarini buradi-buradi...ho'ngrab yig'lab yuboradi. Qatig'ini ko'rsatib-ko'rsatib yig'laydi: „Ea-ea-ea“, deydi:

„Endi, ayamga nima deyman?“

Ibordin soqov yig'laydi-yig'laydi... qatig'ini Oqpodshoga sepib yuboradi. Zabt bilan uyi taraf qochadi.

– To‘xta, chuchela!
To‘xta deyman!
Ibordin soqov pir-pir chopib qo‘ya beradi.
Shunda, Oqpodsho miltiq peshlaydi. Ibordin soqov chuydasini ko‘zlaydi.
O‘q dol nishonlaydi.
Juldur-juldur Ibordin soqov chalpak bo‘lib uchadi.
Oqpodsho ot yo‘rttirib boradi.
Irkit-irkit Ibordin soqov yuzlari iljaya-iljaya so‘ladi.
Irkit-irkit Ibordin soqov ko‘zlar baqraya-baqraya so‘nadi...
„Endi... ayamga nima deyman?“

11

Yormozorda muhtasham bir masjid-madrasa bo‘ladi.
Oqpodsho mo‘min-mazlumni ana shu Yormozor masjid-madrasa qoshida to‘dalaydi. Mo‘min-mazlum mung‘ayib-mung‘ayib turadi. Mo‘min mazlum jovdirab-jovdirab turadi. Mo‘min-mazlum bir-birovi ko‘ksiga yig‘laydi. Mo‘min-mazlum bir-birovi yelkasiga yig‘laydi.
Mo‘min-mazlum uzun kun ana shunday turadi.

12

General Skobelev kunbotarda tashrif etadi.
Shaqqovatpanoh to‘ralar bilan falokatmaob hokimlar hamrohligida keladi.
General Skobelev mo‘min-mazlum uzra qahr bilan karilaydi:

– Sart-sobakalar – deydi. – Oralaringdan bir nobakor sart olampanoh oliy hazratlariga qo‘l ko‘tardi! Ig‘tisho ham isyon qildi! O‘rusiya saltanatining o‘nta muazzam askarini shahid etib, g‘oziy bo‘ldi! Ul nobakor – mulla Namozdir! Mulla Namoz osiy bo‘ldi! Mulla Namoz bog‘iy bo‘ldi! Biz ul osiy ham bog‘yni bugun topolmadik, erta-indin, albatta, topamiz! Siz ul nobakorni topishda olampanoh oliy hazratlariga madad

beringiz! Qo‘rqmangiz, olampanoh ul osiy ham bog‘iy banda qonidan kechadi!

Mo‘min-mazlum sukutda qoladi. Mo‘min-mazlum nafas yutadi. General Skobelev karr-karr etadi:

– Osiylik ham bog‘iylik kimdan qo‘zg‘oldi – bilamiz! Ammo bu nonko‘rlik qayerda qo‘zg‘oldi? Javob beringiz! Polkovnik Chaykovskiy.

– Labbay-labbay?

General Skobelev ketida mulla mushuk bo‘lib turmish Chaykovskiy lip etib olg‘a o‘tadi.

– Labbay, taqsir, labbay? – deydi.

– Aytingiz, bu osiylik ham bog‘iylik qayerda qo‘zg‘oldi? Chaykovskiy boshi bilan muhtasham binoga imo beradi.

– Manavi choldevorxonada qo‘zg‘oldi, janobi oliylari, – deydi.

– Bu qanday choldevorxona bo‘ldi?

– Bu masjid bo‘ldi, janobi oliylari!

– Osiylik ila masjid orasida ne mushtaraklik bo‘ldi?

– Mulla Namoz ana shu masjid imom xatibi, janobi oliylari.

Osiy banda mulla Namozni oq kigizga o‘tirg‘izuvchi muridlari ana shu masjidda toat-ibodatlanadi, deysiz-da?

– Topdingiz, janobi oliylari, topdingiz.

– Masala ravshan bo‘ldi!

General Skobelev uzangi yo‘ldoshlari bilan mashvaratlashadi.

13

Oqpodsho mo‘min-mazlumni yo‘l o‘ngiga haydar o‘tadi. Oqpodsho qo‘toni aravasimon uchta to‘p sudrab keladi.

General Skobelev mo‘min-mazlum bilan to‘plar oralig‘ida turadi. Ot gijinglatib-ot gijinglatib turadi.

– Sart-sobakalar! – deydi. – O‘rusiya podsho hazratlari o‘z istibdod sultanati quvvayi qudratini ko‘z-ko‘z etmoq uchun to‘p otadi! To‘p otish bilan hamohang namoz o‘qiladi! Amr etuvchi o‘zim bo‘laman!

General Skobelev to‘pchilarga amr beradi:

– To‘plar shaylansin!

To‘plar sharaq-shuruq bo‘ladi.

General Skobelev mo‘min-mazlumga amr etadi:

– Yotilsin! Yuzlar yerga qo‘yilsin! Quloqlar yopilsin! Namoz o‘qilsin!

Mo‘min-mazlum masjidga ruku etadi. Mo‘min-mazlum yer cho‘kkalaydi. Mo‘min-mazlum peshonasini yer qo‘yadi – misoli namoz o‘qimish bo‘ladi.

– Nog‘oralar chalinsin!

Nog‘orachilar bodratib-bodratib nog‘ora chaladi.

– Otilsin!

Uchta to‘p birvarakay otadi. Gumbur-gumbur otadi. Masjid quyuq-quyuq tutunda qoladi.

– Turilsin!

Mo‘min-mazlum yerdan bosh oladi.

Mo‘min-mazlum qo‘l qovushtirib-qo‘l qovushtirib turadi.

– Otishga shaylansin!

To‘plar jangir-jungur o‘qlanadi.

– Yotilsin!

Mo‘min-mazlum tag‘in peshonasini yer qo‘yadi. Mo‘min-mazlum tag‘in qulq-chakkasini ushlaydi.

– Otilsin!

Masjid qop-qora to‘pon bo‘ladi.

Nog‘orachilar bodratib-bodratib nog‘ora chaladi.

Shunda, bir nuroniy chol mazlumni yorib-yorib oldinlaydi. Nuroniy chol yo‘lida g‘ov bo‘lmish miltiq-tig‘larni qayirib-qayirib oldinlaydi.

Nuroniy chol generalni ko‘zlab keladi. Nuroniy chol general etigiga kaft qo‘yadi.

General Skobelev etigi bilan nuroniy chol iyak-soqolidan itarib tashlaydi.

– Yo‘qol, sart-sobaka, etigimni harom etasan! – deydi general Skobelev. – Men sen sart-sobakalarni etigim poshnasi-ga olmayman!

Nuroniy chol dalbanglab-dalbanglab boradi-boradi – keti bilan o'tirib qoladi.

– Kapitan Kayshovskiy! – yo'qlaydi general. – Kayshovskiy deyman! Manavi qari sart-sobaka kim bo'ldi?

Kayshovskiy hadahalab-hadahalab boradi. General Skobelev uzangisi oldida mulla mushuk bo'ladi.

– Umarxon eshon, janobi oliylari, Umarxon eshon! – deydi.

– Eshon tugul, – deydi general Skobelev. – Muhamad Payg'ambar bo'lsayam, etigim poshnasiga olmayman!

– Ajab qilasiz, janobi oliylari, xo'p ajab qilasiz!

– So'rangiz, qari sart-sobaka nima maqsadda etigimga osiladi?

Kayshovskiy Umarxon eshonni general Skobelev uzangisi qoshida betma-bet etadi.

– Ha-a, eshon? – deya zug'umlaydi general. – Nima deysan?

Umarxon eshon qalt-qalt etadi. Umarxon eshon duduqlana-duduqlana aytadi:

– Taqsir... – deydi, – taqsir, men bir kam saksonda bo'l-dim...

– Aql yoshda emas, aql boshda, eshon! – deydi general Skobelev. – Men o'ttiz yoshimda Xivani tiz cho'ktirdim! Mana, o'ttiz ikki yoshimda Qo'qonni tariqday tirqiratdim! Saksonni urib qo'yib, sen nimani qotirding?

– Ofarin, taqsir, ofarin, o'ttizida er atangan, qirqida sher atanar, deydilar. Taqsir, men bir kam saksonda...

– Masala ravshan bo'ldi: sakson yoshimni hurmat et, dc-moqchisan-da? Eshon, tuzemetslar o'zidan bir yosh katta bo'lsayam hurmatini bajo etadi. Bobo, deydi, momo, deydi. Opa, deydi, aka, deydi. Tuzemetslar o'zidan bir yosh katta bo'lsayam siz-sizlab murojaat etadi. Tuzemetslar o'zidan yoshi kattalarga qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beradi, yo'l beradi, joy beradi. Eshon, biz Ulug' O'rusiyaniz! Ulug' O'rusiya yosh bilan qarini bilmaydi! U o'z oti o'zi bilan · Ulug' O'rusiya!

Bo‘ldi, endi tuzemetscha urf-odatlaringni yo‘q etamiz! Endi Ulug‘ O‘rusiya urf-odatlarini qabul etasan!

– Taqsir, men yoshimni peshlamoqchi emas edim. Men... sakson yoshli bir mo‘ysafid, kalom uchun ijozat tilamoqchi edim.

– Ijozat, aytingiz!

– Taqsir... Siz to‘pga tutajak dargoh masjid...

– Masjid bo‘lsa nima bo‘pti?

– Masjid Xudoyi taolo dargohidur, taqsir. Xudoyi taolo dargohidur.

– Ol-a, eshon, ol-a! Islom dini Turkistonga VIII asrda keldi, VIII asrda! Islom Turkistonda o‘n asrdan ziyod hukmronlik qildi, o‘n asrdan ziyod! Bo‘ldi, yetar endi! Endi Ulug‘ O‘rusiya hukmronlik qiladi, Ulug‘ O‘rusiya! Ulug‘ O‘rusiya Moliya vaziri Vishnegorodskiy janoblari nuktadonlik ila bashorat ctganlariday, Turkiston – O‘rusiya tojidagi oliy qimat dur bo‘ladi! XIX asr – Ulug‘ O‘rusiya asri bo‘ladi!

– Qadamlariga hasanot, taqsir, qadamlariga hasanot. Ammo-lekin masjidimizni to‘pon etsalar, mo‘min-musulmonlar qayerda fasohat ham balog‘at sabog‘in oladurlar, taqsir?

– O‘ris-tuzem maktablarida saboq olasan! Peterburgdan missioner Ostroumov janoblari kelmoqdalar! Missioner Ostroumov! Ostroumov demak – nima demak, bilasanmi? Ostroumov janoblari o‘z otlari o‘zlari bilan o‘tkir aql sohibi! O‘tkir aql sohibi Ostroumov o‘ris-tuzem maktablari dasduril-amalini tuzmoqdalar! Janob Ostroumov halizamon o‘z dasturilamali bilan kelib qoladilar! Turkistonda o‘ris-tuzem maktablari ochadilar! Sen endi o‘ris-tuzem maktablarida Ulug‘ O‘ris imlosini o‘qiysan! Sart-sobakacha itdum imlongni yondi-rib tashlaymiz! Turkiy tillarni yo‘q etib tashlaymiz!

– Bajonidil, taqsir, bajonidil, Oqposhsho hazratlari rushdu hidoyat etsalar, o‘qurmiz. Ammo-lekin mo‘min-musulmonlar masjidida nafaqat saboq oladurlar...

– Bilaman, eshon, bilaman! – cho‘rt bo‘ladi general. – Endi... cherkovda toat-ibodat etasan! Masjidlarni yo‘q etamiz – cher-

kovlar quramiz! Ana, To'xtamishxon no'g'aylari! No'g'aylar Ulug' O'ris cherkovlarida cho'qinmoqda! Bo'lmasa, kimsan To'xtamishxon avlodlari! Endi seni cho'qintiramiz!

— Bajonidil, taqsir, bajonidil. Oqposhsho hazratlari azm-u ixtiyor aylaganlariday bo'la qolsin. Ammo-lekin ahli xalq ko'zida Xudoyi taolo dargohini to'pga tutsalar, xalq qarg'aydur, taqsir, xalq qarg'aydur.

— Xalq?!

— Shunday, taqsir, shunday. Xalq qo'llasa — bor bo'ladur, xalq qarg'asa — xor bo'ladur.

— Qanaqa xalq?!

— Ul mo'lt-mo'lt qora ko'zlar oti — xalqdur, taqsir. Xalq bor — haq bor.

General Skobelev dimoq-dimog'ida kuladi.

— Ol-a, eshon, ol-a! — deydi. — Bular poda, eshon, poda! Bular oldin podadan odamga aylanmog'i lozim bo'ladi! Odaman olomonga aylanmog'i lozim bo'ladi! Olomondan esa, xalqqa aylanmog'i lozim bo'ladi! Demak, bular xalq bo'lish uchun ikkita-uchta bosqichni bosib o'tmoqlari darkor bo'ladid! Bilasanmi, eshon, Ulug' O'rusiya nima uchun yovvoyidan yovvoysi Osiyoga tashrif buyurdi? Manavi sart-sobakalarni odamga aylantirish uchun tashrif buyurdi! Ulug' O'rusiya oldida sart-sobakadan inson yaratishday bashariy ham savob ish turibdi! Ulug' O'rusiya saltanati — xaloskor saltanat!

General Skobelev karillaydi-karillaydi — tizzasi bilan otini niqtaydi. Umarxon eshondan besh-olti odim olislab oyoq iladi.

— Otishga shaylansin! — deydi. — Yotilsin! Namoz o'qilsin! Nog'orachilar bodratib-bodratib nog'ora chaladi.

— Otilsin!

Xudodargoh kunpayakun bo'ladi.

14

Bobomiz tog'da dala tanlaydi-tanlaydi — binoyiday dala topolmaydi.

Bari yer ketmon ko'magan yer bo'ladi.

Shunda, Qurban qoraqirg‘iz o‘z dalasini beradi.

– Ana, ol, o‘zbak, – deydi Qurban. – Qoraqirg‘izda dala bo‘lmaydi. Dala o‘zbakda bo‘ladi. Qoraqirg‘izda mol bo‘ladi. Qoraqirg‘iz qir-adirda mol boqadi. O‘zbak dasht-dalada ekin ekadi.

Bobomiz Qurban qoraqirg‘izni quruq qo‘ymayin deya, qo‘yin kovlaydi. Qurban qoraqirg‘iz bobomiz bilagidan ushlaydi.

– Tek o‘tir, o‘zbak, tek o‘tir, – deydi. – O‘zbak qo‘ynida bo‘ldi nima, qoraqirg‘iz qo‘ynida bo‘ldi nima.

15

Bobomiz uzun kun ketmon chopadi.

„Bo‘ldi, endi Oqpodsho yo‘q bo‘ldi“.

Bobomiz ana shunday ishonch bilan ketmon chopadi.

Bobomiz olam bexabar bo‘ladi.

16

Oqpodsho qadamba-qadam ko‘radi. Adirma-adir ko‘radi. Qirma-qir ko‘radi.

Tog‘lab-tog‘lab ko‘radi.

Oxir-oqibat – bobomiz dalasini topib keladi.

Bobomiz alang-jalang bo‘lib qoladi. Bobomiz dovdirab-dovdirab qoladi. Ammo sir boy bermaydi. Mezbon misol bosh irg‘ab tura beradi. Mezbon misol qo‘l qovushtirib tura beradi.

– Oting Jamoliddin ketmon-a? – deydi Oqpodsho.

Bobomiz ha, deyishini-da bilmaydi, yo‘q, deyishini-da bilmaydi.

Oqpodsho bobomiz qo‘llarini ketiga qayirib boylaydi.

Ana shunda bobomiz Oqpodsho ketida turmish Xoliqul mingboshi tilmochini tanib qoladi. Tayin, meni shu As’hal no‘g‘ay ushlab berdi-yov, deya o‘ylaydi.

– Senga nima edi, no‘g‘ay? – deydi bobomiz. – Sen to‘q-qiz qaytganga nima edi?

- Men bir tilmochman, Ketmon, qul tilmochman.
- Shu kuningdan ko'ra, ket yurtingga, to'qqiz qaytgan, ket!
- Qozon Farg'onadan-da qul, Ketmon.

Oqpodsho bobomiz ketidan miltiq o'qtalib-o'qtalib yuradi.
Bobomiz shudgor oralab yuradi.
Oqpodsho-da shudgor oralaydi.

Ana shunda bobomiz bardoshi dosh berolmaydi. G'azab-nok qayrilib qaraydi.

– Ay, kofir! – deydi. – Bir dalamni harom qilding! Endi bu dalamni-da bulg'ama!

- Nima-nima?

– Dalamni qadamlab bulg'ama, deyman! Oqpodsho ang-rayadi-angrayadi – bir nima-da anglamaydi. Yer angrayib qaraydi. Yerda tuproqdan boshqa nima topolmaydi.

Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.

– Ana tuproq, mana tuproq! – deydi. – Bo'rsildoq tuproq, mag'izdor tuproq, hosildor tuproq! Tuproqmisan-tuproq! Ammo bu tuproq seniki emas, chuchela, sening tuprog'ing emas!

Bobomiz ko'ngli bir uvishib oladi.

„Oqposhsho bilibdi, Qurbon qoraqirg'iz dalasiligini bilib qolibdi, – deya xayollanadi. – Birovning moli mol bo'lmaydi deb shuni aytadilar-da“.

Shunday bo'lsa-da, bobomiz qo'rqqan oldin musht ko'tarar qiladi:

- Meniki bo'lmay, kimniki bo'ladi? – deydi.
- Bu tuproq...

Oqpodsho gapini topolmay qoladi. Ketiga qayrilib qaraydi. Barmoqlarini qirs-qirs o'ynatib, yo'ldoshidan so'-raydi:

– Duxovskiy, kunpayakun masjid oldida general Skobelev janoblari bir balo vazir deyatib edilar...

– Esimda yo'q, Nazarov, esimda yo'q, – deya yelka qisadi yo'ldoshi. – Ha, o'sha-da! Poshsho hazratlari aytdi, deb qo'yaver. Bu chuchelalar nimani biladi.

- O'zi... poshsho kattami, vazir kattami?

General Skobelev janoblari aytgan bo'lsalar, albatta, vazir katta-da!

Oqqodsho tag'in bobomiz bilan yuzma-yuz bo'ladi. Salmoqlab-salmoqlab bayon etadi:

– Gap lo'ndasi... Shvetsiya vaziri Falonchiyev janoblari aytganlariday, bu tuproq O'rusiya tojidagi oliv qimmat dur, ha, dur! Aslo, aslo sening tuprog'ing emas!

– Labbay-labbay?

– Sen bunday qaymoq tuproqqa yarashmaysan!

– Nima-nima?

– Chunki sen chuchelasan, chuchela!

– Sart-sobakasan, sart-sobaka!

– Biz sen sart-sobakalarni O'rusiyyaga jo'natamiz!

– O'rusiyyada sening basharangday qoratuproq bor. Sen ana o'sha qoratuproqqa yarashasan!

– Qoratuproq – sart-sobaka... Sart-sobaka – qoratuproq...

Juda hamohang!

– O'zi, bu chuchelalar qanday qilib bunday qaymoq tuproqda yaralib qoldi, Duxovskiy?

– Aytgiligi yo'q, Nazarov, aytgiligi yo'q. Shunday tuproqda shunday sart-sobakalarni yaratgan Xudogayam qoyil emasman.

– Qo'yaver, Duxovskiy, bu tuproqqa endi Ulug' O'ris xalqi keladi!

– Bilaman, Samaradan ikki yuzta o'ris mujik ko'chib keladi.

– Bizning Saratovdan bir yuz ellikta o'ris mujik keladi.

– Mujiklarimiz hademay poyezddan tushadi!

– Endi bu qaymoq tuproqda Ulug' O'ris xalqi dehqonchilik qiladi! Bobomiz nafasi ichiga tushib ketadi. Bobomiz g'aribona-g'aribona qadamlaydi.

– Jamoliddin ketmon, namozingni o'qib olasan-a? – deydi As'hal no'g'ay. – Peshin namozingni o'qib olasan-a?

As'hal no'g'ay bosh irg'ay-irg'ay shunday deydi. As'hal no'g'ay bot-bot shunday deydi.

As'hal no'g'ay Oqpodshoga yuz soladi.

– Bir mo'min banda namozini o'qib olsin? – deydi.

– Hayda-hayda! – deya jerkiydi Oqpodsho.

– Kunpayakun masjid joyida cherkov poydevorini tashladik. Cherkov bitsin, cherkovda namoz o'qiydi! – deydi Oqpodsho.

– Toat-ibodatni kanda qilish yomon, – deya sarg'ayadi
As'hal no'g'ay. – Xudo yo'lida biror kor-holga giriftor etadi.

Oqpodsho sergaklanadi. Oqpodsho tevarak-boshga nazaranadi. Oqpodsho hadiklanadi.

– Mayli, Xudo yo'lida bo'lsa, mayli, – deydi Oqpodsho.

– Xudo yo'lida qo'llarini bir bo'shatib oling, – deydi As'-
hal no'g'ay. – Qo'lsiz namoz o'qib bo'lmaydi.

Oqpodsho bobomiz qo'llarini ozod etadi.

Bobomiz obtovadan tahorat oladi. Bobomiz qibla taraf
belbog' yoyadi.

17

Oqpodsho yong'oq ostilab soyalaydi.

Miltiqlari o'nglarida turadi. Bosh kiyimlari chaplarida
turadi.

Oqpodsho bobomizdan ko'z uzmay soyalaydi.

As'hal no'g'ay bir bobomizga qaraydi, bir Oqpodshoga
qaraydi. Kamzulini ola-ola, bobomiz taraf odimlaydi.

– Ha, yo'l bo'lsin, no'g'ay? – deydi Oqpodsho.

– Men ham namozimni o'qib olayin, janoblar, – deydi
As'hal no'g'ay.

– Sen cho'qintirilmaganmisan?

– Xudoga ming qatla shukur, musulmon farzandiman.

As'hal no'g'ay bobomiz qabatidan kamzul to'shaydi.
„Ollohu akbar“... deya, qulqoq qoqib boshlaydi.

Bir so'z namozdan bo'ladi, bir so'z amaldan bo'ladi:

– Qulqoq sol, Ketmon, qulqoq sol, – deydi. – Oqpodsho
mulla Namoz bilan muhorabachilarni qidirmoqda.

– Meni kim aytди?

- Birov aytmadı. Oqpodsho erkak zotini ushlab qamayaptı.
- Qamasa-qamar.
- Oqposhsho osiy bandalarni osib o'ldirmoqqa hukm qildi. Ibrat bo'lsin uchun butun xalq oldida osadilar. Bitta shahid o'ris joni uchun o'nta o'zbakni osadilar. Alhol, senga-da shul hukm joriy etiladi.
- Mening qo'lim qon emas.
- Unda, O'russiyaga surgun etadilar. Hali, anavilar seni qoratuproqqa jo'natamiz, deydilar. Shu gapda jon bo'ladi. Ikki yuzdan oshiq zabardast o'zbakni ichkari O'russiyaga surgun etadilar.

Bir so'z namozdan bo'la beradi, bir so'z amaldan bo'la beradi:

- Endi men nima qilayin?
- Qoch.
- Bola-chaqamni tashlab qayoqqa qochaman?
- Boshing oqqan tarafga qoch.
- Anavilar ko'z uzmaydi, qanday qilib qochaman.
- O'zingni soyga ot. Joyingdan turma-da, soy tubigacha yumalab-yumalab bor. Bet-boshing yoriladi, oyoq-qo'ling lat yeysi. Alhol, omon qolasan. Bo'l-bo'l.

Bobomiz birdan soy taraf chopadi. Misoli suvgaga kalla qilmishday – o'zini soyga otadi. Oqpodsho hayallab keladi.

- To'xta, otaman, to'xta! – deydi.

Oqpodsho qasur-qusur yumalamish toshlarni ko'zlab miltiq bo'shatadi.

Oqpodsho soy yoqalab chopadi-chopadi – soy enajak so'qmoq topolmaydi.

Bobomiz toshlar bilan yumalaydi-yumalaydi – yovvoyi bodomlar aro g'oyib bo'ladi.

18

Bobomiz tog' yonalab enadi-enadi – Isfarada manzil oladi.
Isfarada-da Oqpodsho bo'ladi.

Farg'ona bobomizga torlik qilib qoladi.

Bobomiz Oqpodsho yo‘q yurt izlab yuradi-yuradi – Dushanba keladi.

„Tili boshqa aslo el bo‘lmaydi“.

Bobomiz ana shunday o‘y bilan tag‘in yo‘l oladi.

Yuradi-yuradi – Denov keladi.

Denov bekligi Buxoro amirligida bo‘ladi.

Bobomiz Denovni makon etadi.

Kuzi bilan mardikorlik qiladi.

Qishda odam yollaydi – Farg‘onadan bola-baqrasi ol-dirib keladi.

19

Bobomiz bola-baqrasi omon-eson Denovlab keladi.

Aybi – to‘ng‘ich o‘g‘li bir boshqa bo‘lib keladi.

Ana shu to‘ng‘ich o‘g‘il Aqrab bizning otamiz bo‘ladi.

20

Otamiz qoq tunda to‘sakdan turib ketadi.

Soya-sharpasiz tashqarilaydi. Gap-so‘zsiz tashqarilaydi.

Zim-ziyo supada qo‘l ket etib turadi. Tevarakka oqposhshona-oqposhshona boqib so‘zlaydi:

– Sartlar! – deydi.

Oyoqlari ostida yotmisht kosovni miltiq qilib peshlaydi. Miltiq peshlab-peshlab odimlaydi.

– Chuchelalar! – deydi.

Hovlini aylanadi-aylanadi – narvondan tomlaydi.

Tomda qishloq uzra miltiq o‘qtalib-o‘qtalib turadi.

– Yotilsin! – deydi.

Qishloqdan itlar huradi.

Otamiz it hummish tarafga miltiq o‘qtaladi.

– O‘chir, sart-sobaka, o‘chir! – deydi.

Qiblada oy bir oqarish beradi, bir qorayish beradi.

Otamiz oqarish bermish oyga miltiq o‘qtaladi.

– Yo‘qol, sart-sobaka, yo‘qol! – deydi.

Bobomiz tashqaridan eshitilmish ovozdan uyg'onadi.

Qabatini paypaslaydi. Nima gapligini payqaydi. Sapchib tashqarilaydi.

Bobomiz supada haykal misol qotadi.

Oshxona taraf quloq tutadi. Darvoza taraf quloq tutadi. Molxona taraf quloq tutadi.

Ovoz qayerdan kelayapti – bilolmaydi.

Oy qorayish beradi.

Otamiz qorayish bermish oyga miltiq o'qtaladi.

– Otilsin! – deydi.

Otamiz: „pup-pup-pup“, deya kosovdan to'p otadi.

Bobomiz ana shunda otamiz qayerdaligini bilib oladi.

Oyoq uchida narvonni topib oladi. Ohista-ohista tomlaydi.

Tomda o'rmalab boradi-o'rmalab boradi – otamiz ketidan mahkam quchoqlab oladi.

Otamiz tom tashlab-tom tashlab yig'laydi. Otamiz oyoq tirab-oyoq tirab yig'laydi.

Bobomiz otamizni tomdan ko'tarib tushiradi.

Otamiz esini tanigunichayin tomma-tom yuradi.

IKKINCHI BOB

Men Surxoni Aqrab qo'ligul o'g'li bo'laman.

Otamiz qadamish cho'p nihol bo'ladi.

Otamiz qaramish daraxt shig'il-shig'il bo'ladi.

Otamiz kesmish tok shokila-shokila bo'ladi.

Otamiz qirqmish gul shoda-shoda bo'ladi.

— Ming qilsa-da, otasi farg'onachi-da, farg'ona-chi! —
deydi el.

3

Bir erta Abil jarchi ko'chama-ko'cha jar soladi:

— ...Barcha-barcha hovuz bo'ylab borsin! Yo'qsillar hukumati bilan ko'rishuv bo'ladi!

— Yuvuqsizlar hukumati deydimi? — deydi onamiz.

Otamiz onamizdan betini burib-burib kuladi.

— Dehqonqul! — deydi otamiz. — Yuvuqsizlar hukumati desang-da bo'ladi, Sho'rolar hukumati desang-da bo'ladi!

Bizning Surxon tarafda xo'jalar bekalar otini atamaydi. Bekalar-da xo'jalar otini atamaydi. Bir-birlarini yo qizlari oti bilan ataydi, yo o'g'llari oti bilan ataydi. Otamiz bilan onamiz bir-birlarini mening otim bilan ataydi.

— Barcha boradimi, Dehqonqul? — deydi onamiz.

— Yo'q! Kattalar boradi. Sho'rolar maydalar bilan gapirishmaydi.

— Ana, eshitding-a? — deydi onamiz.

Shunday bo'lsa-da, men otamiz ketidan iyaraman.

Otamiz meni jerkib-jerkib darvozada qoldiradi.

Men darvoza suyanib o'tiraman.

Otamiz yo'lini qarayman.

Otamiz tushlarda qaytadi.

Men otamiz qo'lidan ushlab tortaman.

— Ayting, Sho'ro qanday odam, ayting! — deyman.

Otamiz qoboq uyub ichkarilaydi. Telpagini tapillatib ko'r-pacha uradi. Bolish yonboshlab ich tortadi. Ship tikilib uh tortadi.

Men otamiz pinjiga kiraman. Men otamiz belbog'idan tortaman.

— Ota, ayting! — deyman.

— E, o'chir-ey, enag'ar! — deydi otamiz. — Endi sen qoldingmi, kallani garang qilmagan?

Men otamiz pinjida yota beraman.

Shunda, onamiz ichkarilaydi.

– Qani, gapirsin qani, – deydi onamiz.

Otamiz tag‘in miq etmaydi.

– Gapirsin-da endi, yuvuqsizlar hukumati qandaychikin odam ekan, gapirsin-da endi.

Ana shunda otamiz onamizga yuz buradi.

– Dehqonqul! – deydi. – Sho‘rolar, biz to‘ng‘ich, siz kenjasiz, deydi. Biz sizlarning katta akalaringiz bo‘lamiz, deydi. Shunday ekan, sizlar bizga bo‘ysunishlaringiz lozim, deydi.

– Yaxshi, muslimonchilikni bilar ekan.

– Dehqonqul! Gap muslimonchilikda emas... Dehqonqul! Shuni o‘ng qulog‘ing bilan-da eshitib ol, chap qulog‘ing bilan-da eshitib ol: qizil rang – yaxshilikka olib kelmaydi. Qizil rang – odamni aldaydi.

– Nima, yuvuqsizlar hukumati qizil odam ekanmi?

– Esa-chi, qizil-da. Qip-qizil. Tut shoxiga qistirilgan yalovigacha qip-qizil. Ombor devorlariga ilig‘liq so‘zanalarga-cha qip-qizil. Qayoqqa qarama – qizil, qizil, qizil...

– Qizil bo‘lsa bo‘lar, bu kishiga nima.

– Dehqonqul! Qizil yomon-da, qizil yomon. Boisi, qizil rang – qon rang! Qon yomon, yomon!

– Zamon tinch bo‘lsa, bo‘pti-da.

– Dehqonqul! Qon rangdan yorug‘lik tilama. Qon rangdan ro‘shnolik tilama. Qon rangdan panoh tilama. Qon rang – jal-lod rang!

4

Shu kundan e’tiboran otamiz bir boshqa bo‘ladi-qoladi.

Bir mahalgachayin uxlamaydi. Hovli aylanib-aylanib yuradi. Ko‘cha devor mo‘ralab-mo‘ralab yuradi.

Yotsa-da, uyqusida gapirib-gapirib yotadi:

– Qizil, ket qizil!.. – deydi.

Onamiz otamiz holidan qayg‘uda qoladi. Yengiga pul qis-tiradi. Folchiga yo‘l oladi.

– Erkagingiz ya'juj-ma'jujga yo'liqibdi! – deydi Jarqin folchi – Ya'juj-ma'juj bo'lgandayam, ulay-bulay emas! Qip-qizil ya'juj-ma'juj. Qizil ya'juj-ma'jujga qizil tovuq so'yinglar!

5

Qizillar qulog'i qirqta bo'ladi!

6

Kechasi bilan uchta Qizil kirib keladi.

– Hali, qizillarni daf etish uchun qizil tovuq so'yar bo'l-dingmi?.. – deydi.

Qizillar otamizni oldiga solib ketadi.

Men otamiz ketidan ergashaman.

Onamiz qo'limdan tortib qoladi.

7

Otamiz uch kundan keyin qaytib keladi.

Odaticha – etigi poylarini qo'li bilan sug'urmaydi.

O'ng oyog'ini bir taraf silkiydi – o'ng poyi o'sha taraf borib tushadi.

Chap oyog'ini bir taraf silkiydi – chap poyi sandiq ostiga borib tushadi.

Paytavalari chuvalab-chuvalab qoladi.

Ko'ksi bilan ko'rpa tashlaydi. Bolish quchoqlaydi. Betlarini bolish botiradi.

– Bir joyi og'riyaptimi? – deydi onamiz.

– Dehqonqul! Men senga aytib edim-ku, qizillar el bo'lmaydi, deb. Enag'arlar meni Yurchiga olib bordi. Yurchining qo'rg'onida qarorgohi bor ekan. Oqchurin degich kattasi bir tergamoqlik qildi-ye, bir tergamoqlik qildi-ye! Qizillar sha'niga tag'in bir yomon gap qilsang, Sibir surgun bo'lsan, dedi. Bir-ikkita qog'ozga barmoq bostirib oldi.

– Sibiri qayerda bo'ldi?

– Kim biladi, qayerda bo'ldi.

Men otamiz etiklarini terib-terib olaman. Bo'sag'ada juft-juftlab qo'yaman. Paytavalarini yig'ib-yigib olaman. Etiklariiga o'rab-o'rab solaman.

– Dehqonqul! – deydi otamiz. – Endi qizillar meni qo'y-maydi.

· Endi qaytadi, Dehqonqul?

– Endi ketaman. Yomondan qoch-da qutul, yo ton-da qu-tul, – deydi.

Otamiz bir kechada yo'qoladi-qoladi.

8

Men tag'in otamizni qidiraman.

– Otang bozor ketdi, keladi, – deydi onamiz.

Men endi onamiz ketidan iyaraman. Onamiz bir odim bos-sa-da, ketidan boraman.

Onamiz hovuz boradi. Hovuz bo'yida ayollar bilan gu-runglashadi.

Ayollar biri qo'yib biri aytadi.

– Burnog'i kecha tegirmon oldida ikkita Qizilni bo'g'izlab ketibdi.

– Ikkita-da gapmi, Hayitkalni jarida besh-oltitasini otib ketibdi.

– Hay, bir zamonlar bo'layapti-da.

Onamiz ko'zasini suv botirib oladi. Ko'za yelkalab qaytadi. Yo'lida ko'za qo'yib dam oladi. Men yo'l bosh-adoq ola-zarak bo'laman.

– Otam qani... – deya ingillayman. To'lib-toshib turmish onamiz cho'rt yoriladi:

– Ishtonimni ichida! Eshitdingmi? – deydi. – Manavi ishtonimni ichida!

Men mana bo'lmasam deyman-da, ko'zadagi suvgaga tupu-rib qochaman.

Onamiz ketimdan tosh otib qoladi.

– Ha, oshingni yeyin sen tentakni, oshginangni yeyin! – deydi.

Onamiz suvni to'kib tashlaydi. Tag'in hovuz yo'l oladi.

9

Onamiz meni qarg'ab-qarg'ab yotqizadi.

Men onamiz ro'molini tortqilay-tortqilay uqlab qolaman.

Bir mahal eshigimiz g'ijir-g'ijir ochilib yopiladi.

Men ko'zimni ochgani erinaman. Onamiz tashqarilayapti, deya o'ylayman.

O'n besh-yigirma kunda bir bor shunday bo'ladi.

Bir safarida uyqum kelmayin yotaman.

Onamiz ohista-ohista to'shakdan turadi. Onamiz oyoq uchida-oyoq uchida ayvonlaydi.

Ayvon tarafdan shivir-shivir eshitaman. Shivir-shivirda meni otim-da bo'ladi.

Gap-so'zlarni alayna-alayna eshitolmayman. Ammo-lekin ko'nglim tuyadi: ana shu shivir-shivirchi otamiz bo'-ladi!

– Ota, ota! – deya lik etib turaman.

Onamiz ila-chila qaytadi.

– Ha, nima, nima? – deydi. – Ota? Qani ota? Nima balo, elovrayapsanmi? Yot, uxla, yot!

Onamiz boshimni silay-silay ketadi. Onamiz boshimga ko'rpani torta-torta ketadi.

Men tag'in ko'rpadan boshimni olaman. Ko'zlarimni katta-katta ochaman. Pichir-pichir eshitaman.

– Meni qizillar yo'qlamayaptimi?

– Yo'g'-a.

– Yo'qlasa, toqqa o'tinga ketib edi, de.

– O'zi qayerda yuribdi?

– Ishing bo'lmasin.

– Nimaga ishim bo'lmaydi? O'lik-tirigini bilayin-da.

– Hayitkalni jarida yotibmiz.

– Jarda yotadi?

– Aslida, tog'da yotamiz. Jarga kechasi kelamiz.

- Tog‘ qayerda, Hayitkalni jari qayerda?
 - Otni oldida nima degich gap. Tog‘dan Hayrondara enamiz. Hayrondaradan keyin Hayitkalni jari-da.
 - Bir o‘zimi?
 - Bir o‘zim qayoqda – o‘nta jigit. O‘zimizdan Rashid bor. Boshqalari boshqa qishloqdan. Hali tag‘in ko‘payamiz. Tevarak qishloqlardan jigitlar kelib qo‘shilayapti.
 - Kechasi Hayitkalni jarida nima qiladi-a? Uyginasida, bola-baqraginası oldiginasida yotsa bo‘lmaydimi-a?
 - Dehqonqul! Sen nimani bilasan? Biz el-yurt uchun olishayapmiz. Birovi-da Hayitkalni jaridan tirik o‘tolmayapti. O‘tganini-da ko‘raman!
 - Kimni aytayapti?
 - Qizillarni-da, kimni bo‘lardi.
 - Qizillar Hayitkalni jaridan o‘tadimi?
 - Esa-chi. Denovdan Xo‘jasoatga kelgich yo‘l Hayitkalni jaridan o‘tadi-da. Boshqa yo‘l yo‘q. Shu jarda Qizilman, degichini qoniga belayapmiz.
 - Ko‘ziga qarasin-da, qizillarda miltiq bor, deyishadi.
 - Miltiq bizda-da bor. Bir kechasi beshta Qizilni o‘ldirib, pulemyotini-da olib oldik.
 - Ishqilib, ko‘ziga qarasin, deyman-da.
 - Dehqonqul! Ko‘zimga qarasam-qaramasam, Qizil zotini enasini jabduqlayman!
 - Ko‘p katta ketmasin.
 - Dehqonqul! Katta ketsam-ketmasam, qishlog‘imizga o‘ris zotini yonashtirmayman!
- Pichir-pichir eshita berib ko‘zim ketadi.

10

Tonglay ayvon qarayman.

Ayvonda ko‘rpa-to‘shak bo‘ladi – otamiz yo‘q bo‘ladi.

Men yer tepib-yer tepib ingillayman. Men yer yumalab-
yer yumalab ingillayman.

Onamiz yengimdan olib turg‘izadi.

-
- Jelakni kir qilding, qirg‘inni oldida qirilib ketgur! – deydi. – Yo‘q otani qayerdan topaman? Sendan ota qarzim bormi? Men oshxona chopaman. Suv to‘la ko‘zalarga tupurib-tupurib qochaman. Ketimdan otilmish kosov darvoza taraqlab tegadi.

11

Otamiz qachon keladi, deb kun sanayman.
Kun sanay berib, barmoqlarim taqchil bo‘lib qoladi.
Kun sanay berib, kaftlarim barmoqlarim bilan to‘lib qoladi.

12

- Bo‘ldi, endi qaytib kelsin. Anavi Dehqonqli bezorijonimni chiqardi, – deya pichirlaydi onamiz.
- Bola bola-da, – deydi otamiz.
- Ayollar, erkagingiz bosmachi bo‘p ketibdi, shu chinmi, deydi.
- Dehqonql! Bosmachi demanglar. Necha marta aytam, bosmachi demanglar deb.
- Bari ayoł shunday deydi.
- Desa deya beradi-da. Bosmachi bo‘lib, qaysi yurtni bosib olibmiz? Bosmachi bo‘lib, qaysi elni talon-toroj etibmiz? Dehqonql! Bosmachi degich gapni ular o‘ylab topdilar.
- Kimlar?
- Kimlar bo‘lardi – qizillar-da. Kimlar bo‘lardi – padar la’nat cho‘chqalar-da. Cho‘chqalar o‘zları yurtimizga bostirib keldi. Yana tag‘in, bizni bosmachi deb atadi. Padar la’nat cho‘chqalar o‘zlarini yorliqlarini bizning peshonamizga yopishtirdi.
- Unda, bu kishi kim bo‘ldi?
- Mujohid! Bildingmi? Mujohid!
- U nima degani bo‘ldi?
- Mujohid el-yurt uchun jihod etuvchi odam bo‘ladi. El-yurt yo‘lida shahid bo‘lish uchun shay odam bo‘ladi.
- Kim biladi, Dehqonql, el-yurt shunday deyapti-da.

– Dehqonqul! El-yurt qizillar ig‘vosiga uchmasin. Men qizillarni bitta qo‘ymay qiraman. Omon qolmish Qizilni qayerdan kelgan bo‘lsa – o‘scha yoqqa qaytarib haydayman. El-yurt ana o’shanda biladi – mujohid kim, bosmachi kim ekani-ni. Botar kunni otar tongi bo‘ladi.

13

Bir oqshom darvozamizda uchta odam qora beradi.
Odamlar ostonamizda alang-jalang bo‘lib turadi.
Onamiz bet berkitib-bet berkitib peshvoz boradi.
– Qani u, tuzemets? – deydi birovi.
Onamiz anglamaydi – yer boqib tura beradi.
– Men sen churkadan so‘rayapman?
– Qani u, tuzemets, churka?
– Kim-kim? – deydi onamiz.
– Bosmachi ering qani, deyapman?
Onamiz ana shunda anglaydi. Xiyol yuz ochadi.
– Ha-a, otasimi? – deydi. – Otasi tog‘lab ketib edi.
– Qachon keladi, tuzemets, churka?
– O‘tin terib bo‘lsa, keladi-da.
Keluvchilar ket qayriladi.
– O‘zi bir tuzemets churka bo‘lsa, yana tag‘in bctini beki-tadi-ya! – deydi.

14

– Kelgichlar birovi Normurod faol bo‘ldi.
– Dehqonqul! Shu enag‘arga aytib qo‘y, qadamini tortsa tortdi, tortmasa, o‘z qo‘lim bilan kallasini olaman.
– O‘zi, qizillar qachon ketar emish?
– Dehqonqul! Qizillar ketmaydi, haydamasa, ketmaydi. Ketmasa, o‘zlarini sho‘ri. Bari Qizilni tutday to‘kaman. Qizillar o‘ligini g‘ojirlarga yem qilaman.
– Bir Rashid bosmachi bilan ikkovini qo‘lidan nima keladi?
– Dehqonqul! Necha marotaba aytaman, bosmachi dema deb. Bosmachilar ana – qizillar!

- Bari shunday deyapti-da, menda nima ayb?
- Bari aytса-da, sen aytma. Chin, bizning qishloqdan Rashid ikkovimiz, chin. Biz nima qilaylik, bari din-imonini sota-yapti. Birovi Sho‘ro bo‘layapti, birovi firqa bo‘layapti, birovi hosilot bo‘layapti. Dehqonqul! Men ularni jigit sanamayman, Yo‘q, jigit sanamayman. Gapni o‘roli keldi, aytayin... Ular xunasa! Ha, xunasa!
- Shunday deyishga uyalmaydimi?
- Bo‘lmasa, nima deyin? Kofir deyin desam – bari o‘zbak bo‘zbolalar. O‘zbak deyin desam – bari kofirlar yo‘lidan yuribdi. Musulmon bo‘p – musulmon emas, kofir bo‘p – kofir emas. Bundaychkinlarni kim deydi? Xunasa deydi-da!

15

- Bu safar hayallab qoldi?
- Ko‘lobda bo‘ldik. Ibrohimbek qo‘rboshi hazratlari qo‘lida mashq oldik.
- U kishi kim bo‘ldi?
- U kishi islam lashkari sorboni bo‘ladilar. Ibrohimbek hazratlarini qo‘rboshimiz desak-da bo‘ladi, amirimiz desak-da bo‘ladi. Boisi, amirimiz o‘z joylariga Ibrohimbek hazratlarimizni tayinlabdilar-da, o‘zlari Afg‘oniston sari siperish beribdilar. Xudo xohlasa, Ibrohimbek hazratimiz sorbonligida bari o‘risni bitta qo‘ymayin qiramiz.
- Ko‘lobga bir o‘zi bordimi?
- Yo‘q! Elliktacha jigit bo‘lib bordik. Ibrohimbek hazratimiz qarorgohida turkiy lashkarboshilar mashq berdi. Ay, bir barlos jigitlar mashq olayapti, ay, bir barlos jigitlar mashq olayapti! Jigit emas – lochin, lochin! Ibrohimbek hazratimiz barloslari olsa oladi – aslo oldirmaydi!

16

Tag‘in kun sanayman.
Tag‘in barmoqlarim taqchil bo‘lib qoladi.
Tag‘in kaftlarim barmoqlarim bilan to‘lib qoladi.

Tunlardan bir tun tashqarida tapur-tapur bo‘ladi.

Amrlar eshitiladi:

- Qimirlama, otaman!
- Qaddingni ko‘tar!
- Qo‘lingni ber!
- Tipirchilama!

Shunda, otamiz ovozi-da keladi:

- Rashid aytdi-ya, shu kecha uyingga borma, dedi-ya!

Rashidni gapini olmadim-a, ay, attang-a!

Onamiz otilib tashqarilaydi. Ovoz berib yig‘laydi.

– Ey, mocha! – deydi birov. – O‘chir, bo‘lmasa seniyam boylaymiz!

Haminqadar tala-to‘p bo‘ladi. Haminqadar do‘q-zug‘um bo‘ladi.

Tashqari birdan yorishadi.

Men ana shunda tashqarilayman.

Tashqarida qo‘sha fonus yonadi.

Qo‘llari qullig‘lik otamiz supada yotadi. Bet-boshi qon otamiz g‘ujanak yotadi.

– Uspenskiy, Poltoratskiy! Otni olib kelinglar! – deydi birov.

Bir fonuslik chopqillaydi. Ko‘chadan ot yetaklab keladi. Supa oldida bel qiladi.

Amr etuvchi otamiz bo‘ynidan egar qoshiga arqonlaydi.

- Hayda! – deydi.

Ot ko‘cha yo‘l oladi.

Otamiz ot ketidan oyoq tirab-tirab odimlaydi. O‘zini ketiga tashlab-tashlab odimlaydi.

Devor suyanib turmish onamiz tag‘in ovoz berib yig‘laydi.

– Ey, mocha churka, men senga o‘chir deyapman! – deydi Uspenskiy. Onamiz dami ichiga tushib ketadi.

– Chanishev! – deydi otamiz. – Manavi cho‘chqalaringga ayt, poshikasta-zaifalarni undaychikin so‘kmaydilar!

-
- So‘kayotganim yo‘q, – dedi Uspenskiy. – Mochani mocha deydi-da. Sen hangi churka, zaifang mocha churka! Yurting – Churkiston!
 - Unday dema! Turkiston de, Turkiston! Men O‘rusi-yangni Cho‘chqaiston deyotganim yo‘q!
 - O‘zi, Turkiston nomi nimadan olib aytildi, Poltoratskiy?
 - Turk so‘zidan olib aytildi. Turkiylar makoni, degan mazmun beradi.
 - Ha-a. Sen churka tuzemets o‘zingni buyuk turkiylar deb bilasanmi? Buyuk turkiylar... Buyuk Turkiston... Sassiq churkalar! Sassiq Churkiston! Ana, sen kimsan!
 - O‘zi bir churka tuzemets bo‘lsa, Turkiston, turkiylar degan po‘rim-po‘rim gaplarni qayerdan biladi, Kolesov?
 - Anavi Hisor taraflarda turk ofitserlari itday izg‘ib yuribdi. Ana o‘shalar o‘rgatayapti.
 - Anvar poshoni asfalasofilinga jo‘natganimizga o‘n ikki yil bo‘ldi-yu?
 - Qalang‘i-qasang‘ilari hamon daydib yuribdi.

Onamiz otamiz ketidan ergashib boradi. Hiq-hiq etib boradi,

Men onamiz ketidan ergashib boraman. Ing-ing etib boraman.

Oldinma-ketin katta yo‘llab kelamiz.
Katta yo‘lda tag‘in ikkita otliq bo‘ladi.
Qizillar ana shu manzilda oyoq iladi.

18

- Chanishev! – deydi otamiz. – Bir kun bo‘lmasa, bir kun sen sulloh kelishingni bilib edim. Aynan sen sullohn ni keladi, deb o‘ylab edim. O‘ylaganim bo‘ldi, Chanishev!
- Ha, nima deysan, nima? – zahrini sochdi Chanishev.
- Chanishev! Men shu qishlog‘imizga qadam qo‘yaman degich o‘ris qonini ichdim. Olisdan ko‘rdim – otdim, yaqindan ko‘rdim – so‘ydim. Ay, attang-a, qo‘llik bo‘lib qoldim.

Men o'ris zoti qonini qoldirmayin ichaman deb edim.

– Icholmas eding. Bosmachi zotini tag-tomiri bilan qirib tashlash uchun bir yuz oltmis ming Qizil Qo'shin bo'lib kelib edik. Bir yuz oltmis ming ovrupocha qurollik sara lashkar-a!

– Qo'llilik bo'lmanimda, bir yuz oltmis mingini-da qonini ichar edim! Chanishev! Bir ushslash bo'lsa – ushlading. Bo'lar ish bo'ldi. Endi, qo'llarimni qo'yber.

– Sendan qo'rqqulik, Aqrab, qo'rqqulik!

– Chanishev! Ko'p qo'rqa berma. Mana, egar qoshiga qo'y ko'ganlaganday ko'ganlab olding. Endi qayoqqa-da borar edim.

– Lazarevich, Fonshteyn! Qo'lini qo'yib yuboringlar!

Qizillar otamiz qo'lini qo'yib yuboradi. Otamiz uyushib-uyushib qolnish qo'llarini yoyish uchun quloch otib-quloch otib oladi.

Shunda, qizillar yoppa baraka miltiq yopishadi.

– Ay, Chanishev-ay! To'qqiz qaytgan-ay! – deya kuladi otamiz. – Yurakdan-da bor ekan-da! Shu yuraging bilan meni ushlagani keldingmi-a? Aqrab qo'tboshini-ya? Ay, enag'ar no'g'ay-a, ay, zanig'ar no'g'ay-a!

– So'kma, tuzemets!

– Chanishev! Sen kim? Ayt, sen kim? No'g'ay musulmon farzandi. Sen musulmon farzandi bo'la turib, manavi o'rislar gapiga kirib kelding. O'rislar mening kallamni yeyish uchun sen no'g'aylarni bekorga tanlamadi. Boisi – o'zbak bilan no'g'ayni tili bir, dini bir, urf-odati bir. Bilsang – sen no'g'ay o'zingga o'zing miltiq o'qtalib kelding! Endi ayt, tuzemets menmi yo sen to'qqiz qaytgan no'g'aymi?

– Men sen bilan harbiy sudda gapirishaman. Aqrab qo'r-boshi! Rudzutak, yo'l ol!

Qizillar Denov taraf jilov buradi, Ana shunda qizillardan bir soya ayrilib qoladi. U Normurod faol bo'ladi.

– Chanishev! – deydi otamiz. – Bir oyoq il! Anavi xunasa-ga aytar gapim bor!

Qizillar oyoq iladi.

— Ay, Normurod xunasa! — deya ket buriladi otamiz. — Sen meni o'rislarga ushlab berding! Iloyim, qarigan chog'ingda tentak bo'l, ayolingni uch taloq qo'y, elga ermak, xalqqa shaloq bo'lib o'l, Ollohu akbar!

19

Tun ko'roydin bo'ladi.

Qiblagohda Keragatog' oppoq-oppoq oqarish beradi.

Chanishev tog' xushro'yidan huzurlanadi.

— Bay-bay-bay! — deydi. — Ana jamol, mana jamol! Biz endi bu jamolistonni O'zbakiya deb ataymiz, O'zbakiya!

— Turkiston yaxshi emasmi?

— Yo'q, O'zbakiya deymiz, O'zbakiya. O'rtoq Lenin Turkistonni O'zbakiya deb ataymiz, deb edilar. O'rtoq Lenin so'zi so'z, gapi gap! Bilasanmi, o'rtoq Lenin nima uchun Turkistonni yo'q qilib, O'zbakiya deb atamoqchi edi? Turkiston — turkiy xalqlar ota yurti. Shundan turkiy tuzemetslar otalari yurti Turkiston uchun qo'llariga qurol olmoqda. Turkiy tuzemetslar otalari yurti Turkiston uchun jonlarini tikmoqda. Ana shu Turkistonni yo'q qilib tashlasak, turkiy xalqlar qaysi otlik ota yurt uchun jihod qiladilar! Bunday dohiyona g'oya faqat Lenindan keladi!

Otamiz o'ng qabatida ikkita Qizil boradi. Otamiz chap qabatida ikkita Qizil boradi.

Otamiz oldida Chanishev boradi.

Fonuslar lop-lop etib boradi.

Men peshonamni onamiz tizzasiga nuqib-nuqib hiqillaryman.

— Ena, ena!.. — deyman.

Men yuzlarimni onamiz qo'llariga bosib-bosib hiqillaryman.

— Ketdi, otam ketdi!.. — deyman.

— Ko'rdim... — deya ozurda bo'ladi onamiz. — Ko'rdim, otang ketdi... Onamiz o'ksib-o'ksib yig'laydi. Onamiz uvv-uvv yig'laydi.

Onamiz ovoz qo'yib yig'laydi – demak, xavf-xatar olislaydi. Demak, endi qo'rmasa bo'ladi.

Shu bois, otamiz ketidan yo'l olib yig'layman.

– Ota-a-a! – deyman.

Otamiz qayrilib qaramaydi.

Fonuslar lop-lop etib boradi.

Qizillar otda bo'lsalar-da, miltiq o'qtalib-o'qtalib boradi.

Otamiz Qizil miltiq tig'ida ketadi.

Men otamiz ketidan chopaman. Pildir-pildir chopaman.

– Ota-a-a!

Yalang oyoqlarim yerga tegib-tegmay chopaman. Anaana yetajak bo'laman.

– Ota-a-a!

Jon-jahdim bilan chopaman. Shunda, betim bilan yer uchaman. Kaftlarim bilan yer borib tushaman. Zabtim bilan bir-ikki bor yumalab olaman. Joyimdan turayin deyman – turolmayman.

Otamiz Qizil miltiq tig'ida ketadi.

Yerda yotmisht ko'yi otamiz ketidan qarayman.

– Ota-a-a!

Fonuslar lop-lop etib boradi.

– Ota-a-a!

Otamiz Qizil miltiq tig'ida ketadi.

20

Otamiz chimzor oralab boradi.

Otamiz bug'doyzor oralab boradi.

Bug'doyzor adog'i daryocha oqadi.

Daryocha adoq sohili Sayrak qishlog'i bo'ladi. Daryocha qibla sohili Xo'jasoat qishlog'imiz bo'ladi.

Otamiz Qizil miltiq tig'ida boradi-boradi – ana shu daryocha bo'yida oyoq iladi. Chap yelkasi osha qiblagohda qol-mish qishlog'iga boqadi.

Boqadi-boqadi – botinan-botinan inqillab-inqillab oladi.

Qizillar otamiz chap yelkasiga miltiq bilan turtadi.

– Olg'a, olg'a! – deydi.

Otamiz endi o'ng yelkasi osha boqadi.

Boqadi-boqadi – xo'rsinib-xo'rsinib oladi.

– Dehqonqul-ay! – deya ovoz beradi.

Otamiz onamizni yo'qladimi? Otamiz meni yo'qladimi?
Meni yo'qlasa – nima uchun yo'qladi? Men go'dakdan himo
tiladimi? Men ushoqdan panoh tiladimi? Ushoq o'g'lon qo'li-
dan nima-da keladi?

Qizillar otamiz chorlovini o'zlaricha yo'yadi. Mazkur
bug'doyzorda bosmachilar bor, deya yo'yadi. Ana, Aqrab
qo'rboshi bosmachilarni yo'qlayapti, deya yo'yadi.

Qizillar apil-tapil bug'doyzor miltiq buradi.

Ammo otamiz yo'qlamish Dehqonqul... bosmachidan shovur
bo'lmaydi.

– Dehqonqul-ay!

Qizillar haminqadar jonsarak bo'ladi. Tap-tap otdan tash-
laydi. Sharaq-sharaq miltiq o'nglaydi.

– Dehqonqul-ay, Dchqonqul!..

Dehqonqul degich... bosmachidan hamon shovur bo'l-
maydi.

Ana shunda otamiz Aqrab qo'rboshiligini qiladi!

Lik etib ot minib oladi. Tizzalari bilan niqtaydi.

Ot joyidan zabit oladi. Ammo o'n-o'n besh qadamda bir-
dan tis bo'ladi. Joyida yer tepinadi.

Boisi – yugan uchi yerda yotmisht Qizil bilagida bo'-
ladi.

Qizil yugan uchida sudralib-sudralib boradi. Qizil baqirib-
baqirib boradi:

– Aqrab, agar qochsang, bolalaringni otamiz! Aqrab, bo-
lalaringni bitta qo'y may otamiz!..

Otamiz „bola“ so'zidan keyin zabitidan qaytadi. Otamiz
„bola“ so'zidan keyin niyatidan kechadi.

Qizil sapchib turadi. Otamiz oyog'iga yopishadi.

Otamiz Qizil ko'krakka oyoq qo'yadi.

– Osilma! – deydi. – O'zim tushaman!

Qizillar otamizni o‘rab oladi.

Qizillar yurak hovuchlab-yurak hovuchlab turadi. Otamiz ana shu vaziyatni anglab oladi.

Otamiz ana shu vaziyatdan kelib aytadi:

– Daryo bo‘yini olib yotasizlar, deb edim, – deydi. – Bular boshqa joyni olibdi-da.

Otamiz shunday deya-deya, tevarak-boshga olazarak-olazarak boqadi.

– Kimni aytayapsan? – deydi Chanishev.

– Kimni bo‘lardi – jigitlarimni-da.

– Sen bizning kelishimizni bilib edingmi?

– Chanishev! Sen meni o‘zingdayin bir to‘pori kofir deb o‘ylab edingmi? Esa-chi, bilib edim, esa-chi. Jigitlarimga daryo yoqasida angnib yotinglar, deb tayinlab edim.

– Jigitlaring endi qayerda qaraydi?

– Qayerda bo‘lardi – Xudoni bir yerida-da. Hali yo‘limizda Hayitkalni jari keladi. Anbarsoy keladi, Qizilsuv keladi...

Qizillar yo‘llarida davom etishlarini-da bilmaydi, qishloqqa qaytib borishlarini-da bilmaydi.

21

Otamiz ana shunda gap indallosidan oladi:

– Chanishev! – deydi. – O‘zi, meni qayoqqa olib ketayapsan?

– Yurchiga.

– Undan keyin-chi?

– Toshkanga.

– Toshkandan keyin-chi?

– O‘rusiyaga.

– O‘rusiyaga olib borib nima qilasan?

– O‘rusiyada sud bo‘lsan.

– Chanishev! Sud-bud, deb o‘tirma-da, jigit gapni ayt:

Sho‘ro hukumati meni nima qiladi?

– Nima qilardi, sud kesadi.

-
- Nimani kesadi?
 - Kallangni kesadi!
 - Otamiz Chanishev gapidan rozi bo'ladi.
 - „Jigit gap bo'ldi, – deya o'ylaydi. – Bo'lmasa o'z oyog'i bilan qassobxonaga borajak molday bo'p ketaberar edim“.
 - Chanishev! – deydi otamiz. – Xudodan-da o'tdi, bandadan-da o'tdi.
 - O'tdi, Aqrab qo'rboshi, bari o'tdi
 - Xudo bilibmi-bilmaymi, sen o'rislarni yurtimizga hay-dab keldi...
 - Bari o'tdi-ketdi, Aqrab qo'rboshi. Endi biz senga to'ng'ich aka bo'lamiz. Sen esa bizga kenja uka bo'lasan.
 - Xudo bilibmi-bilmaymi, biz musulmonlar qo'liga miltiq berdi. O'rislarni ot, dedi.
 - Bari o'tdi, Aqrab qo'rboshi, biz aka-uka bo'lamiz.
 - Aka-uka bo'lasan? Chanishev! O'zi, kofir o'z oti bilan kofir ekan-da! Musulmon bilan kofir qachon aka-uka bo'lib edi-da, endi bo'ladi?
 - Bo'ladi, mana biz bo'lamiz. Sharqda yaxshi-yaxshi sharqona urf-odatlar bor. Masalan, Sharqda kichiklar kattalarga itoat etadi. Shunday ekan, sen bizga itoat etasan.
 - Chanishev! O'lsam o'laman – lekin sen o'rislarga uka bo'lmayman!
 - Bo'lasan, shunday kun keladi, bo'lasan. Akayam gap-mi, hali Leninni otam deysan. Krupskayani onam deysan.
 - Chanishev! O'lsam o'laman – lekin sen o'rislarni akam demayman!
 - Deysan, shunday kun keladi, deysan. Deyish ham gap-mi, hali kallayi saharlab assalom, katta akam, deya ashula aytib salom berasan.
 - Musulmon bilan kofir bu dunyo tugul, u dunyoda-da el bo'lmaydi. Boisi, musulmon mozorga kofirni ko'mib bo'lmaydi, kofir mozorga musulmonni ko'mib bo'lmaydi. Shunday ekan, musulmon bilan kofir u dunyoda-da aka-uka bo'la olmaydi.

- Bo‘ladi, o‘rtoq Lenin g‘oyalari shunday, bo‘ladi.
- Unda, o‘sha Lenining qushmiya odam ekan!
- O‘rtoq Leninga tilingni tekkizma, tuzemets!

22

– Chanishev! Ayb senda-da bo‘lmadi, ayb menda-da bo‘lmadi. Bari Xudodan bo‘ldi! Chanishev! Sendan tilayajak bir tilagim bor. Ana shu tilagimni bajo keltir. Ana shunda, senda bola-baqrang oldiga borasan, men-da bola-baqram oldida qolaman.

- Ayt, ayt qani?
- Sen oldin, bajo keltiraman, deya so‘z ber. Ana undan keyin aytaman.
- So‘z beraman! Ana, endi ayt.
- Chanishev! Meni mana shu yerda ot!
- Qayerda-qayerda?

Otamiz o‘ng oyog‘i bilan yer tepib-yer tepib aytadi:

– Mana! Mana shu yerda ot!

Qizillar bir-biroviga qarab-qarab oladi. Qizillar kalla chayqab-kalla chayqab oladi.

– Chanishev! – deydi otamiz. – Men o‘zbakman, o‘zbak! O‘zbak qayerda tavallud topadi – ana o‘sha yerda umr kechiradi! Chanishev! Baliq jannatmakon sohilda bo‘lsa-da, o‘lib qoladi. Balchiqdan-balchiq suv bo‘lsa-da, tashlab yuborsa bo‘ldi – tag‘in tiriladi-qoladi. Chanishev! O‘zbak-da ana shunday! O‘zbakka jannatmakon-da tatimaydi. O‘zbak jannatmakonda-da o‘z el-yurtini qo‘msab-qo‘msab ado bo‘ladi. O‘zbak jannatmakondan do‘zaxmakon paxtazorini qo‘msab-qo‘msab qaytib keladi.

- Xo‘p, boraylik qani.
- Chanishev! O‘zbak qayerda tavallud topadi – ana o‘sha yerda o‘ladi! O‘zbak o‘z el-yurtida o‘ladi! O‘zbak o‘z o‘lan-to‘shagida o‘ladi! O‘zbak – ana shunday o‘zbak!
- O‘limga mahkum uchun yerni farqi nima, tuzemets, – deydi Uspenskiy.

-
- O'ris! Chin, sen uchun farqi yo'q, chin. Qayerda xushhavo tabiat bo'ladi – o'sha yer o'ris uchun yurt bo'ladi. Qayerda qorni to'yadi – o'sha yer o'ris uchun yurt bo'ladi. O'ris – ana shunday o'ris!
 - El-yurt, el-yurt deysan, o'zi, O'zbakiyada seni ko'mish uchun el-yurt qoldimi? – deya hiring-hiring kuladi Uspenskiy. – Ikki milyon bosmachi qirib tashlandi, deyishayotib edi-mi, Rudzutak?
 - Shunday, ikki milyon bosmachi qirib tashlandi, shunday, – deydi Rudzutak.
 - Ana, ikki milyon el-yurting asfalosofilinga safar qilibdi.
 - Topiladi! – deydi otamiz. – Bir meni o'rab-chirmab ko'-majak el topiladi. O'zbak elini qirib ado etolmaysan. O'zbak eli – katta el.
 - Hali tag'in qiramiz! – deydi Kolesov.
 - Asfalosofilinda turkiy tuzemetslar uchun tag'in milyonta joy tayinlab qo'ydik, – deydi Uspenskiy.
 - O'ris! Sen ana shunday o'lasan! O'ris qayerda o'la-di – o'ligi o'sha yerda qoladi. O'ris uchun o'lar yeri mozor bo'ladi. Mozoriga bir xochcho'p qadab ketadi – bo'ldi! O'ris! O'zbak qayerda o'la-di – o'ligini o'z el-yurtiga olib keladi. O'zbak o'ligini o'z qiblagohiga ko'madi. O'zbak o'ligini o'z bosh-tojiga ko'madi. Shu bois, o'zbaki qabriston qiblagohda bo'ladi!
 - Xo'p, oldin boraylik, bir gap bo'lar, – deydi Chani-shev.
 - Chanishev! Sen meni O'russiyaga olib borasan-da – paqillatab otib tashlaysan. Qaysi bir o'ruga kafansiz ko'mib tashlaysan. Vatan gadosi – kafan gadosi bo'lib o'laman. Kafansiz o'ligimni kim el-yurtimga olib kelib ko'madi? Kafansiz o'ligim it o'likdayin O'russiyada qolib ketadi! Ana undan keyin, bola-baqram meni qayerlardan yo'qlab yig'laydi? Bola-baqram qayerlarga borib otamlab yig'laydi? Bola-baqram qaysi mozorim boshiga borib yig'laydi?

Bola- baqram ulug' ayyom kunlarda qaysi mozorimga chiroq qo'yadi? Shunday ekan, otarman bo'lsang, mana, ko'krak – ot! Lekin – o'z el-yurtimda ot! Shahid bo'lsam – o'z el-yurtimda shahid bo'layin! Shahidimni o'z el-yurtim ko'msin!

Ana shunda Chanishev otini qayiradi. Otamiz bilan muqobil bo'ladi. Chanishev mulzam bo'ladi!

– Aqrab qo'rboshi, – deydi sokin-sokin. – Men seni bir yo'lto'sar deb eshitib edim. Bir kallakesar deb eshitib edim. Bir vahshiy deb eshitib edim. Inchunun, o'g'riyam deb eshitib edim! Seni mana endi bildim. Aqrab qo'rboshi, sen asl jigit ekansan, asl jigit!

Chanishev sukut oladi.

– Aqrab qo'rboshi, – deydi. – Ixtiyor menda bo'lsa edi, men seni hoziroq ozod etar edim. Ixtiyor menda bo'lsa edi, men seni o'zimga o'rribosar qilib olar edim. Ming afsus! Aqrab qo'rboshi, men – polkovnik Chanishev, davlat arbobi Kuybishev oldida otdan tushmadim, men – polkovnik Chanishev, buyuk sarkarda Frunze oldida otdan tushmadim. Aqrab qo'rboshi, men – polkovnik Chanishev, Aqrab jigit oldida otdan tushaman!

Chanishev shunday deya, vazmin-vazmin otdan tushadi.

Bir qo'lida yugan Chanishev otamiz qoshida bosh egib-bosh egib turadi.

– Jigit!.. – deydi Chanishev.

– Chanishev! Bir qadam-da bosmayman! Men mana shu el-yurda jon beraman!

– Juda bo'imsa, Yurchigachayin boraylik, jigit?

– Chanishev! Oshingni yesa-da, mard yesin, boshingni yesa-da, mard yesin! Mana ko'krak – ma!

23

Otamiz tilamish tilak bajo bo'ladi. Qizillar shahid otamizni bug'doyzorda tashlab ketadi.

El-yurt otamiz qoni to'kilmish tuproqni devor bilan o'rabi oladi. El-yurt otamiz jon bermish tuproq uzra oppoq yalov qadab oladi. El-yurt Aqrab shahid poyidan o'ta-o'ta bir oyoq ilib oladi. El-yurt Aqrab shahid uchun fotiha o'qib-o'qib oladi.

UCHINCHI BOB

1

Tong saharlab ko'chalayman.
Shaxdam-shaxdam qadamlayman.
– „Yur, tuzemets, yur!“
Qo'llarimni uzatib-uzatib qadamlayman.
– „O'chir, churka, o'chir!“
Miltiq peshlab-miltiq peshlab qadamlayman.
Shunda, peshonamdan bir soya kela beradi.
– Eb-ey, eb-ey, Dehqonqul? – deydi soya. – Ay, Dehqonqulmisan? Miltiq o'qtalib-o'qtalib bora beraman.
„O'chir, tuzemets, o'chir! – dcyman. – Sen – mocha churka! Yurting – Churkiston!
Soya qimir etmay qoladi.
Shu mahal onamiz ketimdan qanday doxil bo'ladi – bilmay qolaman. Ketimdan qanday quchoqlab oladi – bilmay qolaman.
Qoshimda qotmisht soya ko'ksiga tupura-tupura kalima qaytaradi.
– Ay, Bolxin hamsoya, – deydi soya. – Shuginangiz bir ba-loqa yo'liqqan-ov. Uljon folchiga fol ochirib kelsangiz bo'lardi.
– Folchi nimayam derdi, Xoldon hamsoya.
– Folchi aytadi-da, Bolxin hamsoya, folchi aytadi.
– O'zi – bo'lgan-bo'l digi shul, xolasi.
Bo'lgan-bo'l digi shul, bo'lgan-bo'l digi shul! O'takamni yorib yuborayin, dedi! Bovujud, bo'yimda yo'q – bo'yimdan tushirardi-qo'yardi!

— Bolada ne ayb, xolasi. Bovasi shunday edi, otasi shunday edi, bolasi-da shunday bo‘ladi-da.

2

Direktorimiz barchamizni ulkan sinfxonaga soladi.

— Maylis bo‘ladi! — deydi.

Sinfxona liq to‘ladi. Tik turish uchun joy qolmaydi. Direktorimiz eshikni ichkaridan qulflab joriya etadi:

— O‘rtoqlar, beshinchisinfidan boshlab barcha paxta frontiga safarbar etiladi!

— O‘ynab qo‘yay, beshinchidan, o‘ynab qo‘yay, deyman!

To‘rtinchidan beshinchiga ko‘chganlarimga pushaymon bo‘laman.

Uninchisinf gap qaytaradi:

— O‘qish nima bo‘ladi, domla, o‘qish nima bo‘ladi?

Direktorimiz shahodat barmog‘ini shipga nishlaydi. Tantanavor-tantanavor nishlaydi.

— Paxtazor — daftaring bo‘ladi, g‘o‘zalar husni-xating bo‘ladi! — deydi.

Muallimlarimiz uyma-uy yuradi. Kiyim-boshlarimiz bilan ko‘rpa-to‘saklarimizni oldirib keladi.

Men onamiz berib yubormish bo‘xhani olib qarayman: bo‘xchada ikkita ko‘rpacha bo‘ladi. Ikkita non bo‘ladi. Mayiz bo‘ladi, to‘rtta moyak bo‘ladi.

Men moyaklarni archib-archib yeb olaman.

3

Eshik tushdan keyin ochiladi.

Direktorimiz jug‘rofiya tayog‘ini eshikka nish etadi.

O‘rtoqlar, birov-birovdan olg‘al! — deydi.

Men bo‘xhamni orqalab tashqarilayman.

Maktabimiz darvozasi oldida to‘rtta katta mashina bo‘ladi.

Muallimlarimiz maktabdan mashinagachayin ikki saf bo‘lib turadi.

Men ana shu saf orasidan mashina yo'l olaman.

Katta sinflar bo'xchalarini mashina ichiga otib-otib tu-shiradi.

Men-da, bo'xchamni otaman – bo'xcham yelkamga qay-tib kelib tushadi. Tag'in otaman – bo'xcham ko'ksimga qay-tib kelib tushadi.

Fizika muallimimiz bo'xchamni mashina ortib beradi. Oyog'imdan oladi-da, o'zimni-da ortadi.

Jo'na-jo'na bo'ladi.

Ota-onalarimiz bot-bot tayinlab qoladi:

- Ariqdan suv ichma – paxtaga dori sepad!
- Samolyot dori sepa bersa – bekinib ol!
- Qiynalsang – qochib kela ber!
- Mabodo qochaman desang – katta yo'l chetginasidan yurjin!

Mashina ohista-ohista jiladi.

Ota-onalarimiz qo'l silkib-qo'l silkib qoladi. Birov ko'zi-ga yosh oladi. Birov yupatadi:

- Bo'ldi-ye, bolangiz frontga ketayaptimi!
- O'z oti o'zi bilan paxta fronti-da!
- Jobida bir mashina yordamchi bola soyga ag'nab ketibdi!
- Bolalar kori hol bo'lmabdimi?
- Eb-ey, bola qolibdimi!..

Yo'lda bolalar qo'shiq aytadi. Kim qandaychikin qo'shiq biladi – ana shu qo'shiqni aytadi.

Shunda, mashina yo'l chetlab oyoq iladi.

Direktorimiz kabinadan tashqarilaydi. Kabina pillapoyasida tikka bo'ladi.

– O'rtoqlar, o'lan-laparlar aytmanglar! – deydi. – Partiya-sovet qo'shiqlaridan aytninglar!

Mashina yuradi-yuradi – Stalin kolxozi maktabi oldida oyoq iladi. Men bo'xchamni gursillatib yer tashlayman. Bo'xcham ketidan o'zim osilib tushaman. Maktab qorovu-

li huvillab yotmisht sinfxonalarni ochib-ochib beradi. Men bo‘xchamni orqalab ichkari lo‘killayman. Katta sinf sinfxona to‘rini oladi. Mayda sinf ostona oldida qoladi.

Men deraza ostini olaman. Bo‘xchamni gupillatib tashlayman-da – ustiga uzala tushib yotib olaman.

– O‘ynab qo‘yay, deraza ostidan, o‘ynab qo‘yay! – deyman.

O‘ninchি sinf bolalar gapimdan kulishib-kulishib gapirishadilar:

– Nega shu bola gapi o‘rolida o‘ynab qo‘yay, deydi?

– Odati-da.

– Nega o‘ynab qo‘yay, deydi?

– Kim biladi. Ziyod degichi gapi o‘rolida masalan, masalan, deydi. Shunday gap-da.

Shu vaqt joy janjali bo‘ladi.

Birov-birovini bo‘xhasini nari suradi. Birov-birovini bo‘xhasini nari otadi. Birov-birovi bilan olishib qoladi.

Devorda osig‘liq ulkan bitiktaxta taraq etib tushadi.

Bitiktaxtada qolmish bitikka ko‘zim tushadi:

„5 sentyabr.

Sarlavha: Sovet xalqi 1980-yilda kommunizmda yashaydi“.

Bolalar bitiklarni ovoz chiqarib-ovozi chiqarib o‘qiydi.

– Bechoralar! – deydi. – Bu yil haqida bor-yo‘g‘i besh kun o‘qibdi-ya!

– Qaytanga biz maza qilibmiz – bir oy o‘qibmiz!

5

Yotarda to‘sagimni yoyib yotaman. Birov gapirishib yotadi. Birov matal aytishib yotadi. Birov uxbab yotadi.

Shunda, kimyo muallimimiz kirib keladi.

– Turinglar, direktor kelayapti! – deydi.

Bolalar mudrab-mudrab direktorimiz yo‘lini qaraydi.

Direktorimiz qo‘li ketida kirib keladi. O‘ngida jug‘rofiya muallimimiz bo‘ladi, chapida fizika muallimimiz bo‘ladi.

Bolalar joylaridan bir turib oladi.

Direktorimiz tevarak-boshga qayg‘uli-qayg‘uli nazar soladi.

– O‘rtoqlar! – deydi. – Men hozir markazdan – byurodan keldim! Vaziyat yomon, o‘rtoqlar, ha, yomon! Terim sust bormoqda, o‘rtoqlar, terim sust bormoqda! O‘rtoqlar, qo‘lni qo‘lga berib, jon-jahdimiz bilan mehnat qilib, ona sutiday oppoq, halol „oq oltin“ imizni yig‘ib-terib olaylik! O‘rtoqlar, paxta bizning ko‘zimizni emas, biz paxtaning ko‘zini qo‘rkitaylik! O‘rtoqlar, ko‘z qo‘rkoq, qo‘l botir, jasoratga biz qodir! Byuroda rayon partiya komiteti birinchi sekretari, hammamiz uchun hurmatli va aziz o‘rtoq Mavlonov ana shunday dedi, o‘rtoqlar!

6

Direktorimiz saharlab na’ra tortadi:

– Pod’yom!

Men sapchib turaman. Uyqu aralash tashqarilayman. Karaxt-karaxt bet-qo‘l yuvaman.

– Stroysya!

Men bo‘ysira bo‘laman. O‘zimni bo‘ysiraga sozlayman.

– Smirno!

Men tayoq bo‘lib qotaman.

Muallimlarimiz idish-toboq tarqatadi.

– O‘rtoqlar, bir kunlik norma sakson kilo! – deydi direktorimiz.

O‘ninchisinf e’tiroz bildiradi:

– Kolxozchilarni bir kunlik normasi oltmisht kilo-ku, domla?

– To‘g‘ri, oltmisht kilo! Lekin sizlar yordamchisizlar! Yordamchilar kolxozi hisobidan ovqat yeydi! Qo‘sishimcha yigirma kilo ana shu kunlik ovqat uchun ushlab qolinadi! Tushunarlimi? Qani, paxta fronti sari olg‘a, o‘rtoqlar!

O‘ninchisinf oldinda boradi. „O‘quvchi yordamchilarga alangali salom!“ degich alvon ko‘tarib oladi.

– Qo‘sish aytaman desalaring, partiya-sovet qo‘sishlari dan aytinqlar! – deydi direktorimiz.

Ammo birov-da qo'shiq aytmaydi.

– Front, front deydi, – deydi bolalar, – frontda pulemyot beradi, avtomat beradi.

7

Men umrimda ilk bor... ilk bor paxtazor deya atalmish dala bilan yuzma-yuz bo'laman. Men umrimda ilk bor... ilk bor g'o'za deya atalmish nihol bilan yuzma-yuz bo'laman. Paxtazor boshida serrayib qolaman. Etagimni qanday boy-lashimni bilmayman, o'ninchi sinfdan so'rayman.

O'ninchi sinf jerkib tashlaydi.

Men endi Adabiyotga yuz solaman.

Adabiyot etagim ikki uchini belimga aylantirib boylaydi.

Tag'in ikki uchini bo'ynimga osib tugadi.

Men umrimda ilk bor g'o'za enkayaman.

„Ebo-ey, muncha paxta! – deya xayollanaman. – Shularni barini terib olamanmi? Oldin qaysi birini olaman? Yuqorida-gini olamanmi yo quyidagini olamanmi?

G'o'za uchida turmish paxtani qo'shqo'llab ushlayman. Kaftlarim jiqla shudring bo'ladi.

Bir chanoq paxtani cho'zib-cho'zib tortaman. Kaftlarim-da uqalab-uqalab olaman. Puflab-puflab shudringini quritaman. So'g'in – etagimga solaman.

Etagimni lang ochib qarayman – bir chanoq paxta etagim bir burchida oppoq moyakday bo'lib turadi. Arang ko'rindi!

Etagimni ko'tarib-ko'tarib qarayman. Muncha chuqurni qaytib to'ldiraman, deya o'ylayman.

Hafsalalarim pir bo'ladi. G'o'zalarga erinib-erinib qarayman. O'ng-chaplarimga erinib-erinib qarayman.

O'ynab qo'yay, paxtalaridan, o'ynab qo'yay, shu paxta degichni kim o'ylab chiqardi ekan-a, deyman.

Bolalar oldinlab-oldinlab boradi. Boshlari paxta ichida ko'riniib-ko'riniib boradi.

Bellarim og'rib-og'rib qoladi. Qo'llarim tolib-tolib qoladi.

Qaddimni ko'tarib-ko'tarib kerishaman. Ketimga chalqayib-chalqayib kerishaman.

Shunda, bir maza qilaman, bir maza qilaman!

8

Bir mahal Fizika qabatimdan kelib qarab turadi.

Men bir qo'lim bilan g'o'za uchidan ushlab turaman. Bir qo'lim bilan g'o'za paxtalarini birov-birovlab terib olaman. Paxta chang-g'uborlarini puflab-puflab etagimga solaman. Fizika og'zini ushlab-ushlab kuladi.

– Ay, Dehqonqul-a, Dehqonqul! Nimaga keyinda qolayapsan desam, gap buyoqda ekan-da, – deydi. – Kim aytadi seni, og'iroyoq boshi bilan hammadan ko'p paxta tergan Bolxin terimchining bolasi deb?

Fizika chin aytadi – kattalar o'z vaqtida onamizni ana shu Stalin kolxoziga paxtaga haydaydi.

Onamiz oyoq tiraydi, og'iroyoqman, deydi.

Kattalar, paxta og'iroyoqni bilmaydi, deydi.

Onamiz tongdan shomgacha paxta teradi. Musobaqada g'olib bo'ladi. Bayroq oladi. Surati bilan ro'znomada chiqadi.

Oy-kuni bo'lmasa-da, onamizni egatda dard tutadi.

Onamiz egatda ichlarini ushlab-ushlab voy-voylaydi.

„Erkaklar bilan teng huquqli bo'lmay men o'layin-a! – deydi. – Sharqda mash'al bo'lmay men o'layin-a!“

Oppoq dalani chala chaqaloq ovozi oladi...

Fizika ko'z-ko'z etib paxta teradi.

– Ana, ana! – deydi. – Ko'rayapsanmi? G'o'zani ushlab turma – g'o'za qochib ketmaydi. Ikki qo'ling ham chanoqda bo'lsin.

Men Fizika aytmishdayin teraman.

9

Kimyo qiytiqda kaft karnay etadi.

– Tushlik! – deya ovoz beradi.

Etagim to‘lar-to‘lmas bo‘ladi. Tepkilay-tepkilay tarozi orqalab boraman.

– Uch kilo! – deydi tarozibon.

Bolalar gurr kuladi.

Qiytiqda etak to‘shayman.

To‘shagim-da etagim bo‘ladi, dasturxonim-da etagim bo‘ladi.

Non bilan choy tushligim bo‘ladi.

Tushdan keyin ikki kilo teraman.

10

Yotarda yo‘qlama bo‘ladi.

Direktorimiz ko‘p teruvchilarni bir saflab ulug‘laydi.

– Mash‘allarni ko‘ring – havas qiling! – deydi.

Oz teruvchilarni bir saflab mazzallatlaydi.

– Qoloqlardan hazar qiling, hazar! – deydi.

Direktorimiz sho‘ro paxtasidan nimalar olinishini barmoqlab-barmoqlab sanab beradi:

– Bir tonna sovet paxtasidan ikki ming to‘rt yuz yigirma metr gazlama, sakson olti kilo moy, ikki yuz yigirma olti kilo kunjara, o‘n besh kilo kirsovun... olinadi! Shu sababdan ham sovet paxtasi „oq oltin“ deyiladi! Sovet „oq oltin“ini termaslik – jinoyat!

Tikka tura berib, oyoqlarim zirq-zirq toladi. O‘zimni bir o‘ng oyog‘imga tashlayman, bir chap oyog‘imga tashlayman.

– Ertaga tayin bajaraman, – deya qutulaman.

11

Ertasi Fizika o‘rgatmishdayin teraman. Jon-jahdim bilan teraman. O‘n kilo teraman – o‘n kilo! Yotarda tag‘in tikka turaman.

– O‘rtoqlar, men bugun byuroda bo‘ldim! – deydi direktorimiz. – Shaxsan o‘rtoq Mavlonov oldida bo‘ldim! O‘rtoq Mavlonov mash‘allarga ofarinlar aytди!

Direktorimiz qulog‘imdan cho‘zadi.

– Sen atalalarни esa jazolansin, dedi, ha, jazolansin, dedi! – deydi. – Jazolayman, ha, jazolayman! Buni paxta fronti deb qo'yibdi! Paxta fronti javobgarlikka tortadi! Paxta fronti qamatadi!

Tikka tura berib, uyqularim kelib ketadi.

– Ertaminan g'ayrat qilaman, – deya so'z beraman.

12

Bir hafta o'tadi, ikki hafta o'tadi.

Azzancha kuchanmayin – o'z kuchimdan ziyod terolmayman.

O'n kilodan oshib o'tolmayman!

Holdan toyib-toyib qolaman. Egat ichida o'tirib-o'tirib qolaman.

Jug'rofiya dala boshini olib turadi. Kimyo dala adog'ini olib turadi. Birorta bola ko'rinnmay qolsa bo'ldi – darrov ba-qiradi:

– O'-o', Egamov, tur! O'-o', Nazirova, nimaga ro'moling ko'rinnmay qoldi?! Tur, kun ketayapti!

Men mudrab-mudrab o'tiraman.

– O'-o', Jamoliddinov, karmisan – indamaysan?!

Men o'zimni eshitmaslikka olib o'tiraman.

Kimyo egat oralab keladi.

– O'-o', Jamoliddinov, nima balo, o'lib-po'lib qolding-mi? – deydi.

Men shunda-da tura bermayman.

Shunda, Kimyo xivich bilan oyoqlarimga soladi.

Men tura solib paxta teraman.

13

Terimchilar tera beradi – terolmovchilar kuchanib yuraberadi.

Direktorimiz yonadi.

– Yeganing burningdan chiqqurlar! – deydi. – Men senlar uchun byuroda gap eshitdim! O'rtoq Mavlonov byuro ahli ol-

dida izza qildi! Yo‘q, men senlar uchun izza bo‘lmayman! Yo paxta terdiraman, yo terilaringni shilib olaman!

Direktorimiz bir qulochcha g‘o‘zapoya tarashlab keladi.

G‘o‘zapoya uchi shoda-shoda ko‘sak bo‘ladi. G‘o‘zapoya uchi ko‘k-ko‘k ko‘sak bo‘ladi. G‘o‘zapoya uchi moyakday-moyakday ko‘sak bo‘ladi.

Direktorimiz safboshi Ziyod bilan muqobil bo‘ladi. Ziyodni iyagidan tutamlaydi.

– Nima uchun oz terasan?! – deya zug‘umlaydi. – Ayt, nima uchun oz terasan?! Davlat seni nima uchun o‘qita-yapti?! Davlat seni nima uchun boqayapti?! Manavi Qorayev sakson-to‘qson kilo teradi! Qorayevdan qayering ziyod, ayt, qayering ziyod?!

Ziyod qalt-qalt javob beradi:

– Qorayev o‘ninchisinf, men beshinchi sinf, masalan.

– Jirillama! Beshinchi sinf bilan o‘ninchisinf farqi yo‘q!

Bari katta sinf sanaladi! Ayt, normani bajarasanmi yo‘qmi – bajarasanmi yo‘qmi!..

Direktorimiz g‘o‘zapoya bilan Ziyod yelkalari osha uradi. Ziyod bellari oralatib uradi. Ziyod bilaklari bilan bet-boshini pana etadi. Ziyod zorillab-zorillab yig‘lab qo‘ya beradi:

– Bajaraman, masalan, bajaraman!..

Direktorimiz musht do‘laytirib-musht do‘laytirib do‘q-
laydi.

– Bajarmay ko‘r – oyog‘ingdan osaman! Byuro ana shunday dedi!

14

Uydan olib kelmish bor kiyimlarimni yetti qabat kiyib olaman. Telpagim qulqlarini tushirib olaman. Iyagimdan aylantirib, boylab olaman.

Yo‘qlamani ana shunday shaylanib qarab o‘tiraman!

Nihoyat, direktorimiz keladi. Yo‘qlama boshlaydi. Oz teruvchilar otini aytadi.

Oz teruvchilar devor qoralab saf bo‘ladi.

Direktorimiz oz teruvchilar birovini lab-lunjidan cho'zadi. Birovini telpagi bilan betiga uradi. Birovini peshonasidan ketiga itarib tashlaydi.

Direktorimiz men bilan betma-bet bo'ladi.

– Ey! – deya iyagimdan ko'taradi. – Joning bormi o'zi?! E, o'l-e, odam bo'lganing bilan-e! Odam degan o'n kiloyam paxta teradimi-a? O'n kilo-ya?!

Men direktorimiz meni kamsitayapti, deb bilaman. Men, direktorimiz bugungi muvaffaqiyatimni ko'rib-ko'rmaslikka olayapti, deb bilaman. Boisi – bugun o'n bir kilo tergan bo'laman, o'n bir kilo! Shu bois, o'zimni o'zim oqlayman:

– O'n bir kilo... – deya ming'illayman.

Direktorimiz og'iz to'ldirib-og'iz to'ldirib uv-uvlaydi.

– U-u-u, o'n bir kilo! – deydi. – O'n bir kilo-ya, u-u-u! Buncha paxtani qanday qilib terding-e? Qoyil-e!

Muallimlarimiz piq-piq kuladi.

– Sichqon bir kunda iniga yiqqan paxta o'n bir kilo bo'ladi! – baqiradi direktor. – Jasadingni qara! Jasadingdan eshak hurkadi! O'l-e, shu kuningga-ye! Menga qara, qachon normani bajarasan?! Ayt, qachon, qachon, qachon!..

G'o'zapoya yelkalarim oralab-oralab tushadi. Zarbli-zarbli tushadi. Tars-tars tushadi.

Ikkita ko'k ko'sak yelkalarimdan oyoqlarimga uchib tushadi.

Ust-boshim yetti qabatligadan ko'k ko'sak tayoq o'tmaydi.

Ko'k ko'sak tayoq endi qo'llarim oralab-qo'llarim oralab tushadi.

Tayoq o'tadi – ana shunda o'tadi!

– Enajon, o'ldim-e, enajon-e!.. – deya zor-zor yig'layman.

– Bajaraman de, bajaraman de!..

– Bajaraman, jon domla, bajaraman! Direktorimiz bir op-poq tolani boshi uzra ko'z-ko'z etadi“

– Ana, ko'rayapsanmi, ana! – deydi. – Paxta sirtidan ana shunday oppoq bo'ladi!

Direktorimiz tolani chigitlaydi. Ichidan chigitini oladi.

Direktorimiz qop-qora chigitni ko‘z-ko‘z etadi.

– Paxta aslida mana bunday ichi qora bo‘ladi! – deydi.

– Paxta – ichi qora mato! Paxta odamzodni indamay boplaydi! U dunyo-yu bu dunyo o‘ngarilmas qiladi! Byuroda o‘rtoq Mavlonov ana shunday dedi!

Direktorimiz yoqamdan changallaydi. Yerdan dast ko‘tarib oladi. Tag‘in yer tashlaydi.

– Paxta sen mafkurasi buzuqni ko‘zingni o‘yib oladi! – deydi. – Bilasanmi, sen kimsan? Sen – bosmachisan, bosmachi!

Men chinqirib-chinqirib yig‘lab qo‘ya beraman. Men yer tepib-yer tepib yig‘lab qo‘ya beraman.

Men jon-jahdim bilan direktorimizni tizzasiga yopishaman.

Men direktorimiz tizzasini tatalab-tatalab tashlayman.

Men direktorimiz tizzasini tishlab-tishlab tashlayman.

Muallimlarimiz oracha etadi.

– Ana, ko‘ryapsizlarmi, o‘rtoqlar? – deydi direktorimiz. – Qazisan, qartasan, axir, naslingga tortasan! Buning otasi Aqrab bosmachi edi! Sovet tuzumi dushmani paxta terarmidi!

15

Alp-alp odimlab boraman.

„Qo‘lingni ko‘tar, bosmachi!“

Miltiq o‘qtalib-o‘qtalib boraman.

„Qimirlama, bosmachi!“

Miltiq tepkisini sharaq-shuruqlatib boraman.

„Otaman, bosmachi, otaman!“

Bir qo‘l yelkamdan ushlaydi. Betlarimga shapatilaydi.

– Ko‘zingni och, Jamoliddinov, ko‘zingni och! – deydi.

Ana shunda o‘zimga kelaman.

Tun qora bo‘ladi.

Yo‘l chapi paxtazor bo‘ladi, yo‘l o‘ngi yotoq bo‘ladi.

Men yo‘l o‘rtasida bo‘laman.

Shu vaqt tag'in birov keladi.

– Nima gap, Hamzayev? – deydi.

– Manavi valdirvasar bo'lib ketib borayapti.

– Shabko'rdir-da.

Ovozlarni tanib olaman – birovi Jug'rofiya bo'ladi, birovi Adabiyot bo'ladi.

Jug'rofiya o'ng qo'limdan olib keladi, Adabiyot chap qo'limdan olib keladi.

Yotoqda bolalar pish-pish qotadi.

16

G'o'zapoya Ziyod yelkalarida tars-tars etadi. G'o'zapoya ko'k ko'saklari uchib-uchib tushadi. G'o'zapoyada bitta-da ko'sak qolmaydi.

– Sattorov! – deydi direktorimiz. – Boring, boshqa g'o'-zapoya olib keling! Adabiyot chopqillab tashqarilaydi. Bir g'o'zapoya tarashlab keladi.

G'o'zani uchlari ko'saksiz bo'ladi.

– Men qoqcho'p bilan chilik o'ynaymanmi?! Boring, ko'saklisidan olib keling!

Direktorimiz shunday deya, g'o'zapoyani tashqari otadi.

Adabiyot shoda ko'sak g'o'zapoya olib keladi.

– Endi, oshpazni aytib keling!

Adabiyot o'ninchi sinf qizni ergashtirib keladi. Direktorimiz oshpaz qizga ro'yxat uzatadi.

– Elomonova! – deydi. – Ertadan boshlab manavi tekin-tomoqlarga go'shtsiz ovqat berasan! Agar ushoqday go'sht bersang – kuningni ko'rasan!

Shu-shu – kosam go'sht ko'rmaydi.

17

Jiva qoshig'imni yo'qotib qo'yaman,

Oshpaz qizdan qoshiq so'rayin deyman – direktorimizga aytadi, deya qo'rqaman.

Shu bois, Nuralini kosasiga qo'shilaman.

Ziyod bilan Meliyam qo'shiladi – ular-da qoshiq yo'qotadi.

To'rtovora bir kosa bo'lamiz.

Qoshiq Nuralidan boshlab aylanadi.

Nurali ikkov ichadi – Meliga qoshiq tashlaydi. Meli ikkov ichadi – Ziyodga qoshiq tashlaydi. Ziyod ikkov ichadi – men-ga qoshiq tashlaydi.

Gir-gir aylanmish qoshiqdan ko'z ayirmay turaman.

Uchov ichuvchi bo'lsa – darrov bilagidan qo'shqo'llab ushlayman. Qo'lidan qoshiqni yulib olaman.

– Uchov ichding, uchov! – deyman.

18

Ichim burab-burab qoladi. Ichim qabz etib-qabz etib qoladi.

Dardim ichimda bo'ladi.

Kundan-kun darmondan qolaman.

Maktab futbol maydoni badrabxonamiz bo'ladi.

Kallayi saharlab futbol maydoniga chopqillayman. May-don duch kelmish yerida o'tira qolaman.

Tevarak-boshimga uyqusirab-uyqusirab alanglayman.

Tevaragimda oyoq bosar yer juda-juda kam bo'ladi.

Shunda, ajab bir nimalarni ko'raman. Ko'zlarimni uqa-lab-uqalab ko'raman.

Tevarak-boshim qip-qizil qon bo'ladi! Tevarak-boshim sap-sariq qon bo'ladi! Tevarak-boshim to'da-to'da qon bo'ladi!

Ko'rmayin deya, chakkamni kaftimga qo'yib olaman. Ko'zlarimni yumib olaman.

Bir mahal birov yelkamdan turtadi.

Men seskanib ko'zimni ochaman – boshimda Ziyod turadi.

– Uxlama, ichburug'! – deydi.

Men lik etib turaman. Ketinga qarayman.

Futbol maydonda tag'in bir to'da qon bino bo'ladi.

19

Tushlik choy qaynay bermaydi.

Men oftobda choy qaynashini qarab yotaman.

Shu mahal dala yo'lidan bir mashina keladi.

Mashinadan shlyapali odam tushadi.

– Hormanglar, bolalarim! – deydi.

Brigadir bilan qo'l berib ko'rishadi.

– Uf-f, bir piyola choy ber-e, baraka topkur-e! – deydi.

– Choy endi qaynaydi, – deydi brigadir.

Shlapali odam xirmon bag'rida yonboshlaydi. Shlapasini xirmonga tashlaydi.

Shu vaqt tag'in bir mashina xirmon qoralab keladi.

Mashinadan direktorimiz tushadi.

Direktorimiz u yerda-bu yerda yotmish bolalarga bairradi:

– Bu nima yotish?! – deydi. – Paxta fronti enangni uymi?! Men hozir byurodan keldim! Senlarni deb o'rtoq Mavlonovdan eshitmaganlarimni eshitib keldim!

– Choy qaynasin, domla, choy qaynasin, – deydi o'ninchisinf.

– Sen tirranchalarga choyni kim qo'yibdi?! Ana, ariq to'la suv – ariqdan ich!

Shunda, shlapali odam xirmondan bosh ko'taradi.

– O'-o', domla, bermay haydang! – deydi.

Direktorimiz shlapali odamga qaraydi-qaraydi – taniyolmaydi. Taniyolmasa-da, shlapali odam taraf yuradi.

Shlapali odam yonboshlab yotmish ko'yi qo'l uzatadi.

– Kamnamosiz, domla? – deydi.

Direktorimiz qo'l berayinmi-qo'l bermayinmi, zaylida qo'l uzatadi.

– O'zları kim bo'ladilar? – deydi.

Shlapali odam kaftlarini ochib aytadi:

– Hasharchi. Mana shu bolalarday bir hasharchi, – deydi. – Choyingiz qaynamadi, domla. Endi siz buyurganday, ariqdan ichamiz-da.

Shlapali odam shunday deya, mashinası taraf yo'l oladi.

Direktorimiz shlapali odam ketidan qarab turadi-turadi – brigadirga o'ngaladi.

- Bu kim bo‘ldi? – deydi.
- Tanimayapsizmi? Raykom-ku.
- Raykom? Qanday raykom?
- Qanday raykom bo‘lardi – Mavlonov bova-da.
- O‘rtoq Mavlonovmi? U kishi dalada nima qilib yuribdi?
- Dalaga samolyot kelayapti. Samolyotdan oldin dalalar-ni qarab yuribdi.
- Iya, – deydi direktorimiz. – Oldinroq aytsangiz bo‘lmasi-midi, iya.

20

Shu-shu – markaz, byuro, Mavlonov degich gaplardan qutulaman.

Keyin-keyin bilaman – direktorimiz markazda pivoxo‘r bo‘lib-bo‘lib qaytib kelib yurgich bo‘ladi.

21

- Ketma-ket uch yotar yo‘qlama bo‘lmaydi.
Ko‘k ko‘sak g‘o‘zapoya boshim uzra o‘ynamaydi.
Dalada muallimlarimiz qadamimni sanamaydi.
Muallimlarimiz biri qo‘yib biri joriya etadi:
- Maktabimiz sotsialistik musobaqada g‘olib keldi!
 - Maktablar aro Ko‘chma Qizil Bayroqni oldi!
 - Yuzdan ziyod yordamchi maktablar orasida-ya!
 - Men hur bo‘laman. Men xurram bo‘laman.
 - Endi paxta termaymiz-a, domla? – deyman.
 - Paxta termaysan? Endi paxta terasan-da!
 - Qizil Bayroq bor-yo‘g‘i bir oylik ishimiz uchun berildi!
 - Qizil Bayroq kuchimizga kuch qo‘sadi!
 - Qizil Bayroq zafarlarga chorlaydi!

22

Bolalar bilan yotoq oldida bo‘ysira bo‘laman.

Shtab deya atalmish xonadan oppoq sochli keksa odam chiqib keladi.

Keksa odam ketidan direktorimiz bilan muallimlarimiz qatorlashib keladi.

Direktorimiz yutuq-kamchiliklardan so'zlaydi.

Men ichimni ushlab-ushlab kuchanaman. Ikki ko'zim futbol maydonida bo'ladi.

Direktorimiz bizni tag'in-da yuksak-yuksak zafarlar sari chorlaydi.

– O'rtoqlar, endi so'z rayon xalq maorifi bo'limi mudiri, hammamiz uchun hurmatli va aziz o'rtoq Dadaboyevga! – deydi.

Oppoq soch odam lo'nda-lo'nda so'zlaydi. Oppoq soch odam munis-munis so'zlaydi:

– Aziz o'quvchilar! Sizlarni qutlashdan oldin o'rtoq direktorlaringizni alohida tabriklab qo'ymoqchi edim. Boisiskim – mana uch yildirkim, o'rtoq direktorlaringiz kommunistik partiya safiga o'tolmay yurib edi. Kuni kecha maktablaringiz Ko'chma Qizil Bayroqni qo'lga kiritishi bilanoq tegishli mutasaddi o'rtoqlar direktorlaringizni communistik partiya safiga qabul qildi. Ustiga-ustakkim, ayni shu kunlarda o'rtoq direktorlaringiz egizak qizaloq ko'rdi, egizak qizaloq! Buni qarangkim – Ko'chma Qizil Bayroq – communistik partbilet – egizak qizaloq! Aziz o'quvchilar! Kelinglar, o'rtoq direktorlaringizni ana shu qo'sha-qo'sha zafarlar bilan bir muborakbod etib qo'yaylik!

Oppoq soch odam shunday deya chapak chaladi.

Muallimlarimiz bilan bolalar-da qo'shib chaladi.

Men ichimni ushlab-ushlab tura beraman.

– Qani, o'rtoq direktor, – deydi oppoq sochli odam. – Endi shu qora ko'zlarga qarata bir-ikki og'iz dil so'zlariningizni aytasiz endi. Sizning communistik partiya safiga o'tishingiz uchun bu qora ko'zlar ozmuncha ter to'kdimi!

Direktorimiz bir odim oldinlaydi. O'ng qo'lini ko'ksiga qo'yadi. Havolanib-havolanib bosh irg'aydi.

– O'rtoqlar! – deydi. – Haqiqatan ham, hammamiz uchun hurmatli va aziz o'rtoq Dadaboyev aytganlariday, kommu-

nistik partiya safiga qabul qilinish sharafiga erishishim oson bo‘lmadi! O‘tgan ikki yil mobaynida maktabimiz o‘quvchi-yordamchilar biror marta ham Qizil Bayroq olish sharafiga muyassar bo‘lolmadi! Bunda, ma’lum ma’noda o‘zim aybdor bo‘ldim! Paxta yig‘im-terimiga mas’uliyat bilan yondashmadim! Qattiqko‘l bo‘lmadim! Partiyaviy prinsipiallik ko‘rsatmadim! O‘rtoqlar, men ana shu yo‘l qo‘ygan xatomchiliklarimdan tegishli xulosa chiqarib oldim! Mana, ma’lum muvaffaqiyatlarga erishdim! Men bu muvaffaqiyatga rayon xalq maorifi mudiri, hammamiz uchun hurmatli va aziz o‘rtoq Dadaboyevning bevosita va bilvosita rahnamoligi tufayli erishdim! Men siz o‘quvchi-yordamchilar nomidan, qolaversa, o‘zimning nomimdan, ana shu muvaffaqiyatlarim bosh aybdori, hammamiz uchun hurmatli va aziz o‘rtoq Dadaboyevga minnatdorchilik bildiraman!

Qars-qars qarsak bo‘ladi.

Direktorimiz qo‘li ko‘ksida ta’zim etadi.

– O‘rtoqlar! – deydi. – Egizak farzandlarim otalari shonli kommunistik partiya safiga qabul etilgan ulug‘ ayyom kunlarda dunyoga keldi! Men shu ulug‘ sanaga bag‘ishlab, egizak qizlarimga shonli kommunistik partiya asoschilaridan Roza Lyuksemburg bilan Klara Setkin otlarini qo‘yaman! Bir qizimni Roza qo‘yaman, bir qizimni Klara qo‘yaman!

Chalp-chalp chapak bo‘ladi.

Muallimlarimiz:

– Ura-a-a, ura-a-a! – deya chapak chaladi.

Direktorimiz haminqadar havolanadi.

– Ishonamanki, – deydi, – egizak qizlarim Roza Lyuksemburg va Klara Setkinlarday buyuk marksistlar bo‘lib yetishadilar!

Oppoq soch odam tantanali vaziyatda direktorimizga Qizil Bayroq topshiradi.

Oppoq soch odam bo‘ysira bo‘ylab yuradi. Old saf bolalar bilan qo‘l berib ko‘rishadi.

— Qutlayman, qutlayman! — deydi.

Oppoq soch odam bolalar kiyim-boshlariga razm soladi. Bolalar yuz-ko‘zlariga razm soladi.

Nihoyat, oppoq soch odam men bilan muqobil bo‘ladi. Menga qo‘l uzatadi.

Men qo‘sh qo‘limni-da cho‘zaman. Oppoq soch odam qo‘lini qo‘shqo‘llab ushlab olaman.

Oppoq soch odam bosh-adog‘im bo‘ylab qaraydi. Bilinar-bilinmas bosh chayqaydi.

— Qo‘llaringizni qarang, qo‘llaringizni, — deydi. — Bu qo‘l emas — kosov bo‘libdi. Yelkalaringizni qarang, yelkalaringizni. Bir yelkangiz yuqori, bir yelkangiz quyi. Bu yelka emas — qing‘ir-qiyshiq temir-tersak bo‘libdi. Qurib ketgur paxtadan nimalar kelmaydi-ya.

Oppoq soch odam rangi o‘chadi. Qizil Bayroq oldiga qaytib boradi. Oppoq soch odam bolalarga o‘ychan-o‘ychan boqib qoladi.

— Bolalarim... — deydi.

Oppoq soch odam lablarini cho‘chchaytirib-cho‘chchaytirib o‘ylab qoladi.

— Bolalarim... — deydi. — Men sizlarni bola deyishgayam tilim bormayapti. Sizlar kattalar hayotini boshdan kechirayapsiz. Siz ko‘rayotgan kunlar bolalik emas — qarilik. Qachon boladay bo‘lib kun ko‘rasiz — unisini paxtadan so‘raysiz.

Oppoq soch odam direktorimizdan Qizil Bayroqni oladi.

— Bolalarim, manovi Ko‘chma Qizil Bayroq. O‘z oti o‘zi bilan Ko‘chma, — deydi. — Ko‘chma Qizil Bayroq shu vaqtgacha birovga vafo qilmadi — sizgayam vafo qilmaydi. Bir kilo kam tersangiz bo‘ldi — qo‘lingizdan boshqa birov qo‘liga ko‘chib o‘tadi-ketadi. Shunday ekan, Qizil Bayroqqa ko‘psajda qila bermanglar. Qizil Bayroqni saqlab qolaman deb, ko‘p kuchana bermanglar. Qo‘llaringizdan kelganicha tera beringlar.

Oppoq soch odam Qizil Bayroqni direktorimizga qaytib beradi. Qo‘llarini qorin qovushtirib-qorin qovushtirib turadi.

– Bolalarim, – deydi, – bizning yurtga Amir Temurlar kerak. Bizning yurtga Boburlar kerak. Bizning yurtga Ulug‘beklar kerak. Juda, juda kerak! Ammo sizlar Temur bo‘lomaysizlar, sizlar Bobur bo‘lomaysizlar, sizlar Ulug‘bek bo‘lomaysizlar. Lekin yurtga to‘rt muchali bus-butun odamlar kerak. Lekin yurtga sog‘lom-sog‘lom odamlar kerak. Shunday ekan, o‘zlar ringizni-o‘zlar ringiz avaylangizlar, bolalarim!

O‘ninchisinf yer tepib-yer tepib qarsak chaladi.

23

Paxtakorlar yordamchilarga o‘ligini tashlab oladi.
Dalada nima ish bo‘ladi – brigadir direktorimizga keladi.
Paxta ortishga uchta bola bering.
Paxta tushirishga ikkita bola bering.

– Dori sepishga bitta bola bering, – deydi. Brigadir ayt-mish ishlar qiyin ishlar bo‘ladi. Qiyin bo‘lsa-da, bolalar men borayin-men borayin, deya talashadi. Boisi – bolalar bir kun bo‘lsa-da, paxta terishdan qutulayin, deydi.

Direktorimiz bundaychikin ishlar uchun oz teruvchilarni jo‘natadi. Ertalab brigadir tag‘in sarg‘ayadi.

– Samolyotga yo‘l ko‘rsatuvchi bering, – deydi.

Bu safar katta bolalar o‘zlarini olib qochadi. Talashib-torishmaydi.

– Jamoliddinov! – deydi direktorimiz. – Olg‘a!

Men bo‘ysiradan otilib oldinlayman. Direktorimiz qalami uchi bilan meni bragadirga ko‘rsatadi.

– Mana, manavini oling! – deydi.

Brigadir meni bosh-oyoq qarab oladi.

– Domla, buningiz g‘o‘zalar ichida ko‘rinmaydi-yu? – deydi.

Bo‘ysira piq-piq kuladi.

– Ko‘rinadi! – deydi direktorimiz. – Bayroqcha dastasini uzunroq qilasiz – ko‘rinadi!

Brigadir meni ulkan tutkunda oldiga ergashtirib boradi.

Tutkunda-da bir odam bayroq yasab o‘tiradi.

– Sopini uzunroq qil, – deydi brigadir. – Manavini bo'yiga qarab qil.

Bayroqchi odam bo'y-bastimdan lab buradi.

– Jonlirog'i yo'qmidi? – deya to'ng'illaydi.

Bayroqchi kaltarog'ini tashlaydi. Uzunroq xoda oladi. Xoda uchiga bir qulochlik cho'pni qoq belidan mixlab qoqadi. Uch qarichcha quyiroqdan tag'in bir cho'pni bel qilib mixlaydi. Xoda bir tarafiga oppoq surp yoyib tikadi. Tag'in bir tarafiga qizil surp yoyib tikadi.

Bayroq – qovunpalak qo'riqlovchi misol bo'ladi.

Bayroqchi bayroqni oldimga do'qillatib qo'yadi.

– Ana, daftar-qalam! – deydi.

Men bayroqni ko'tarib-ko'tarib ko'raman. Bir qo'lim bilan ko'tarolmay, qo'shqo'llab arang ko'taraman.

„Og'ir bo'lsa-da mayli, – deyman. – O'lib paxta tergandan ko'ra, shuni ko'tarib yura beraman“.

Bayroqchi meni dalama-dala ergashtiradi. Yurajak yo'llarimni tayinlaydi. Turajak joylarimni tayinlaydi. Bajarak yumushlarimni bot-bot bayonlaydi.

Bayroqchi aji-buji dorilar bilan bulg'an mish janda chophon beradi.

– Manavi tanapo'sh, – deydi. – Jaydari tanapo'sh. Tanapo'sh chophon yirtiq-yirtiq bo'ladi. Tanapo'sh chophon qo'lansa is-qo'lansa is bo'ladi.

24

Saharmardonda futbol maydon taraf chopaman.

Fizika bilagimdan ushlab qoladi.

– Dalada... o'sha dalada... – deydi.

O'sha dala taraf chopaman.

Tutkunda ostidan bayroq bilan janda chophonni olaman.

O'qariq bo'ylab qadamlayman-qadamlayman – dala qoq boshida oyoq ilaman.

Salqin sabolar etimni uvushtiradi.

Shunda, clas-elas samolyot ovozi eshitiladi.

Xiyol o'tadi – samolyot o'zi keladi. Samolyot dala uzra bir aylanib qaytadi.

Samolyot cndi meni mo'ljallab keladi.

Men apil-tapil janda choponni yopinaman. Bayroqni oldin yelkamga olaman. Undan boshim uzra ko'taraman.

Bayroq og'irligidan dalbanglab-dalbanglab olaman.

Bor kuchim bilan kuchanaman. Tishimni tishimga bosa-man. Ost labimni tishlab olaman. Yuzlarim lov-lov yonib turaman.

Janda chopon teshiklaridan mo'ralayman – samolyot meni nishonlab keladi.

Samolyot bayroqqa tegayin-tegayin deya uchadi. Samolyot tizz-tizz dori sepib-sepib uchadi.

Men janda chopon yirtiqlaridan uchuvchini ko'raman.

Samolyot ko'tarila-ko'tarila olislaydi.

Men janda chopon ichidan kallamni chiqaraman.

Dimog'im shunday bir zaharda qoladi, shunday zaharda qoladi!

Men kuchanib-kuchanib o'qchiyman. Tomog'imdan bir nima ana otilib chiqayin deydi, mana otilib chiqayin deydi.

O'qchiy berib-o'qchiy berib, ko'z oldim qora bo'ladi...

Ohista-ohista o'zimga kelaman. Tevarak-boshimga nazar solaman.

Janda chopon sap-sariq bo'ladi. O'qariq bo'ylari sap-sariq bo'ladi. G'o'za barglari sap-sariq bo'ladi.

Men bayroqchi bayonini karaxt-karaxt yodlayman: YAK-12 samolyot dori sepsa – naqd sakkiz qadam sanab tashlanadi. AN-2 samolyot dori sepsa – naqd yigirma uch qadam sanab tashlanadi.

Men chap taraf uzun-uzun qadamlayman. Sanab-sanab qadamlayman:

– Bir, ikki, uch...

Roppa-rosa yigirma uchinchi qadamda oyoq ilaman.

Boisi – bizning samolyot AN-2 bo'ladi.

Men yigirma uchinchi qadamda bayroq ko'tarib tura beraman.

Samolyot boshim uzra tizz-tizz dori sepib o'tadi.

Men ohista-ohista samolyotga el bo'laman.

Men endi qabatma-qabat dalaga o'tib turaman.

Samolyot bir sidra tizillatib o'tadi...

Quyuq g'o'zalik-quyuq g'o'zalik dalalarda ikki bor dori sepiladi. Boisi – ilk dori g'o'za ust-ust barglarida qoladi. Qayta dori esa g'o'za osti barglarigachayin tushib boradi.

Ushbu dala ana shunday dala bo'ladi.

Shu bois – men joyimda qimir etmay tura beraman.

Samolyot ikki sidra dori sepib o'tadi.

Men janda choponni silab-silab ko'raman – kaftlarim binoyidak ho'l bo'lmaydi. Men g'o'za barglarini ushlab-ushlab ko'raman – barmoqlarim binoyiday ho'l bo'lmaydi.

Shu bois, bayroq dastasi uchidan ushlayman. Bayroqni to'ntarib olaman. Bayroq oq-qizilini oyoqlarim oldiga to'ntarib turaman. Bayroqdasta uchini peshonamga tekkizib turaman.

Ushbu holat mana bunday deydi:

„Samolyot binoyiday dori sepolmayapti,

samolyot binoyiday dori sepolmayapti!“

Uchuvchi bayroq tilini uqib oladi.

Samolyot boshim uzra tag'in bir sidra tizillatib o'tadi.

Bu safar binoyiday sepadi.

Kun tutlar uchini chalib ketadi. Nam salqindan fayz ketadi.

G'o'za oralab-g'o'za oralab kelaman – ust-boshim shudring bo'lmaydi. Barg siypalab-barg siypalab kelaman – kaftlarim shudring bo'lmaydi.

Shu bois, bayroqni boshim uzra aylantiraman. Chapdan o'ngga aylantiraman. Doira suvratida aylantiraman:

„Barglarda shudring yo'q – dori sepmang,

barglarda shudring yo'q – dori sepmang!“

Endi bayroqni boshim uzra bir chapimga chayqayman, bir o'ngimga chayqayman.

„Dori sepish tamom bo‘ldi, dori sepish tamom bo‘ldi!“

Uchuvchi bayroq tilini uqib oladi. Uchuvchi samolyot qanotlarini sollantirib chayqab-sollantirib chayqab oladi:

„Angladim – dori sepish tamom bo‘ldi,

angladim – dori sepish tamom bo‘ldi!“

Uchuvchi ana shunday deya-deya, manzil-makoni taraf ravona bo‘ladi.

Men umrimda birinchi bor samolyotni ana shunday yaqindan ko‘raman. Men umrimda birinchi bor uchuvchini ana shunday yaqinidan ko‘raman.

Mendan saodatmand bo‘lmaydi!

25

Yotarda bolalar havas bilan hol so‘raydi.

– Qanday? – deydi.

Men boshmaldog‘imni narra etib ko‘rsataman.

– Mana bunday! – deyman. – Mazza!

– Uchuvchini-da ko‘rdingmi?

– Ko‘rmay nima! – deyman. – Uchuvchi menga mana bunday qilib qo‘l silkidi!

– Senga-ya?

– Esa-chi, menga bo‘lmay kimga – menga-da!

– Sen nima qilding?

– Nima qilar edim – qo‘l silkidim-da!

– Yoril-e, ukkag‘ar-e, yoril-e!

Ilg‘or terimchilar kuyib-kuyib qoladi.

– Uchuvchi-da shabko‘r ekan-da, – deydi. – Kelib-kelib, o‘n bir kilochiga qo‘l silkiydimi?

26

Tag‘in kallayi saharlab etik kiya-kiya tashqarilayman.
Zinaga oyoq tashlayman...

Ohista ko‘z ochaman. Ko‘z qirim bilan yonboshlarimga qarayman.

Men muallimlarimiz yotog'ida yotmisht bo'laman.

- Bolani tezroq turg'azish kerak, – deydi direktorimiz.
- Qo'ying, yotsin, – dcydi muallim. – Bechora bola zinadan yomon uchib tushdi.
- Bovujud, yonboshi bilan tushdi.
- Boshi bilan tushsa, kallasi yorilardi.
- U dorini butifos deb qo'yibdi.
- Butifos yomon-e, yomon!
- O'rtoq direktor, endi bolani dori sepiluvchi dalaga yuborib bo'lmaydi.
- Onasini bilasiz – kimsan Bolxin terimchi.
- Bolxin terimchi bo'lsa nima bo'pti? – deydi direktorimiz.
- Bolxin terimchi obro'-e'tiborli ayol. Bolaga bir nima bo'lib qolsa, onasidan baloga qolamiz.
- Unda, kimni yuboramiz, aytinlar? – deydi direktorimiz. – Faqat oz teradiganlardan bo'lsin.

Yo'qlama daftarni o'qiyman:

Jalilov Xurram?

- Bo'lmaydi – otasi uchiga chiqqan arizaboz.
- Bir gap bo'lsa, Toshkangacha yozadi.
- Yozishni qo'ying, idorama-idora chopadi.
- Oti katta bor – qabuliga kiradi.
- Unda, bo'lmaydi. Qoraboyev Abil?
- Abil merganni o'g'limi? E-e; qo'ying-qo'ying.
- Nimaga qo'yamiz?
- Abil merganni bilmaysizmi?
- Bilamiz! – deydi direktorimiz. – Mergan bo'lsa kim bo'pti?
- Manavi sinf rahbaridan so'rang, aytib beradi.
- Buyoq chin aytayapti, o'rtoq direktor. Abil mergan odam emas. Bir safar bolasini darsda bir-ikki turtib edim – otasiga borib aytibdi. Bir mahal Abil mergan uyimizga bostirib borsa bo'ladimi. Yelkasida miltiq!
- Miltiq?

– Ha-da, miltiq bo‘lgandayam – qo‘shog‘iz miltiq! Darvozadan, qani jallod deb baqiradi-da. Ayolimiz uyda yo‘q, desayam ketmaydi. Miltig‘ini uyimizga peshlaydi. Tepkisini shaqur- shuqurlatadi. O‘sha jallod buyoqqa bir qarasin, deydi.

– Qaradingizmi?

– Qarab bo‘ladimi! Merganga odam bilan bo‘rini nima farqi bor – paqillatib otadi-qo‘yadi-da. Shundan buyon bolasini chertolmay qoldim.

– Xavfli shaxs, xavfli! – deya bosh saraklaydi direktorimiz. – Cho‘liboyev Ziyod?

– Bir qari onasi bor.

Direktorimiz shahodat barmog‘ini nishlaydi.

– Ana shu bo‘ladi! – deydi.

Muallimlarimiz tashqarilaydi.

27

Men tushlarda o‘zimga kelaman. Oshpaz qiz turg‘azib oladi.

– Tur o‘choqqa o‘t yoq, – deydi. – Direktor tayinlab ketdi.

O‘choq qoshida cho‘k tushib o‘t yoqaman.

Qozonda bilq-bilq qaynamish sho‘rva ko‘nglimni aynitadi.

Men o‘qchib-o‘qchib o‘t yoqaman.

28

Yo‘qlamada Ziyod yo‘q bo‘ladi.

Direktorimiz Fizika bilan Kimyonidorilanuvchi dala jo‘natadi.

Muallimlarimiz hayallab-hayallab qoladi.

Direktorimiz bizni uxlatmay olib o‘tiradi.

Nihoyat, muallimlarimiz qaytib keladi.

Oldin Ziyod kirib keladi. Ostonada ko‘zlarini uqalab-uqalab turadi. Mudrab-mudrab turadi. Gap yo‘q, so‘z yo‘q – o‘z to‘sagi taraf yuradi. O‘zini tap etib to‘sakka tashlaydi.

Direktorimiz barmoq likillatib-barmoq likillatib o‘ziga imlaydi.

– Ey, beri kel! – deydi. – Tur, beri kel!

Ziyod direktorimiz oldiga boradi. Tevarak-boshiga alanglaydi-alanglaydi – o‘zini xiyol o‘nglaydi. Alanglashidan – Ziyod tevarakda o‘tirmish bolalarni endi ko‘radi.

Direktorimiz Ziyodni lunjidan cho‘zadi.

– Mastmi deyman! – deydi. – Buni qayerdan topdilari-
ngiz-e?

– Daladan topdik, – deydi Fizika. – Dalada odamzot qora-
si yo‘q, lekin shu bor ekan.

– Cho‘liboyev, Cho‘liboyev, deb qichqirib edik, g‘o‘zalar
ichidan shitir-shitir etib chiqib keldi, – deydi Kimyo.

– Qorong‘ida g‘o‘za ichida nima qilib yuribdi ekan? –
deydi direktorimiz.

– Nima qilar edi, uxbab qolibdi-da.

– O‘l-e, shu kuningga-ye! – deya baqiradi direktorimiz. –
Dorilangan g‘o‘za ichidayam uxlaysanmi-a? Uxlash uchun
boshqa joy qurib qolganmi-a?! O‘l-e, bor-e, yot-e!

Direktorimiz Ziyodni ko‘ksidan itarib yuboradi.

Ziyod keti bilan gup etib tushadi.

29

Ziyod shu yotishida qaytib turmaydi.

Ertasi-da turmaydi. Indini-da turmaydi.

Joyidan qimir etmaydi. Ko‘z ochmaydi, tuz totmaydi.

Men Ziyodni og‘ziga choysovutib tutaman.

– Choy ich, Ziyod oshna, choy ich, – deyman.

Ziyod lablarini olib qochadi.

Ziyod mumsik-mumsik kulimsinadi.

Ziyod shunday kulimsinadi, shunday kulimsinadi – be-
shikdagichaqaloqday kulimsinadi!

– Tush ko‘rdim, Dehqonqul oshna, tush ko‘rdim, – deya
pichirlaydi.

– Tush ko‘rding! Nima tush ko‘rding?

– Samolyot ko‘rdim, masalan.

– Elovrama, Ziyod oshna, elovrama. Somolyotni dalada
ko‘rib eding.

– Tushimda-da samolyot ko‘rdim. Dehqonqul oshna, tushimda-da samolyot ko‘rdim. Men tushimda samolyot haydar emishman, masalan. O‘zimiz paxta terayotgan dالani aylanib-aylanib haydar emishman. Bolalar menga qo‘l silkib-qo‘l silkib qo‘yar emish. Men qo‘l silkimas emishman, masalan. Sababi – qo‘llarim rulda emish-da. Dehqonqul oshna, qo‘llarim rulda emish. Bor ovozim bilan ashula aytib-aytib samolyot haydar emishman. Direktor ko‘k ko‘sak g‘o‘zapoya o‘ynatar emish... Ey, ichburug‘, senga samolyot haydashni kim qo‘yibdi, der emish. Men parvo qilmas emishman, masalan. Direktor endi dag‘dag‘a qilar emish... Tush samolyotdan, der emish. Men ashula aytib-aytib samolyot hayday berar emishman. Samolyotimni aylantirib-aylantirib futbol maydonga qo‘ndirar emishman. Futbol maydondan cho‘nqayib-cho‘nqayib o‘tirgan beri beshinchi sinfni samolyotimga mindirib olar emishman. Men beshinchi sinfni mindirib uyimizga jo‘nar emishman, masalan. Direktor ketimizdan g‘o‘zapoya o‘ynatib qola berar emish...

– Meniyam samolyotingga mindirasanmi, Ziyod oshna?

– Mindiraman, Dehqonqul oshna, mindiraman, Faqat direktorni mindirmayman. Direktor qo‘l ko‘tarsa-da samalyotimga mindirmayman, masalan...

30

Qosh qoraya berib-qosh qoraya berib, daladan qaytaman.

Ichkari hadahalayman – Ziyod oshnam holini so‘rayin deyman.

Ammo Ziyod oshnam joyida yo‘q bo‘ladi.

Tashqarilarni aylanib-aylanib qarayman – Ziyod oshnam yo‘q bo‘ladi.

Oshpaz qiz o‘choq boshida hiq-hiq yig‘lab o‘tiradi.

– Ziyod ketdi, – deydi. – Ziyod endi qaytib kelmaydi...

Bolalar bir burchakda g‘uj bo‘lib oladi. Nima qilishlarini bilmaydi.

– Nima qilib turibsizlar? – deydi oshpaz qiz. – Kosalaringni olib kelinglar, ovqat suzib beraman.

– Ziyod qani? – deyman.

– Ziyod ketdi, deyapman-ku, Ziyod ketdi...

– Ziyod qayoqqa ketdi?

– Ziyod... norasida ketdi!

Bolalar duvv-duvv yig'laydi. Bolalar ho'ng-ho'ng yig'laydi.

Yig'lamagan bola qolmaydi.

Men bari aybni o'zimdan ko'raman.

– G'o'za ichida uxlama, deganimda, Ziyod oshnam ketmas edi... – deya yig'layman.

31

Bir oyog'im to'shakda bo'ladi, bir oyog'im futbol maydonda bo'ladi.

Shunda, timirskilanib-timirskilanib yurmish qizlarga ko'zim tushadi.

Qizlar-da futbol maydonga qatnar bo'libdi-da, deya o'layman.

Gap-so'zlardan bilib olaman – yo'q... unday emas bo'ladi, Bugun chin arafa bo'ladi.

Qizlar burchak-burchaklarda to'da-to'da bo'lib soch yuvadi.

Qizlar saharda turnaqator dalalaydi. Qizlar bir xushro'y bo'ladi, bir xushro'y bo'ladi!

Qizlar qoshida ko'k-ko'k o'sma bo'ladi. Qizlar yuzida yalt-yalt moy bo'ladi. Qizlar libosida bo'y-bo'y atir bo'ladi.

Ayniqsa, o'ninchi sinf Zulayhodan xushbo'y-xushbo'y atir anqiydi.

Men beixtiyor Zulayho ketidan ergashaman. Zulayhoni to'yib-to'yib iskayman.

Zulayho egat tushadi.

Men Zulayho bilan irgama-irga egat tushaman.

Men burnimni Zulayho tarafga qaratib-qaratib paxta teraman. Qo‘lim chanoqda bo‘ladi, burnim Zulayhoda bo‘ladi.

Men Zulayhoni iskab-iskab paxta teraman!

32

Tush mahal bir momo eshak minib, keladi.

Men momoni darrov taniyman – momo Ziyodni onasi bo‘ladi.

Ko‘nglim bir orziqib oladi.

Ziyodni onasi eshagidan tushadi. Tevarak-boshga qaraydi. Muallimlarimiz taraf yuradi.

Ziyodni onasi muallimlar bilan gapirishib o‘tiradi.

Fizika meni imlaydi.

– Momoni shtabga olib bor, – deydi.

Men Ziyodni onasi oyog‘idan olib yuboraman.

Ziyodni onasi to‘qimga joylashib o‘tirib yo‘l oladi.

Men eshak qabatida boraman.

Yo‘lda Ziyodni onasi inqillab-inqillab boradi. Bir og‘izda gapirmay boradi.

Men eshakni yotoq oldi tolga qantaraman. Ziyodni onasi ni yotoq ergashtiraman.

Ziyodni onasi yotoqqa bir sidra qarab oladi.

– Ulimning joyi qayerda? – deydi.

Men Ziyodni joyini aytaman.

Ziyodni bo‘xhasi haliyam joyida turmish bo‘ladi.

– Manavi bo‘xhasi, – deyman.

Ziyodni onasi bo‘xhani oladi. Bo‘xcha uyoq-buyog‘ini qaraydi.

– Ha, shu, – deydi. – Ulimniki...

Ziyodni onasi bo‘xhani qo‘ltiqlab tashqarilaydi.

Ziyodni onasi tol ostida bo‘xhani ochadi. Ichidan Ziyodni kiyim-kechagini oladi. Ikki tol orasi simga qoqib-qoqib yoyadi.

Ziyodni onasi soyalab o‘tiradi. Bilaklarini tizzalariga qo‘yib o‘tiradi. Ziyodni kiyim-kechagiga qarab o‘tiradi.

Ziyodni kiyim-kechagi oftobiyorda sarg‘ayib-sarg‘ayib turadi.

Ziyodni onasi betini bilaklariga bosadi. Ziyodni onasi iz-z-iz-z yig‘laydi. Ziyodni onasi yum-m-yum-m yig‘laydi.

Men Ziyodni onasiga qo‘silib yig‘layman.

– Bari ayb mendan bo‘ldi, – deyman. – G‘o‘za ichida uxlama, deganimda, Ziyod oshnam ketmas edi...

Men ko‘zlarimni qo‘lim sirti bilan artib-artib yig‘layman. Men Ziyodni ust-boshiga qarab-qarab yig‘layman.

Shunda, ko‘z oldim jimir-jimir etadi. Jimir-jimirni oftob ziyo deb bo‘lmaydi.

Men tag‘in-da yaqin borib qarayman, Ko‘zlarimni artib-artib qarayman.

Ziyodni ust-boshi g‘ij-g‘ij... bit bo‘ladi! Tikishlardan bit uradi! Yirtqlardan bit uradi! Oftobiyorda g‘imir-g‘imir etadi! Misoli nur jimirlamish bo‘ladi!

Yuzlarim lov-lov yonadi – Ziyod uchun-da orlanaman, o‘zim uchun-da orlanaman!

Boisi – badanimda g‘imirlamish bitlarim Ziyodni bitlariдан ziyod bo‘lsa bo‘ladi – kam bo‘lmaydi!

Men yuzlarimni chet buraman. Men ko‘zlarimni olib qo‘chaman.

Ziyodni onasi endi ovoz berib-ovozi berib yig‘laydi. Shunda, shtabdan direktorimiz chiqib keladi.

– Nima gap, o‘rtoqlar? – deydi.

Direktorimiz Ziyodni onasini ko‘rib rangi o‘chadi.

– Bizda nima ayb, momo, – deydi direktorimiz. – Bizda nima ayb. Buni o‘z oti o‘zi bilan paxta fronti deb qo‘yibdi. Front qurbonsiz bo‘lmaydi.

Direktorimiz Ziyodni onasi yelkasiga qo‘lini qo‘yadi.

– Bolani o‘zi paxta ichida qolibdi-da, – deydi direktorimiz. – Kim biladi, biron nimaga yo‘liqqanmi. Sizlar eskichani yaxshi bilasizlar-ku...

Men direktorimiz ko‘rmasin deya, Ziyodni ust-boshini simdan tortib-tortib olaman. Bo‘xchaga solib-solib qo‘yaman.

Direktorimiz Ziyodni onasini qishlog‘imizga qaytarib jo‘natmoqchi bo‘ladi.

Ammo Ziyodni onasi ko‘nmaydi.

– Ulim yo‘liqqan joyni ko‘rsatinglar! – deydi. Direktorimiz menga imo beradi.

– Mayli, olib bor, – deydi. – Keyin, qishloq yo‘liga solib yubor.

33

Men Ziyodni onasi oyog‘idan olib yuboraman.

O‘zim eshak oldida boraman.

Ziyodni onasi Ziyodni yo‘qlaydi.

– Ziyod ketishidan oldin biron nima demab edimi? – deydi.

– Deb edi, – deyman.

Ziyodni onasi birdan sergakланади, Ziyodni onasi taqqa no‘xtani tortadi.

– Nima deb edi? – deydi. – Ayt, nima deb edi?

– Dehqonquл oshna, seni samolyotimga mindiraman, deb edi.

– Tag‘in nima deb edi?

– Tag‘in, direktorni samolyotimga mindirmayman, deb edi.

Ziyodni onasi zarda bilan eshak niqtalaydi.

Men dorilangan dala boshida oyoq ilaman.

Ziyodni onasi eshagidan imillab yerlaydi. Yerda serrayib qoladi. Tevarak-bosh qaraydi.

Ziyodni onasi tutlar orasida paypanglab alanglaydi. Ziyodni onasi o‘qariqlarda paypanglab alanglaydi. Ziyodni onasi g‘o‘zalar ostida paypanglab alanglaydi.

– Bu joyni oti nima? – deydi.

– Paxtazor, – deyman.

– Paxtazorda paxtadan boshqa nima bo‘lmasa, ulim nima ga yo‘liqadi?

Ziyodni onasi kaftini peshonasi soyabonlab qaraydi. Bir-on-bir nima topamanmi, deydi – topolmaydi.

Ziyodni onasi sukut olib qulq soladi. Biron-bir nima eshitamanmi, deydi – eshitolmaydi.

Ana shunda Ziyodni onasi paxtazor qarab-paxtazor qarab chaqiradi:

– Ziyod-u-u-u!

Men Ziyodni onasi qo'lidan tortib-tortib yig'lab qo'ya beraman.

– Yuring ketamiz, momo! – deyman. – Yuring ketamiz, hozir samolyot keladi!

Ziyodni onasi gapimni korlamaydi. Entikib-entikib chaqiradi:

– Ziyod-u-u-u!

Ziyodni onasi o'pkasi to'lib-to'lib chaqiradi:

– Ziyod-u-u-u!

Men bir amallab Ziyodni onasini eshakka mindiraman. Men bir amallab eshak no'xtasidan yetaklab olaman.

Ziyodni onasi paxtazorga boqib-boqib yig'laydi:

– Voy bolam-ay, paxtaga yo'liqqan bolam-ay!..

Ziyodni onasi paxtazorga aytib-aytib yig'laydi:

– Voy bolam-ay, paxta urib ketgan bolam-ay!..

TO'RTINCHI BOB

1

Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda! O'ynab qo'yay! Maqoldan-da o'ynab qo'yay, shu maqolni aytmish eldan-da o'ynab qo'yay!

Men dalalarimga temirtish soldim. Dalalarimni qirq sanitim o'yib haydadim.

Qirq santimdan chuquri havo ko'rmangan yer bo'ladi. Suv ko'rmangan yer bo'ladi. O'lik yer bo'ladi!

Yer chuqur haydalsa – ana shu o'lik yer yuzalab-yuzalab qoladi.

O'lik yerda chigit qiyg'os unmaydi. O'lik yerda g'o'za o'z vaqtida yetilmaydi. O'lik yerda paxta hayallaydi.

Men temirtish bilan dalalarimni yonboshlab-yonboshlab haydadim. Men temirtish bilan dalalarimni palaxsalab-palaxsalab haydadim.

Dalalarim osti ustun bo'ldi, dalalarim usti ostin bo'ldi.

Dalalarimda ko'rsichqonlar o'rmalab chopdi. Dalalarimda ko'rsichqonlar yo'rg'alab chopdi.

Ha, o'ynab qo'yay, bidir-bidir yo'rg'alashlaringdan, o'ynab qo'yay, dedim.

Ko'rsichqon yer kovlay beradi, yer kovlay beradi – dalalarimni muloyimlaydi-da. Ko'rsichqon bir yer osti, bir yer usti bo'y lab bidirlay beradi-bidirlay beradi – yer osti havo yo'llarini ochadi-da. Ko'rsichqon yer ostini shamollatib-shamollatib turadi-da.

Shu boisdan ko'rsichqon bor dala semiz-semiz keladi. Ko'rsichqoni bor dala unumli-unumli keladi.

Dalalarim g'imir-g'imir chuvalchang bo'ldi.

Men tag'in-da xushvaqt bo'ldim – chuvalchang bor dala dalamisan-dala bo'ladi. Chuvalchang bor dala dalalar gultoji bo'ladi. Chuvalchang bor dala dalalar xo'rozi bo'ladi!

Boisi – chuvalchang yerda bor bo'lmish jami nimani chiritib-chiritib o'g'it etadi. Chuvalchang yerni qayta-qayta ishlaydi. Chuvalchang yerni mayin-mayin saqlaydi.

Dalalarimda oppoq-oppoq qurtlar-da bo'ldi.

Temirtish izidan qarg'alar ergashdi. Temirtish izidan qushlar ergashdi.

Qarg'alar oqqurt ovlab yedi. Qushlar chuvalchang terib yedi.

Men qarg'alar qilmishidan rozi bo'ldim – oqqurt hasharotlar onasi bo'ladi. Katta bo'lsa, qanot olib uchadi.

Qosh qoraydi.

Men traktor chiroqlarini yondirdim.

Chiroq yorug'ida tulkilar qora berdi.

Tulkilar temirtish ketidan ergashdi. Tulkilar qo'ng'iz terib-qo'ng'iz terib yedi.

Tulkilar qayerdan keldi, qachon keldi – unisini yolg'iz tovuqlar bildi.

2

Uyimizda nimamizdir yo'qday bo'ldi, uyimizda nima-mizdir kamday bo'ldi.

Bola-baqralarimni qaradim, – bari omon-eson bo'ldi.

Mol-hollarimni sanadim – bari tugal bo'ldi. Tovuqlarimni sanadim – tovuqlarim-da tugal bo'ldi.

Unda kimim yo'q bo'ldi, unda nimam yo'q bo'ldi?

Men o'ylab-o'ylab topdim – ayvonimiz shipida hayot ke-chiruvchi qaldirg'ochlarimiz yo'q bo'ldi.

Qaldirg'ochlarimiz qayoqqa ketmish bo'ldi?

Qayoqqa bo'lardi – Afg'onistonga-da. Amudaryo o'ng beti Afg'oniston-da. Iliq yurt oti bo'ladi – qaldirg'ochlar yurti bo'ladi-da.

Qaldirg'ochlar afg'on yurtga safarlabdi – kuz oxirlabdi-da.

3

Bir dalam yuzi oppoq-oppoq bo'ldi.

Bu ne bo'ldi? Erta tushmish qor bo'ldimi yo qirov bo'ldimi?

Bir vaqtlar ana shu dalam g'uj-g'uj qamishzor edi. Qirg'ovulzor edi.

Denovdan besh-olti qur keldi. Qurlar ana shu qamishzorni tep-tekisladi. Pol-polladi. Sholipoya etdi.

Qamishzorda shundayam sholi bo'lmoqlik qildi, shundayam sholi bo'lmoqlik qildi-ye! Qurlar o'z sholisini o'zi tashib ololmay qoldi!

Shunda qurlar bizga-da bir xaltaday guruch berdi.

Ana shunda qozonimiz guruch ko'rganday bo'ldi! Ana shunda qornimiz palov yeganday bo'ldi!

Ammo... kattalar qurlarni ko'p ko'rди.

– O‘zbekiston Quriya emas! – deya do‘qladi.
Shu-shu – qurlar qorasini qaytib ko‘rsatmadi.
Sholipoya paxtazor bo‘ldi.

Men mazkur dalamni suvlab edim – yer usti suvni yer ostiga qarab singdi-singdi – Yer osti suvi bilan qo‘sildi. Shunda, yer osti suvi tuproq qil-qil nozik yo‘llaridan yer betilab keldi. Yer osti suvi yer betida bug‘landi-bug‘landi – havolab uchib-uchib yo‘qoldi.

Yer betida ana shu oppoq-oppoq tuzlar qoldi.

Men ushbu dalamni uchta polladim. Pollarni tizza bo‘y-tizza bo‘y marzaladim. Marzalarni bel yuzi bilan tars-tars urib zichladim.

Pollarni aylantirib ariq qazidim. Ariq endi bir ketmon enicha bo‘ldi. Ariq chuqurligi tizza bo‘yicha bo‘ldi.

Uchta polni-da labolab-labolab suvladim. Ko‘llatib-ko‘llatib suvladim.

Kecha-yu kunduz pol aylandim. Marzalab bo‘ylab-bo‘ylab aylandim.

Suv marzalarni urib keta berdi-urib keta berdi.

Men suv urib ketmish joylarni ketmon bilan bitay berdim-bitay berdim.

Suv ko‘lladi-ko‘lladi – dalam sho‘rini ostiga bosib-bosib yubora berdi. Dalam sho‘rini yer o‘lik qatlamiga cho‘ktirib-cho‘ktirib yubora berdi.

Yer betida qolmish sho‘rni esa so‘rib-so‘rib ola berdi. Oqova suv bo‘lib oqib-oqib keta berdi.

Sho‘r dalamni ikki bor ana shunday ko‘llatib-ko‘llatib suvladim.

Sho‘r dalam sho‘rdan forig‘ bo‘ldi.

Dalalarim uzra mezonlar uchmay qoldi.
Dalalarim uzra sokin ham g‘amgin bir holat cho‘kdi.
Dalalarim mudrab-mudrab oldi.

Dalalarim ko'z ilib-ko'z ilib oldi.
Dalalarim uyquga ketdi.
Men endi dalalarimga qo'l urishdan tiyildim.

5

Dalalarimdan qor aridi.
Uzun qish qorayib-qorayib yotmishtalarim yerrang-yer-
rang bo'ldi.
Dalalarimda omonat-omonat qotib yotmishtesaklar uma-
lib-umalib tuproq bo'ldi.
Dalalarim ko'pchib-ko'pchib qoldi.
Dalalarim to'lg'ondi.
Dalalarimdan oppoq-oppoq hovur havolandi. Dalala-
rimdan elas-elas ovoz havolandi.
Ovoz dalalarim ostidan keldimi yo olislardan keldimi –
bilab bo'lmadi.
Dalalarim xo'rsindi.
Ovozda rang-ro'y-da bo'lmadi, ovozda bo'y-bast-da
bo'lmadi. Ovoz deyin dedim – ovozga mengzamadi, ovoz
demayin dedim – ovoz shunday peshonamdan keldi.
Dalalarim entikdi.
Dalalarim uyg'ondi. Dalalarim ko'z ochdi.
Dalam meni imladi, dalam meni chorladi.

6

Bir tonna go'ngga yigirma kilo kaliy aralashtirdim, yigir-
ma kilo fosfor arashlatirdim.
Dalalarimga sepib-sepib tashladim.
Yer – xamir, o'g'it – xamirturush bo'ldi.
Dalalarimni takror shudgorladim. Dalalarim chet-chetlari
chala qolmasin uchun chorsilab-chorsilab shudgorladim.
Shudgor ketidan Dilnavoz soldim.
Dilnavoz – dlina bazovoy gridyor noj – 4, degich texnika.
U yer tekislaydi. Uzunligi o'n qadamni oladi. To'rt oyog'i
bilan to'rt qulochlik ketmoni bo'ladi.

Bundaychikin bir quloch otni aytish uchun menda til qani? Bundaychikin otni aytish uchun menda vaqt qani? Bundaychikin otni aytaman degunimchayin kun kech bo‘ladi!

Shu boisdan men uni Dilnavoz, deya atadim.

Men ana shu Dilnavozim bilan shudgorni ko‘ndalanglab-ko‘ndalanglab haydadim. Shudgorni belidan qirqib-belidan qirqib haydadim.

Dilnavozim bilan shudgor havorladim.

7

Qish oladan, yoz moladan, deydiilar.

Bu demak – qishda yer suvlasang ola qoldirma, ko‘klamda yer haydasang bemola qoldirma, demakdir.

Boisi – ko‘klami shudgordan keyin yer oralari havol-havol bo‘lib qoladi. Ana shu havollardan shamol kiradi-kiradi – yer nami qochib qoladi. Yer naminis saqlab qolish uchun esa shudgorni boronalash lozim bo‘ladi.

Men shudgorni boronaladim.

Dalalarim kaftday-kaftday bo‘ldi. Dalalarim moyak qo‘ysa ko‘rinar bo‘ldi.

Ammo bir boronani o‘zi kifoya etmaydi. Endi molalash lozim bo‘ladi. Mola yer naminis ost qabatidan ust qabatiga ko‘tarib beradi. Mola yer yuza kesaklarni maydalab-maydalab beradi.

Men endi dalalarimni molaladim.

Dalalarim sumalakday-sumalakday bo‘ldi.

Jo‘ya olib ekilmish g‘o‘za o‘n-o‘n besh kun oldin yetiladi. Jo‘ya olib ekilmish g‘o‘za o‘n-o‘n besh kun oldin ochiladi. Jo‘yada unib chiqmish g‘o‘za oftob taftini tez oladi.

Shu bois, traktor bilan jo‘ya oldim.

Dalalarim kokiday-kokiday bo‘ldi.

8

Chin, dalalarim qishi bilan qoruv ichdi. Chin, dalalarim qishi bilan yomg‘iruv ichdi.

Ammo suv bilan suv bor-da. Masalan, hovuz suv g'oz-siz suv bo'ladi. Odam hovuz suvdan ichsa – suv ichganday bo'lmaydi.

Odam oqar suvdan ichsa – badani jimir-jimir etadi. Badani yayraydi!

Oqar suvdan miya to'ladi. Oqar suvdan miya ravshan tortadi.

Oqar suvda jon bor-da!

Shu bois, dalalarimga yaxob suv berdim.

Jo'yalardan jildiratib-jildiratib yaxob suv oqizdim.

Dalalarim bir hafta yaxob suvladi. Dalalarim bir hafta zaxlab suvladi.

Ana endi dalalarim donador-donador bo'ladi. Ana endi dalalarim serkesak-serkesak bo'ladi.

Donador dala namdor dala bo'ladi.

Suv ana shu donalar oralab yer singadi. Havo ana shu donalar oralab o'tadi.

9

Dala ko'ngli nozik bo'ladi -- vaqt-bevaqt oralay bersa ko'ngliga oladi.

Dala fe'li injiq bo'ladi – bot-bot traktor sola bersa aynib qoladi.

Dala tepkilanib qoladi. Dala zichlanib qoladi. Dala tosh-metin bo'lib qoladi.

Daladan tirik mavjudotlar qochadi. Qocholmay qolmish mavjudotlar o'lib-o'lib qoladi.

Oqibat – g'o'za emin-erkin ildiz otmaydi. G'o'za orom-orom o'smaydi.

Men dalalarimdan oyog'imni tortdim.

10

Tukli chigit bo'ladi, tuksiz chigit bo'ladi.

Tuksiz chigit bo'lali-bo'lali bo'ladi. Tuksiz chigit zal-vorli-zalvorli bo'ladi.

Tuksiz chigit bexato oladi, tuksiz chigit bexato ko'karadi.

Dalalarim uchun ana shu tuksiz urug' chigit keldi.

Men omborimni shamollatdim. Dorilab yuvdim. Ohak bilan oqladim.

Omborimga taxta to'shadim. Taxta ustiga chigit yoydim.

Men bosh-adoq tanapo'sh kiydim. Rezina etik kiydim. Qo'lqop kiydim. Ko'zoynak taqdim.

Urug' chigitni hovuz soldim. Formalin degich quruq dori bilan doriladim.

Badbo'ydan-badbo'y doridan o'qchib-o'qchib oldim.

Shiypon oldida bir qarich qalin yoydim. Ustdan purkagichda suv sepdim. Yog'och kurak bilan ostan-ustun ag'dardim. Betinim suvladim.

Urug' chigit suvdan to'ydi.

Ivitilmish chigitni tizza bo'y to'pladim. Tag'in suvladim.

Chigit tomiriga ildizkana kiradi. Tomirni yeysi-yeysi – egri-bugri yara etadi. Chigit qoramtil-qoramtil bo'lib qoladi.

Bunday chigit ko'karmaydi.

Ana shu ildizkanani daf etish uchun chigitni geksaxloran bilan doriladim.

Chigit unib qolmasin deya, shamollatib-shamollatib oldim.

11

Traktor ketiga to'rt qutilik urug' sepgich taqdim.

Bir qutiga o'n besh kilodan chigit soldim.

Bir vaqtlar chigit bilan gerbitsid aralashtirdim. Chigit yer ko'rni – ayni vaqtda chigit bilan gerbitsid-da yer ko'rni.

Xlorfenidim degich och kulrang gerbitsid bir-ikki pallali begona o'tni o'n-o'n besh kun yer ostida bosib turdi. Dixlorfenidim degich kulrang gerbitsid ko'p pallali begona o'tni o'n-o'n besh kun yer ostida bosh ko'tartirmay turdi.

Gerbitsid yer ostida bir yarim oycha turdi – ammo begona o'tni tamoman yo'qotolmadi.

Yomondan-yomoni – gerbitsid begona o't bilan barobar o'n-o'n besh kun chigitni-da undirmay turdi. Gerbitsid paxtani o'n-o'n besh kun hayallatdi.

Shu bois, men endi gerbitsid bahridan o'tdim.

Kattalardan lalmi-lalmi do'qlar eshitdim.

Ammo gapimni qaytib olmadim.

12

Havo bilan yer harorati o'n darajadan ostida chigit bo'r-tadi – ammo ko'karmaydi. Chigit bo'rtik-bo'rtikligicha chirib tamom bo'ladi.

Harorat o'n ikki-o'n to'rtida chigit eksa bo'ladi.

Ayni kunlar ana shunday kunlar bo'ldi!

Chin, dalalarimda harorat o'lchagichim bo'lindi. Harorat o'lchagichga klinikum-da qolmadi.

Men dalalarim haroratini vujud-vujudim bilan bildim.
Men dalalarim haroratini tan-jonim bilan tuydim.

Men dalalarim haroratini yerdan bir hovuch tuproq olib bildim.

Vujud-vujudlarim aytdi, kaft-kaftlarim aytdi: ana endi ek, dedi. Bugundan hayallasang – dala beti qurib qoladi, dedi. So'g'in, chigit kech unib chiqadi, dedi. Undan so'g'in, ko'kartirish uchun chigit suv berish lozim bo'ladi, dedi. Undan-da so'g'in, chigit suv dalani qotirib tashlaydi, dedi. Oqibat – chigit yoppa baraka unib chiqmaydi, dedi. Yomondan-yomoni – kech ekilmish chigit kamhosil bo'ladi, dedi.

Men traktorni dala o'ngardim.

Uch santimdan sayoz chigit ekib bo'lindi. Dalabet darrov nam oldiradi. Chigit namsiz betda qoladi. Hadeganda ko'kara bermaydi, Ko'karsa-da – yoppa baraka ko'karmaydi. Bitta-bitta ko'karadi. Oqibat – g'o'za siyrak-siyrak bo'lib qoladi.

Besh santimdan chuqur-da ekib bo'lindi. Besh santim chuqurga harorat yetmaydi. Besh santim chuqur ohista-ohista qiziydi. Oqibat chigit-da ohista-ohista unadi.

Besh santim chuqurni yorib chiqish chigit uchun it azob bo‘ladi!

Shu bois, men to‘rt santim chuqurlikda chigit ekdim.

Bir qadam pushtaga yigirma-yigirma beshtadan chigit tushdi.

Chigit nima uchun bilonihoya-bilonihoya tushdi?

Masalan, yil seryomg‘ir keldi. Dala sernam keldi.

Bir-ikkita chigit sernam daladan bo‘rtib chiqolmaydi. Bir-ikkita chigit sernam daladan yorib chiqolmaydi. Chigit quvvati yetmaydi.

Yer og‘ir-da, yer og‘ir.

Masalan, zil-zambilni bir-ikkita odam ko‘taroladimi? Ko‘tarolmaydi. Ko‘pchilik bo‘lsa – dast ko‘taradi.

Chigit-da shunday-da! Chigit bilonihoya bo‘lsa – yerni dast ko‘taradi. Chigit bilonihoya bo‘lsa – yerni quvvat bilan yorib chiqadi.

Dalalarimni chigit dori isi bosdi. Men o‘qchib-o‘qchib chigit ekdim.

13

Darvozamizdan ichkarilab edim – Oysuluv qizimiz pesh-voz chopib keldi.

– Ota, suyunchi bering, qaldirg‘ochlarimiz keldi! – dedi.

Dahlizimiz shipiga nazar soldim – chini bilan inda bir qaldirg‘och bo‘ldi. Tag‘in ikkita qaldirg‘och shiplar aro uchib yurdi. Ko‘zim quvondi.

– O‘ynab qo‘yay, o‘ynab qo‘yay... – deya pichirladim.

Qaldirg‘ochlar chindan-da o‘zimizni qaldirg‘ochlarmi yo begonami, deya sinchiklab-sinchiklab qaradim.

Qaldirg‘ochlarda ulgi-da bo‘lmadi, tamg‘a-da bo‘lmadi.

Chin-da – qaldirg‘ochlar kiyim kiymaydilar. Qaldirg‘ochlar so‘ylamaydilar. Qaldirg‘ochlar kulmaydilar.

Shunday bo‘lsa-da, men ich-ichimdan tuydim: uyimizni topib kelibdi – o‘zimizni qaldirg‘ochlar bo‘ladi-da.

Qaldirg‘ochlarimiz boshimiz uzra uchdi. Charx-charx uchdi. Gir-gir uchdi.

Qaldirg'ochlarimiz inlarida qator bo'lib o'tirdi. Qaldirg'ochlarimiz bizga mo'ralab-mo'ralab o'tirdi. Qaldirg'ochlarimiz bizga mo'lt-mo'lt o'tirdi.

Men tashqarilayotib edim – bir qaldirg'ochimiz boshim uzra chirq-chirq aylandi. Qaldirg'och qanotlari telpagimga teg-a-tega aylandi.

Qaldirg'ochimiz men bilan salom-alik qildi-yov!

Qaldirg'och qanotlar havosi peshonamni silab-siypab aylandi.

Qaldirg'ochimiz men bilan o'pishib-o'pishib ko'rishi-di-yov!

Men kula-kula ko'zlarimni chirt yumdim. Men kula-kula betlarimni chet burdim.

– Xush ko'rdik, jonivorlar, xush ko'rdik! – dedim.

14

Dalalarimga vakil kelar bo'ldi.

– Elburutdan vakilga pishirib qo'yibdimi, – dedim. – Hali chigit ekip bo'lman bo'lsak. – Endi, xo'jaligimiz gullabyashnaydi! – dedi raisimiz. – Rayon vakili o'zimizdan bo'ldi.

– Qani, eshitaylik, qani? – dedim.

– O'rtoq Klara Xodjayevna rayon partiya komiteti uchinchi sekretari bo'ldilar. Ayni vaqtda xo'jaligimizga vakila etib tayinlandilar.

– U kishi o'zimizdanmi? – dedim.

– O'zimizdan-da. Maktab direktori bor edi-ku, o'sha direktorni qizlari-da.

– E, ha, bo'ldi! – dedim. – Rahmatlik maktab direktorimizni farzandlari-da?

– Ha-a, kallangizdan! Ana o'sha maktab direktorini qizlari!

– Rahmatlik maktab direktorimizni qizlari ko'p edi, qaysi biri bo'ldi?

– O'rtoq Klara Xodjayevna! Roza Xodjayevna obkomda ishlayaptilar!

– Bo'ldi-bo'ldi, – dedim. – Egizaklar-a? Esladim-esladim.

Raisimiz shiypon oldini saranjom-sarishtaladi.

– Eshaklar ko'zdan panaga olinsin! – dedi.

Dehqonlarimiz eshaklarini Jarariqqa boylab keldi.

Samad bobo qirchang'i otini yetaklayotib edi, raisimiz o'ng qo'lini ko'tardi.

– Ot tursin! Ot-madaniy hayvon! – dedi.

15

Shiyponimiz oldida mashinalar qator bo'ldi.

Old mashinadan bir ayol tushdi.

Ayol kelishimli-kelishimli bo'ldi. Ayol turmaksoch-turmaksoch bo'ldi.

Ayol turmaksochlari qaldirg'ochlarimiz uyasiday-uyasiday bo'ldi.

Ayol shiyponimiz tevarak-boshiga qarab-qarab oldi.

– Normalno, normalno! – dedi.

Ayol qo'l uzatib ko'rishdi-ko'rishdi – men bilan muqobil bo'ldi.

Men ayolni qizim-qizim, deyin dedim – katta odamni qizim deyish uchun tilim bo'lmadi.

Men ayol otiga xon yo gul qo'shib aytayin, dedim – farg'onachi bo'lmadim.

Bo'ldim-bo'ldim, surxoni bo'ldim – baycha deyin-da.

– Qani, yo, bismillo! – deya qo'shqo'llab ko'rishdim. – Omonginamisiz, Klarabaycha? Vaqtiginangiz xushmi, Klarabaycha? O'ynab-kulibgina yuribsizmi, Klarabaycha?..

– Nima-nima?

– Klarabaycha?

Ayol lab burdi. Ayol qosh kerdi.

– Baycha? Kakaya baycha? – dedi. – Men Klara Xodja-yevnaman!

Men nima deyishimni bilmadim. Men ko'z ostimdan raisimizga qaradim.

Raisimiz uzr so'ra, deya qo'lini ko'ksiga qo'yib ishora berdi.

Men darrov o'ng qo'limni ko'ksimga qo'ydim.

– Tavba qildim, – dedim.

Ayol ana shunda yuzimga tikilib qaradi!

Ayol sergaklandi. Ayol qizarib-bo'zardi. Ayol... irgandi!

Ayol ko'zlarini olib qochdi. Ayol dalalar uzra razm soldi. Ayol ohista-ohista bosh irg'adi.

– O'rtoq rais? – deya majnuntollar taraf yo'l oldi.

Raisimiz labbaygo'y bo'lib-labbaygo'y bo'lib bordi.

Ayol majnuntollar ostida odimladi.

Raisimiz ayol ketrog'ida odimladi. Ayol og'ziga qarab-qarab odimladi.

Tag'in, kattalar chaqirsa, eshitmay qolmayin deya, majnuntollar ortidan borib turdim. Kattalar yo'talsa bo'ldi – chopqillab boraman deya, qulog'imni ding etib turdim.

– Mash'al brigadiriz shumi, o'rtoq rais? – dedi ayol.

– Shul-shul, – dedi raisimiz. – Dehqonqul shul!

– Dehqonqul... klassicheskiy ot! Lekin shu..

– Chin, picha o'qimagan, chin.

– Gap o'qishda emas, o'rtoq rais. Yuqoridan partiya-hukumat arboblari tashrif buyurib, ilg'or paxtakoringizni ko'rsating desa, qanday qilib ko'rsatamiz?

– Ko'rsata beramiz, nima qipti?

– Institutda estetikadan necha baho olgansiz? To'g'ri, avvalo mehnat. Lekin mehnat o'z yo'liga; Ilg'or paxtakor uchun tashqi ko'rinish ham kerak. Ilg'or paxtakor partiya-sovet arboblari bilan qo'l olib-qo'l beradi. Ilg'or paxtakor majlislar-da, matbuotda chiqishlar qiladi. Bu ko'rinish bilan qanday qilib chiqish qiladi?

– Bet-boshi tappa-tuzuk-ku, Klara Xodjayevna?

– Ilg'or paxtakoringiz betidan buzilgan pes-ku? Ko'nglimni aynitib yubordi-ya!..

Raisimiz... bet-boshimni oqladi.

O‘zbekiston o‘z oti o‘zi bilan janub bo‘ldi.

Bizning Surxon janubni janubi bo‘ldi.

Surxon jaziramasi jaziramani jaziramasi bo‘ldi.

Surxon saratoni saratonni saratoni bo‘ldi.

Toshkent radiosida harorat o‘ttiz bo‘ldi, bizning Surxonda qirq bo‘ldi.

Toshkent oynayi jahonida harorat qirq bo‘ldi, bizning Surxonda ellik besh bo‘ldi.

Surxon saratoni ko‘z ochirmadi. Surxon saratoni kiprik qoqtirmadi.

Ko‘z ochmasa, tag‘in bo‘lmadi – g‘o‘za qarab turmadi!

G‘o‘za kun sanadi! G‘o‘za uchun har bir kun g‘animat bo‘ldi.

Men ko‘zlarimni qisib-qisib ketmon chopdim. Men ko‘zlarimni qisib-qisib g‘o‘za o‘toqladim. Men ko‘zlarimni qisib-qisib paxta terdim.

Jazirama jingirtob-jingirtob qafasiga oldi.

Men bor hol-quvvatim bilan ko‘z qisdim. Men bor diqqat-e’tiborim bilan ko‘z qisdim. Men bor aql-farosatim bilan ko‘z qisdim.

Shunda, peshonamda chuqur-chuqur ajinlar chiziq tortdi. Shunda, yonoqlarimda uzun-uzun ajinlar chiziq tortdi. Shunda, lablarimda mayda-mayda ajinlar chiziq tortdi.

Butun bet-boshim bij-bij ajin bo‘ldi. Butun bet-boshim g‘uj-g‘uj ajin bo‘ldi.

Bet-boshim bet-bosh bo‘lmadi – darz-darz yer bo‘ldi. Bet-boshim bet-bosh bo‘lmadi – qaqroq-qaqroq yer bo‘ldi. Bet-boshim bet-bosh bo‘lmadi – sho‘r-sho‘r yer bo‘ldi!

Men qirq daraja saratondan ana shu ajinlarim ostida kun ko‘rdim. Men ellik daraja jaziramadan ana shu ajinlarim ostida jon omonladim.

Men chilla deya atalmish do‘zaxdan ana shu ajinlarim ostida jon hovuchladim.

Saraton kuydira berdi-kuydira berdi – o'limgan ana shu ajinlarim bo'ldi.

Men soya-salqinda bet-boshimni bo'sh-bo'sh qo'ydim.
Men soya-salqinda ko'zlarimni emin-emin ochdim.

Ana shunda qop-qora ajinlarim yoyildi. Ana shunda qop-qora ajinlarim ostida tilim-tilim yo'llar ko'rinish berdi. Ana shunda qop-qora ajinlarim ostida taram-taram yo'llar ko'rinish berdi. Ana shunda qop-qora ajinlarim ostida halqa-halqa yo'llar ko'rinish berdi. Tilim-tilim yo'llar qizg'ish-qizg'ish bo'ldi. Taram-taram yo'llar oqish-oqish bo'ldi. Halqa-halqa yo'llar oqimtil-oqimtil bo'ldi.

Ilk bor ko'rmish odam betidan buzilibdi, deya o'yladi...

17

Ayol bilan raisimiz oldin-ketin qaytib keldi.

– Molodes, mash'al brigadir! – dedi ayol. – Partiya-hukumatimizga ana shunday quyoshda toblangan paxtakorlar kerak!

- Qulluq, – dedim.
- Bizga qanday xizmatlar bor?
- Xizmat yo'q. Bari nima to'kin-sochin.
- Ishlaringizga muvaffaqiyat tilayman!
- Tag'in bir qulluq.

Ayol dalalarimni qaradi. Oqtuproq dalam ekuvsiz ekanini bilib qoldi.

– Nega hozirgacha chigit ekilmagan? – dedi.

Raisimiz qirinib yo'taldi. Bayon etish uchun shaylandi. Yana-tag'in menga qaradi – o'zing ayt, degan bo'ldi.

Men nima deyin?

Rahmatlik maktab direktorimizni qizginasi, chin, oqtuproq dalam ekuvsiz yotibdi, boisi – qurib-qaqshab yotibdi, oppoq changib yotibdi, deyinmi? Oqtuproq dalam mirob marhamatini qarab yotibdi, deyinmi?

Men miq etmayin qarab tura berdim.

– Maza yo'q-ku, mash'al brigadir? – dedi ayol.

Endi nima deyin?

O'ynab qo'yay, rahmatlik maktab direktorimizni qizginası, o'ynab qo'yay, oqtuproq dalamga ayni shu holida chigit ekayin – chigitim unmaydi, deyinmi? Chigitim unsa-da, uchto'rt ko'saklikkina nimjon g'o'za bo'ladi, hosili bir terimdan ortmaydi, deyinmi?

– Bu dalamiz oqtuproq dala... – dedim.

O'ynab qo'yay, qaldirg'och uya turmakkinnangizdan o'ynab qo'yay, mirob oldin suv bersin, men oldin oqtuproq dalamni suvlayin, keyin toblayin – ana undan keyin ekayin, deyinmi?

– O, tem bolee, oqtuproq! – dedi ayol.

– Shunday, shunday, – dedim.

– Oqtuproq yerga birinchı bo'lib ekish kerak! Ekkanda ham tig'iz ekish kerak! To'g'rimi, o'rtoqlar?

– Dono fikr! – dedi raisimiz. – Hikmatli gap!

Men nima deyishimni bilmadim – tilim aylanmay qoldi.

Ayol o'ng qo'l oppoq qo'lqopini sug'urdi. Yerga qo'l uzatdi.

– Qani, ko'raylik-chi, – dedi.

Ayol bir siqim tuproq oldi. Yuzlari oldiga olib keldi. Sinchiklab tikildi.

– O, mash'al brigadir! – dedi. – Bu yer emas asal, asal! Shunday asal yerni kuttirib o'tiribsiz-a. Yaxshi emas, mash'al brigadir, yaxshi emas.

– Ekamiz, ekamiz, – dedim.

– Eking, kechiktirmay eking! Anavi turgan traktor chigit ekadimi? O'shani tez buyoqqa olib kelng!

Men endi nima deyin?

O'ynab qo'yay, qaldirg'ochuya turmakkinnangizdan o'ynab qo'yay, anavi oppoqqina kaftingizdagı yer emas, u bir chang, g'o'za changda ko'karmaydi, g'o'za yerda ko'karadi, deyinmi?

Meni hamisha dalalarim qo'llaydi, Meni hamisha dalalarim quvvatlaydi. Meni hamisha dalalarim yoqlaydi.

Bu safar-da dalalarim qo'lladi: ayol oqtuproqni tashlab edi – oqtuproq deyarli yerga tushmadi! Oq-tuproq changib-changib uchdi!

Ayol bet burdi. Ayol bet o'girdi.

– Fu-u – deya kafti bilan chang quvdi.

Raisimiz tirsagimdan chet tortdi.

– Choping, traktorni olib kelng, – deya shivirladi.

Men ketimga qarab-qarab yo'l oldim. Men umidlanib-umidlanib yo'l oldim.

Ayol, mayli, qo'ya bering, deydimikin, deya umidlandim.

Traktordan sado chiqdi – ayoldan sado chiqmadi.

Oqtuproq dalamga traktor soldim

Ayol traktor ketidan mammun-mamnun bosh irg'ab qaradi.

18

Namozshomda raisimiz darvozasini olib turdim. Raisimiz keldi. Raisimiz bilan aroq hidi-da keldi.

– Shefni jo'natdim, – dedi raisimiz. – Klara Xodjayevnani jo'natdim. Qani, bundaychikin turibsiz?

– Oqtuproq dalani nima qilamiz, rais bova? – dedim.

– Nima qilardingiz – eking, Shef aytdi – eking!

– Ekkан bilan...

– Bilaman! Lekin raykom sekretari og'zidan chiqqan gap – qonun-da!

– Mehnat qilgan kirasi emas-da?

– Bilaman! Lekin raykom sekretari buyruq berdi-da! Ekmay ko'ring – erta-indin raykomga ustimizdan yumaloq xat tushadi!

Meni-da ayol zoti bino etdi. Bolxin terimchi onamiz aybimdan o'tsin – ayol aralashmish ish rasvoyi raddi balo bo'ladi.

Meni-da ayolim bor – u bir etak farzand tug'ib berdi. Bir etak farzandlarim onasi bo'l mish ayolimiz, men uchun qo'li kosov ayolimiz, men uchun sochi supurgi ayolimiz aybimdan o'tsin – ayol aralashmish ish ochiq mozor bo'ladi.

Meni-da qizlarim bor, qizlarim gunohimdan o'tsinlar –
ayol aralashmish siyosat yurt sho'ri bo'ladi, ayol aralashmish
siyosat el sho'ri bo'ladi.

19

Sakkiz kun qaradim, to'qqiz kun qaradim, o'n kun qara-
dim qani endi, oqtuproq dalamda chigit bo'rtsa, qani endi
oqtuproq dalamda chigit uch bersa.

Oqtuproq dalam kal kalladay yaltirab tura berdi.
Oxiri toqatim toq bo'ldi – oqtuproq dalamni buzdim.
Oqtuproq dalamni suvladim. Oqtuproq dalamni tobladim.
Qayta ekdim.

20

Shu-shu – vakila ayol bir oyog'i dalalarimda bo'ldi.

O'zi, shu poshikastani kasbi nima? – dedim.

Ideologiya! – dedi raisimiz.

Shundan buyon rahmatlik maktab direktorimizni qizini
ideologiya degich bo'ldim.

21

Tog' cho'qqlari uzra ko'mir-ko'mir bulut toshdi.

Dalalarim boshida ko'mir bulut tugul oppoq bulut-da
bo'lmadi.

Men ko'nglimni to'qlab uyga keldim.

Kechasi bir mahal momaqaldiroq gulduradi.

Men tashqarilab qaradim.

Qiblagohda sim-sim: yashin yondi. Ko'ndalang yondi.
Tikka yondi.

Sharros-sharros yomg'ir yog'di.

Men qo'limga xitoyi fonarimni oldim. Yelkamga ketmo-
nimni oldim. Jarariq yo'l oldim.

Jarariq to'lib sel oqdi. Toshib-toshib oqdi.

Men dala boshini qaradim. Etlarim bir uvishib oldi.

Sel Jarariqdan toshdi. Sel dala ariqqa o'tdi. Sel ariq qu-log'ini oldi. Sel dalalarim oralab oqdi.

Men etiklarimni sug'urdim. Cholvorimni lippa urdim. Sel oraladim.

Shu tevarakda kesak bo'ldimi, tosh bo'ldimi – qulokqa olib kelib bosdim. Traktor temirlarini olib kelib bosdim.

Sel barini yuvib-yuvib oqdi.

Men ketmon bilan chim o'yib-chim o'yib bosdim – sel chimlarni-da yuvib oqdi.

Tan-jonim ter bo'ldi. O'ngirim bilan bet artdim. Entikib nafas oldim,

– Bor-e! – deya ketmonimni otib yubordim. Selga qarab o'tirdim. Sel ostida qolajak dalalarim ko'z oldimga keldi.

Men ishtonchan bo'ldim. Ko'zimni chirt yumib selga oyoq soldim.

Sel yaxday-yaxday bo'ldi.

Men qulokda tikka turib sel balogardon bo'ldim.

Sel belimga urdi. Sel ko'kragimga urdi.

Men quloch yoyib-yoyib sel balogardon bo'ldim.

Sel dala ariqqa deyarli o'tmay qoldi.

Sel yog'och oqizib keldi – yog'och ko'kragimga tegib-tegmay o'tdi. Sel shoxcha oqizib keldi – shoxcha ko'kragimga tegib-tegib o'tdi.

Tan-jonim yaxladi. Suyaklarim qaqlashi. Tishlarim tik-tik etdi.

Bir mahal tizzalarimga zilday bir nima kelib urildi. Zil nima tizzalarimdan oyoqlarim yuziga tushdi. Oyoqlarim yuzida oqmay qoldi.

Oyoqlarim bir og'ridi, bir og'ridi!

Baqirayin deya og'iz ochdim – ovozim chiqmadi.

Oyoqlarim birovini qo'yib birovini tortdim – zil nima ositan tortib ololmadim.

Oyoq panjalarim tanam uchun begona bo'lib tuyuldi. Panjalarimni qimirlatdim – panjalarim-da qimirlamadi.

Boshim aylandi. Ko'nglim ozdi. Ko'zim tindi...

Ko'zlarimni ochdim – boshimda oppoq kiyimlik qizgina o'tirdi.

Eb-ey, qayerga kelib qoldim, eb-ey! – dedim. Adog'muda onamiz o'tirdi.

Ochiq mozorga kelib qolding! – dedi onamiz. – Ochiq tashadga kelib qolding! – Ideologiya bilan raisimiz kirib keldi.

Nima bo'pti, Bolxin momo? – dedi raisimiz.

Nima bo'lgich edi, ana, ko'rgiligin ko'rib yotibdi! – dedi onamiz. – El-xalq azonda Jarariq adog'idan topib olibdi. Munday qarasalar, balchiqda bir murda yotgan emish.

Ana qahramon, mana qahramon! – dedi raisimiz.

Matrosov! – deya xitoblandi Ideologiya. – Zamonamiz Matrosovi! Bunday qahramonlar bilan kommunizm qursa bo'ladi!

Onamiz yengi uchi bilan og'zini ushlab yig'lamsiradi.

Selda-da aql yo'q ekan-da, – dedi onamiz. – Birato'la ochiq mozorga olib borib tashlamabdi-da!

Unday demang-e, Bolxin momo! – dedi raisimiz. – Dehqonqul aka tabiiy ofat bilan qahramonlarcha olishgan!

E, qirilib qirg'inni oldidan ketsin, bundaychikin qahramon!

O'rtoq Jamoliddinov tabiiy ofatni ko'ksi bilan to'sib, Matrosov jasoratini takrorlagan! – dedi Ideologiya.

E, kafanini bichayin, bundaychikin Matrosovni, kafang'inasini bichayin!

Baqirmang-e, ena... – dedim.

Baqiraman! – shang'illadi onamiz. – O'lib ketsang, bo-la-baqrangni kim boqadi?!

Uf-f, ena...

Ha, fotihangga borayin sendaychikin Matrosovni, fotihaginangga borayin!

– Ha endi, paxta uchun-da, Bolxin momo, paxta uchun – dedi raisimiz.

— Ha, paxtalaring qiyomat ketsin-a, paxtalaring qiyomatgina ketsin-a! Men paxta deb nima bo‘ldim? Bir belangi bo‘ldim! Ulapam o‘ttiz so‘m pensiya bo‘ldi.

— Siz siyosiy xato qilmoqdasiz, momay! — dedi Ideologiya. — Sotsialistik sistemamizning eng buyuk afzalligi shundaki, u mehnatkashlarni o‘z taqdirining xo‘jayini qilib qo‘yish bilan, insoniyat tarixida birinchi marta oddiy insonni misli ko‘rilmagan yuksaklikka ko‘tardi, kapitalistik qullik sistemasi czib kelgan million-million kishilarni aktiv ijodiy faoliyatga jalg etdi!..

— E’tibor bermang, Klara Xodjayevna, — dedi raisimiz. — Momolar o‘qimagan-da.

— Siz momaylor gapiga qulqoq solmang, o‘rtoq Jamolidinov! — dedi Ideologiya. — Mehnatni ijtimoiy ish deb, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ish deb, sharaflı ish deb bilish, mehnat unumdarligini tinmay oshirish, sotsialistik mulkni avaylab-asrash, sovet kishisining ongliligini, uning oliyjanob ma’naviy qiyofasini, uning kommunizm ishiga sodiqligini ko‘rsatuvchi eng asosiy fazilatdir, mehnatni mensimaslik, parazitizm jamiyatga zid hodisadir, odamning odam tomonidan ekspluatatsiya qilinishi tamomila yo‘qotilgan va mehnat o‘zi uchun qilinadigan, o‘z baxti uchun, hammaning baxt-saodati uchun, sotsialistik jamiyat foydasiga qilinadigan mehnat bo‘lib qolgan sotsializm sharoitida esa bu hol xalqqa butunlay zid holdir, bizning jamiyatimizda tekinxo‘rlar va dangasalarga o‘rin bo‘lmasligi kerak!..

Davolandim-davolandim – binoyiday turib ketdim.

23

Mo‘lt-mo‘lt dala qaradim.

Jo‘yalar sarg‘ish-sarg‘ish sel bo‘ldi. Jo‘yalar saqich-saqich sel bo‘ldi.

Dalalarimni yumshatayin dedim – jo‘yalar hali loyqa bo‘ldi. Dalalarimni yumshatmayin dedim – loyqa qotib qolar bo‘ldi.

Loyqa qotsa yomon qotadi. Dala qatqaloq bo'ladi. Dala tosh-metin bo'ladi.

Ichimni it tirmadi. Dalamdan ko'z uzmadim.

Dalalarim darz-darz yorildi. Dalalarim sarg'aydi.

Men dalalarimga traktor soldim.

Dalalarim kaftday-kaftday ko'chdi. Dalalarim mushtday-mushtday ko'chdi. Dalalarim toshday-toshday ko'chdi.

Shunda, pushtalar bo'rtib-bo'rtib qoldi. Shunda maysalar uch berib-uch berib qoldi.

24

Kunbotar tarafdan elas-elas gulduros keldi.

Kunbotarda qop-qora bulut suzdi. Kun bulutda qoldi. Besh tiyinlik sariq tanga misol qoldi.

Bulut ko'pirib toshdi. Bulut ko'pirib qoraydi. Bulut tog'ni qopladi.

Azim-azim tog'dan yong'oqday cho'qqi-da qolmadi.

Bulut ichra ayqash-ayqash nur yalt etdi. Bulut bag'rini yorug'-yorug' yo'llar tildi – tog'da yomg'ir yog'di.

Bulut tog'dan endi. Bulut qoyaladi. Bulut qirladi. Bulut adirladi. Bulut dalalab keldi.

Dim-dim sukunat bo'ldi.

Daraxtlar tosh qotdi. Chumchuqlar ichiga bo'yin tortdi.

Tog' tarafdan favqulodda shamol turdi. Shamol mo'rt daraxtlar bargini duv to'kdi. Shamol tol shoxchalarni qirs-qirs sindirdi.

Dona-dona yomg'ir tomchiladi.

Dalalarim cho'tir-cho'tir bo'ldi. Kiyimlarim nuqta-nuqta bo'ldi.

Bulut sharr-sharr yog'di.

Dalalarim changib-changib qoldi. Dalalarimdan yoppa baraka chang o'rladi.

Havodan yer hidi keldi.

Bulut endi jala yog'di.

Qiyalab-qiyalab jala yog'di. No'xatday-no'xatday jala yog'di. Muzday-muzday jala yog'di.

Endigina nish urmish g'o'zani nimasi bo'ladi? Birovgina yolg'iz bargi bo'ladi!

Jala ana shu yolg'iz bargni urib ketdi.

Norasida g'o'zani nimasi bo'ladi? Ignaday tanasi bo'ladi!

Jala ana shu igna tanani urib ketdi.

Norasida bolani o'zidan oldin qulog'i ko'rindi. Shu norasidani quloq-chakkasiga tarsillatib urib bo'ladimi? Ko'kragida imoni bor odam norasidani uradimi?

Norasida g'o'za-da misoli norasida – o'zidan oldin quloq-bargi ko'rindi.

Havo nima uchun ana shu norasida g'o'zalarimni yertep-kilaydi? Havo nima uchun ana shu norasidalarimni yerpoy-mollaydi?

Shunday vaqtida Yaratganni o'ziga-da ha, demayman.

O'ynab qo'yay, notanti-notanti qiliqlaringdan o'ynab qo'yay, deyman.

25

Dalalarim selgidi.

Ballonoyoq traktor selgi dalani qotirib-qotirib tashlaydi.

Zanjiroyoq traktor selgi dalani qotirmaydi. Zanjiroyoq traktor zanjirini to'shab-to'shab yuradi-da.

Men zanjiroyoq traktorga ketma-ket uchta „Zig-zag“ sixmola uladim.

Dalalarimga „Zigzag“ sixmola soldim. Dalalarimni enlatib-enlatib sixmola soldim. Dalalarimni bo'ylatib-bo'ylatib sixmola soldim.

Sixmola kesaklarni maydaladi. Sixmola g'adir-budurlarni tekisladi.

Dalalarim tobga keldi.

Dalalarimga sudrama arava soldim.

Olti g'o'lalik sudrama arava ezilmayman degich kesaklarni-da ezdi. Barmoqday-barmoqday o'nta tishlik sudra-

ma arava ketmayman degich qatqaloqlarni-da ketkazdi. Bir qulochlik yo‘g‘on-yo‘g‘on sudrama arava dalalar betini ravon-ravonladidi.

Dalalarim qiyomga keldi.

Sixmola tegmay qolmish chet-chetlarni ketmon bilan havorladim.

Sudrama arava tegmay qolmish burchak-burchaklarni xas-kash bilan ravonladim.

Dalalarim quyruqday-quyruqday bo‘ldi.

Ikkinchisini bor chigit ekdim.

26

Ay, bir ayolimiz bor-da, ay, bir ayolimiz bor-da!

Bir vaqtlar suqsurday-suqsurday qiz edi! Bir vaqtlar chik-kabel-chikkabel qiz edi!

Men ko‘nglim ketib-ko‘nglim ketib sovchi qo‘yib edim.

Ming qilsa-da, xolamizni qizi-da – darrov ha, deya qolib edi.

Men mana bunday to‘ynoma tarqatib-tarqatib to‘y qilib edim:

Atirgul hidlari olamga ketdi,
Quvnoq yoshligimiz voyaga yetdi.
Hatto tengdir bo‘yimiz bo‘yga,
Sizlarni taklif etamiz to‘yga!

To‘yimizdan buyon ayolimiz uni olib ber-buni olib ber, demaydi. Desa-da, birovni oldida demaydi.

To‘sakda aytadi! Qo‘ynimga kirib aytadi!

Oldin, silab-siypalaydi. So‘g‘in, suyib-erkalaydi.

– O‘-o‘y, juhudi atlas olib bersin, – deydi.

– Juhudi atlas otliqqa yo‘g‘-u.

– Bor ekan. Chori mudir Dushanbadan olib kelibdi. Uyida yashirib sotayotgan emish.

– Bir jo‘rasi qanchadan ekan?

– Bir jo‘ra atlas ikki yuz so‘m ekan.

-
- O‘h-o‘-o‘...
 - Ko‘p entikmasin, atlas qo‘lda o‘zi shuncha turadi. Rais ayoliga olib beribdi.
 - Rais o‘z oti o‘zi bilan rais-da. Men bir dehqon bo‘lsam.
 - Bu kishi kimdan kam? Brigadir degich oti bor. Bir jo‘ra atlasni kuchay olmasa, brigadir bo‘p nima qilib yuribdi?
 - O‘ynab qo‘yay, brigadir degich otdan, o‘ynab qo‘yay. Brigadir bir dehqon-da.
 - Shu, raisni ayoli juhudni atlas kiyadigan ayolmi? Betti qop-qora – otashkurakday! Shugina juhudni atlas kiyganda, menga nima qilibdi?
 - Bo‘ldi, ko‘p g‘ingshima, bolalar uyg‘onib ketadi.
 - Olib bermasa, olib bermasin!..
 - Ayolimiz shunday deya, chappa burilib oldi. Bunday vaqtida yo‘q deb bo‘ladimi?..

27

Ertasi idora bordim.

- Ikki yuz so‘m...
- Kassir betimga qayrilib-da boqmadi. Kassir cho‘tdan ko‘z olmadi.
- Pul yo‘q! – deya shiq-shiq cho‘t qoqdi.
- Juda zaril edi.
- Shu, o‘qimaganligingga borasan-da, Dehqonqul. Pul yo‘q deyapman-ku, Mana, ishonmasang po‘lat sandiqqa qara. Po‘lat sandiqda pul bo‘limgandan keyin, qayerdan beraman?
- Butun bir boshli kolxozda-ya.
- Butun boshli kolxozda pul zavodi yo‘q, Dehqonqul, pulni davlat beradi. Davlat esa pul bermayapti. Chekanka vaqtida beramiz, deyapti.
- Chekanka? Chekankani pulga nima daxli bor?
- O‘qimagansan-da, Dehqonqul, o‘qimagansan. Hozir dalada ish qo‘qigan vaqt. Davlat hozir pul bersa, kolxozchi kam-ko‘stimni tuzatayin deb, bozorma-bozor chopadi. Dala-

da ish qolib ketadi. Chekanka vaqtida esa chekankadan boshqa ish bo'lmaydi. Tushundingmi? Davlat anoyi emas.

- Ro'zg'orchilik – yo'qchilik-da.
- Shu gapingga kim ishonadi, Dehqonqul? Azza-mazza brigadir! Uyal-e, shunday degani!
- Yo'qchilik yomon-da.
- Unda, ana, kattalarning birortasidan qarz so'ra.
- Dahlizda o'ylanib qoldim. Kimdan so'rashimni bilmadim.
 - O'yadim-o'yadim – raisdan so'rayin, dedim.
 - Hamsoya degan otimiz bor, dedim.
 - Kelim-ketimni keti uzilishi bilan ohista kirib bordim.
 - Ish vaqtি idorada nima qilib yuribsiz, Dehqonqul aka? – dedi raisimiz.
 - Zaril ish bilan kelib edim, rais bova.
 - Zaril bo'lsa, kecha maylisda aytsangiz bo'lardi.
 - Ro'zg'or ishi, rais bova.
 - Ro'zg'or ishi bo'lsa, ana, hamsoyamiz, devordan bo'y lab aytsangiz ham bo'lardi. Xo'sh, nima ish ekan, ayting qani, hamsoya.
 - Shu... rais bova, bizga bir... ikki yuz so'mcha zaril bo'lib qoldi. Ro'zg'orchilik – yo'qchilik-da.
 - Sadqayi suxaningiz, ana, kassirga ayting, beradi.
 - Aytdim, yo'q, dedi. Sandig'ini ochib ko'rsatdi, yo'q ekan.
 - Bo'Imasa nima qilamiz, yo'q bo'lsa yo'q-da.
 - Shu... shu, qarz berib tursangiz degandim, rais bova, pul tushganda uzardim.
 - E-e, Dehqonqul aka, Dehqonqul aka. Menda pul nima qiladi? U oyligim bu oyligimga arang yetadi. O'nta jonniz. Toshkentda o'qiydigan Barot o'g'limiz kelgan, ko'zingiz tushgandir. Shu o'g'limiz erta-indin ketadi. Hali, shunga poyezd pulini o'yab o'tiribman.
 - Hay, mayli.
 - Shu gap, Dehqonqul aka. Xafa bo'lmaysiz. Pulim bo'lsa jonom bilan berardim. Siz o'zimiznikisiz, hamsoyamizsiz.

Uyda ayolimizga bor gapni aytib berdim.

Ayolimiz oldin ishonmadi.

Men endi qasam ichib aytdim.

Ayolimiz ana shunda ishondi. Ishondi-da – bir boshqa bo'ldi-qoldi.

Ayolimiz eshik-orada donlamish tovuqlarni qarg'ab-qar-g'ab haydadi. Ayolimiz satilni yer darang-durunglatib tash-ladi. Ayolimiz choynakni dasturxon do'q-do'qillatib qo'ydi.

Ayolimiz ayollar ashulasini boshladi:

– Dunyoga kelib nima ko'rdim... Kiyadigan kiyimim yo'q...

Men issiq-issiq choy ichdim. Men og'zim kuyib-kuyib choy ichdim.

Men ich-ichimdan xoksorlandim. Men ich-ichimdan xo'rlandim.

Padariga la'nat bunday dunyoni, dedim.

E'tibor berib quloq soldim – ayolimiz ovozi o'chib qoldi.

Xudo insof berdi-e, deya tashqariladim.

Ayolimiz qayrag'och ostida beshik suyanib-beshik suyanib yig'ladi. Ayolimiz burun tortib-burun tortib yig'ladi. Ayolimiz piq-piq yig'ladi.

Og'ilda yotmisht qo'y meni ko'rib talpindi. Yemish umid-vor bo'ldi. Tumshuq cho'zib pix-pix etdi.

Men qo'yga qarab qahrimni sochdim:

– Piqillama-e-e, enag'ar! Nima, men yeb, sen quruq qoldingmi? Ro'zg'orchilik – yo'qchilik- da!

Ayolimiz piqillamay qoldi.

BESHINCHI BOB

1

Men qoziqdan saraton telpagimni oldim.

Telpagimni tizzamga urib-urib qoqdim.

Saraton telpagimdan oppoq-oppoq chang qo‘qidi. Telpagimdan mayda-mayda jonivor tushdi.

Jonivorlar g‘imir-g‘imir o‘rmaladi. Jonivorlar gilam ostilab-gilam ostilab panaladi.

Saraton telpagim olachalpak jun-olachalpak jun bo‘ldi – junlarini saraton to‘kib-to‘kib tashladi.

Saraton telpagim g‘ozsiz-g‘ozsiz bo‘ldi – g‘ozlarini saraton kuydirib-kuydirib tashladi.

Oqibat – saraton telpagim yag‘ir-yag‘ir bo‘lib qoldi.

Men ana shu saraton telpagimni bosib-bosib kiyib oldim.

2

Havo mo‘tadil-mo‘tadil keldi.

Dalalarim beti tarang-tarang bo‘ldi.

Dalalarim osti bilinar-bilinmas g‘imir-g‘imir etdi.

Dalalarim ostida ko‘rsichqon qimirlamishday bo‘ldi. Dalalarim ostida chuvalchang o‘rmalamishday bo‘ldi.

Dalalarim beti sochday-sochday yorildi.

Dalalarim... bolaladi! To‘qqiz kun-u, to‘qqiz soatda bolaladi!

Pushtalarda to‘p-to‘p maysalar nish berdi. Pushtalarda ko‘k-ko‘k maysalar nish berdi.

Dalalarim bag‘ri to‘ldi. Dalalarim bag‘ri butun bo‘ldi.

Meni bag‘rim dalalarimdan-da butun bo‘ldi.

3

Maysalarim o‘n besh kunlik bo‘ldi.

Ushbu kunda maysalarim chinbang yoydi.

Chinbangdan tobinan maysalarimni chin oti bilan atar bo‘ldim. G‘o‘za!

4

O‘zingnikidan qiz olma, demishlari haqqost chin bo‘ldi.

Ayolimizga qattiq-quruq gapirib bo‘lmadi. Gapirayin dedim – tilim bormadi. Xolamizni qizi-da – bo‘lamiz-da!

Gapirmayin dedim – erkak erkak-da, tag'in bo'lindi. Bir og'iz gapirdim – ayolimiz onamizni pinjiga tiqilib o'tirib oldi. Onamizdan beri kelmadi.

Imo etsam-da kelmadi, ishora etsam-da kelmadi.

Ovozimni balandlatdim – onamizdan gap eshitdim:

– Kekirdagingni ko'p cho'za bermaga, oshingni yeyin!

O'ziniki-da, ming qilsa-da o'ziniki-da – opasini qizida!

Onamizdan panalatib-panalatib ayolimizga ko'rmusht do'laytirdim. Hali ko'rasan, degan bo'ldim.

Muomala otangni qulimi, deydi. Muomala etdim – ayolimizni aylanib-o'rgildim. Dalaga olib borib aylanib-o'rgildim, daladan olib kelib aylanib-o'rgildim.

Ayolimiz borishda-da mazam yo'q, dedi, kelishda-da mazam yo'q, dedi.

Inchunin, ayolimizdan rang ketdi. Bet-boshi zahildan-zahil bo'ldi.

Ko'zlar suzilib qoldi. Darmondan qoldi.

Ko'nglim hadik oldi. Eshagimni mindim-da, Rasul do'xtirga bordim.

Rasul do'xtir qutisini kovladi. Oldimga bir-ikkita dori tashladi.

– Mana shularni bir kunda uch martadan ichirasiz, – dedi, – uch kun ichsa, o'zidan-o'zi yaxshi bo'p ketadi.

– Oldin o'zini borib ko'ring-da, do'xtir.

– Ko'rish shart emas, ko'rmasdan bilaman.

– Nimani bilasiz?

– Dardini bilaman. Hozir kun qiziyapti. Vitamin yetishmayotgan-da, vitamin.

– Vitamin bor, do'xtir, vitamin bor.

– Vitamin yetishmaydi, vitamin! Shunday kun tig'ida paxtada ishlashni o'zi bo'lmaydi. It azob, it azob! Bari dard ana shundan.

– O'ynab qo'yay, do'xtir, o'ynab qo'yay, vitaminlaringizdan. O'zlarimiz paxta ichida o'sdik. Xudoga shukur, mana,

otdaymiz. Vitamin tugul, hamma narsamiz bor! Yuzimizga qarang, kim aytadi, bizda vitamin yo‘q deb?

- Endi, siz erkak odamsiz.
- O‘lmang, bir ro‘zg‘orda bir oadamda vitamin bo‘lsa bo‘ldi-da. Ro‘zg‘orboshida vitamin bo‘lsa bo‘ldi-da. Yuring-e, do‘xtir-e, ayolimiz ko‘p yomon bo‘p qoldi-e!
- Xo‘p, boraman, qanday borib kelaman?
- Mana, eshagimda g‘ir etib olib borib, g‘ir etib olib kelib qo‘yaman.
- Xo‘p, unda, yuring.
Rasul do‘xtirni mingashtirib keldim.
Shiyponda ayolimizni ovoz berib chaqirdim.
Dalada tizilishib ketmon chopmish ayollar qad rostladi.
Qo‘llarini qoshlariga soyabonlab qaradi.
Men qo‘limni peshlab, ayolimizni ko‘rsatdim. Ayolimizni aytib yuboringlar, degan bo‘ldim.
Kun ketdi.
Osmon zig‘ir gulday-zig‘ir gulday bo‘ldi.
Qiblagohda uch kunlik oy bo‘y-bo‘yladi. Oy o‘roqday bel-bel bo‘yladi.
Ayolimiz daladan keldi. Shiypon ketida iyak-chakkasini ro‘moli bilan o‘rab turdi. Menga qarab iyak siltadi – nima deysiz, degan bo‘ldi.
– Berman kel, – dedim. – Mana, do‘xtir bovani olib keldim, seni bir ko‘rsatayin, dedim.
Ayolimiz ro‘molini bo‘ynidan oshirib o‘radi, yerga qaradi. Kalishi uchi bilan yer chizdi.
– Berman kel, deyman! – dedim.
Ayolimiz bosh siltadi – bormayman, degan bo‘ldi.
– Ay, senga aytayapman! – dedim. – Do‘xtir seni odam deb keldi! Do‘xtirni sendan boshqa-da ishlari mo‘l!
Ayolimiz yerdan ko‘z olmayin zayli shiypon ichkari-ladi.
Rasul do‘xtirdan iymanayapti, deya o‘yladim. Ketidan kirib bordim.

— Ay, nimadan uyalasan, do‘xtir o‘zimizni Rasulboy-ku, yur, — dedim.

Ayolimiz shahodat barmog‘ini chakkasiga nuqib-nuqib ko‘rsatdi.

— Ha, kallang og‘riyaptimi? — dedim.

— O‘-o‘y, bu kishida kalla bormi o‘zi? — dedi ayolimiz.

— Bor, nima edi, bor?

— Kallasi bo‘lsa, do‘xtir chaqiradimi?

— Dardga do‘xtir chaqirmay, kimni chaqiradi?

Ayolimiz tag‘in chakkasiga barmoq nuqib ko‘rsatdi.

— Bo‘lmasa, dardingni menga ayt, — dedim. — Men Rasul do‘xtirga borib aytaman. Do‘xtir, shunday-shunday ekan, deyman.

Ayolimiz bosh chayqab kului. Ayolimiz yerga qarab kului. Ayolimiz og‘iz ushlab kului.

Ayolimiz derazadan uch kunlik oyga ishora berdi...

5

G‘o‘zalarim yigirma kunlik bo‘ldi.

Men g‘o‘zalarimni yaganalar bo‘ldim.

Jo‘ya cho‘nqayib o‘tirdim. Siljib-siljib g‘o‘za yaganaladim.

Men sug‘urib-sug‘urib g‘o‘za yaganalamadim — sug‘urilmish g‘o‘za qabatida qolajak g‘o‘za tomirlari joyidan ko‘chib-ko‘chib qoladi.

Men chimdib-chimdib g‘o‘za yaganaladim. Men qo‘sh-qo‘llab-qo‘shqo‘llab g‘o‘za yaganaladim.

Bir qadamda yigirma-yigirma beshtadan g‘o‘za bo‘ldi.

Bir g‘o‘zam tanasi oqimtil bo‘ldi — g‘o‘zam tomiridan zil ketdi. Demak, g‘o‘zam endi odam bo‘lmaydi.

Men ana shu g‘o‘zamni chimdib tashladim.

Bir g‘o‘zamni bir bargi bor bo‘ldi, bir bargi yo‘q bo‘ldi.

Yakkabarg bo‘ldi. Yakkabarg g‘o‘za — chala g‘o‘za!

Men yakkabarg g‘o‘zamni chimdim tashladim.

Bir g‘o‘zam barglari ilma-teshik bo‘ldi. Donacha-donacha bo‘ldi. Demak, g‘o‘zam elburutdan dardmand bo‘ldi.

Men dardmand g‘o‘zamni chimdib tashladim – sog‘lom
g‘o‘zalarimga dardi yuqmasin, dedim.

Bir g‘o‘zam pushta yonboshida bo‘ldi. Bir g‘o‘zam jo‘ya
ichida bo‘ldi. Ikkovi-da sog‘lom-sog‘lom g‘o‘za bo‘ldi. Ammo
ziyodi g‘o‘zalar bo‘ldi. Boisi – o‘z joyida ko‘karmagan g‘o‘-
zalar bo‘ldi.

Men ikkovini-da chimdib-chimdib tashladim.

Nimjon-nimjon g‘o‘zalarni chimdib-chimdib tashladim.
Mayib-mayib g‘o‘zalarni chimdib-chimdib tashladim.

Kesaklar orasida qolmish g‘o‘zalarimni silab-siypab
rostladim. Kesaklarni kaftlarimda umatib-umatib soch-
dim.

Barmoqlarimni yer botirib-yer botirib g‘o‘zalarim ost-us-
tini muloyimladim.

Bir qadamda to‘qqiz-o‘n tupdan sog‘lom-sog‘lom g‘o‘za
qoldirdim.

Bir haftadan keyin ikkinchi bor yaganaladim.

Bu safar olti-yetti tupdan g‘o‘za qoldirdim.

6

Oqshom vaqtı qızımız iliq suv quydi.

Men qo‘llarimni olqindilab-olqindilab yuvdim. Bot-bot
yuvdim.

Kaftlarimda g‘o‘za ko‘ki bilan isi o‘tirib qoldi.

Tirnoqlarim orasi qop-qora bo‘lib qoldi.

Men tirnoqlarim orasini tirnoq tiqib kovladim.

Men tirnoqlarim orasini gugurtcho‘p tiqib kovladim.

Men tirnoqlarim orasini juvoldiz tiqib kovladim.

Tirnoq uchlarim qop-qoraligicha qoldi.

Tirnoq uchlarim kir-kirligicha qoldi.

7

Uyqumda birov yig‘ladi.

Men oldin tushim, deya o‘yladim.

Yig‘i haminqadar zo‘raydi.

Shunda, uyqum qochdi. Nimkala ko'z ochdim. Uyquli qaradim.

Beshikdag'i chaqalog'imiz yig'ladi.

Men ayolimizni uzala turtdim.

Ayolimiz ing-ing eta jimb qoldi.

Men endi ayolimiz biqinidan nuqiladim.

– Ay, tur, bolang yig'layapti, – dedim.

Ayolimiz to'lg'ondi. Ayolimiz uyqusiradi.

– U-u-u... – dedi.

Yotmis zayli beshikka qo'l uzatdi. Beshik tebratib-tebratib uxladi.

Chaqalog'imiz uzmadi. Chaqalog'imiz mijja qoqtirmadi.
Chaqalog'imiz quloq-miyani yedi!

Men zada-zada turib o'tirdim. Ayolimizni tebratdim.

– Ay, joning bormi? Anavi yig'layapti deyapman! – dedim.
Ayolimiz dast turib o'tirdi.

Beshik pardani ochdi. Beshik tebratgichda osilmish o'yin-choqlarni shaldiratdi.

– Ha, jonom?! – dedi. – Nima deysan, jonom?! O'chir,
bo'ldi, o'chir!

Chaqalog'imiz shunda-da o'chirmadi. Big'g'-big'g' yig'-
lay berdi.

Ayolimiz yomon qiliq qildi-yov – chiqalog'imiz endi
chirr-chirr yig'ladi.

Ayolimiz chimchilab oldi-yov!

Men xit-xit bo'ldim – ayolimiz yelkasidan itarib tash-
ladim:

Ayolimiz bir munkib oldi.

– Ha?! – dedi. – Nimaga uradi?!

– Nimaga bolani urasan?

– Kim urayapti?!

– Sen urayapsan.

– Urmadim!

– Urding. Bo'lmasa, bola bundayin chinqirib yig'lamaydi.

– Urmadim deyapman-ku!

– Urmagan bo'lsang, chimchilading.
– Bo'lmasa, nima qil, deydi?!
– Bolani chimchilama, yig'loqi bo'p o'sadi. Erkalat, suy!
– Mayli, bo'ldimi, maylimi?!
Ayolimiz beshik tebratdi.
– O'chir deyman, o'chir! – dedi ayolimiz. – Senlardan qachon qutulaman-a, qachon qutulaman!

Tag'in chaqalog'imizga bo'lishdim. Tag'in chaqalog'imiz tarafini oldim.

– Bolani jerkma, – dedim.
– Nima qilayin, hadeb bo'kira bersa?!
– Emchak ber.
– Og'ziga emchak tutsam, olmasa nima qilayin?! Bo'lmasa, o'zi kelib emchak bersin?!
– Bir emchak berish qo'lingdan kelmasa, ayol bo'p nima qilib yuribsan?
– Uf-f, o'chir! Ma, em! O'chir, em! Uf-f, senlardan o'lsam qutulamanmi-a, o'lsam qutulamanmi!..

Ayolimiz zahar bilan-zahar bilan beshik tebratdi.

Beshik yo'rg'a gurs-gurs borib keldi. Beshik yo'rg'a do'q-do'q borib keldi.

Sag'al o'tdi – chaqalog'imiz tindi.

Ko'zim ketdi.

Tushimda nimadir... nimadir bir nima yo'q bo'ldi.

Yalt etib uyg'ondim. Dast turib o'tirdim.

Chin, qabatimda ayolimiz yo'q bo'ldi.

Ayolimiz beshik osilib uxladi. Ayolimiz pish-pish uxladi.

Bir ko'nglim – uyg'ot, dedi. Bir ko'nglim – qo'y, uxlasin, hademay tong otadi, dedi.

Yotdim-yotdim – ayolimizga rahmim keldi. Tag'in, uygusida ag'nab tushmasin deya, sochlaridan ohista tortdim.

– Ay, tur, joyingga yot, tur, – dedim.

Ayolimiz bir seskanib tushdi:

Ayolimiz chaqalog‘im yig‘layapti deya, gurs-gurs beshik tebratdi. Ayolimiz chaqalog‘im yig‘layapti deya, aytib-aytib beshik tebratdi:

-- Uf-f, senlardan o‘lsam qutulamanmi-a, o‘lsam qutulamanmi!..

8

Tulki qiziga to‘y berdi.

Kun qiyalab-qiyalab nur to‘kdi. Kun sariq-sariq nur to‘kdi.

Kun betini ko‘rib bo‘lmadi. Kun nuriga qarab bo‘lmadi.

Olam iliq-il iq bo‘ldi. Olam sariq-sariq bo‘ldi.

Havoda oppoq-oppoq bir nimalar uchdi. Havola-havola uchdi. Aylana-aylana uchdi. Burala-burala uchdi.

Osmon misoli un elaklamish-un elaklamish bo‘ldi.

Oppoq bulutlar orasidan kun nurlari to‘kilib-to‘kilib turdi. Qor laylaklab-laylaklab yog‘di. Qor yerga tushib-tushmas yog‘di.

Laylakqor taqqa tindi.

Yerda qor tugul, nam-da bo‘lmadi. Qor havosi-da bo‘lmadi.

O‘ynab qo‘yay, bundayin havoni oti nima bo‘ldi?

Qor yog‘madi, deyin dedim— havoda laylaklab qor o‘ynadi.

Laylaklab qor yog‘di, deyin dedim – yerda qordan nishona bo‘lmadi.

Dehqon bunday havoni:

– Tulki qiziga to‘y berdi, – deydi.

Kechasi yig‘ilishda raisimiz kunlik yaganani so‘radi. Yo‘l-yo‘riqlar berdi.

Shunda, raisimiz oldida turmish telefon jiringladi.

Raisimiz telefonda salom-alik bo‘ldi,

Gap-so‘zidan bildim – raisimiz Ideologiya bilan gapirishdi. Ob-havoni gapirishdi. Chaynab-chaynab gapirishdi.

Raisimiz sharaqlatib telefon dasta tashladi. Derazaga qarab lab burdi.

– Tavba, – dedi. – Ajab vakilamiz bor-da. Kolxozlaringizda qor yoqqan emish, g’o‘za nima bo‘ldi, deydi. Qor yoqqan yo‘q, tulki qiziga to‘y berdi, desam, tulkiyam to‘y qiladimi, deydi...

9

Dalalarimga xonqizi degich hasharot aylandi.

Biz surxonilar xonqizini gulligich deymiz.

Gulligich sariq qo‘ng‘izday keladi. Tumshug‘i qora bo‘ladi. Tanasida qora-qora donachalari-da bo‘ladi, oq-oq donachalarida bo‘ladi. Uchsa, qanotlari katta-katta yoyilib uchadi.

Bolalar gulligich ushlab o‘ynadi. Bolalar gulligich hay-dab o‘ynadi,

Bolalar:

Xol-xol,

Otang o‘ldi,

Onang o‘ldi,

Borib xabar olmaysanmi? –

deya, dirr-dirr qo‘yib chopdi.

Gulligich bolalar kaftida yurdi. Gulligich bolalar qo‘l-yuzida yurdi, gulligich bolalar yengida yurdi.

Gulligich o‘rmalab yurishdan qolmadi – bolalar dir-dirr qo‘yib ashula aytishdan qolmadi:

Xol-xol,

Otang daryoga oqdi,

Onang daryoga oqdi,

Ketmon olib chop-chop,

Ketmon olib chop-chop!

Gulligich surbet bo‘ldi. Gulligich ketmadi.

Gulligich ketmasa tag‘in bo‘lmadi – gulligich hasharotlar bosh bobosi bo‘ldi. Gulligich ming-minglab bolalar bo‘ldi.

Men dalalarimni gulligichofat bilan doriladim – „B-58“ degich zahar dori sepdim.

Zahardan bir hafta dala yo‘lay olmadim.

10

O‘qariq oldim.

Nima uchun o‘qariq deymiz?

Bunday qaralsa – yer ravon-ravon ko‘rinadi. Bunday qaralsa – yer tekis-tekis ko‘rinadi.

Shunday-shunday ariq olsa bo‘ldi – suv bir zaylda oqa beradiganday bo‘ladi.

Aslida unday bo‘lmaydi.

Yerni o‘z tobi bo‘ladi. Yerni o‘z o‘ng-chapi bo‘ladi. Yerni o‘z tosh-tarozisi bo‘ladi.

Ana shu tobni tuymagich dehqon o‘qariq olib yurmasin. U olmish o‘qariq ko‘cha-ko‘ygi jaydari ariq bo‘ladi. U olmish o‘qariqda suv ravon-ravon oqmaydi.

Ana shu o‘ng-chapni ilg‘olmagich dehqon o‘qariq olib yurmasin. U olmish o‘qariqda suv ko‘llab-ko‘llab qoladi. U olmish o‘qariqda suv urib-urib oqadi.

Ana shu tosh-tarozini bilmagich dehqon o‘qariq olib yurmasin. Suv u olmish o‘qariq oxirigachayin oqib-oqib bormaydi.

Dehqoni ko‘z tarozi bo‘ladi, dehqoni ko‘ngil qozi bo‘ladi!

O‘qariqni ana shu dehqon olsin!

Ana shu dehqon olmish o‘qariq o‘qday bo‘ladi.

Suv ana shu o‘qariqdan o‘qday oqadi.

11

Derazaga rang kirdi.

Ayolimizni uyquli turtdim.

– Ay, tur, tong otdi, – dedim.

– E-e-e...

Ayolimiz ingilladi. Qo‘limni surib tashladi. Tag‘in bir maromda pishilladi.

Bor-e, menga nima, dedim-da, chappa burilib yotib oldim.

Deraza tarafdan xo‘roz qichqirdi. Xo‘roz cho‘zib-cho‘zib qichqirdi.

Ko‘z ochmaganlarimga-da qo‘ymadi.

Deraza oqardi. Oppoq pardaday bo'ldi.

Men endi ayolimiz sochidan tortqiladim.

– Ay, tong otdi, deyapman.

– E-e-e...

Ayolimiz turib o'tirdi. Yuz-ko'zini uqaladi. Derazaga qaradi. Bolishiga qaradi. Tag'in to'shakka tashladi.

Bu safar bilagidan chimchilab oldim.

Ayolimiz sapchib turdi. Qo'limga tarsillatib bir urdi.

– O'lsam qutulamanmi shundan, o'lsam qutulamanmi?! – dedi.

Ro'molini boshiga ila-ila tashqariladi.

Men xiyoldan keyin turdim. Ro'yi hushim bo'lmadi. Tandir chetida cho'nqayib o'tirdim. Ko'zlarimni uqaladim. Kerishib esnadim.

Onamiz tom ketilab obtova ko'tarib o'tdi.

Ayolimiz qo'lyuvgichda yuz-qo'l yuvgan bo'ldi. Nardin-beri artingan bo'ldi.

Buzog'ini yetaklab kelib molini emizdi. No'xta tortib-no'xta tortib emizdi.

Buzoqni tag'in qoziq qantardi.

Oshxonadan kadi olib keldi, sigir ostida cho'nqaydi. Tiz-zalari orasiga kadi oldi.

Ayolimiz sigir sog'di.

Sigir ayolimizni dumি bilan urib-urib turdi.

Tag'in buzoqni qo'yberdi. Buzoq onasi yeliniga yopishdi.

Ayolimiz oshxonada dokadan sut o'tkazdi. O'choqqa sut osdi.

Bir quchoq yo'ng'ichqa o'rib kelib molga tashladi.

Ityaloqqa yovg'on sarqit soldi.

Tovuqlarga don sochdi.

Qozonda ko'pirib toshmish sutni lo'killab borib oldi.

Mol ostini qaradi.

Eshik-oraga suv sepdi. Supurib-sidirdi.

Ichkaridan birin-ketin bolalar chiqib keldi: Birovi yuz-qo'lini yuvdi, birovi yuz-qo'lini yuvmadı.

Ayolimiz yuz-qo'l yuvmagichlarni qo'lyuvgich ostiga yetaklab bordi.

Bolalar suvdan seskandi. Bolalar suvdan bet burdi. Bolalar voy-voyladi.

Ayolimiz qulq solmadi. Barini yuz-qo'lini yuvdi. Ishton kiymagichlariga ishton kiygizdi.

Tashqi so'riga gilam to'shadi. Ko'rpacha soldi. Dasturxon yoydi. Choy damladi.

Ichkaridan shiptirdan-shiptir ko'rpachalar olib keldi. Simga yoyib-yoyib osdi.

O'choqdan kul olib keldi. Shiptirlarga hovuchlab-hovuchlab sepdi.

Chaqalog'imiz tuvagini to'kib keldi.

Maktab borgich bolalarini kiyintirdi. Qo'liga kitob-daftar berdi. Yelkasiga sumka osdi.

Qizlari sochiga qizish tasma taqdi.

O'g'illari oyoq liboslarini kiydirdi. Paydarpay-paydarpay kiymishlarini o'ng-o'ng kiydirdi. Iplarini boyladi.

Barini ko'chalatib haydab bordi. Barini maktab haydab soldi.

Qodir o'g'lini dastyorlikka olib qoldi.

Onamiz munkillab-munkillab so'ri keldi.

Men choyimni ichib bo'ldim. Kaftlarimni yuzimga surta-surta so'ridan tushdim.

Ayolimiz qatiq uyutdi: sutga bir qoshiq tomizg'i qatiq soldi. Kadini janda chopon o'rabi-o'rabi qo'ydi.

Molni bo'shatdi. Qodir o'g'li oldiga solib berdi.

– Podaga qo'sh-da, shundan shuyoqqa maktabga jo'na! – dedi.

So'ri tevarak-girdini aylandi. Bolalar tashlamish ushoqlarni terib-terib oldi.

– Ena, nevaralaringiz o'qishdan kelsa, ko'z ayirmang, tag'in ko'chaga chiqib ketmasin, – dedi.

– Ha, er-xotin yetimlaringni topdilaring! – to'ng'illadi onamiz.

– Unday demang, ena, unday demang, bari o‘zingizni bolalaringiz.

Bola, bola! Umrin bola boqib o‘tdi! Otasini boqqanim kamday, endi bolasiniyam boqaman!

– Bolamni to‘ygunimcha boqaman, nevaramni o‘lgunimcha boqaman, deganlari shu-da, ena, – dedi ayolimiz. – Ko‘kragimdagini tashlab ketmaganimga shukur qiling.

– Ha, endi ko‘kragingdaginiyam tashlab ket, ha! Bir kamim nevara emizish qolib edi! Oyog‘imni uzatib, emin-erkin o‘lganiyam qo‘ymanglar!

– Hali erta, ena...

– Hali erta, erta! Bu dunyoni ishidan mozorga kirib qutulmasam, qutulmayman!

Men eshagimga tushlik solinmish xurjunimni tashladim.
Ayolimizga tayinladim:

– Dalaga ertaroq bor, – dedim.

12

Texnika oy bilan bo‘ylashsa-da, ketmonsiz dala – dala bo‘lmaydi.

Men traktor ketiga to‘rt qator tish uladim. Har qator orasida ikkitadan pichoq qo‘ydim. Har qator orasida bittadan o‘qsimon panja qo‘ydim.

G‘o‘zalarim ostini haydadim. G‘o‘zatomir qirqilmasin yo lat yemasin deya, olti-yetti santim chuqurlik-da haydam.

Tish g‘o‘za bo‘g‘ziga tegmay-tegmay yurdi.

Tish egat tuprog‘ini g‘o‘za bo‘g‘ziga uyub-uyub yurdi.

Oqibat – g‘o‘za bo‘g‘iz ko‘milib qoldi. G‘o‘za bo‘g‘iz qotib qoldi. G‘o‘za bo‘g‘iz nafas ololmay qoldi.

Shu bois, dalalarimga ketmon soldim.

Botirib ketmon solayin, dedim – g‘o‘zatomir qirqilajak bo‘ldi.

Sayoz ketmon solayin, dedim – g‘o‘zatomir ostda qolajak bo‘ldi.

Men ketmonimga erk bermayin-erk bermayin ketmon soldim.

13

G'o'zalarim bir oylik bo'ldi.

Ana shunda bir shamol turdi, bir shamol turdi.

Afg'on shamoli deyin dedim – shamol Hisor tarafdan esdi.

Shamol g'o'zalarimni bir chapga qayirdi, bir o'ngga qayirdi.

G'o'zalarim ayqash-uyqash bo'lib qoldi. G'o'zalarim bukchayib-bukchayib qoldi. G'o'zalarim yotib-yotib qoldi.

Pushtalarda tizilmish ko'klar g'o'za bo'ldimi yo boshqa bir maysa bo'ldimi – bilib bo'lmay qoldi.

Men nahor-nahorlab dalalarim boshida cho'k tushdim.

Yotib-yotib qolnish g'o'zalarimni qo'shqo'llab-qo'shqo'llab rostladim.

Ayqash-uyqash g'o'zalarimni kaftlab-kaftlab taradim.

G'o'zalarim tag'in bo'y-bo'yladi.

14

Majlis qaridi.

– Siz bilan biz hali-hamon dotatsiyada yashaymiz, o'rtoqlar! – deya yakunladi raisimiz. – Dotatsiyadan qutulish uchun qo'lni qo'lga berib mehnat qilmasak bo'lmaydi! Dotatsiyadan qutulaylik, ana undan keyin odamday yashasak bo'ladi!

Qabatimda o'tirmish brigadir qulog'iga shivirladim:

– Qayerda yashaymiz, deydi? – dedim.

– Dotatsiyada, – deydi.

– U qayerda?

Brigadir tovoni bilan yer tepib ko'rsatdi.

– Shu yerda, – dedi. – Mana, mana shu yerda. Shuniyam bilmaysanmi, he, ko'rsavod.

Gapimizga tag'in bir brigadir qo'shildi.

– Dotatsiyada yashaymiz degani, muttahamlarcha ya-shaymiz, degani-da?

– Unchalik emas-e, he, gaping qursin.

– Bo‘lmasa, nima degani? Yo tekinxo‘rlarcha yashaymiz, deganimi?

– Unday ham emas. Nima desam ekan, dotatsiya degani... davlat qaramog‘ida yashaymiz, degani. Yo‘q, buyam unday to‘g‘ri bo‘lmaydi. Dotatsiya degani... qarz bo‘lib yashaymiz, degani.

– Shuncha ishlab-a? – dedim. – Yil o‘n ikki oy tongdan shomgacha ishlab-a?

– Tongdan shomgacha ishlasang, ishlab yota berasan-da. Paxtang arpaga uvoq ham bo‘lmaydi...

Majlisdan keyin eshagimni qichab-qichab haydadim. O‘ylab-o‘ylab haydadim.

Ayolimiz birday brigadirligimni gapiradi, majlisimizni gapiradi. Xudoni bergen kechasi nimani majlis qilasizlar, deydi. Ayolimiz odamni yo mayna etadi, yo qitig‘imga teg-makchi bo‘ladi.

Ana, majlisda nimani gapiramiz! Dotatsiya, dotatsiya!

Ayolimizni ana endi boplayman! Dotatsiya, degich kattalarbop gaplardan gapiraman. Ayolimizni lol-lol qoldiraman.

Ayolimiz og‘zi ochilib-ochilib qoladi. Brigadirligim bilan majlisimizni mayna etmagich bo‘ladi.

Chin-da – brigadir o‘z oti o‘zi bilan brigadir-da. Katta, katta! Brigadir majlislarda ishtirok etadi. Brigadir raislar bilan gap olib, gap beradi, Dotatsiya, degich gaplardan gapirishadi!

Yo‘l-yo‘lakay dotatsiya-dotatsiya... deya pichir-pichir etib keldim. Esimdan chiqib ketmasin, dedim-da.

Eshagim bir o‘nqir-cho‘nqirdan hurkdi. Chappa burilib tuvladi.

Meni yerga shunday olib urdi, shunday olib urdi! Hushim boshimdan uchdi. Hushim bilan qo‘silib dotatsiya, degich gap-da uchdi. Dotatsiya esimdan chiqdi-ketdi!

Uyda bot-bot o'yladim – ammo eslay olmadim. Bor-e, dedim-da, yotib oldim.

Azonda o'ylab-o'ylab topdim. Tag'in esimdan chiqmasin deya, ichimda dotatsiya-dotatsiya... deya o'tirdim.

Bir ayolimizga qaradim, bir bolalarimizga qaradim, bir onamizga qaradim. Gap ochayin deya, bahona qidirdim.

Birovi-da dasturxonadan bosh ko'tarmadi. Xuddi cho'lidan kelmishdayin hur-hur choy ichdi.

Birovi-da dotatsiya bilan ishi bo'lmadi!

Shu tobda ayoldan-da xafa bo'ldim, bolalardan-da xafa bo'ldim.

Ichimda dotatsiya-dotatsiya... deya o'tira berdim.

Bahona qidirdim – buyog'imga qaradim, bahona qidirdim – uyog'imga qaradim. Oxiri topdim!

Oysuluv qizimiz choyga ikkita-uchtalab qand soldi.

Men nasihatomuz gap ochdim.

– Qandni bitta-bittalab yenglar, dotatsiyada yashaymiz, – dedim.

– U nima degani? – dedi ayolimiz.

Ana shunda jonim kirdi!

Kaftlarimni tizzalarim tiradim, ko'kragimni ko'tardim. Boshimni g'oz tutdim.

– Hali, dotatsiyani bilmaysanmi? – dedim. – Dotatsiyani-ya? Ay, ko'rsavod-e, ay, ko'rsavod- e!

Qirinib-qirinib tomoq qirdim. Donishmand-donishmand so'zladim:

– Maktabni necha bilan bitirib eding? Ay, ko'rsavod-e! Dotatsiya, bu... xo'-o'sh... muttahamlarcha yashash... yo'q, davlat qaramog'ida yashash... yo'q, qarz bo'lib yashash demakdir, ha!

– Qirilib ado bo'lgur, bizni raisimiz-da shunday deyar edi, – dedi onamiz.

– Yo'g'e! – dedim.

– Esa-chi. Men ham bor... oti nima edi?

– Dotatsiya.

– Ana shunday gap-da bor!
O‘ynab qo‘yay, ota-bobolarimiz-da dotatsiyada yashab-di-da?
Otangga so‘yilgan kal uloq – senga-da bo‘ladi shul uloq,
bo‘libdi-da?

15

G‘o‘zalarim tomiri girdida achchig‘ zax bino bo‘ldi.
Achchig‘ zax g‘o‘zaga el bo‘lmaydi. Achchig‘ zax g‘o‘za
tomirini chiritib-chiritib tashlaydi.
Men darhol g‘o‘zalarimga suv berdim.
Achchig‘ zaxni suv bilan quvib-quvib haydadim.
G‘o‘zalarim tomiri ozod-ozod nafas oldi. G‘uzalarim to-
miri yoyilib-yoyilib rohat oldi.

16

Qosh qoraydi.
G‘o‘za bilan yovvoyi o‘t farqiga borib bo‘lmay qoldi.
Ana shunda ayollarga javob berdim.
Ayollar birin-ketin qishloq yo‘l oldi.
– Ertaga kun chiqmay kelinglar, salqinda ish unadi! –
dedim.
– Ertaga bozor-ku! – dedi birov.
– O‘ynab qo‘yay, paxta bozorni biladimi!
– Bu dunyodan dam nimaligini bilmay o‘tamizmi endi?
– Dam olasan, pensiyaga chiq, pensiyani jaraq-jaraq olib,
yeb yotasan! – dedim.
Ayolimiz shiypondan bolasini olib kelib uzatdi.
– O‘-o‘y, manavini oldiga o‘ngarib ketsin, oyog‘imda
oyoq qolmadi, – dedi.
– Bor-e, men hozir idoraga ketaman, – dedim.
Ayolimiz bolasini qaytib oldi. Jerkiy-jerkiy bag‘ir
bosdi.
Ayolimiz boshi uzra gumbaz tugun qo‘ndirdi. Ayolimiz
bag‘ri aro qo‘shqo‘llab bola quchdi.

Ayolimiz qishloq yo'l oldi.

Qo'l-himosiz gumbaz havoda suzib yurmish shar misol qishloqladi.

Qo'l-himosiz gumbaz tugun ohista tebrana qishloqladi.

Ayolimiz qo'shqo'llab-qo'shqo'llab bola qucha-qucha qishloqladi.

Ayolimiz ayollar ashulasini ayt-a-yta qishloqladi:

– Ko'rgan kunim qursin...

17

Idoradan bir mahalda qaytdim.

Eshagimni qantardim. To'qimini olmadim.

Pichadan so'g'in tong otadi – ishni ko'paytirib o'tirayin-mi, dedim.

Ichkarida oynayi jahon ko'rsatmay qolibdi.

Bolalar burabdi-burabdi – oynayi jahon buragichini sindi-rib tashlabdi.

Men ombordan bilakday ombir topib keldim.

Ombir bilan oynayi jahon buradim. O'nglay-o'nglay buradim. Chappalay-chappalay buradim. Qirr-qirr buradim.

Oynayi jahon pir-pir etdi, oynayi jahon bijir-bijir etdi – ammo ko'rsatmadi.

Men bolalarni urishib-urishib tashladim. Birini qo'yib birini so'kib tashladim.

– Otangni iligiga!.. – dedim. – Dupper-durust oynayi jahonni buzgan otangni iligiga!..

Bolalar bir-biriga soldi:

– Men emas, Qodir buzdi.

– Birinchi Oysuluv buradi.

– E, baring bir go'r! – dedim.

Men devor soat qaradim – soat o'n ikkidan oshibdi. Oynayi jahon ko'rsatuvlari tamom bo'libdi.

Shunday bo'lsa-da, bolalar oldida sir boy bermadim.

– Boringlar, yotinglar, – dedim. – Yaxshi o'qisalarin, ertaga tuzatib beraman.

Men ana qaradim-mana qaradim – taomdan darak bo‘lmadi.

– Ay, vaqt bemahal bo‘ldi! – deya ovoz berdim.

– Bemahal bo‘lsa nima qilayin? – dedi ayolimiz.

– Biron nimang bormi?

– Bor, endi pishadi.

– Haliyam pishmadimi-e?

– Shu vaqtgacha o‘ynab o‘tirganim yo‘q. Qozondan bosh-qayam tirikchiligidim ko‘p. Xamir qordim...

Sag‘al o‘tdi – ayolimiz bir korson piyova olib keldi.

– Go‘shti yo‘q, go‘sht tamom bo‘ldi, – dedi.

– Bizga bo‘la beradi, – dedim. – Qozon o‘zimizniki, qorin o‘zimizniki. Qorin to‘ysa bo‘ldi-da.

– Endi, go‘shtni qaytadi?

– Juma bozor kuni Norin qassob mol so‘yadi deyisha-yapti, shundan olamiz-da.

Piyovadan so‘g‘in choy ichdim.

Yonboshlab yotdim-yotdim – ko‘zim ilindi. Qancha yotdim – bilmadim.

Bir mahal ko‘zimni ochdim – hovlida lovv-lovv olov o‘rladi.

– Ay! – deya sapchib turdim.

Ayolimiz zardob-zardob ovoz berdi:

– Jonim, jonim?!

– Ay, nima qilayapsan?

– Tandir qizitayapman, nima edi?

Shundagina nima gapligini bildim. Nima deyishimni bilmadim.

– Yotar vaqtiyam non yopadimi? – dedim.

– Yotarda non yopmasa, go‘rda yopadimi?!

18

Quruq beda yegich mol go‘ngi a’lo-a’lo go‘ng bo‘ladi!

Quruq beda yegich mol peshobi serazot-serazot bo‘ladi!

Men ulkan o‘raga ana shunday go‘ng to‘daladim. O‘ra bet-boshini sinchlab-sinchlab tuproqladim.

O'rada qolmish jonivorlar g'imir-g'imir bolaladi. Bir jonivor bir soatda o'n besh-yigirma bolaladi. Bir jonivor bir kunda million-million bolaladi.

Ana shu jonivorlar g'imir-g'imiridan go'ng ich-ichlari aro havo kirib-chiqib turdi. Ana shu jonivorlar g'imir-g'imiridan go'ng chirib-chirib turdi.

O'rada shiptir anqib-shiptir anqib qoldi.

Men ana shunda xazinamni ochdim!

Shiptir go'ng bilan tuproq aralashtirdim. Peshma-pesh dala tashidim.

Dalalarimni shiptir go'ngladim.

Dimog'imda shiptir is o'tirib-o'tirib qoldi.

Bir qadamda bir tupurib kun ko'rdim.

19

Shoberdi baxshi cho'zib-cho'zib doston aytdi.

Yo radioda aytayapti, yo oynayi jahonda aytayapti, deya o'yladim. Qulog'imni dingladim.

– Ha, jo-on, juft bo'lsin! – dedi odamlar.

Bildim – Shoberdi shu tevarakda aytayapti. Ohista ayo-limizdan so'radim.

– Raisni qiziga sovchi keldi, – dedi ayolimiz.

– O'ynab qo'yay, qizi bo'yi yetdimi-e?

– Esa-chi, qiz bola shayton bo'ladi.

– O'ynab qo'yay, o'ynab qo'yay, qayerdan sovchi kel-di-e?

– Dehqonoboddagi urug'laridan keldi.

– Rais bova meni aytmadimi-e?

– So'ratdi, ulidan so'ratdi.

– Dali-g'uli raisimiz bor-da!

Shunday deb ichkariladim. Sandiqdan ohorli kiyimlarimni qoqib-qoqib kiyib oldim. Taxloqlik olado'ppimni yoyib-yoyib kiyib oldim.

Ana endi kechasi bilan Shoberdi eshitasan, Dehqonqul, Shoberdi eshitasan, dedim.

Tashqarilab, soqolimni uqaladim.
– Ay, soqolim o’sgan yo‘qmi? – dedim.
– Kechasiga bo‘la beradi, – dedi ayolimiz.
Qornim to‘yib qolmasin deya, oz-ozdan choy ichdim.
– Rais bovani qizi bo‘yi yetdimi-a? – dedim. – Qiz bola shayton degani chinda-a? O‘zi, qizi qanday qiz bo‘ldi?
– Picha shallaqiroq.
– E-e-e, unday dema-ye, ukkag‘arni ayoli, unday dema!
Raisni qiziniyam shunday deydimi? Raisni qizini-ya!
– Rais bo‘lsa bo‘pti-da. Bilganimni aytaman-da.
– Bilsang-da aytma! Yon qo‘shning – jon qo‘shning!
– Unda, nimaga so‘raydi?
– Hali, gap ochilsa aytaman-da. Og‘zimga tolqon solib o‘tirmayman-da.
– Ha-a, maqtab qo‘ya bersin-da.
– Nima deb maqtayin, sen ayt-da? Erkak odam umri dala-da o‘tadi, nimani biladi.
– Tavba-ye, ayol odamni umriyam uyda o‘tayotgan yo‘q!
– Ishqilib, ayol ayol-da, qiz bolani yaxshi biladi.
– Nima deb maqtardi, qizimiz uncha-muncha qizlardan emas, deydi-da. Kamgap, pazanda, chevar deydi-da.
– Bizni qizimiz deyin-a?
– Deydi-da, o‘zini qizlari bilan billa o‘ynab katta bo‘lgan-dan keyin, deydi-da.
– Chin, katta bo‘libdi, bilmay qolibman, chin.
– O‘zini qiziday gap-da.
– Chin, o‘zimni qizimday gap, chin.
– Ishqilib, maqtaydi-da.
– Maqtayman-da, qizimizni maqtayman-da. Yo, pirim, men endi borayin, aytgan joydan qolma, deydilar.
So‘ridan ko‘cha yo‘l oldim.
Raisi darvoza oldida mayda mashina mo‘l bo‘ldi – demak, raisimiz davrani katta oldi.
Men raisi darvozani jonli-jonli taqillatdim.
Darvozani raisimizni o‘g‘li ochdi.

Men chaqiribsizlar deya, ichkari kirib keta berayin dedim – betim bo‘lmadi.

– Rais bova bormi? – dedim.

– Bor-bor, aytib kelayin.

Raisimiz chayqala-chayqala keldi.

– E-e, Dehqonqul aka, tinchlikmi? – dedi.

– Tinchlik, rais bova, tinchlik, – dedim. – Hormang, rais bova?

– Salomat, salomat...

Shoberdi baxshi eshib-eshib do‘mbira chaldi.

– Ha, nima gap?

– Hech gap yo‘q, rais bova.

– Traktorlaring buzilib qolibdi, deb eshitdim?

– Sozladik, rais bova, sozladik.

– G‘ayrat qiling, traktorni to‘xtatmang!

Shoberdi baxshi ezib-ezib doston aytdi.

– Ha-a, rais bova... qizimizga... odam kelibdi..

– Qizingizga odam kelibdi? Yo‘g‘-e, qizingiz hali go‘dak, shekilli?

– Yo‘q... qizimiz... qizingizga deyman.

– Ha-a, mening qizimni aytayapsizmi? Keldi, keldi, hali-hozircha eskichasiga non sindirib qo‘ydik.

– Non sindirdilaringizmi?

– Ha-da, o‘ylab o‘tiramizmi. Sindirdik-qo‘ydik.

– Binoyi bo‘pti, xo‘p binoyi bo‘pti, – dedim. – Ha-a, chaqirgan ekansiz, rais bova?

– Chaqiribman? Qachon? E, ha-a, bugun Dehqonobi quda bo‘lmishlar ikkita fotiha qo‘y tashlab ketib edi. Shu qo‘yni birovini so‘yib, rayon kattalarini chaqirayin, dedim. Choy ichib keting, etayin, dedim. Uyoqqa bola yubordim, buyoqqa bola yubordim, Qo‘y so‘ygich odam topolmadim.

– O‘zimga aytинг edi, daladan vaqtliroq kelib so‘yib berar edim.

– Bo‘ldi-bo‘ldi, Klara Xodjayevnani shopiriga so‘yidrim. O‘zimiz so‘yib, o‘zimiz yeb yotibmiz.

– Qanday... Etli-sulli qo'y ekanmi?
– Ha endi, dehqonobodi qo'y bo'lgandan keyin, etli-sulli qo'y bo'ladi-da.
Shoberdi baxshi bo'g'ilib-bo'g'ilib doston aytdi.
– Bo'pti, Dehqonqul aka, – dedi raisimiz, – traktoringiz tag'in buzilsa, darrov xabar bering. Ana, ichkarida rayon texnika boshqarmasi piri o'tiribdi, Bir og'iz aytamiz, istalgan chtiyot qismlarni yetkazib beradi.
Ketimga qayrildim.
Darvozamizdan ichkariladim.
So'ri boshida serrayib-serrayib qoldim.
Ayolimiz ajablanmish bo'ldi.
– Ha, vaqtli qaytibdi? – dedi.
– Ko'p o'tirmadim, – dedim. – Kattalar mast-alast. It ega-sini tanimaydi...

20

Men begona o't uchun go'ng solib edimmi?
Men begona o't uchun suv berib edimmi?
Dalalarimni shunday o't bosdi, shunday o't bosdi!
G'o'zalarim begona o't ostida qoldi. G'o'zalarim begona o't changalida qoldi.
Dalalarimda yetnish xildan ziyod begona o't o'sdi!
Dalalarim paxtapaykal bo'lindi – dalalarim o'tpaykal bo'ldi.
G'o'zalarim nozik davrida bo'ldi. G'o'zalarim sertomirlamadi. G'o'zalarim botin yerlamadi.
Bunday vaqtida dalaga traktor solib bo'lindi. Traktor yerni parcha-parcha ko'chirib tashlaydi.
G'o'zalarim yerparchalar bilan ko'chib-ko'chib qoladi.
G'o'zalarim qurib-qurib qoladi.
Ayni vaqtida g'o'zalarimga ketmon solib-da bo'lindi.
G'o'zalarimga ketmon-da ziyon beradi.
Birdan-bir yo'lim – begona o'tlarni bitta-bittalab yulib tashlash bo'ldi.

Ayni vaqtda unib chiqmish begona o'tlarni yulib tashlash mushkul bo'lindi. Bular bir yillik begona o'tlar bo'ldi. Bir yillik begona o't tomiri yer ostlab ketmaydi. Shunday yer yuzasida bo'ladi.

Boisi – bir yillik begona o't dondan bolalaydi.

Dastlab qo'lim tegmish o't takasoqol bo'ldi.

Takasoqol ingichka barg o't bo'ldi. Uzun-uzun o't bo'ldi.

Oppoq tanli o't bo'ldi.

Oyoqlarim uyushib-uyushib qoldi. Tizzalarim shol-shol bo'lib qoldi.

Kun qoq miyamdan urib turdi.

Men tizza suyanib qad rostladim.

Tizzamdan pastim qaqqashab-qaqqashab oldi...

Cho'nqayib o'tirishdan oyoqlarim bezillab qoldi.

Endi yerga ikki bukildim – to'rt oyoq bo'ldim.

Belim balandda bo'ldi. Ikki oyog'im egatda bo'ldi. Ikki qo'lim pushtada bo'ldi.

Bir nozik tanali begona o'tni ushладим.

Bu pechak o't bo'ldi. Oppoq gullik. No'xatsimon donlik.

Donlari bir yuz qirq mingtacha bolalagich o't.

Men pechak o'tni tomiri bilan sug'urib tashладим.

Men endi borib turmish zararkunanda ajriqqa duch keldim.

Ajriq g'o'za ko'karib chiqmasdan oldin ko'karadi. Boisi – ajriq tomirdan ko'karadi.

O'zga begona o'tlar g'o'za bilan ishi bo'lmaydi. Boshi yetganichayin o'z havosida o'sib yota beradi.

Ajriq g'o'za bo'g'zidan oladi. Ajriq g'o'za belidan oladi.

Ajriq g'o'zani tomir ottirmayin o'rab-chirmab bosadi.

Ajriqni yo'qotib bo'lmaydi!

Emishki, laylak yuksakdan-yuksak bir qoyada uya qo'yibi. Laylak uyasiga xascho'p tashibdi. Xascho'plar orasida bir qovjiroqdan-qovjiroq ajriq xas-da bo'libdi.

Kuz o'tibdi, qish o'tibdi, bahor o'tibdi, saraton o'tibdi.

Bir yildan keyin shamol ana shu ajriq xasni uyadan yerga uchirib tushiribdi.

Laylak uyasidan tushmish xasni ko'rib qolibdi. Laylak o'z makoniga sodiq qush-da – makoni bir g'ishti bo'lmish xasni olib joyiga qo'yish uchun quyi sho'ng'ibdi.

Laylak xasni tumshug'i bilan tortqilabdi – bo'lmabdi. Laylak xasni tumshug'i bilan yulqilabdi – bo'lmabdi.

Boisi – ajriq xas yerda allaqachon tomir otib qolibdi!

Men barmoqlarimni yer botirib-yer botirib ajriq tomir kovladim.

Ko'z oldim qorong'i bo'ldi. Qo'shqo'llab yer suyandim: Qaddimni ko'tarayin dedim – ko'tarolmadim. Belim qotib qoldi.

Bir qo'limni belimga tirab qaddimni ko'tardim.

– Ay, belim-e, belim! – dedim.

Dardimni kimga aytdim – o'zim-da bilmadim.

Qabatimda o'toq qilmish dehqonlar o'z dardi o'zi bilan bo'ldi.

Tag'in ikki bukildim.

Bir qo'lim bilan g'o'za ushlab turdim. Bir qo'lim bilan begona o't yuldim.

Shunday qilmasam bo'lmaydi – g'o'zalarim begona o't bilan qo'shilib yulinib qoladi. G'o'zalarim osti ko'chib-ko'chib qoladi.

Dalalarim adog'igachayin ana shunday ikki bukilib bora berdim.

Dalalarim adog'igachayin ana shunday qad ko'tarmay bora berdim.

Qaddimni ko'tarsam bo'lmaydi – tag'in bukilolmay qolaman.

21

Qorong'i namozshomda issiq suvlab-issiq suvlab qo'l yuvdim.

Olgindilab-olqindilab qo'l yuvdim.

Begona o't ko'klari ketmadi.

Kaftlarim ko'kmak-ko'kmak bo'lib qoldi.

Kaftlarim qora-qora chiziq bo'lib qoldi.

Ayolimiz kenjadan to‘ng‘ichimizni ostonaga qo‘ydi.

– Bor otaga, bor! – dedi.

Kenjadan to‘ng‘ichimiz miyiq kulib qaradi. Kenjadan to‘ng‘ichimiz barmoq so‘rib qaradi.

– Ha? – dedim. – Kel, qani, kel!

Men kenjadan to‘ng‘ichimizni barmoqlarim bilan o‘zimga imladim.

Kenjadan to‘ng‘ichimiz quloch ochdi. Bidirlab-bidirlab keldi. Bo‘ynimdan quchoqlab oldi.

Men kenjadan to‘ng‘ichimizni bag‘rimga oldim. O‘zimni ketim bilan bolish tashladim.

Kenjadan to‘ng‘ichimiz ko‘ksimda minib o‘tirdi.

Men kenjadan to‘ng‘ichimiz... bulbulini o‘ynadim.

– O‘ynab qo‘yay, chuldiringdan, o‘ynab qo‘yay! – dedim. – Chuldiringdan-da, chuldiringdan- da!.. Chuldir katta bo‘lsa, bir ayol beramiz-da!..

Kenjadan to‘ng‘ichimiz bet-boshimda barmoq yuritdi. Kenjadan to‘ng‘ichimiz ajinlarimni sanadi.

– Bir, ikki, uch...

Kenjadan to‘ng‘ichimizdan to‘ng‘ich-to‘ng‘ichimizgachayin ajinlarimni sanab-sanab katta bo‘ldi.

Birovi oltmisht-yetmisht sanadi.

Tag‘in birovi ... yuzdan oshirib sanadi!

Emish-emish – bir ajin bir qayg‘uni bildirar emish.

Emish-emish – bir ajin bir dardni bildirar emish.

Emish-emish – bir ajin bir armonni bildirar emish.

OLTINCHI BOB

I

– Barcha uy-uyiga, kapa-kuyiga! – deya majlis tarqatdi raisimiz. – Dehqonqul aka, siz bir maydon oyoq iling!

Nima gap demishday raisimiz yuziga tikildim. Biron alovmat anglamadim.

Joyimga qaytib o'tirdim.

Faollar ketib bo'ldi.

Raisimiz idorani mahkam yopib keldi.

– Aytgan-boylaganlaringizni chiqara bering, – dedi raisimiz. – Mukofotga mototsikl olib beraman.

Men hazil deya o'yladim. Kalla irg‘ab-kalla irg‘ab kuldim.

– O'ynab qo'yay, mototsikllaridan, o'ynab qo'yay, – dedim.

– Nimaga kallapovichaga o'xshab ishshayyapsiz? Men sizga o'naqay gapni aytayapman!..

Raisimizni gapi qornidan qo'pol bo'ldi, qorni gapidan qo'pol bo'ldi.

Men gap chinligini bildim: Sergak bo'ldim. Barmoqlarimni qirs-qirs etdim.

– Hali-hozir birovga bildirmay turing, – dedi raisimiz. – Mukofot o'z oti o'zi bilan mukofot-da.

Idoradan terimga sig'mayin qaytdim.

Mototsikl mukofot olayin-u, ichimda yutayinmi?

Mototsiklday uchqur texnikani ichda yutib bo'ladimi?

Maydarog bir nima bo'lsa ekan!

Aytmayman-a, aytmayman!

Bola-baqramni qator o'tirg'izib maqtandim!

– Mehnat – mehnatni tagi rohat, o'rtoqlar! – dedim. – Mana endi mototsikl minamiz, ha! Yaxshi o'qisalar, maktabga mototsiklda olib borib, mototsiklda olib kelaman. Yo'q, olib kelolmas ekanman, o'zlarining piyoda kelar ekansizlar. Men kechqurun mototsiklda maylisga borar ekanman.

Ayolimiz dasturxonidan ko'z uzmadi.

– Mototsiklni pulga beradi-da, – deya ming'illadi.

– Yo'q, mukofotga olayapman. Rais o'z tili bilan o'zi ayt-di, mukofotga beraman, dedi.

Hujrasi tarafdan onamiz kela berdi.

– Ha-a, kelin? – dedi onamiz. – Anavi oshingni yeyin Matrosov nima deyapti?

Ayolimiz kenjadan to'ng'ichimizni ostonaga qo'ydi.

– Bor otaga, bor! – dedi.

Kenjadan to'ng'ichimiz miyiq kulib qaradi. Kenjadan to'ng'ichimiz barmoq so'rib qaradi.

– Ha? – dedim. – Kel, qani, kel!

Men kenjadan to'ng'ichimizni barmoqlarim bilan o'zimga imladim.

Kenjadan to'ng'ichimiz quloch ochdi. Bidirlab-bidirlab keldi. Bo'ynimdan quchoqlab oldi.

Men kenjadan to'ng'ichimizni bag'rimga oldim. O'zimni ketim bilan bolish tashladim.

Kenjadan to'ng'ichimiz ko'ksimda minib o'tirdi.

Men kenjadan to'ng'ichimiz... bulbulini o'ynadim.

– O'ynab qo'yay, chuldiringdan, o'ynab qo'yay! – dedim. – Chuldiringdan-da, chuldiringdan- da!.. Chuldir katta bo'lsa, bir ayol beramiz-da!..

Kenjadan to'ng'ichimiz bet-boshimda barmoq yuritdi.

Kenjadan to'ng'ichimiz ajinlarimni sanadi.

– Bir, ikki, uch...

Kenjadan to'ng'ichimizdan to'ng'ich-to'ng'ichimizgachayin ajinlarimni sanab-sanab katta bo'ldi.

Birovi oltmish-yetmish sanadi.

Tag'in birovi ... yuzdan oshirib sanadi!

Emish-emish – bir ajin bir qayg'uni bildirar emish.

Emish-emish – bir ajin bir dardni bildirar emish.

Emish-emish – bir ajin bir armonni bildirar emish.

OLTINCHI BOB

– Barcha uy-uyiga, kapa-kuyiga! – deya majlis tarqatdi raisimiz. – Dehqonqul aka, siz bir maydon oyoq iling!

Nima gap demishday raisimiz yuziga tikildim. Biron alovmat anglamadim.

Joyimga qaytib o'tirdim.

Faollar ketib bo'ldi.

Raisimiz idorani mahkam yopib keldi.

– Aytgan-boylaganlaringizni chiqara bering, – dedi raisimiz. – Mukofotga mototsikl olib beraman.

Men hazil deya o'yladim. Kalla irg'ab-kalla irg'ab kuldim.

– O'ynab qo'yay, mototsikllaridan, o'ynab qo'yay, – dedim.

– Nimaga kallapoychaga o'xshab ishshayyapsiz? Men sizga o'naqay gapni aytayapman!..

Raisimizni gapi qornidan qo'pol bo'ldi, qorni gapidan qo'pol bo'ldi.

Men gap chinligini bildim: Sergak bo'ldim. Barmoqlarimni qirs-qirs etdim.

– Hali-hozir birovga bildirmay turing, – dedi raisimiz. – Mukofot o'z oti o'zi bilan mukofot-da.

Idoradan terimga sig'mayin qaytdim.

Mototsikl mukofot olayin-u, ichimda yutayinmi?

Mototsiklday uchqur texnikani ichda yutib bo'ladimi?

Maydarog bir nima bo'lsa ekan!

Aytmayman-a, aytmayman!

Bola-baqramni qator o'tirg'izib maqtandim!

– Mehnat – mehnatni tagi rohat, o'rtoqlar! – dedim. – Mana endi mototsikl minamiz, ha! Yaxshi o'qisalaring, maktabga mototsiklda olib borib, mototsiklda olib kelaman. Yo'q, olib kelolmas ekanman, o'zlarining piyoda kelar ekansizlar. Men kechqurun mototsiklda maylisga borar ekanman.

Ayolimiz dasturxonidan ko'z uzmadi.

– Mototsiklni pulga beradi-da, – deya ming'illadi.

– Yo'q, mukofotga olayapman. Rais o'z tili bilan o'zi ayt-di, mukofotga beraman, dedi.

Hujrasi tarafdan onamiz kela berdi.

– Ha-a, kelin? – dedi onamiz. – Anavi oshingni yeyin Matrosov nima deyapti?

Ayolimiz piq-piq kului.

– Mototsikl olayotgan emish, – dedi.

– Eb-c, qaysi bitiga olar emish?

– Mukofotga olar emish.

– Ha-a, davlat tentak bo'pti-da, tekindan-tekin mototsikl berib!

– Davlatni unday demang, ena, – dedim. – Ideologiya kelsa, aytib bermayin, tag'in?

– Ayta ber! – dedi onamiz. – Ayta ber, Ideologiya suyunchisiga ishtonini yechib beradi!

Onamiz ikki barmog‘ini enlab-enlab ko'rsatdi.

– Ideologiya suyunchisiga manavinday ishtonini yechib beradi! – dedi.

Ayolimiz og‘iz ushlab-og‘iz ushlab kului.

2

Qari bilgichni pari bilmaydi, degichlari chin bo'ldi.

Raisimiz hujjat ko'rdi.

– Endi, pulini cho'zing, – dedi.

– Qanday pul? – dedim.

– Qanday pul bo'lardi, mototsiklni pulini-da.

– O'zingiz... mukofotga beraman, dedingiz-ku rais bova?

Raisimiz ket chalqayib-ket chalqayib kului. Raisimiz qorin bilqillatib-qorin bilqillatib kului.

Kula-kula, masalani bayon etdi.

Men o'ylab o'yimga yetolmadim: buni nimasi mukofot? Hech qursa, yarim puliga bersalar-da mayli edi. Mukofot deyishga til borar edi. Ko'ngil taskin olar edi.

Men buncha pulni qayerdan olaman? Bozorda bir kilo go'sht to'qqiz so'm. O'n kun bo'ldi – qozonimiz go'sht ko'rmadi.

– Rais bova, – dedim. – Xudoga shukur, eshagim bor, bemalol yetib-ortib turibdi.

– Olasiz, mototsikl olasiz.

– Kolxozda nima ko‘p, arizaboz ko‘p. Mototsikl mukofoti bersangiz, arizabozlar yozadi. Och qornim, tinch qulog‘im, rais bova.

– Siz sara dehqonimizsiz. Siz mototsikl mukofot olsangiz, arizabozlar... qoladi!

Men tizzamga shartillatib bir urdim. Bo‘lar gapni aytdim.

– Xullas kalom... pul yo‘q! Ana bo‘lmasa! – dedim.

Raisimiz pinagini-da buzmadi.

– Bilaman, siz aytmasangiz ham bilaman, – dedi. – Dehqonda pul... yeydimi! Dehqon – bag‘ri qon, deydi! Mototsikl pulini kolxoz to‘laydi. Keyin, yillik daromadingizdan ushlab qoladi.

3

Men tumandan mototsikl minib keldim.

Mototsiklimni hovli naqd kindigida tikka tiradim. Old oyog‘ini qibla qaratib ko‘tardim.

Men mototsiklimni gir aylanib-gir aylanib tomosha etdim.

Mototsiklim qibla taraf ana uchayin-mana uchayin, degich... raketa misol tuyuldi.

Men oshxonada ivirsimish ayolimizga ovoz berdim.

– Ay, akang qarag‘ayni mototsiklini ko‘rib qo‘y! – dedim. – Bu mototsikl emas, raketa, raketa!

– Bu kishi qachon odam bo‘ladi, – dedi ayolimiz.

– Eb-e, bizga nima qilibdi? – dedim. – Raketani qara, raketani!

Ayolimiz derazadan ko‘rinnish oynayi jahonga ishora berdi.

– Bu kishi-da anavi odamlarday bo‘p, bundaygina, shlapa kiyib yursa bo‘lmaydimi, – dedi.

– Qaysi, oynayi jahondagilarmi? Endi, ular katta odamlar. Biz hali u darajaga yetganimiz yo‘q.

– Nimasi katta, ular-da shu kishiday odam.

– Yo‘q, sen bilmaysan, ular katta odam. Katta odam bo‘lmasa, oynayi jahonga chiqarmidi.

-
- Katta bo'lgan bilan ularni mototsikli yo'q, bu kishiniki bor.
 - Bu gaping chin! Lekin, qo'y, odam uyaladi, shlapa kiy-sam, birov-yarim, rais kelayapti, deb o'ylaydi.
 - Amirboyni ayoli bu kishi mototsikli olayotganini eshitib, mototsikl olgandan ko'ra, kallasiga bir nima olib kiysa bo'lardi, kallasidagi telpagi tipratikoni o'ligiga o'xshaydi, debdi.
 - Tipratikoni o'ligi? Manavi telpagim-a? Hay, enag'arni ayoli-ya! Shu ayol qizligida-da, mendan kir qidirardi! G'ananim – g'anim ekan-da. Ertaga tong otsin, shlapa kiyganim bo'lsin. G'animlar kuyib kul bo'lsin.

4

O'zbaki – zo'raki, deydi.

Ertasi ertalab dala ishlarimni bir yoqli etdim.

Mototsiklimni minib Denov yo'l oldim.

Shlapa ololmayman-a, shlapa ololmayman, mototsikl olmish jonim, shlapani ololmaymanmi, deya yo'l oldim.

Mototsiklimni yo'l girdida qoldirdim.

Qo'sh qavat do'konlab ko'tarildim. Shlapa sotgich joyni topdim. Shlapalarga nazar soldim.

Oq shlapa, ko'k shlapa, sariq shlapa... bari teshik-teshik shlapa!

Burchakda ikkita qiz oyna ko'rib-oyna ko'rib o'tirdi. Hiring-hiring kulishib o'tirdi.

Men qizlarga qarab turdim-turdim – qizlar oting nima demadi!

– O'-o', qizlarim-ov! – deya ovoz berdim.

Qizlar iyak siltadi.

– Ha, nima? – dedi.

Men kaftim bilan beri kelinglar, ishorasini berdim.

Qizlar bir-biroviga qarab oldi. Birovi yuzini ushlab kuldi. Birovi boshini ketiga tashlab kuldi. Birovi men taraf yurdi. Oldimga kelar-kelmas tag'in iyak siltadi.

– Ha, nima kerak? – dedi.

Qiz qoshimda toychoqday lik-lik etdi. Qiz peshtaxta chertib-chertib o‘ynadi.

Qiz ust-boshimga qaradi. Qiz betimga qaradi... qiz ast burdi. Qiz burchak qaradi.

– Bo‘ling, davay, bo‘ling! – dedi.

Men nimadan gap boshlashimni bilmadim. Bir shlapa ber, deyin dedim – ep bo‘lmadi. Tilim bormadi!

Tag‘in, turgan-turishing shu, senga shlapani kim qo‘yib-di, deydimi deya o‘yladim.

Qiz burchak tikilib likillashidan – bizga o‘xshagichlarga shlapa bergich qiz bo‘lmadi.

Bir ko‘nglim – obro‘yimni borida qaytib keta berayin, dedim.

Bir ko‘nglim – elan-qaran keldim, endi so‘rayin, dedim.

Og‘zimni shuncha juftladim shlapa deyolmadim!

– Anavindan ber, – dedim.

– Shlapa? Razmer, razmer?

– Razmer deb o‘tirasanmi, birovini ber-da qo‘y-da.

Qiz oldimga bir dasta shlapa tashladi.

Men oyna oldida bitta-bittadan shlapa kiyib ko‘rdim..

O‘ynab qo‘yay-o‘ynab qo‘yay, jigitni qaranglar-ay, jigin-e, dedim.

Men o‘zimni o‘zim tanimadim. Men o‘zimga o‘zim besh ketdim!

Qiz burchakdan ko‘z olmadi.

Qiz yer ostidan kallamga ko‘z qir tashladi.

Qiz burun jiyirdi. Qiz peshona tirishtirdi.

Oxir-oqibat – bir shlapa kallamga chippa yopishdi.

– Shuni narxini ayt, – dedim.

Qiz yuzimga qayrilib-da qaramadi.

– Besh so‘m! – dedi.

– O‘zi teshik-teshik bo‘lsa, yana-tag‘in, oftobdan saqlama, buni nimasi besh so‘m? – dedim.

Qiz javob bermadi. Burchak qarab tura berdi.

Men besh so'm uzatdim.

Qiz burchak qaramish zayli pul oldi. Biyqillatib g'aladon ochdi. Pulni g'aladon tashladi. Tag'in g'iyqillatib g'aladon yopdi.

Shunda, peshtaxtada taxloqlik baxmalga ko'zim tushdi. Guldar baxmal ko'zimni o'ynatdi. Olmasam-da, so'rab-susrishtirgim keldi.

– Baxmal qanchadan bo'ldi? – dedim.

– Olmasangiz nima qilasiz, – dedi qiz.

– O'ynab qo'yay, baxmallaringdan, o'ynab qo'yay, olaman desam, olaman.

– Besh so'mlik shlapani ko'rib yuragingiz yorilib ketdi-yu.

– Yorilgan yo'q, qizim, yorilgan yo'q, unday dema.

– So'zana qimmat, ellik so'm, – dedi qiz.

– Yuz so'm tursa-da, ber qani, bir ko'rayinqani.

Qiz baxmalni zarda bilan oldimga tashladi. O'zi bir burchidan ushlab turdi.

Men go'yo olar odamday baxmalni silkib-silkib yoydim.

Shunda, baxmal burchi qiz qo'lidan chiqib ketdi.

Qiz qo'lini beliga tiradi. Qiz uchchosini chiqardi. Qiz kafti bilan betiga shamol etdi.

– Uf-f-f... ko'rib bo'ldingizmi? – dedi.

Men bir qizga qaradim, bir baxmalga qaradim, bir yonimga qaradim.

Yonimda pul bo'ldi. Ayolimiz un olasiz, deya bermish pul bo'ldi. Pul bir haftadan buyon yonimda yurdi. Men yonimni kovladim. Ana shu pulni oldim.

Men barmoq tupuklab-barmoq tupuklab pul sanadim.

Men qiz qulog'iga quyib-quyib pul sanadim:

– Bir so'm, ikki so'm, uch so'm... Ellik so'm! Ana, ellik so'm! Endi, shu baxmalingni berman ber!

Qiz peshtaxtadan pulni oldi. Sanab-sanab g'aladon soldi.

Qiz baxmal o'rab boshladi.

– O‘rama, shunday ber! – dedim.

Qiz baxmalni oldimga surdi.

Men baxmalni olib burchak bordim. Yer joylashib o‘tirdim.

Etiklarimni birin-ketin sug‘urdim.

Baxmalni tirr-tirr ikki bo‘ldim.

Bir bo‘lagini bu oyog‘im o‘radim, bir bo‘lagini u oyog‘im o‘radim.

Etiklarimni tortib-tortib kiyib oldim. Etiklarimni yer tepib-
yer tepib kiyib oldim. Do‘konda yurmishlar ajablana-ajablana
qarab-qarab o‘tdi.

Qiz... ko‘rdim demadi! Qiz... mijja qoqmadi!

Qiz oyna qarab qosh siladi. Qiz oyna qarab zulf tobladi.

– Baxmal so‘zana... – deya ming‘-ming‘ etdi.

– Dalaga bo‘la beradi, – dedim. – Bizni dalaga baxmal
so‘zanayam bo‘la beradi!

Qiz... eshitdim demadi! Qiz... qulq qoqmadi!

Men telpagimni qo‘ltig‘imga bosa-bosa eshik ravona
bo‘ldim.

– Bozorim baroridan keldi, – dedim. – Shlapa bilan payta-
va qidirib kelib edim, ikkovini-da topdim!

– Gulya, – deya, hamkasabasi taraf yurdi qiz. – Gulicha-
ka, uydan gollandskiy sir olib kelganman, obed qilmay-
mizmi?

5

Ostimda mototsikl, boshimda shlapa – garmsiday-garm-
selday yeldim.

Shlapamni oyna solib-oyna solib yeldim.

Yoril-e, Dehqonqul-e, yoril-e, dedim.

Bir-ikki chaqirim yeldim – shlapamni oyna soldim.
Tag‘in bir-ikki chaqirim yeldim – tag‘in shlapamni oyna
soldim.

Rais bo‘lib ket-e. Dehqonqul-e, rais bo‘lib ket-e, dedim.

Shunda xiyol o‘ylab qoldim. O‘zimni yer urmishday bo‘l-
dim. Past ketcishday bo‘ldim.

Chin-da, rais kim bo‘pti? Shlapsi bo‘lgan bilan... mototsikli yo‘q! Davlatni mashinasiga kuni qolgan.

Unda... raykom bo‘lib ket-e, dedim. Shunda, o‘zimni o‘zim bilmishday bo‘ldim.

Rais bilan raykom o‘rtasi bo‘lib ket-e, dedim.

6

Uyda shlapa kiyib oynayi jahon ko‘rdim.

Oynayi jahonda AQSh prezidenti shlapasini yer olib qo‘ydi.

Siz-da, shlapangizni oling. Dehqonqulboy, dedim.

Men shlapamni olib qo‘ydim.

AQSh prezidenti shlapasini kiydi.

Shlapangizni kiying. Dehqonqulboy, dedim.

Men-da shlapamni kiydim.

AQSh prezidenti shlapasini men taraf silkitdi.

Men-da shlapamni oynayi jahon taraf silkidim.

AQSh prezidenti shlapasini boshiga qo‘ndirdi. Samolyotga kirib ketdi.

Men-da shlapamni boshimga qo‘ndirdim. Bolish yonboshladim.

Hurillatib-hurillatib choy ichdim. Ay, shlapangizni qirquvidan-da, Dehqonqulboy, shlapangizni qirquvidan-da, dedim.

Ammo...bosh kiyim ko‘rdim – shlapaday beqilig‘ini ko‘rmadim!

Kallamni qashilayin deya qo‘l uzatdim – qo‘lim o‘z-o‘zidan shlapa qirquviga tegib ketdi.

Shlapa yer tegib-tegmay yumalab-yumalab jo‘nadi. Uy burchagiga borib to‘xtadi.

Men o‘rmalab borib shlapamni olib keldim.

Tag‘in shlapa kiyib choy ichdim. Qo‘lim tag‘in shlapa qirquviga tegib ketdi.

Shlapa yumalab-yumalab jo‘nadi.

O‘ynab qo‘yay, sendaychikin bosh kiyimdan, o‘ynab qo‘yay, dedim.

Bosh kiyim bo'lsa – kiroyi telpakday bo'lsa-da. Telpak vazmin-vazmin, sobit-sobit bosh kiyim.

Telpak tap etib yer tushdimi, bo'ldi – joyida qimir etmay tura beradi. Shlapadayin yumalab, odamni o'rmalatib yurmaydi.

Shlapam yer tushib, burchak yumalashini qo'ymadi – men ushlab kelib, kallamga qo'ndirishimni qo'ymadim.

Men tevarakka kami bilan raisona-raisona, ko'pi bilan raykomona-raykomona qaradim.

7

Ayolimiz daladan kelishi bilan havolanib-havolanib pesh-voz bordim.

– Qanday? – dedim.

Ayolimiz shlapamni aylanib qaradi. Ayolimiz shlapamni xushvaqtlanib qaradi.

– Binoyiday. Qulluq bo'lsin, – dedi.

– Jigit-da, jigit! – dedim.

Ayolimizga qarab turdim-turdim:

– Ellik so'm... Ollohu akbar! – dedim.

Ayolimiz bo'zrayib-bo'zrayib qoldi. Ayolimiz yomon-yomon qarab qoldi.

Bildim – ellik so'm o'n pulni yo yo'lda yo'qotib keldi, yo havoyidan-havoyi sarflab keldi, deya o'yladi.

– Endi, unni qaytaman? – dedi. – Endi, tandirga yelkamni yopamanmi?..

Ayolimiz ovozi qalt-qalt etdi. Ayolimiz lablari pir-pir etdi. Ayolimiz... yig'lamoqdan beri bo'ldi.

Men kechmishimni oqizmay-tomizmay bayon etib berdim.

Ayolimiz shlapamga tikilib xayollandi.

– Mudir ayol edimi? – dedi.

– Ayol edi-da, ayol!

Ayolimiz yuziga rang oraladi. Ayolimiz rangiga kulgich oraladi.

– O'xshatibdi! O'xshatsa-da, ulay-bulay o'xshatmabdi! – dedi. – O'xshatsa-da, ko'nglimdagiday o'xshatibdi!

8

G‘o‘zalarim qirq kunlik bo‘ldi.

G‘o‘zalarim qirqida suvsadi.

G‘o‘zalarim suvsaganini qanday bildim?

Bir qarich yer ostidan bir siqim tuproq oldim. Tuproqni mahkam-mahkam siqimladim.

Tuproq bir-biri bilan qovushmadidi. Tuproq chochilib-chochilib turdi.

Demak— g‘o‘zalarim suvsadi.

Chirtillatib bir barg uzib oldim. Bargni qo‘sish-qo‘llab bir bukladim.

Barg qoq o‘rtasidan o‘tmish yo‘g‘on tomir qirs etib sinmadi.

Demak – g‘o‘zalarim suvsadi.

Men g‘o‘zalarimni suvladim.

6

Dalalarimda assalomalaykum bilan chirmoviq toshdi.

Men yigirma kilo pentaxlor-fenol bilan besh yuz kilo suv aralashtirdim.

Bir gektar dalamga yigirma kilolab sepdim.

Bo‘lmadi – assalomalaykum bilan chirmoviqqa bas kel-madi.

Bir daxlorpropinat degich dori bor. Men uni dalapon dori deyman.

Sakkiz kilo ana shu dalapon dori bilan besh yuz kilo suv aralashtirdim.

Dalalarimni uch bora dalapon doriladim.

Assalomalaykum bilan chirmoviqni uyi kuydi!

10

O‘ynab qo‘yay, yangi texnikalaridan o‘ynab qo‘yay!

Kim qancha yildirkim, xo‘jaligimizda KXU-4 degich yangi texnika bor otangga bo‘ladi, bor onangga bo‘ladi.

Boridan yo‘g‘i yaxshi bo‘ladi!

Boisi – g‘o‘za ostini ishlagich mazkur texnika keti bir ramalik. U baland shatakka taqiladi. Natijada traktordan xiyla keyinda turadi. Shu bois, yerdan risoladagiday ko‘tarilmaydi.

Oqibat – to‘rt-besh qadam dala bosh-adoq g‘o‘zani qirqib-qirqib buriladi. Oqibat – to‘rt-besh qadam dala bosh-adoq oppoq paxtani nobudlab-nobudlab buriladi.

Men yo to‘rt-besh qadam dala bosh-adoq g‘o‘zamni ekmasligim lozim bo‘ldi, yo eksam-da, to‘rt-besh qadam g‘o‘zamni o‘rib-o‘rib tashlashim lozim bo‘ldi, yo... ana shu yangi texnikadan kechishim lozim bo‘ldi.

Men yangi texnika bahridan o‘tdim.

Chin-da, yangi texnika deya atalmish go‘rso‘xtani nima qilaman? Chin-da, dala bosh-adoq g‘o‘zalarimni kunpayakun etib nima qilaman?

Eskisi traktor bortovoyiga taqiladi. Traktor ballonlari oralig‘iga taqiladi. Shu boisdan-da eskisini yerdan ko‘tarib olish g‘oyat o‘ng‘ay bo‘ladi. Eskisini burib olish g‘oyat qulay bo‘ladi.

Eskisi bitta-da g‘o‘zamni qirqmaydi. Eskisi bitta-da g‘o‘zamga ziyon bermaydi.

Men har yil ana shu eski texnika tufayli dalalarim bosh-adog‘idan yigirma tonna oppoq paxtamni omon olib qolaman.

Yigirma tonna oppoq-oppoq Paxta!

Aytishga oson – og‘iz bir chetidan chiqadi-ketadi.

Aslida – yigirma tonna oppoq Paxta el-yurt uchun olamjahon-olamjahon naf bo‘ladi.

Men kattalardan nordon-nordon gaplar eshitdim.

Ammo dalalarimga eskisini soldim. G‘o‘zalarim ostini haydadim.

Traktor tishlari tegmayin o‘tmish g‘o‘za uya oralari ko‘p-ko‘p qoldi.

G‘o‘za uya oralari ana shundayin qola bersa – hosil cho‘g‘siz-cho‘g‘siz bo‘ladi.

Men g‘o‘za uya oralarini ketmonim bilan yumshatib-yumshatib oldim.

Pushta tuproqni egatlab tushirdim. Egat tuproqni pushtalab oldim.

Oqibat – pushtada to‘planib-to‘planib yotmish oziq mod-dalar g‘o‘zalarim ostiga tushdi.

G‘o‘zalarim avj-avj o‘sdi.

11

Og‘ilimizni biryog‘i qiyshayib qoldi.

Men qarab-qarab qo‘ydim. Bu yil qishni o‘tkazar, deya o‘yladim. Ammo men o‘ylamishday bo‘lmadi.

Qiyshaymish devor belidan ag‘nab tushdi.

Tabiatim tirriq bo‘ldi.

Og‘il oldilab sim chiroq sudrab bordim. Tut ayrisiga chiroq ildim.

Og‘ilxona yop-yorug‘ bo‘ldi.

Ag‘namish devorni ketmon bilan maydaladim – loyxona etdim.

Yotar vaqt-i-yotar vaqt-i ariq yoqalab bordim.

Suv boshida qulinqchi yo‘q bo‘ldi.

Paxtaga bormish suvdan o‘g‘irlab keldim.

Suv men bilan baravar loyxonalab keldi.

Cholvorimni tizzalab lippa urdim. Kaftlarimni tupuklab ho‘lladim. Ketmon olib loy kirdim.

Devor kesaklarni tepib-tepib loy etdim. Ketmon bilan urib-urib loy etdim. Tepkilab-tepkilab pishitdim. Ustidan suv sepdim.

Saharda vaqtliroq turib devor uraman, deya niyatlandim.

Ammo saharda uxbab qoldim.

Esnab-esnab loyxona keldim. Loy qaradim-loy qaradim – nima qilishimni bilmadim. Devor urayin dedim – dala qolib ketar bo‘ldi, dala borayin dedim – loy qotib qolar bo‘ldi.

O‘yladim-o‘yladim – tag‘in ariq yoqalab suv boshi bordim.

Bu safar qulinqchi bo‘ldi.

Unday dedim, bunday dedim – qulinqchi ko‘nmadi.

– Yo‘q, berolmayman, suv paxtaga borayapti, – dedi.
Yopishib oldim, kuyinib oldim.
– Molxonamizni yarmi yo‘q! – dedim.
– Yo‘q bo‘lsa nima qilayin? Mol zarilmi, paxta zarilmi? –

Paxta zaril!

– Otangizga balli, paxtani oldida mol nima degan gap!
Nima deyishimni bilmadim. Kelgich izimidan qaytib ke-
laberdim.

Uydan katta bidon olib keldim.

Bidon bilan yelkamda suv tashidim. Besh-olti marta qat-
nadim.

Loy suvladim. Loy yuzi kilkillab-kilkillab qoldi.

Mototsiklimni minib dala yo‘l oldim.

Kun bo‘yi loydan alag‘da bo‘ldim.

Kun botishi bilan ayolimizga javob berdim.

– Bor-da, loyga suv sepib tur, qotib qolmasin, – dedim.

Oqshom tunar-oqshom tunarda uyimizlab keldim.

Tut ayrisida chiroq yonib-yonib turdi.

Ayolimiz sochlari loy tegmasin uchun soch turmaklab-soch
turmaklab loy tepdi.

Ayolimiz ro‘moli bilan bel boylab-bel boylab loy tepdi.
Ayolimiz ko‘ylak etaklari loy botmasin uchun qo‘shqo‘llab
etak ko‘tarib-qo‘shqo‘llab etak ko‘tarib loy tepdi.

Ayolimiz harsilladi!

Ayolimiz loydan illa-illa oyoq ko‘tarib oldi.

– Bekor loy kiribsan-da, – dedim. – Men senga suv sepib
tur, deb edim-ku?

– Suv sepdim, qotib qopti.

– Bolalarni loy solsang bo‘lardi.

– Bolalar zarra boshidan qorason bo‘lsinmi endi.

Bolalar mayda-mayda satillarda suv tashidi.

– Bo‘ldi, loydan chiq, – dedim. – Bor, mol-holingga qara,
qozon-tobog‘ingga qara.

Ayolimiz loydan chiqaman dedi – chiqolmadi, chiqaman dedi – chiqolmadi. Oyog‘ini loydan tortib ololmadi!

Men ayolimizni qo‘ltiqlaridan olib, loydan chiqarib qo‘ydim.

Bolalar hiring-hiring kului.

Men ketmon bilan qo‘zg‘ab-qo‘zg‘ab loy tepdim. Men suvlab-suvlab loy tepdim.

Loy pishidi. Loy tobga keldi.

Men og‘ilxona devorini minib ayolimizni chaqirdim.

Ayolimiz qozonini onamizga qoldirib keldi.

Loy urish oson, loy olib berish qiyin.

Ammo ayol zoti devor urolmaydi-da.

Shu bois – ayolimiz loy olib berdi, men devor urdim.

Ayolimiz beldasta suyana dam olib-beldasta suyana dam olib loy olib berdi.

Ayolimiz loy sob bo‘lgunichayin loy olib berdi.

12

Yotar vaqt ayolimiz o‘ng oyog‘i boshmaldog‘ini ushlab-ushlab voy-voyladi.

Ayolimiz boshmaldog‘ini onamizga tutdi.

Onamiz yoruqqa solib qaradi.

– Eb-e-y! – dedi. – Tirnoq ko‘chibdi, boshmaldog‘ingni tirnog‘i ko‘chibdi. Tirnog‘ingni olib yursang o‘lasanmi, qirilib ketgur!

– Tirnoqqa qaraydigan vaqtmi, – dedi ayolimiz. Men ishonmayin qaradim.

Chin, tirnoq chetlar qontalash-qontalash bo‘libdi. Chin, tirnoq uchlari ko‘tarilib-ko‘tarilib turibdi.

– Dehqonqul, bor, qaychini olib kel, – dedi onamiz.

Men qaychini olib keldim.

Onamiz ko‘chgan tirnoqni qirt-qirtillatib olib tashladi.

Ayolimiz ingrab yubordi

– U-u-uh!.. – dedi.

Onamiz qaychini ayolimizga uzatdi.

– Ma, tirnoqlaringni ol, – dedi. Ayolimiz qaychini qo‘li bilan qayirdi.

– Dardim tirnoqmi, – dedi. – O‘zi, uyqum kelib, o‘lib borayapman.

– Kel, unda o‘zim olib qo‘yayin.

Onamiz ayolimiz oyoqlarini tizzasiga oldi. Tirnoqlariga qaychi soldi.

Ayolimizni oyoqlari... turli-tuman bo‘ldi!

Bebilchagidan yuqorisi osma qovundayin to‘r-to‘r qora bo‘ldi.

Kalishdan tashqari yurgich joyi ana shunday to‘rlama-to‘rlama bo‘ldi.

Bebilchagidan pasti quyruqdayin oppoq-oppoq bo‘ldi. Kalish ichida yurgich joyi ana shunday quyruq-quyruq bo‘ldi.

Ayolimiz tovonlari... qop-qora bo‘ldi!

Ayolimiz tovonlari... tilim-tilim yoriq bo‘ldi! Qaqroq yerdai-qaqroq yerdai taram-taram yoriq bo‘ldi!

Subhi sodiqqachayin zim-ziyo uyimizni oh oldi.

– O-o-oh, oyog‘im!.. – deya uyqusiradi ayolimiz. – O-o-oh, oyoqqinam-a!.. – deya oh urdi ayolimiz.

13

Tag‘in dalalarimni begona o‘t bosdi.

Qadamimda semizo‘t yoyilib yotdi.

Semizo‘t o‘z oti o‘zi bilan yo‘g‘on-yo‘g‘on o‘t bo‘ldi. Barmoqday tanasi to‘la suv o‘t bo‘ldi.

Semizo‘t yerda bor bo‘lmish namni so‘rib-so‘rib oldi. Semizo‘t yerda bor bo‘lmish gumusni shimb-shimb oldi.

G‘umaylarni tag-tomiri bilan qo‘porib to‘daladim. Jarariqqa olib borib ko‘mib tashladim.

Filquloq bargli itquloq yuldim.

Ikki-uch bargli shalpanquloq yuldim.

Sho‘rao‘t tortqilay berib qo‘llarim sasib-sasib qoldi. Sho‘rao‘t tortqilay berib dimog‘larim aksirib-aksirib qoldi.

Bir xushro‘y bargli o‘t bilan ro‘baro‘ bo‘ldim.

O't bir bargi nopalmon bo'ldi, o't bir bargi qip-qizil bo'ldi.
O't uchida popugi-da bo'ldi. Popugida g'uj-g'uj donalari-da
bo'ldi.

Begona o't ko'zimni oldi. Begona o't ko'nglimni oldi. Be-
gona o't zavq-shavqimni oldi.

Yovvoyi tojixo'roz ana shunday o't bo'ldi!

Tojixo'roz doni shamolda uchsa – besh minggachayin bo-
lalaydi. Tojixo'roz doni suvda oqsa – besh yuz minggachayin
bolalaydi.

Erkak qamish ichida oppoq poxoldayin po'pagi bo'ladi.
Shu po'pagidan ichi mo'rt bo'ladi. Bir qayirib sindirsa bo'ladi.

Urg'ochi qamish yulish it azob bo'ldi! Urg'ochi qamishni
tortdim – yulinmadi. Urg'ochi qamishni qayirdim – sinmadi.

Shu chayirligi uchun-da urg'ochi qamishdan bo'yra qi-
ladilar!

Urg'ochi qamish bargi kaftlarimni tildi. Urg'ochi qamish
bargi barmoqlarimni tildi. Misoli olmos bilan kesmishday tildi!

Tiliklarimdan qip-qizil qon ko'pirdi.

Men tiliklarimni lablarim bilan so'rdim. Men tiliklarim-
ni tupugim bilan namladim. Men tiliklarimni quruq tuproq
bosib doriladim.

Qonim qoldi. Ammo tiliklarim achishib-achishib og'riy
berdi.

Men qop-qora no'xat hosilli ituzum yuldim.

Men handalak hidli zarpechak yuldim.

Qirqbo'g'in g'o'zalarimni yopib-yopib o'sdi. Qirqbo'g'in
g'o'zalarimni o'rab-o'rab o'sdi. Qirqbo'g'in g'o'zalarimni
bo'g'ib-bo'g'ib o'sdi.

Dalalarimda ko'k chirmoviq-da serob bo'ldi, sariq chir-
moviq-da serob bo'ldi.

Chirmoviqlar g'o'zalarim tanini o'rab-o'rab oldi. Chir-
moviqlar g'o'zalarim jonini siqib-siqib oldi.

Men qirqbo'g'inalarni changallab-changallab yulib tash-
ladim.

Men chirmoviqlarni tirnoqlab-tirnoqlab yulib tashladim.

14

Yotardan oldin qo'llarimni olqindilab-olqindilab yuvdim.

Kaftlarimni qayroqtosh bilan qirdim. Barmoqlarimni qayroqtosh bilan ishqaladim.

Kaftlarim aji-buji kir bo'lib qoldi. Barmoqlarim chiziq-chiziq qora bo'lib qoldi.

15

Idoralab borib edim, raisimiz ostonada oldimni oldi. Ichkaridan qog'oz o'rog'liq bir nima olib keldi.

– Manavini biznikiga olib borib bering, Dehqonqul aka, – dedi.

– Bu nima? – dedim.

– Qo'y go'sht. Ayolga ayting, kattalarbop ovqat qilsin. Yuqoridan odam bor. Tag'in, bera solib qochmang, go'shtni maydalab bering.

– Maylis nima bo'ladi, rais bova?

– O'sha o'zingiz bilgan maylis-da, boring.

– Tag'in qaytib kelayinmi?

– Kelib yurmang, ayolga qarashing, boring.

Mototsiklimni raisimiz darvozasi oldida to'xtatdim.

O'zimizni uyga kirmadim – bolalar qo'limdag'i go'shtni ko'rsa tomog'i tushadi, deya o'yadim.

Raisimiz ayoliga go'shtni berdim. Bor gapni aytdim.

– Nima ko'p, yomon qovunni urug'i ko'p, nima ko'p, katta ko'p... – deya ming'illadi raisimiz ayoli.

– Unday demang-e, hamsoya, – dedim.

– Nimaga demayman, deyman! Umrin kattalarga qozon qaynatib o'tdi! Yana-tag'in, qirilgurlar unday-bunday taomni yemaydi! Bola-baqraga boshqa qozon, kattalarga boshqa qozon qaynataman. Bilmayman, kattalar osmondan tushganmi!

– Ha endi, katta bo'lgandan keyin, nozikta'b bo'ladi-da.

– Ha, kuydirgi chiqsin, nozik ta'biga, kuydirgigina chiqsin!

Yana-tag'in, maylis poylab qozon qaynataman. Maylisi o'lgur bo'lsa, yarim kechasi tamom bo'ladi!

Men raisi so'rida joylashib o'tirdim. Pichoqni qayroqtosh charxlab oldim. Go'sht maydalab boshladim.

Men oynayi jahon qarab-qarab go'sht maydaladim.

Oynayi jahon bor – raisimizda bor-da! Raisbop oynayi jahon! Rangli-rangli oynayi jahon! Qizilini qizil, ko'kini ko'k ko'rsatgich oynayi jahon!

Maskovdan go'zallar musobaqasi bo'ldimi yo go'zallar namoyishi bo'ldimi, ishqilib – ajab bir sinoat bo'ldi.

O'ng yoqdan bir go'zal keldi, chap yoqdan bir go'zal keldi – oynayi jahon go'zalga to'ldi!

Sarvqad go'zallar, chikkabel go'zallar, sadaftish go'zallar bo'ldi!

Go'zallar kerila-kerila qadamladi. Go'zallar irg'ala-irg'ala qadamladi. Go'zallar sollana-sollana qadamladi. Go'zallar nozvana-nozvana qadamladi.

Ay, bir qizlar bo'ldi, ay, bir qizlar bo'ldi! Paxtaday oppoq qizlar bo'ldi. Qosh-kiprigi qop-qora qizlar bo'ldi. Lablari paxta guliday qip-qizil qizlar bo'ldi. Aybi... yalang'och qizlar bo'ldi!

Men mahliyo bo'lib o'tirdim-o'tirdim... o'z-o'zimdan uyaldim. Yuzlarim qizidi. Yo'q, lovv-lovv yondi. Ko'zlarim pir-pir etdi.

Men oynayi jahondan ko'zlarimni oldim. Boshimni qirt-qirt qashidim. Raisimizni ayoli qarayotgan bo'lsa-ya, deya ko'z qirim bilan oshxonan taraf qaradim.

Raisimizni ayoli qozoni bilan hamankara bo'ldi. Duyum-duyum oynayi jahon-da qarab-qarab qo'ydi.

Raisimizni ayoli mana munday demishday bo'ldi:

„Muncha ko'zingni lo'q etib qaraysan? Nima, umringda yalang'och ayol ko'rganing yo'qmi?“

Yuzlarim haminqadar lov-lovulladi.

Boshimni tag'in-da quyi egdim. Dasturxon egdim, Dasturxon bukdim.

Men mana munday demish bo'ldim:

„Men yalang'och ayollarga qarayotganim yo'q. Mana, dasturxon qarab o'tiribman“.

Esi dardim esa... go'zallarda bo'ldi! Ko'z ostimdan qarab-qarab oldim...

Turk go'zali bosayinmi-bosmayinmi, deya odimladi. Oqte-rak bel-oqterak bel oppoq sonlarini irg'ab-irg'ab odimladi...

Men ich-ichimdan miriqdim. Men qilt-qilt yutindim...

Tag'in oshxona taraf ko'z qirimni tashladim Raisimizni ayoli qozondan yuzini oldi. Oynayi jahon qaradi. Bir ko'zi qozonda bo'ldi, bir ko'zi oynayi jahonda bo'ldi.

Raisimizni ayoli mana shunday demishday bo'ldi: „Erkak bo'lmay o'l-a. Yalang'och ayolga qaramay ko'zing o'yilsin-a“.

Men bir-ikki yo'talib-yo'talib oldim. Boshim uzra shig'il-shig'il pishib yotmis huseyni uzumlarga bosh ko'tarib qaradim.

Bet-boshim uzumlarda bo'ldi, ko'z qirim go'zallarda bo'ldi.

– Manavi huseyni-ya, hamsoya? – dedim.

– Huseyni, nima edi?

– Men jovuzmikin, debman...

Men mana munday demish bo'ldim:

„Men yalang'och ayollarga qarayotganim yo'q. Mana, huseyni uzumlarga qarab o'tiribman“.

Aslida... bet-boshim uzumlarda bo'ldi, ko'z qirim go'zallarda bo'ldi.

Badanlarim varaja-varaja etdi.

Og'zimdan suvim oqdi.

16

Kattalar bir mahalda keldi.

Qo'lyuvgichda qo'l chaydi. Birin-ketin ichkariladi.

Men ostonadan yeguliklar uzatib turdim. Raisimiz qo'sh-qo'llab olib dasturxon qo'yib turdi.

Men ostonada turdim

– Endi nima qilayin, rais bova? – dedim.

Raisimiz eshik baldog'idan ushladi.

– Bo'pti, endi qayta qoling, – dedi. – Erta dala borgich odamsiz.

– Esa-chi, – dedim. – Dala bormay, qayer boraman.
Raisimiz eshikni ichidan yopdi.

17

Mototsiklimni oshxonamiz devori suyadim.

Ohista-ohista ichkariladim.

Timirskilanib to'shak topdim. Ust-boshimni yonbosh qo'ydim. Oyoqlarimni uzatib kerishdim. Ko'zlarimni yumib-yumib yotdim.

Ammo uyqum kelmadi. Boyagi go'zallar ko'z oldimdan ketmadi...

Ayolimiz taraf ohista qo'l uzatdim. To'shak siladim.
To'shak bosh-adog'ini paypasladim.

Ayolimiz joyida bo'ljadi.

Ayolimizda bolalarni naryog'iga o'tib yotib olish odati bor edi. Yo, shunday etdimikin, dedim.

– Ay... – dedim ohista.

Ovoz bo'ljadi.

Men ohista turdim. Kaftlarimni gilam tirab to'rt oyoq bo'ldim. Bolalarni boshi tarafdan o'rmalab bordim. Yuzimni bolalar yuziga tutib qaradim. Birin-birin qaradim.

Ayolimiz bo'ljadi.

To'shakni eng chekkasini – ayolimiz mendan bezor bo'lib borib yotib olgich chekkasini qaradim.

Ayolimiz u yerda-da bo'ljadi.

– Ay, qayerdasan? – dedim.

Shunda, chindan-da ayolimiz uyda yo'qligini bildim.

Oyog'imda tik turdim. Serrayib qoldim. Bir-bir bosib dahliz chiqdim. Undan mehmonxona o'tdim. Chiroqni yoqdim.

Ayolimiz mehmonxona to'rida yotdi.

O'rtada dasturxon yoyiqlik bo'ldi. Dasturxonda bir korson taom bo'ldi. Taom usti non bilan yopig'lik bo'ldi.

Chiroq yonishi bilan ayolimiz bolishdan bosh oldi. Tirsak suyanib o'tirdi. Kaftini peshonasilab soyabon etdi.

– Qayoqda yuribdi?.. – deya ming'illadi.

– Yuqoridan kattalar keldi, – dedim. – Kattalar bilan o‘tirib qoldim.

– Unda, qorni to‘qdir-da?

– Ko‘cha-ko‘yda qachon qorin to‘yib edi-da, endi to‘yadi. Bolalarni ovloq qoldirib, sen buyoqda nima qilib yotibsan?

– Bu kishini xo‘ragini qo‘rib yotib-yotib, uxbab qolibman. Ana, anavi xo‘ragini yesin.

Ayolimiz shunday deya, tag‘in yostiqqa bosh tashladi.

Men ko‘rpacha joylashib o‘tirdim. Qoshiq bilan taom qo‘zg‘adim.

Taomda tag‘in go‘sht yo‘q bo‘ldi!

Men ayolimizga bir zahrimni sochayin, dedim-dedim – tag‘in indamadim. Chin-da, go‘sht bo‘lmasa, ayolimizda nima ayb?

Men taomga non to‘g‘radim. Korson non bilan to‘ldi. Go‘sht o‘rnini non bosdi.

Ko‘nglim tortib-tortmay kavshandim. Tevarak alanglab-alanglab kavshandim.

Uzala yotmish ayolimizga tikildim.

Ayolimiz pish-pish uxladi. Ayolimiz hur-hur uxladi. Ayolimiz o‘ng qo‘lini belidan boshiga olib qo‘yib uxladi.

Shunda, ayolimiz o‘ng qo‘ltig‘i ostiga ko‘zim tushdi.

Og‘zimdagi og‘zimda qoldi, bo‘g‘zimdagi bo‘g‘zimda qoldi. Bir nafas kavshanmay qoldim. Ayolimiz qo‘ltig‘iga tikilib qoldim.

Ayolimiz ko‘ylagi qizil bo‘ldi, qo‘ltiq osti... ola-chalpak oq bo‘ldi.

Ko‘zim adashayaptimikin deya, tikilib-tikilib qaradim. Ayolimiz bilib-bilmay qizil ko‘ylagini oq bilan yamab oldimikin deya, bor e’tiborim bilan qaradim.

Yo‘q, oqarib turmish olachalpak yamoq bo‘lmadi. Ola-chalpak... ter bo‘ldi, qotib qolmish ter bo‘ldi. Chang aralash, kir aralash, jun aralash ter bo‘ldi...

Ayolimiz olachalpak qo‘ltig‘i... sho‘r dalamiz betiday-sho‘r dalamiz betiday bo‘ldi.

Ko'nglim aynidi. Taomni ta'bim tortmadı.

Qoshiqni taom tashladım. Yuzimni chet oldım. Tavarak-bosh alangladım. Bo'ljadi – qornim ochligidan taom ichdim, o'lmayinni kunidan taom ichdim.

Taom icha-icha ayolimizga razm soldım.

Bechora dalada-da bir ko'ylakda yuradi, uyda-da bir ko'ylakda yuradi.

Bechora kunda-da bir ko'ylak kiyadi, tunda-da bir ko'ylak kiyadi.

Bechora haftalab bir ko'ylak kiyadi, oylab bir ko'ylak kiyadi.

Ko'ylak almashirayın demaydi. Ko'ylak tugul, qo'lтиq tugul – oyna qaramaydi.

Oyna qarash uchun vaqt topolmaydi – qo'lтиq qaraydimi, qo'lтиq eslaydimi...

Og'zim taomda bo'ldi, ko'zim ayolimizda bo'ldi. Tikilib-tikilib taom yedim.

Shunda... shunda... go'zallar xayolimdan bir-bir o'tdi. Xayolimda – go'zallar bo'ldi, ko'z oldimda ayolimiz bo'ldi.

Men o'ylab-o'ylab qoldim...

Bu zot... bu zot... go'zallar namoyishida ishtirok etsa... nechanchi o'rinni... nechanchi sovrinni olar bo'ldi?

18

Men bolish yonboshladım.

Bolishimni ayolimiz bolishiga qo'shdım.

Qo'limni ayolimiz bo'yni ostidan oshirdim. Boshini bilagimg'a oldım. Peshonamni peshonasiga tekkizdim. Ko'zlarimni yumib yotdim.

Shunda... ayolimiz sochlardan... ayolimiz sochlardan... butifos... butifos hidi keldi!

Ko'zlarim yalt etib ochildi.

„Yo, pirim-e, hali dalaga butifos sepmadik, butifos hidi qayerdan bino bo'ldi? – deya o'ylay-o'ylay topdim. – Ayolimiz Jarariqdan molga o't olib keladi. O'tni boshida ko'tarib

keladi. Bu hid o'tgan yili sepilib, haliyam o'tlarda yotmishtutifos hidib o'ldi“.

Men ko'zlarimni chirt yumdim. Men butifos hidini bilib-bilmaslikka oldim. Men butifos hidini ko'rib-ko'rmaslikka oldim.

Ayolimiz yelkalarini silab-siypadim.

Ayolimiz silab-siypovlarimni o'zicha o'yladi... Ayolimiz silab-siypovlarimni o'zicha yo'ydi...

– Sidirg'a yotsin, – dedi. – Suv sovuq...

Qo'limni yelkasidan olib tashladi.

Ko'nglim uvishdi. Ko'nglim ezildi. Ko'nglim o'yildi!

Men bolishimni ayolimiz bolishidan xolisroq oldim.

„Endi... bu zot-da... ayol-da? – deya ko'nglim kuydi. – Ayoldir-da, ana, noz etayapti-ku? Ayoldir-da, ana, nozlana-yapti-ku?“

Men yuzlarimni bolish bosdim.

„Kim bo'lsa-da... bolalarimni onasi, – deya ko'nglim iydi. – Kim bo'lsa-da... pushti kamarimdan bo'lmish bolaginalarimni onaginasii“, – deya ko'nglim iydi.

Shunda, yag'rinlarim ayolimiz tafti nafasini tuydi.

– O'-o'y? – dedi ayolimiz. – O'-o'y?..

Ayolimiz qapishib-qapishib keldi. Men o'zimni uxlamish oldim.

– Birday shunday etadi, – deya yorildi ayolimiz. – Dar-dimni aytayin deyman, chappa burilib yotib oladi...

– Nima darding bor, ayta ber.

– O'-o'y, ayollar Xo'jayi Obigarmga tomoshaga borayapti ekan.

– Ha-a.

– Bari erkagi bilan borayapti ekan.

– Ha-a.

– Xo'janov muallim ayoli bilan bosh bo'lyapti ekan.

– Ha-a.

– Bir hafta yotib kelar ekan.

– Bir hafta? Paxta nima bo'ladi?

Ayolimiz aytib-aytib yig'ladi:

– Shunday deyishini bilib edim. Men bechora ishni ostida chirib ketaman...

– Endi, sen o'zingni Xo'janovni ayoliga teng etma-da. Xo'janov muallim, ayoli magazin mudir. Ularda biryog'i pul katta, biryog'i dam olish kuni degan gaplari bor. Sen bilan bizza nima bor? Na pul bor, na dam olish kun bor, o'z otimiz o'zimiz bilan kolxozmiz.

– Men bechora ishni ostida o'lab ketaman...

19

Chilla lovulladi!

Kun buk bo'ldi.

Kun dim bo'ldi.

Qilt etmis shabada esmadi.

G'o'zabop-g'o'zabop havo bo'ldi.

20

Dala yuzasida ko'z bilan ko'rib bo'lmas zax bo'ladi.

Dala yuzasida qo'l bilan ushlab bo'lmas nam bo'ladi.

Ana shu zax g'o'zani ushlab-ushlab turadi.

Ana shu nam g'o'zani tortib-tortib turadi.

21

Chilla ana shu yuza zaxni yer ostilatib-yer ostilatib cho'ktirdi.

Chilla ana shu yuza namni yer ostilatib-yer ostilatib endirdi.

Chilla yer g'o'za ostidan ko'tardi.

Chilla quyosh g'o'za uchidan tortdi.

G'o'za gur-gur o'sdi.

22

Yer hansiradi.

G'o'zalarim bargi och-och yashil tuslana berdi.

G‘o‘zalarim bargi qo‘ng‘ir-qo‘ng‘ir dog‘ bo‘la berdi.

G‘o‘zalarim bargi burishib-burishib qola berdi.

G‘o‘zalarim ochqadi!

Men g‘o‘zalarimga bosib-bosib azot berdim.

Men g‘o‘zalarimga bosib-bosib fosfor berdim.

Men g‘o‘zalarimga bosib-bosib kaliy berdim.

23

Kun g‘o‘zalarim uchida ilashib-ilashib qoldi.

Men omborxonadan bir orqa dorixalta orqalab keldim.

Dorixaltalarni varr-parr yirtdim. Bo‘lak-bo‘lak etdim. Kaftday-kaftday etdim.

O‘qariq bilan egat quloqqa doriqog‘oz qo‘ydim. Sharsharasimon-sharsharasimon etib qo‘ydim. Quloqqa bosib-bosib qo‘ydim.

Bosh-adoq o‘qariqni ana shu maqomda doriqog‘ozladim.

Mirobdan suv haydab keldim.

Suv o‘qariqlab-o‘qariqlab oqdi.

Malla chumchuq suv pishinib-suv pishinib o‘ynadi. Kulrang chumchuq qanot tarab-qanot tarab o‘ynadi.

Kun so‘lidi-so‘lidi – oq bilan qorani farqlab bo‘lmayin qoldi.

Men bir qo‘yin doriqog‘oz olib oldim.

Fonus yoqib o‘qariq yoqaladim.

O‘qariq ohista-ohista to‘ldi.

Suv doriqog‘oz sharsharalab keldi. Suv doriqog‘oz sharsharan toshdi. Suv shirr-shirr egat tushdi.

Men o‘qariq yoqalab qadamladim. Doriqog‘ozlarga fonus tutib-fonus tutib qadamladam.

Doriqog‘oz tushib ketmish quloqlar bo‘ldi.

Men egatda tushib yotmis doriqog‘ozni olib quloqqa qo‘ydim. Quloq tevaragini loylab-loylab shibbaladim.

Doriqog‘oz oqib ketmish quloqlar-da bo‘ldi.

Men bundayin quloqlarga qo‘ynimdan boshqa doriqog‘oz olib qo‘ydim.

Doriqog'oz qiyshayib-qiyshayib qolnish qulqlar bo'ldi.
Men ana shu doriqog'ozlarni sozlab-sozlab qadamladim.

Chilla tunlar oppoq yuzli-oppoq yuzli bo'ldi.

Chilla yulduzlar bolaladi.

Chigirtkalar chirr-chirr etdi.

Fonusimni turli-tuman hasharotlar o'rab-o'rab aylandi.
Fonusimni hasharotlar gir-gir aylandi. Fonusimni hasharotlar chirt-chirt chertib aylandi.

Hasharotlar birin-ketin o'lib-o'lib aylandi!

O'qariqda suv urib ketmish joylar bo'ldi.

Men suv urib ketmish joylarni qo'lim bilan bitab-bitab qadamladim.

O'qariq bir joyini yomon-yomon suv urdi. Suv egatlar osha shildir-shildir toshdi. Suv egatlar osha varaq-varaq toshdi,

Men bilaklarimni turdim. Suv urib ketmish yoriqqa qo'l tiqdim. Yoriqqa kesak tiqdim. Yoriqni nuqilab-nuqilab mushtladim.

Suv hamon buloq bo'lib tosha berdi.

Men o'qariq ostidan loy olib tiqayin, deya qo'l uzatdim.
Bir changal loy tortib ola-ola – ko'ksim bilan suvga tushib ketdim.

Men shilta bo'lmish ust-boshimni tashladim. Ishtonchan bo'ldim. Yalang oyoq bo'ldim.

Men ishtonchan bo'lib suv bitadim. Men yalangoyoq bo'-lib suv bitadim.

Bir ko'nglim ishtonchan bo'lib suv taray berayin, dedim.
Yana-tag'in, pashshadan qo'rqedim.

Shiltadan-shilta ust-boshimni siqib-siqib kiyib oldim.

Men o'qariq bosh-adoqlab borib kela berdim.

G'o'zalarim jildir-jildir suv ichdi.

G'o'zalarim miriqib-miriqib suv icha berdi. G'o'zalarim tiniqib-tiniqib suv icha berdi. G'o'zalarim qonib-qonib suv icha berdi.

Chilla suv – tilla suv bo'ldi!

Tun qaytdi. Oy og'di.

Oyoq-qo‘lim bo‘shashib-bo‘shashib qoldi. Ko‘zlarim ketib-ketib qoldi.

O‘qariq boshida oyoq ildim. Fonusimni qabatimlatib qo‘ydim.

O‘qariq bo‘yida maydaroq kalladay bir kesak bo‘ldi.

Men ana shu kesakka yonboshladim. Yonboshdan chalqancha yotdim.

Kesak boshimga botib-botib yotdim.

Osmon ko‘rib-osmon ko‘rib yotdim.

Chilla yulduzlar so‘lg‘in-so‘lg‘in bo‘ldi.

Ko‘zim ilindi.

24

Momiq-momiq oqliqdan ko‘zlarimni ochdim.

Tong to‘rkadi.

Dunyo tagi oqarib-oqarib kela berdi.

25

G‘o‘zalarim shonaga o‘tirdi.

G‘o‘zalarim bitta-bittadan shonaladi.

Azonshomda bir shona tugdi.

Namozshomda bir shona tugdi.

Shunda, oqtuproq dalam suvsadi.

Oqtuproq g‘o‘zalarim salqinda tirildi, oftobda so‘ldi.

Ich-ichimdan qirindi o‘tdi. Dardim ichimda bo‘ldi. Tishim tishimda bo‘ldi. Shona vaqtida suvsasa yomon – haminqadar yomon!

Suv taralsa – g‘o‘za gurillab-gurillab o‘sadi. G‘o‘za g‘ovlab-g‘ovlab o‘sadi.

Suv tarab bo‘lmaydi – shonaga o‘tirmish g‘o‘za shonala may qo‘yadi. G‘o‘za shonadan qoladi.

Men endi suv tarash tugul dala oralamadim.

G‘o‘zaga o‘ngir tegsa bo‘ldi – endi tag olmish shona lip etib uchib tushadi. G‘o‘za bir silkinsa bo‘ldi – endi uch ber mosh shona jalb etib uchib tushadi.

Bir tup g'o'zadan ikkita shona to'ksilsa – bir gektar dala dan ikki yuz kilo hosil kamayadi!

26

Men dalalarimni aylanib-aylanib qaradim.

Men shonalarini ko'zim bilan sanab-sanab qaradim.

G'o'zalarim yetti-sakkiztadan shona tugdi.

Ana shunda dalalarimga bir suv jildirib-bir suv jildirib oldim.

Shona vaqtin botin suvlab bo'lmaydi – shonaga ziyon ber radi.

27

G'o'zalarim shig'il-shig'il shonaladi.

Ana shunda g'o'zalarim azotga yerik bo'ldi! G'o'zalarim azotxo'r bo'ldi!

Men bir gektar g'o'zamga yigirma besh kilodan azot berdim.

G'o'zalarim tag'in-da yuz ochdi. G'o'zalarim tag'in-da rang oldi.

28

G'o'zalarim o'ttiz-qirqtadan shonaladi.

Men tag'in bir suv jildirib oldim.

29

G'o'zalarim sakson-to'qsontadan shonaladi...

Qani edi – shu shonalar gul bo'lib ko'sak tugsu edi! Qani edi – shu ko'saklar paxta bo'lib ochilsa edi!

Afsus, g'o'za bilonihoya shonani qucha olmaydi, afsus!

Shonalar o'z-o'zidan qurib-qovjiradi. Shonalar o'z-o'zidan to'kilib-chochildi.

Bir tup g'o'zada o'ttiz-qirqtadan shona qoldi.

Men endi g‘o‘zalarimni suvdan omonladim – ko‘p suv shona to‘kadi.

Men endi g‘o‘zalarim umrini chilladan tiladim – o‘tkir ja-zirama shona to‘kadi.

G‘o‘zalarim gunogun-gunogun gulladi.

G‘o‘zalarim ost-ostidan gulga kirdi.

Ilk hosilshox ayrilish bo‘g‘inidan ilk gulini ochdi.

Men g‘o‘zalarimga bir suv ichirib oldim.

Ikkinci qavat hosilshox ayrilish bo‘g‘inidan gulladi.

Men g‘o‘zalarimga ikki suv ichirib oldim.

Uchinchi qavat hosilshox gul berdi.

Men uchinchi bor suv ichirdim.

G‘o‘zalarim gullay berdi-gullay berdi – men suv ichirib gul salom eta berdim-suv ichirib gul salom eta berdim!

G‘o‘zalarim noparmon-noparmon gulladi.

Men g‘o‘zalarim gulini iskab-iskab ko‘rdim.

G‘o‘zalarim gulidan... qoraqoshgul isi keldi.

Men g‘o‘zalarim gulini tag‘in bir bor iskab ko‘rdim.

G‘o‘zalarim gulidan... is kelmadı.

G‘o‘zagul issiz-issiz gul bo‘ldi!

G‘o‘zalarim qirmiz-qirmiz gulladi.

Qirmiz-qirmiz gullarimga kapalak doridi.

Kapalak qoramfir-sariq bo‘ldi. Uzun-uzun qanot bo‘ldi.

Qanotlari uchida yoyma to‘q tasma bo‘ldi. Qanotlari o‘rtasida ikkita qo‘ng‘ir dog‘ bo‘ldi. Bir dog‘ buyraksimon bo‘ldi, bir dog‘ oysimon bo‘ldi.

Kapalak kunduz kunda bir joyda biqinib yotdi.

Kapalak qora tunda bo'ydar-bo'ydar g'o'zalar aro uchdi.
Gullarga moyak qo'yib-qo'yib uchdi.

Kapalak moyagi gumbazsimon bo'ldi. Yigirma olti-yigirma sakkiz qobirg'ali bo'ldi. Sarg'ish-oq rangli bo'ldi.

Moyak uch-to'rt kunda ochdi. Ichidan chorak enlik qurt yorib chiqdi. Qurt qoramtil-yashil bo'ldi. Qurt ustlari hamda yonlarida qo'ng'ir-qo'ng'ir yo'llari bo'ldi. Yo'llar to'lqin-simon-to'lqinsimon bo'ldi. Yo'llarda siyrak tuklar bo'ldi, to'qrang xollar bo'ldi.

Ko'sakqurt ana shu bo'ldi!

Ko'sakqurt oldin ust kurtaklarni kemirdi. Ust gullarni kemirdi.

Ko'sakqurt to'lishdi-to'lishdi – g'o'za ost shoxlariga enib tushdi. Hosildor gullar ichiga kirib oldi.

Ko'sakqurt gul ich-ichidan qurigunichayin gul yedi.

Ko'sakqurt gul chirib-chirib to'kilgunchayin gul yedi.

Ko'sakqurt tishlari o'tmaslanib qolgunchayin gul yedi.

Indamayin – kapalak qirq kun umr suradi. Qirq kunda uch-to'rt minggachayin moyak qo'yadi.

Indamayin – ko'sakqurt yigirma dona hosilgul yeydi.

Yigirma dona hosilgul demak – o'n ikki-o'n besh foiz paxtam ko'sakqurtda ketdi, demakdir.

34

Men bir gektar g'o'zamni o'n besh kilo kalsiy arsenat bilan changladim.

Besh kundan keyin efirsulfonatli xlorofos bilan purkadim.

35

G'o'zalarim sariq-sariq gulladi.

Gulyon barglarda moyaksimon-moyaksimon o'rgimchakkana inladi. Gulyon barglarda bo'g'inoyoq-bo'g'inoyoq o'r-gimchakkana makonladi.

O'rgimchakkana barglar ketini ingichka-ingichka o'rgimchakip bilan o'rab-o'rab oldi.

O'rgimchakkana barglar ketini kulrang-kulrang o'rgimchakip bilan qoplab-qoplab oldi.

O'rgimchakkana gulyon barg yaladi! Barg yalab-barg yalab keta berdi!

Oqibat – barglar ilma-teshik bo'ldi. Barglar usti xol-xol qizil bo'ldi. Bora-bora qora-qora tus oldi. Oxiri qovjirab-qovjirab to'kildi.

Men barini ko'rib-bilib turdim. Ammo ne ilojim bo'ldi?

O'rgimchakkana bino bo'lgunichayin dala dorilab bo'l-maydi. O'rgimchakkana bino bo'lgach-da dala dorilab bo'l-maydi.

O'rgimchakkana jami barg besh foizini yeganidan keyin dala dorilanadi. Ana shunda dori samarali bo'ladi.

O'rgimchakkana bilan bir vaqtda... qandala bino bo'ldi. Qo'ng'iz bino bo'ldi. Oltinko'z bino bo'ldi.

Qandala... o'rgimchakkana terib yedi. Qo'ng'iz... o'rgimchakkana bosib yedi. Oltinko'z... o'rgimchakkana bilan tirik-chilik etdi.

Men o'rgimchakkana qachon besh foiz barg yeb bo'ladi, deya kunim o'tdi – qandala bilan oltinko'z o'rgimchakkana terib yeb kuni o'tdi.

Bu dunyo teskari dunyo, demishlari chin bo'ldi.

36

Nihoyat – dalalarimga efirsulfonatli xlorofos sepdim.

37

G'o'zalarim oq-oq gulladi. Oq gul yomon, oq gul yomon! Tanasida suv kamchil g'o'za oq gullaydi. Tagida o'g'it taxchil g'o'za oq gullaydi. Dardchil-dardchil g'o'za oq gullaydi. Oq gul ko'sak tugmaydi. Tugsa-da – mayda-mayda ko'sak tugadi.

38

Bechirindi go'ng – besamar go'ng. Bechirindi go'ng – beoqibat go'ng.

Bechirindi go'ng begona o't uyi bo'ladi. Bechirindi go'ng turli-tuman dard ini bo'ladi.

Men fermadan bermish bechirindi go'ngni olmadim.

Ko'cha-ko'ydan bo'lsa-da, chirindi go'ng topib keldim.

Pilla qo'yuvchilar uyidan ipakg'umbak olib keldim.

Tovuq fermadan parrandatezak olib keldim. Barini o'qariq boshi hovuz soldim. Ustidan suv to'ldirdim.

Hovuzni kuraklab-kuraklab kovladim. Azonda bir kovladim. Tushda bir kovladim. Shomda bir kovladim.

Ikki kun ana shunday hovuz kovladim.

Uchinchi kun hovuz boshidan bir ariq oldim, hovuz adog'idan bir ariq oldim.

Hovuzboshi ariqdan suv haydar keldim.

Hovuz suv bilan labolab-labolab to'ldi.

Suv hovuzda sharbat bo'lib adoq ariqladi.

Suv ariqda sharbat bo'lib o'qariqladi.

Suv o'qariqda sharbat bo'lib dalaladi.

Dalalarimda shira-sharbat suv oqdi.

Shira-sharbat suv g'o'zalarimni gul tashlashdan omon-omonladi.

Sharbat suv – shakar suv bo'ldi!

39

Ko'saklarim bo'zboladay-bo'zboladay to'lisha berdi.

Men bot-bot suv qo'ya berdim.

Suv kanda bo'lsa – ko'sak o'z kunidan oldin ochiladi.

Suv arisa – hosil tosh beg'oz bo'ladi. Hosil befazilat bo'ladi.

Chala bino bo'lmish chaqaloq qanday bo'ladi? Ko'sak-da shunday-da!

40

G'o'zalarimga ko'sakqurt tushdi.

Ko'sakqurt sodda-mug'ambir bo'ladi!

Ko'sakqurt kunduz kun nam tuproq orasini makon etadi.
G'o'zatana ostini makon etadi. Shonabarg orasini makon etadi.

Ko'sakqurt kushandası chumchuq bo'ladi!

Chumchuq tunda uchmaydi. Chumchuq tunda tolshoxda
uxlaydi.

Chumchuq kunduzda uchadi. Chumchuq kunduzda ko'-
sak-qurt terib yeydi. Ko'sakqurt ana shuni biladi!

Shu bois, ko'sakqurt makonidan tunda tashqarilaydi.

Ko'sakqurt boldan-bol taom bo'lsa-da, qayrilib boqmaya-
di. Faqat ko'sak izlab o'rmalaydi. Faqat ko'sak topib o'rma-
laydi.

Ko'sakqurt ko'sak teshadi. Ko'sakqurt ko'sak g'ovak etadi.

Ko'sakqurt ana shu g'ovakdan ichkari kirib oladi. Ich-
karida suv-suv chigit kemiradi. Ichkarida muloyim-muloyim
chigit kemiradi.

Bir ko'sakqurt yigirmata ko'sak nobudlaydi. Yigirmata
ko'sak o'n ikki-o'n besh foiz hosil, demakdir.

Mug'ambirdan-mug'ambir ko'sakqurt unday-bunday do-
ridan o'lmaydi.

Shu bois, dalalarimga metilmerkaptofos dori berdim.

Men bilgich dorilar orasida sassiqdan-sassig'i ana shu
metilmerkaptofos bo'ldi!

Dalalarimni qo'lansa-qo'lansa is oldi.

Men ikki kun tuz totayin dedim – totolmadim.

Tomog'imdan tuz tugul, suv o'tmadi.

Qaytanga – ichimda bori-da tomog'imga qaytib-qaytib
kela berdi.

Chilla kuydi!

Olam tandır taft-tandır taft bo'ldi.

Sonsız ajınlarım-da dosh berolmadı.

Saraton telpagım-da dosh berolmadı.

Men lablarım yorılıb-lablarım yorılıb dalaladım.

Men burnim qonab-burnim qonab dalaładim.
Men kallam qaynab-kallam qaynab dalaładim.

42

G'o'zalarim bo'y-bo'y o'sdi.

G'o'za bo'ylab o'ssa, g'o'za bo'lmaydi – daroz-daroz
bo'lib qoladi. G'ovlab-g'ovlab qoladi.

G'o'za yonlab-yonlab o'ssa g'o'za bo'ladi. G'o'za en-
lab-enlab o'ssa g'o'za bo'ladi.

Shu bois, g'o'zalarimni chilpir bo'ldim.

Bo'ynimga etak osib oldim. Dała boshidan oraladim.

Daroz-daroz g'o'zalarim uchini barmoqlarim bilan chirt-
chirt chimdib oldim. Peshma-pesh etak soldim. Risolada
o'smish g'o'zalarim uchini chilpimadim.

Insof bilan o'smish g'o'zalarim uchini-da chimdimadim.
Mayli, unib-o'ssin, dedim.

Enlab-enlab o'smish g'o'zalarimni bilaklarim bilan qo'z-
g'ab-qo'zg'ab qo'ydim. Kaftlarim bilan silab-silab qo'ydim.

Etagim g'o'zauch bilan to'ldi.

G'o'zauchlar bodroq-bodroq bo'ldi. G'o'zauchlar taom
ko'kat-taom ko'katday bo'ldi.

G'o'zauchlar azzancha bodroq bo'lsin – g'o'zauchlarni
egatga tashlab bo'lmaydi.

Hasharotlar ana shu g'o'zauchlarda bolalaydi!

Masalan, ko'sakqurt ana shu g'o'zauchlarda moyak qo'-
yadi. Moyak g'o'zauchda bola ochadi. Qurt bo'lib o'rma-
laydi.

G'o'zauchlar muloyim bo'ladi-da, g'o'zauchlar oftobiyor
bo'ladi-da!

G'o'zauchlar azzancha ko'katsimon bo'lsin – g'o'-
zauchlarni mol-holga-da berib bo'lmaydi.

G'o'zauchlar dorixalta bo'ladi! G'o'zaga sepilmish jami
dori ana shu g'o'zauchlarda jamlanmish bo'ladi!

Men bari g'o'zauchlarni Jarariqqa olib borib ko'mdim.
Tepkilab-tepkilab ko'mdim.

Bir haftadan so‘g‘in tag‘in bir bor chilpidim. G‘o‘zalarim bo‘ydan qoldi. G‘o‘zalarim endi ko‘sakka zo‘r berdi.

O‘n ko‘sakli g‘o‘zam gektaridan yigirma sentnerdan hosil beradi!

Yigirma ko‘sakli g‘o‘zam gektaridan qirq sentnerdan hosil beradi!

Yigirma besh-o‘ttiz ko‘sakli g‘o‘zam gektaridan qirq besh-ellik sentnerdan hosil beradi!

YETTINCHI BOB

1

Oq tuproq dalam ko‘saklari uch-uchidan yorildi. Oqtuproq dalam ko‘saklari uch-uchidan ochildi.

Oqtuproq dalamga oq oraladi.

Bemavrid oq oraladi!

Oqtuproq nozik-nozik yer bo‘ladi. Oqtuproq oriq-oriq yer bo‘ladi.

Shu bois, oqtuproq yer bulayga sillasi qurib qoladi. Oqtuproq yer bulayga darmonsiz bo‘lib qoladi.

Oqibat – oqtuproq g‘o‘za eldan burun pishadi.

Oqtuproq g‘o‘za elburutdan ochiladi.

Oppoq-oppoq raqqosa qizlar bo‘ladi. Yalt-yult raqqosa qizlar bo‘ladi.

Raqqosa qizlar ko‘zni oladi. Raqqosa qizlar es-hushni oladi.

Ammo... raqqosa qizlar paxta terolmaydi. Raqqosa qizlar xamir qorolmaydi. Raqqosa qizlar qozon qaynatolmaydi.

Oqtuproq ana shu raqqosa qizlarday bo‘ladi!

Oqtuproq sin-sinbat bo‘ladi, oqtuproqda qut-barakot bo‘lmaydi!

2

G'o'zalarim boshidan kun urdi, ostidan nam urdi.

Oqibat – g'o'zalarim ora-oralari dim-dim bo'ldi. G'o'-zalarim ora-oralari buk-buk bo'ldi.

Bunday vaqtida traktor bilan g'o'za oralab bo'lmaydi.

Traktor ochilmish paxtalarimni chuvalatib-chuvalatib tashlaydi. Traktor ochilajak paxtalarimni to'zg'itib-to'zg'itib tashlaydi. Traktor ko'saklarimni ezib-ezib tashlaydi.

G'o'zalarim orasini shamollatmasam – tag'in bo'lmaydi.

Ko'saklarim dimda pongsib-pongsib qoladi. Ko'saklarim bukda chirib-chirib qoladi. Omon qolmish ko'saklarim ochil-may-ochilmay qoladi.

Men ana shunda birdan-bir yo'ldan bordim – bor dehqon-larim bilan sochilib-sochilib g'o'za oraladim.

G'o'zalarimni qimirlatib-qimirlatib oraladim. G'o'zalarimni turtib-turtib oraladim.

G'o'zalarim shamolladi – ko'saklarim havo oldi.

3

– Sizni Toshkanga uch kunlik ko'rikka jo'nataman, Dehqonqul aka, – dedi raisimiz. – Bir ko'ngilni cherini yoyib kelasiz.

– Qanday ko'rik? – dedim.

– Paxta tergich mashinalar ko'rige bo'lar emish.

– Dalada ish qo'qib yotgan bir vaqtida-ya?

– Endi, siyosat-da, Dehqonqul aka, siyosat.

– Unda, o'zingiz borib kela qoling, rais bova?

– Qani edi, bir sayrlab kelar edim. Kattalar mexaniza-tor-brigadir boradi, deyapti-da.

– Bir odamni ikki bo'ladigan kunda-ya?

– Bari kolxozdan birovdan ilg'or borayapti.

– Men borolmayman, rais bova, borolmayman.

– Do'ppingizni osmonga otsangiz-chi, Dehqonqul aka!

Toshkanni aylanib kelasiz! Yo'l xarajatlaringizni kolxoz to'-laydi!

Ana shunda jonim kirdi!

– Maylingiz, rais bova, – dedim. – Ko‘p qo‘ymadingiz, maylingiz.

– Xo‘-o‘sh, qayta-qayta cho‘miling... Yaxshilab kiyining. Toshkan o‘z oti o‘zi bilan Toshkan. Ust-bosh bordir?

– Bor, yo‘q emas, bor. Lekin barini ohori to‘kilib yotibdi. Shu tevarakda kiysa bo‘ladi.

– Unda, bo‘lmaydi. Siz respublika anjumaniga borayapsiz. Shu, partkomda fason-fason kiyimlar ko‘p. Bir sidrasini olib beraman. Uch kunga yeyilib ketmaydi.

Men ertalab partkom uylab bordim. Dardimni aytdim.

– Xabarim bor, rais aytib edi, – dedi partkom. – Faqat, gard yuqtirmay qaytarib kelasiz!

Partkom shunday deya, ichkaridan bir kamzul-cholvor bilan bir ko‘ylak olib keldi.

– Manavilarni kiying, qani, – dedi.

Men barini bir boshidan kiyib oldim. O‘zimni toshoyna soldim.

O‘ynab qo‘yay, partkom bo‘l-e, dedim, o‘ynabgina qo‘yay, partkomgina bo‘l-e, dedim.

Partkom bo‘ynimga guldor-guldor bo‘yinbog‘ taqib boshladi.

Men partkom qo‘lini shuncha ushладим – bo‘lmadi.

– Tek o‘tiring! – dedi partkom. – Siz poytaxtga tomosha-ga borayotganingiz yo‘q, siz respublika ko‘rigiga borayapsiz! Ko‘rikda katta odamlar bo‘ladi. Sizni ko‘rib kuladi. Galstugi yo‘q – qoloq ekan deydi, madaniyatsiz ekan, deydi.

Bo‘yinbog‘ bo‘ynimni bo‘g‘di.

Men ohista-ohista ih-ih, dedim. Nafasim hir-hir etdi. Nafasim bo‘yinbog‘ tugunida to‘xtab qolmishday bo‘ldi.

Men toqat etolmadim. Bo‘yinbog‘ uchini qo‘shqo‘llab-qo‘shqo‘llab tortdim. Uzib olib otayin, dedim.

– Nimaga muncha tipirchilaysiz? – dedi partkom.

– Manavi... bo‘lmaydi, partkom bova.

– Nimasi bo‘lmaydi, mixday-ku?

- Ishtonboqqa o‘xshab shalvirayapti.
 - E, unday demang! Madaniyatli gapiring!
 - Qo‘yni no‘xtasiga o‘xshayapti, partkom bova.
 - E, bir ishtonbog‘ deysiz, bir no‘xta deysiz! Bu galstuk, yugoslavskiy galstuk! Otliqqa topilmaydi!
 - Buyursin, partkom bova, buyursin. Lekin shuni bo‘y-nimdan oling.
 - Ko‘p gapirmang, mana bo‘lmasa!
- Partkom shunday deya, bo‘yinbog‘ni tortib-tortib qo‘ydi.
Shunda, bo‘ynim picha ozod bo‘ldi. Emin nafas oldim.
Jo‘na-jo‘na kuni bo‘yinbog‘ni tashlab ketaman deya, ni-yatlandim.
- Bo‘Imadi – raisimiz urishib-urishib taqib qo‘ydi.
Raisimiz men Toshkentda o‘zimni qanday tutishimni bot-bot tushuntirdi. Meni mashinada Denov jo‘natdi.
- Tuman qishloq xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i o‘tog‘amiz bo‘ldi.
- O‘tog‘a bizni bosh-adoq qarab ko‘rdi. Bir-bir qarab ko‘rdi.
- Bo‘ladi! – deya bosh irg‘adi.
- O‘tog‘a bo‘yinbog‘imga gumonsirab-gumonsirab qaradi.
Bir ko‘zlarimga qaradi, bir bo‘yinbog‘imga qaradi.
- Men ilkis-ilkis holda qoldim.
- O‘tog‘a, ana endi bo‘yinbog‘imni so‘raydi, dedim. O‘t-
og‘a, ana endi sen bunday bo‘yinbog‘ni qayerdan topding,
deydi, dedim.
- Men apil-tapil oldini oldim.
- Bu meniki emas! – deya, bo‘yinbog‘imni tortqilab-
tortqilab ko‘rsatdim. – Yo‘q, meniki emas! Bu partkomimizniki!
- O‘tog‘a totli-totli kulimsidi. Kulimsib-kulimsib bosh irg‘adi.
- Bilaman, Jamoliddinov, bilaman, – dedi. – Buni part-
komlaringiz tavallud kunida men hadya etib edim. Ko‘zimga
issiq ko‘ringanidan qarayapman.

Men Toshkentda o‘tog‘a bilan o‘rtoq Lenin haykali po-yiga gulchambar qo‘ydim.

Ko‘rik bo‘lgich idora bordim.

Kelim-ketim mo‘l bo‘ldi, o‘ting-o‘ting undan-da mo‘l bo‘ldi.

Men bir burchakni olib o‘tirdim. Qo‘l qovushtirib o‘tirdim. To‘rga qarab o‘tirdim.

To‘rdagilar chapak chalsa, men-da chaldim. To‘rdagilar oyoqqa tursa, men-da turdim.

Men to‘rdan ko‘z uzmanay o‘tirdim.

Shunda, to‘rimda o‘tirmish bir katta ko‘zlarini bet-boshim lo‘q etdi.

Men yuzlarimni devor burib o‘tirdim.

Sag‘aldan so‘g‘in ko‘z qirimda qaradim.

Katta hamon betimdan ko‘z olmadi.

Men yomon holda qoldim. Boshimni tizzam egdim. Oyoqlarim uchiga boqdim.

Men shu ko‘yi tag‘in ohista ko‘z ostimlab-ko‘z ostimlab qaradim. Katta, ko‘zi o‘lgan qo‘yni ko‘ziday-o‘lgan qo‘yni ko‘ziday boqdi.

Men, joyimdan turib ketayin, dedim. Tag‘in, qo‘y, dedim. Kattalar oldida qoqilib ketib sharmanda bo‘lma, dedim.

Kattalar biri qo‘yib, biri so‘zлади.

Bir katta bir nima o‘qib-o‘qib berdi.

Bir katta qo‘l peshlab-qo‘l peshlab e’tiroz bildirdi.

Bir katta yomon bo‘lib qoldi – ko‘ksini changallab-changallab tashqariladi.

Bir katta araz urib-araz urib jo‘nab qoldi.

O‘likko‘z katta hamon bet-boshimdan ko‘z ayirmadi.

O‘ynab qo‘yay, ko‘zlarindan o‘ynab qo‘yay, men Surxonday olisdan keldim, qo‘y, picha odamday o‘tirayin, dedim.

Qani edi, katta lo‘q ko‘zlarini bet-boshimdan olsa, qani edi!

Men muztar bo‘lib-muztar bo‘lib anjuman qaritdim.

Joynishinda:

– Nimalar bo‘layapti-a, katta? – dedim.

O‘tog‘amiz qo‘l siltadi.

– Bari Daqqiyunusdan qolgan gaplar, – dedi. – Men ham bor, shu gaplar ham bor. Bular o‘zi besh-olti guruh. Besh-oltoviyam olg‘ir guruh. Bir-birini yeyman deydi. Aslida, birinchi so‘zlaganlarni gapi juft gap. O‘shalarni mashinasini dalaga chiqarsa bo‘ladi. Ammo ikkinchi guruh yo‘l bermaydi. Chunki ikkinchi guruhn ni ilmiy rahbari martabasi baland odam, o‘zim bo‘lsam deydi. Boshqalarni bo‘lishini xohlamaydi. Ni-maiki yangilik bor, kashfiyat bor – shunga sherik bo‘lgisi keladi. Aslida, qo‘lini sovuq suvgayam urmaydi. Ammo hamma ishda, hamma ro‘yxatda nomim bo‘lsa, deydi. Tayyor oshga egalik qilgisi keladi. Shu sabab, tish- tirmog‘i bilan qarshilik qiladi. Ilmda nima ko‘p – kamchilik ko‘p, bo‘lmasa – topadi! Keyin, gapida turib oladi. Birida ilm zo‘r, birida martaba zo‘r, birida orqa zo‘r. Bular dunyodan ana shunday bir-birini yeb o‘tib ketadi. O‘rtada o‘lgan-o‘lgan – dehqon o‘lgan!

Ertalab mehmonxona oldida uzun bir avtobus bel bo‘ldi.

Avtobus bizni shahardan olis tajriba dalasi olib bordi.

Anjumanda so‘zlamish kattalar-da keldi.

Men o‘likko‘z katta nazari tushmasin deya, o‘zimni chet-chet oldim.

Bir katta dala boshida turmish paxta terish mashinasi oldida gap ochdi.

– Ko‘rikdan maqsad, – dedi katta, – kelajagi bor mashinalarni aniqlash, so‘ngra ularni ommaviy ishlab chiqarishga tavsiya etishdir. Bu juda murakkab masala, yetti o‘lchab bir kesadigan masaladir. Bunda asosan quyidagi uch narsaga e’tibor beriladi. Birinchi – tolani chanoqda qoldirmay terish, ikkinchi – ko‘rak foizi, uchinchi – tolani moslamalar orqa-

li paxtaidishga borib tushishidir. Faqat mana shu talablarga javob bera olgan texnikagina agrotexnika talablariga binoan ommaviy ravishda ishlab chiqariladi. Avvalo, tarixdan bir sahifa. Ma'lumki, birinchi paxta terish mashinasi 1947-yilda yaratilgan. Shundan buyon to'qsondan ziyod paxta terish mashinasi yaratilib, sinab ko'rildi. Ammo birontasiyam hamon talabga javob bermaydi. Shundan buyon izlanayapmiz, ilmiy ishlar qilayapmiz, sinab ko'rayapmiz. Ammo biron-bir ijobiy natijaga erisha olmayapmiz. Intilganga tole yor, deydi xalqimiz. Shunday ekan, ilmiy izlanishda, sinova davom etamiz. Sizlarni ishontirib aytamizki, biz olimlar sizlarga ijobiy natijalar beradigan paxta terish mashinalari yaratib berishga va'da beramiz! Mana, bugun navbatdagi yangi ishlab chiqarilgan mashinalarni sinab ko'ramiz, ular jami o'n yettita. Lekin biz siz aziz dehqonlarning vaqtningizni olmaymiz. Shuning uchun shu o'n yettita mashinaning to'rttasini sinab ko'ramiz.

Sinovchi mexanizator birinchi turmish mashinani egat soldi.

Yangi mashina tozalab terdi. G'o'zani shipshiydamlab terdi. Chanog'ida qoldirmay terdi.

Ammo xom ko'saklarni chaynab-chaynab tashladi. Yulib-yulib tashladi. G'o'zapoyalarni g'ajib-g'ajib tashladi. Tolani ko'k barglar bilan bulg'ab-bulg'ab tashladi.

Katta chaynab tashlanmish ko'saklarni oldi.

– Yangi mashinani ana shu ishi agrotexnika qoidalariga mos kelmaydi, – dedi katta. – Olimlarni endigi vazifasi buni o'ylab ko'rib, bartaraf etishdir. Olimlar mazkur mashina ustida ishlayotganlariga mana, yigirma yil bo'lmoqda. Bu olimlarni ishi shundan iboratki, ular shu vaqtgacha ishlatilib kelinayotgan paxta terish mashinalaridagi urchuq barabanlaridan voz kechish yo'lidagi urinishlardir. Bu loyihani afzalligi shundaki, unda tik tayoqchalar o'matilgan bo'lib, tayoqchalarga qator lappaklar joylashtirilgandir. Xuddi ana shular g'o'za tevaragi-da aylanib, tolani tortib oladi. Ta-ak, endi navbatdagi yangi

mashinani sinovdan o'tkazamiz. Bu mashina ijodkori mashinada o'tirgan olimdir. U kishi hozir o'z mashinasida o'zi mexanizatorlik qiladi. Bu mashinaga ham xuddi haligiday lappaklar o'rmatilgan bo'lib, ammo bunisi bir oz farq qiladi. Bu mashina juda nozik, aniqrog'i, juda bo'sh. Ya'ni, paxtani birchanoq qilib terib ketadi. Tolalar chanoqda chuvalib, dala oppoq bo'lib qoladi. Aniqrog'i, bu mashina chala teradi. Ammo bu moshinaning ham afzal tomonlari bor. Masalan, uni ishlatish oson, qulay. Boshqa mashinalardek, uning urchuqlarini hadeb yuvavermaysiz. Mazkur mashina lappaklarini almashtirib, ko'rak terishda ham foydalansa bo'ladi.

Havokuch yordamida paxta tergich mashina sinab ko'rildi.

Havoyutgich moslamada paxta tergich mashina sinovi bo'ldi.

– Ko'rib turibsizki, – dedi katta, – yangi mashinalarni birontasi ham shu kunlarda dalada paxta terayotgan mashinalarg'a tenglasha olmaydi. O'sha mashinalardan qolmanglar!

Kattalar davra olib talashib-tortishdi. Go'yo, kimo'zar o'ynadi.

Bilsam – qirqinchi yillarni o'rtalarida Rozenblyum dekich ixtirochi mashinaga urchuq qo'yib, paxta terishni o'ylab topibdi. Shundan buyon urchuq bilan paxta terish joriy bo'libdi. Shundan buyon paxtani shu urchuqlar terar ekan. Shu vaqt mobaynida urchuqlardan bir necha marta voz kechmoqchi bo'libdi. Ammo urchuq o'mini bosa oladigan texnika topa olmabdi. Yuzdan ziyod... paxta terish mashinasi haqida yuzdan ziyod dissertatsiya yaratilibdi! To'qson kishi fan nomzodi bo'lib, to'qqiz kishi fan doktori bo'libdi! Ikkita akademik saylanibdi. Ammo mashina hamon o'sha-o'sha – qirqinchi yillarda Rozenblyum yaratgan mashina emish! Yana-tag'in – bari dissertatsiyalar ayni ana shu urchuqlar haqida emish! Kattalar uyalmay-netmay aytib o'tiribdi:

– Urchuq eskirib qoldi.

– Ammo boshqa texnika yo'q-da.

– Qo'yavering, amerikaliklar ham urchuqlar bilan paxta termoqda.

– To'g'ri, ammo ular paxta terish mashinalarini yil sayin takomillashtirib bormoqda. Masalan, Amerikaning „Jon Dir“ firmasida ishlab chiqilayotgan paxta terish mashinalari keyingi yigirma yil mobaynida o'zining paxtani ko'p va tez terish xususiyati bilan bizni mashinalardan bir yarim baravar o'zib ketdi.

– Bizda esa paxta hamon qo'lida terilmoqda.

Paxta tergich mashina yaratgich kattalar nima fikrga kel-dilar?

– Biz yaratgan mashinalar yomon ishlayotgani uchun eng avvalo, nav yaratuvchilar aybdor! – dedi bir katta. – Nav yaratuvchilar bizning mashinalarbop paxta navi yaratib ber-mayaptilar. Yangi mashina kerakmi? Demak, yangi paxta navi ham kerak. Yangi paxta navi qanday bo'lmog'i kerak? Yangi paxta o'rta bo'yli, xipchadan kelgan bo'lmog'i kerak!

7

Avtobusda mehmonxona kelgunimchayin o'yladim.

Odamzot Gagarin bo'lib Oy uchdi. Odamzot Oydan tosh olib keldi.

Ammo... dehqon og'irini yengil qilajak paxta terish ma-shinasi yaratilmadi!

Odamzot yuragi joyiga o'zga yurak joylashtirildi. Odam-zot yuragi almashtirildi!

Ammo... urchuq almashmadi! Shugina urchuq o'rni uchun bir texnika o'ylab topib bo'lmadi!

Dehqon ko'nglidagiday bir paxta tergich mashina yara-tilmadi!

8

Avtobus bizni katta yo'l chetida tashlab ketdi.

Men o'ngimga alang-jalang lo'killadim. Men chapimga alang-jalang lo'killadim.

– Madaniyat uyi qayerda-qayerda?... – dedim.

– Shatta-shatta! – dedi bir yo‘lovchi chol.

Chol ko‘rsatmis imoratni ko‘zlab bordim. Imorat chindan-da madaniyat uyi bo‘ldi.

Men tag‘in lo‘killadim. Oxir madaniyat uyini topdim. Ichim ilidi.

– Xudoga shukur-e, haqiqat bor ekan-e! – dedim. Yo‘l-yo‘lakay qayishimni yechib-yechib ichkariladim.

Shunday ichkarilashimni bilaman – bir qiy-chuv bo‘ldi, bir qiy-chuv bo‘ldi-e!

Misoli yerdan chiqmishday besh-oltita ayol bo‘y berdi! Bari ayol qo‘zigorin misol oppoq-oppoq bo‘ldi!

– Что за баран?! – deya baqirdi.

Men bir qo‘lim bilan qayishimni ushladim, bir qo‘lim bilan betimni ushladim.

– Ay, o‘ldim-ay! – deya shahd burildim.

Ketimdan bir mallasoch ayol quvib keldi. Xaltachasi bilan yelkam oralatib urdi.

– Ух, ты баран! – deya urdi.

Bir tarafdan erkaklar chiqib keldi. Erkaklar orasida bir melisa-da bo‘ldi.

– Ko‘z bormi, oka? – dedi melisa.

– Bor-bor! – dedim.

– Ko‘z bo‘lsa shunday qilasizmi? Ana – „M“, „J“, deb yozib qo‘yibdi-yu? Yo, xat-savod yo‘qmi? Ana endi ellik so‘m jarima to‘laysiz!

Bildim – ish chatoq bo‘ldi. Bir befarosat qadamim tufayli ellik so‘m ketar bo‘ldi.

Ellik so‘m-a, ellik so‘m!

Bir mehnat kuni uch so‘m o‘ttiz yetti tiyin turadi. Ellik so‘m topishim uchun o‘n besh mehnat kuni bajarishim lozim bo‘ladi.

Endi, bola-baqrani nasibasini omon olib borayin. Ellik so‘mga kim qancha qozon qaynaydi?

– Xat-savod bor! – dedim. – Ana shu „M“, „J“ larni o‘qib ko‘rib kirdim! Mana shunday kelib o‘qidim: „M“ – mar-

jalarniki bo‘ldi. „J“ – jigitlarniki bo‘ldi. Xudoga shukur, jigmat! Jigitlarnikiga kirib keta berdim!

– Yopiray, yopiray! – deya yoqa ushladi melisa.

– Yopirayi bo‘ptimi! – dedim. – Shaharda bor xat-savod, qishloqda-da bor!

Men betimni qalini – jonimni huzuri, deya sur bo‘lib-sur bo‘lib tura berdim.

Melisa yo olachipor betimni ko‘rib rahmi keldi, yo shu ko‘rsavod bilan aytishib o‘tiramanmi, dedi.

– E, boring-e! – deya jerkib tashladi. – Qattan kelgan bo‘lsayiz, o‘shatga gumdon bo‘ling-e!

– Gumdon bo‘lamiz! – deya ko‘krak ko‘tardim. – Biz shahrингизга musofirmiz! Gumdon bo‘l, desangiz – bo‘la beramiz!

Mallasoch ayol suvdan quruq chiqishimni bilib qoldi. Tag‘in xaltachasi bilan urib qoldi.

Men lik etib melisani ketiga o‘tib oldim. Melisani yelkasi osha qaradim.

– O‘-o‘, marja! – dedim. – Sovetni badrabxonasini ko‘p qizg‘ana berma! Sovetni badrabxonasi senga-da yetadi, men-ga-da yetadi!

Ayollar oldida men haq-men haq, maqomda qadamladim. Zafarona-zafarona qadamladim.

Ayollardan pana bo‘lishim bilan yulduz uchmishday-yulduz uchmishday chopib-chopib qo‘ya berdim!

9

– Otingni sot, molingni sot, mash’al bo‘l-da! – dedi rai-simiz.

– O‘ynab qo‘yay, o‘ynab qo‘yay! – dedim men. – Tag‘in kim kelayapti?

Raisimiz shahodat barmog‘ini yuksak ko‘tardi.

– Shoirlar! – deya xitoblandi. – Ana endi reportaj bo‘la-siz, ocherk bo‘lasiz!

– O‘ynab qo‘yay, mehmondan, o‘ynab qo‘yay!

— Kassirdan pul olib bozorlang. Bir qo'y, uch-to'rtta aroq...

Shoirlar choshgohda keldi.

Shoirlar o'qariq yoqalab ohista-ohista odimladi. Shoirlar dalalar uzra nazar tashlab-nazar tashlab odimladi. Shoirlar dalalar uzra qo'l shop qilib-qo'l shop qilib odimladi.

— Paxtazor – chaqqon qo'llarga intizor! – deya xitoblanib odimladi.

— Paxtazor – paxta frontining mexanizatsiyalashgan qo'shinlariga intizor! – deya xitoblanib odimladi.

Ideologiya bilan raisimiz shoirlar ketidan ergashib yurdi.

Shoirlar o'qariq adog'ida oyoq ildi.

Shoirlar oyoqlibos qoqdi. Shoirlar cholvor qoqdi. Shoirlar ko'yvak pufadi.

Shoirlar biznikiga yo'l oldi.

Kayf-safo avj oldi.

Shoirlar o'zlarini o'zlar maqtab ichdi. Shoirlar o'zlarini o'zlar ulug'lab ichdi.

Kosagul shoir piyola to'la aroqni bir ko'tarishda yutdi. Gazagiga ana shu piyolani chertib-chertib xirgoyi etdi:

Yurtim shunday bir diyorki

Nurxona-yu – nurxona

Durxona-yu – durxona

Gulxona-yu – gulxona...

— O'rtoq Dehqoni! – deb qoldi bir mahal.

Men sergak bo'ldim. Men alang-jalang bo'ldim. Men o'z-o'zimdan uyaldim.

— Unday demang-e, domla, unday demang-e, – dedim.

— Iya, nega demayman? Dehqonni Dehqoniy deydi-da!

— Men shoir bo'lsam ekan – shundaychikin desangiz.

Men bir dehqon odam bo'lsam. Shunday ekan, Dehqonqul deya bering.

— Qul? Sho'ro zamonida qul yo'q! Bo'lishi ham mumkin emas! Ulug' Oktabr sotsialistik revolyutsiyasi barcha qullik-larga barham bergen!

– Ha! – deya kesak olib berdi Ideologiya. – Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolyutsiyasi planetamizning sotsial-siyosiy qiyofasini tubdan o‘zgartirib yubordi, kishining kishi tomonidan ezilishiga va ekspluatatsiya qilinishiga asoslangan butun jahon sistemasiga 1917-yil oktabrida qaqshatqich zarba berildi, jahonda birinchi sotsialistik davlatning tashkil topishi jahon tarixining yangi davrini boshlab berdi, chor Rossiyasida aholining to‘rtadan-uch qismi qishloq xo‘jaligida band edi, endilikda mehnatga qobiliyatli aholining uchdan bir qismidan kamrog‘i qishloq xo‘jaligida mehnat qilmoqda, o‘tmishda savod-siz bo‘lgan, pomeshchik tomonidan xo‘rlanib kelgan dehqon endilikda o‘z xo‘jaligining ozod egasi bo‘lib oldi, abadiy foy-dalanish uchun kolxozlarga berib qo‘ylgan yerlarda mehnat qilmoqda, kooperativning boshqa a’zolari bilan bирgalikda kollektiv mehnat samaralarini taqsimlab olmoqda, uning oila a’zolari sotsialistik tuzum bergen barcha madaniyat ne’matlaridan bahramand bo‘lmoqda, Sovet hokimiyati yillari mobaynida dehqonlarning real daromadlari oshmoqda...

– Endi, domla, ota-enamiz shundayin ot qo‘yib edi-da.

– Domla? Qanaqa domla? – dedi kosagul shoir. – Domla machit-madrasalarda bo‘ladi! Biz sotsialistik xalq shoirlarimiz!

– Tavba qildim! – deya qo‘limni ko‘ksimga qo‘ydim. – Mayli, bilganingizday deya bering.

– Ha, ana, bu boshqa gap! – dedi kosagul shoir. – Ana shunday ketsangiz, shubhasiz, o‘sasiz! Xo‘-o‘sh, o‘rtoq Dehqoni, mana bu yonimdagи zotni taniyapsizmi?

– Yo‘q, – deya bosh chayqadim.

– Bu zotni tanimabsiz – dunyoni tanimabsiz! Bu zot zamonomizning buyuk adibi bo‘ladilar. „Bo‘ri izidan“ degan romanni o‘qigandirsiz?

– „Bo‘ri izidan“, „Bo‘ri izidan“...

Men shunday deya, chapimga qarab ko‘z pirpiratdim. Men shunday deya, o‘ngimga qarab ko‘z pirpiratdim. Men shunday deya, osmonga qarab ko‘z pirpiratdim.

Men o'qidim, deyin dedim – yolg'on bo'ldi. Men o'qimadim, deyin dedim – Ideologiya ko'z qisdi.

Ideologiya o'qidim, deb ayt-o'qidim, deb ayt, deya ko'z qisa berdi.

– „Bo'ri izidan“, „Bo'ri izidan“... – deya tag'in ming'-ming' etdim. – E, ha, ov haqida edi-a?

Ana shunda buyuk adibni o'zлari gap berdi.

– Da, ov haqida! – dedi hokimona. – Qashqir ovi haqida!

– Esladim-esladim! – deya bosh irg'adim. – Endi esladim. Picha xayolimdan ko'tarilibdi. Ovga qiziqmagandan keyin shu-da.

– Nu-u, ovga qiziqmaydigan odam ham bo'ladimi?

– Qiziqqanim bilan, dalamizda bo'ri yo'q-da, ov qilayin desam.

– Nu-nu, bo'ri yo'q!.. Bir vaqtlar bu dalalar bo'rilar makoni edi, bo'rilar makoni!

– Bo'rilar makoni? – deya angraydim.

– Da, bu dalalar bo'rilar makoni edi!

Men dalalarimda ilon ko'rdim, chayon ko'rdim, tulki ko'rdim. Ammo bo'ri ko'rmadim.

– Mana shu dalalar-a? – dedim.

– Da, bu dalalar bo'rilar uyasi edi, bo'rilar uyasi!

– Shunday-ya? – dedim.

– Da-da, bu dalalarda bo'ri galalari to'da-to'da bo'lib izg'ib yurar edi!

– Yo'g'-e? – dedim.

– Da-da, bu dalalarda yirtqich bo'rilar uvillab-uvillab daydib yurar edi!

Men nima deyishimni bilmadim.

– Bo'ri o'z uyasidan olislab ketmaydi, deyishadi, – dedim. – Unda gala-gala bo'ri qayoqqa ketadi?

– Sho'ro hukumati qirib tashladi! Mana bunday paqpaq otib qirib tashladi! Sho'ro hukumati ikki milliontacha yirtqich bo'rini ana shunday qirib tashladi! O-o-o, Sho'ro hukumati bo'lmasa, bu dalalarda dehqonchilik qilish qayoqda

edi? O-o-o, Sho'ro hukumati bo'lmasa, bu dalalarda dehqon qayoqda edi?

– Ha! – deya yana kesak olib berdi Ideologiya. – Sovet Ittifoqida sotsializmning g'alaba qilishi natijasida ekspluatator sinflar tugatildi va kishining kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga barham berildi, ishsizlik va qashshoqlik yo'q qilindi, mehnatkashlarning moddiy va madaniy farovonligi yil sayin o'sib bordi, milliy zulmni keltirib chiqargan va xalqlar orasida bir-biriga ishonmaslikni kuchaytirib kelgan ekspluatator sinflarning tugatilishi, Sovet hokimiyati tomonidan SSSRdagi barcha xalqlar o'rtasida haqiqiy tenglikni yuzaga chiqarishga qaratilgan leninchcha milliy siyosatning amalga oshirilayotganligi, ayrim millatlarning xo'jalik, siyosiy va madaniy jihatdan o'tmishdan meros bo'lib qolgan qoloqligini yo'q qilishda rus xalqining sistemali suratda yordam berib kelayotganligi natijasida sovet qishlog'i hayotida juda katta o'zgarishlar yuz berdi, sotsialistik qishloq xo'jalingining ekonomikasini mustahkamlash negizida kolxozchi dehqonlarning moddiy farovonligi oshdi, qishloq hayoti shahar hayoti bilan tenglashdi, shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovut yo'qoldi...

– Mana bu yonimda o'tirgan zot barcha davrlar va barcha xalqlar adibidir, – dedi kosag'ul shoir. – „Samarqand osmonida yulduzlar“ romanı muallifi bo'ladi.

– „Samarqand osmonida yulduzlar“...

Buyuk adib gapimni ilib oldi.

– „Samarqand osmonida yulduzlar“ romanida ham yirtqich qashqirlar hayoti qalamga olinadi, – dedi. – Faqat unda qadim-qadimgi qashqirlar tasvirlanadi. Farqimiz – u kishi nuql tarixiy qashqirlar... nuql tarixiy qashqirlar hayotiga murojaat qiladi, xolos...

Shoirlar jo'na-jo'na bo'ldi.

– Siz idoragacha yuring, ish bor, – dedi raisimiz. Shoirlar mashina ket o'rindig'ida joylashdi.

Men raisimiz imosi bilan haydovchi qabatidan joy oldim.

Mashina Sayrak qishlog‘i yoqalab yurdi-yurdi – Aqrab shahid qoralab keldi.

Haydovchi mashinani ohistalatdi. Chap qo‘lida mashina boshqardi. O‘ng qo‘lini yuzlari aro ko‘tardi. Aqrab shahidga qarab pichir-pichir fotiha o‘qidi. O‘ng kaftini yuzlariga surtdi.

Men haydovchiga qo‘silib fotiha o‘qidim.

– Tanho mozorda yotgan zot kim bo‘ldi? – dedi buyuk adib.

Men: otamiz, deyish uchun og‘iz juftlab edim – raisimiz og‘zimdan gapimni ilib oldi.

– U zot urush qahramoni! – dedi raisimiz.

– Urush qahramoni? Qanaqa urush? – dedi barcha xalqlar adibi.

– Ulug‘ Vatan urushi qahramoni! – dedi raisimiz.

– O-o-o, Ulug‘ Vatan urushi qahramoni! – deya xitoblandi buyuk adib. – Ocherk yozib, nomini abadiylashtirish kerak edi!

– Hali ham kech emas, – dedi barcha xalqlar adibi. – Adham Rahmatga aytamiz, kelib yozib ketadi.

– Adham Rahmat bo‘lishi shart emas, – dedi raisimiz. – Toshkanda qahramonni yozuvchi jiyani bor. Shu jiyani yossa-da bo‘ladi.

– Yozuvchi? Kim deydi? – dedi kosagul shoir.

– Tog‘ay Murod, deydi.

– Tog‘ay Murod? Tog‘ay Murodni bilamiz! – dedi kosagul shoir. – O-o, Tog‘ay Murod Xudoni balosi u, Xudoginani balosi u!

– Jiyan tog‘aga tortadi-da! – dedi raisimiz.

Ideologiya kerma qosh bo‘ldi. Ideologiya lab burdi.

– Ulug‘ Vatan urushi qahramoni... Ulug‘ Vatan urushi qahramoni... – deya o‘ylandi Ideologiya. – Shunday odam vafot etadi, nega men bilmayman, o‘rtoq rais? Bu voqeа qachon bo‘lib o‘tdi?

– O‘tgan besh yilliklarda bo‘lib o‘tib ketdi, – dedi raisimiz.

– A-a, vot kak! – dedi Ideologiya. – Men unda Moskvada o‘qishda edim!

10

Bir haftadan keyin supraday bir ro‘znomada mana bunday maqola o‘qidim:

YOZUVCHILAR PAXTA DALALARIDA OPPOQ TONG YULDUZLARI

Tong kiprik qoqmoqda. Bobotog‘ cho‘qqilarida osmon oqarib ko‘rimoqda. Ona quyosh dastlab qaldirg‘och qanotiga o‘xshab ko‘rinadi-da, zum o‘tmay tog‘ning yassi cho‘q-qisida qip-qizil mis tovoqday tovlanib, vohaga ajib bir zar to‘kadi. Hur, baxtiyor kun boshlanadi.

Shu lahzada Xursandoy bilan Norguloy so‘qmoq yoqalab borishmoqda. Ular bugun Jarariq anhor bo‘yida „oq oltin“ terishadi. So‘lim, suluv Jarariq anhori! Anhor bo‘yida „oq oltin“ terish naqadar gashtli! Yana-tag‘in o‘n kunlikning oxiri. Bir yuz qirq uch kilogrammdan paxta terishsa, jami besh tonnaga yetadi. Dugonalar kecha oqshom maslahatlashib olishgan. Xursandoy birinchi egatga tushadi. Norguloy uni yonlab tushadi.

Paxta yuzini shudring bosgan, qo‘l tegsa, yomg‘ir yoq-qanday duv etib to‘kiladi, qo‘l jiqqa ho‘l bo‘ladi.

– *Xursandoy, shudringning yaltirashini qara, xuddi yomg‘ir yoqqanday-a, – dedi Norguloy.*

– *Bahor, misoli so‘lim bahor!*

Xursandoy shunday deb, Norguloyga bir nima uzatdi.

– *Dugonajon, manavi atirdan sepib oling, chivin chaq-maydi.*

– *Voy, bu nima?*

– *Fransuz atiri.*

– *Rahmat, dugonajon, rahmat, dalaga fransuz atiriym bo‘laveradi.*

Brigadir Dehqonqul aka bizning iltimosimizga binoan ikkita dala yulduzini, ikkita tong yulduzini bir-ikki daqiqaga olib qoldi. Biz dala yulduzlari bilan suhbatda bo'ldik.

– Hormang endi, ona qizlarim!

– Salomat bo'ling, – javob berdi dala yulduzlari lablarida tabassum o'ynab.

– O, yaxshi, yaxshi! Turmush sharoitlaringiz qalay, qiyalmayapsizlarmi o'zi?

– Qiynalish qayoqda, hamma narsa yetarli. Uylarimizda gaz, radio, televizor bor. Har kuni kechqurun kolxoz klubida kino ko'rib turamiz. Biz paxtakorlar uchun hamma narsa muhayyo! – dedi qizlar baxtiyorlarcha.

– Paxta terish qiyin emasmi?

Qizlar yuzlarida baxt va shodlik o'ynab, o'zlarining dil so'zlarini izhor etdi:

– Paxta terishning nimasi qiyin? Paxta terish gul terishday gap! „Oq oltin“lar lo'ppi-lo'ppi bo'lib, bizga tabassum bilan termulib turadi. Biz avaylabgina olib, etagimizga solamiz!

– O, poeziya, poeziya!

– Paxta terish gul terishdan oson! Gulning tikani bor, avaylamasa bo'lmaydi. Paxtaning esa tikani yo'q, shundaygina kaftimizga olib, etakka solamiz-ko'yamiz, vassalom. Qaytanga kaftimizga momiqqina tegib, jonimizga huzur bag'ishlaydi, rohat bag'ishlaydi.

– Kaftimizga momiqqina tegib... Ana o'xshatish! Shoir bo'lib keting-e!

– Biz paxtani yayrab, havas bilan, zavq-shavq bilan teramiz! Chunki paxta iftixorimiz!

– Ofarin, qizim, ofarin! Ana falsafa-yu, mana falsafa! Biz falsafani siz qo'li gul dala yulduzlaridan o'rghanishimiz kerak! Xo'p, ona qizlarim, ishlaringizga muvaffaqiyatlar tilaymiz! Vaqtlariningizni olganimiz uchun kechirim so'raymiz!

Dala yulduzlari dala sari yelib ketdi. Ha, yulduzlar shoshilmoqda, ha, oppoq dalaga talpinmoqda.

Dala yulduzlari tushgacha yuz kilodan oshirib „oq oltin“ terib xirmonga to‘kib, tolzor og‘ushidagi dala shiyponiga keldi. Yulduzlar tushlik qilib, madaniy hordiq chiqardi.

– *Dalada yurganlar tushlik qilmaydimi? – so‘radik biz brigadirdan.*

– *Ular mana bu madaniy hordiq chiqarayotgan ilg‘orlar bilan sotsialistik musobaqa o‘ynagan, – dedi brigadir g‘urur bilan. – Ilg‘orlarga yetib olaylik deb, tush vaqtidayam paxta teradi, ilg‘orlarning dam olib o‘tirganidan foydalanadi. Tadbirkor, serg‘urur qizlar-da! Ro‘mollarining uchida noni bor, shuni yo‘l-yo‘lakay tishlab yeb, paxta teraveradi.*

– *O, ana buni chinakam mehnatsevarlik desa bo‘ladi!*

– *Dala mehri!*

– *Paxta ishqil!*

– *Vatanga fidokorlik!*

Shu payt kolxoz agitmashinasini shiypon oldiga kelib to‘xtadi. Radiokarnaydan kolxoz agitatori Javlonboy aka-ning jarangdor ovozi yangradi:

– *Terim ilg‘orlariga shon-sharaflar! Aziz terimchilar, yarim kunda yuz kilogrammdan „oq oltin“ terib, el xirmoniga to‘kkani Xursandoy bilan Norguloyga tenglashningiz! Hozir eshittiriladigan „Baxt yallasi“ ana shu ikki ilg‘or dugona-ning bugungi yutug‘iga bizning olqishimiz bo‘ladi! Diqqat, „Baxt yallasi“!*

Baxtiyorlar o‘lkasi bu – yayrashing, o‘ynang, kuling,

Bulbuligo ‘yo bo‘lib, xo‘p sayrashing, quvnang, kuling,

Ter to‘kib sizlar shu yurtda bundanam baxtli bo‘ling...

Baxt yallasidan horg‘in ko‘zlar tiniqlashdi, bellarga, qo‘llarga quvvat kirdi, oyoqlarga darmon kirdi.

Dala yulduzlari baxt yallasi qanotida yana dalalar sari yelib ketdi.

Biz ulkan to‘yxonani eslatuvchi paxtazor qo‘ynidan olam-olam zavq ila, quvonch ila qaytar ekanmiz, quloqlarimiz ostida hamon „Baxt yallasi“ jaranglab turdi:

Baxtiyorlar o‘lkasi bu...

*Ufqda porloq kelajakdan darak berib, quyosh qizarib
botmoqda...*

*Sergey BORODIN,
Mixail SHEVERDIN,
Komil YASHIN.*

11

Umrda shunday kun bo'ladi: odam birdan aynib qoladi!
Ko'ngilga qil sig'maydi. Ko'ngil bir xijil bo'ladi, bir lanj
bo'ladi.

Ko'ngilni nimadir bir nima barmoq botirib-barmoq bo-
tirib tirnaydi.

Ko'ngilni bir hadik bosib keladi. Ko'ngil tub-tubi nimadir
bir nima bo'ladi, deydi.

Hadic yuzlarga o'tadi. Hadic qoboqlarga o'tadi.

Chap qoboq pir-pir uchadi.

Kaft chap qoboq silab-siypaydi.

Lablar qoboq silamish kaftni cho'lp-cho'lp o'padi.
– Ket, bor, ket!..

Odam o'zicha ana shunday hadik quvmish bo'ladi.

12

Ko'zimga dala-da ko'rinnadi. Ko'zimga paxta-da ko'rinn-
madi.

Mototsiklim bilan qishloq uchdim. Darvozamizdan yelib
ichkariladim. Shunda, dimog'imga qo'lansa bir is keldi. Hov-
li yuzida satillar dumalab yotdi. Bidonlar yumalab yotdi.

Mayda-mayda ko'lmak suvlar yilt-yilt etdi. Qop-qora
kuyalar sochila-sochila o'ynadi. Qo'lansa is haminqadar an-
qidi. Bir yerda latta kuyayapti, deya o'yladim.

– Ay!.. – dedim.

Ichkaridan Oysuluv qizimiz chiqib keldi.

– Sen emas, enang qani? – dedim.

Qizimiz ho'ngillab yig'ladi. Yumalab yotmish bidon
o'tirib yig'ladi. Yuzlarini kaftlari bilan yashirib yig'ladi..

Hadahalab qizimiz oldiga bordim. Yuzini o‘zimga qaratdim.

– Nima qildi, ayt? – dedim. – Enang qani?

Qizimiz gapirmadi, qo‘li bilan tuman tarafni ko‘rsatdi.

Achchiq bilan qizimizni yelkalaridan dast ko‘tarib oldim.

– Senga aytayapman, tiling bormi?! Enang qani dcyapman?!

Qizimiz o‘pkasini bosolmayin aytdi:

– Enam o‘ziga o‘t qo‘yib yubordi.

Nima-nima?! Qayerda-qayerda?!

– Tuman olib ketdi.

– Momong qani?!

– Momom enam bilan ketdi.

13

Men mototsiklimni yo‘l-yo‘lakay o‘t oldirib uchdim.
Tezlikni oxirigacha bosdim.

Men qanday yetib keldim – Xudo bilmasa, men bilmadim.

Mototsiklimni kasalxonada darvozasi oldida qoldirdim. Ichkarilab chopdim.

Qabulxonada odam mo‘l bo‘ldi. Birov kasalxona kiyimida bo‘ldi. Birov ko‘cha-ko‘y kiyimida bo‘ldi.

Men dardimni tuynukdan aytdim.

Oq xalatli yigit bosh irg‘adi.

– Bilaman, olib keldi, bilaman, – dedi.

– Ichkari kiraman, – dedim.

– Yo‘q, mumkin emas.

– Men... men xo‘jayini bo‘laman.

– Qat’iy nazar, bemorga hozir tez yordam ko‘rsatilmoqda.

U dedim, bo‘lmadi, bu dedim, bo‘lmadi.

– Bo‘lmasa, momoni chaqirib bering? – dedim.

– U kim?

– Bizni enamiz.

— Ha-ha, yonida bir kampir bor edi, o'sha-da? Bu mumkin!

Qabulxonada bari-bari menga qaradi.

Birov achinib qaradi. Birov qayg'urib qaradi.

Birov bosh chayqadi. Birov bosh irg'adi.

Qabulxonada pichir-pichir boshlandi.

— Erkagi ekan, sho'rpeshonani erkagi ekan.

— Hay, bechora-e, bechora.

— E, tavba-ye, tumanda bir oyda to'rtta shunday ko'rgilik bo'ldi-a?

— To'rtov bo'ldimi-a?

— Esa-chi, Jobida birov, Mo'minqulda birov, Sayrakda birov, bunisi bilan to'rtov.

— Qanday zamon bo'ldi-a?

— Oldinlariyam ko'p bo'lib edi, bildirishmadi. Endi bildirishayapti.

— Ko'rasisiz, hali shuniyam bosdi-bosdi etadilar.

— U-ku, chin. Oldingi to'rttasiniyam bosdi-bosdi etdilar.

Oyday-kunday ko'riniq turgan kuyikni qaytib bosdi-bosdi etadilar?

— Eb-e, jo'qchi desa, jo'qchi deguliksan-da, eb-e. Kattalarni oldida oqni qora deyish nima degan gap...

Oq xalatli yigit telefonda birov bilan gapishtadi.

— Bir chetga? Bo'pti, bir chetga, bo'pti, — dedi.

Yigit bilagimdan ushlab hovli yetakladi. Qo'li bilan bir chetni — quyuq daraxtlar ostini ko'rsatdi.

— Ana o'sha o'tirg'ichga borib o'tirib turing, kampirni hozir yuboraman, — dedi. — Shovqin-suron qilmay, tinchgina o'tiringlar.

— Kim shovqin qilayapti?

— Siz emas, kampir shunday ekan. Kampir kelganda shunday baqirib-chaqirdi, shunday shovqin-suron qildi, kasalxonani boshiga ko'tardi! Shunga, bosh vrachimiz shovqin qilmasin, chetroqda gaplashsin, deyapti. Endi siz erkak odamsiz, kampirga aytib qo'yasiz-da.

Men yigit aytmish xilvat borib o'tirdim. Oyoq uzatib o'tirdim.

14

Sag'al o'tdi – onamiz paypanglay-paypanglay keldi.

Onamiz rangida rang bo'lmadi. Onamiz ko'zлari shish-shish bo'ldi. Onamiz burunlari oqib-oqib yotdi.

Onamiz qabatimdan joy oldi. Doka ro'moli bilan og'zini ushlab... sel-sebor yig'ladi.

– Ko'rgililing ko'p bo'lsin, sendaychikin erkakni! – dedi.

– Eb-e, men sizga nima qildim?

– Qichqirganimdan chopcha kelsang, o'larmiding!

– Qachon? Eshitganim yo'q, Xudo ursin agar, eshitganim yo'q!

– Qancha qichqirdim, tom-toshni boshimga ko'tardim, hovlini boshimga ko'tardim. Dehqonqul-a, kela ber-chi kela ber, deb qichqirdim.

– Eshitganim yo'q, it bo'layin agar, eshitganim yo'q!

– El-xalqim, kela ber-chi kela ber, deb baqirdim. Qani, birovgina jonzot ovoz bersa, oting nima desa!

– Bari menga o'xshab dalada yurgan-da?

– Ha, dalang bilan qo'shilib chalpak bo'lgin, chalpakkina bo'lgin! Ha, dalang bilan qo'shilib qo'shmozor bo'lgin, qo'shmozorgina bo'lgin! Shu ayolga bir nima bo'lsin qani, men seni nima qilaman ekan!

– O'zi, nima bo'ldi, aytin qanikayin?

– Ochiq mozor bo'ldi, ochiq lahad bo'ldi!

– Ko'p baqirmang-e, ena, tevarak-boshdan-da uyatdir.

– Ichkarida jondaygina kelnim kuyib yotadi-da, men baqirmay kim baqiradi?!

– Xo'p, nima bo'ldi o'zi? Bir boshidan aytin qanikayin?

– Bir qaradim: kelin ichkarida beshikka bag'tini berib o'tirdi. Bolasiga emchak berdi. Peshonasini beshik tebrat-gich qo'yib uxladi. Ay, kelin, bo'l, dedim. Mayli, hozir, dedi. So'g'in hujramga kirib ketdim. Kelindan hadeganda darak

bo'la bermadi. Ikki qaradim: ay, kelin, bo'l, dedim. Mayli, manavini emizib bo'layin, mayli, dedi. Bir og'iz qattiq-quruq gapirgan bo'lsam, o'layin agar, o'libgina ketayin, agar! Qaradim-qaradim: kelin qimirlamadi. Bor-e, dedim, bu dunyomdan u dunyom yaqin bo'lsa, menga nima, dedim. Hujramga kirib yotib oldim. Yotib-yotib, ko'zim ketdi. Bir mahal, oynadan birov qaradi. Men ko'zimni bilinar-bilinmas ochib turdim. Kelin oynadan mo'raladi. Kaftlarini oyna tutib mo'raladi. Men o'zimni uxlamishga olib yotdim. Kelin oynadan mo'raladi-mo'raladi... ketdi. Endi dalaga hayallab-hayallab boradi, eridan ko'r bo'lib gap eshitadi, dedim. Kelin shu ketishida oshxonaga boribdi. Gap yo'q, so'z yo'q, burchakda turgan yermoyini olib-di-da, yelkasidan quyibdi.

- Yelkasidan quyibdi? Yermoyini-ya?
- Yermoyini-da, yelkasidan-da! So'g'in, ko'yagli etagidan gugurt chaqibdi.
- O'zi chaqibdimi?
- Bo'lmasa kim chaqadi, o'zi-da.
- Chopib bormadingizmi?
- Eb-e, tush bilibmanmi, o't qo'yishini!
- Yo, tavba, yo, tavbangdan...
- Bir mahal, chirillagan ovoz eshitdim. Avval-avval, nima emish, dedim. Shu yaqinda birov-yarimni eri urayapti-yov, dedim. Hadahalab joyimdan turdim. Oynadan tashqari qaradim. Qarasam: hovlida bir o't yonayapti. O't bo'lib o't emas, kun bo'lib kun emas! O't, deyin dedim – shu vaqtida o't nima qiladi, dedim. Kelin tandir qizitayapti, deyin dedim – kecha tandir qizitib, non yopib olib edi-ku, dedim. Bir mahal o't chinqirib qo'ya berdi! Tavba dedim, o't ham chinqiradimi, dedim. Umrim o'tib, chinqirib yongich o't ko'rmab edim-ku, dedim. Bir mahal, o't hovlini aylanib chopdi! Men tashqari otolib chiqdim, Qarab turdim: o't hovlida zir-zir aylanib chopdi! O't chinqirib-chinqirib chopdi! O't buralib-buralib chopdi! O't o'ynab-o'ynab chopdi! O't eshilib-eshilib chopdi! Men ovoz qo'yib chiriq berdim. Seni yo'qlab chiriq ber-

dim. El-xalqim kela ber, deb chaqiriq berdim. Chiriq bera-chiriq bera – o’tni oldimga solib quvib qo‘ya berdim! Hovlini aylantirib o’t quvaman-o’t quvaman – qani endi, yetolsam! O’tni yetolmadim! Bir-ikki marta yetaman-yetaman dedim ag‘nab tushdim. Bellarim zirqirab og‘ridi. Joyimdan turolmay qoldim, yotgan yerimda: el-xalqim, qayerdasan, el-xalqim, kela ber, deb baqira berdim. Bir balo qilib joyimdan to‘rkadim. Tag‘in o’t quvib ketdim. O’t o‘zini devor olib borib urdi! O’t o‘zini daraxt olib borib urdi! So‘g‘in, o’t o‘zini... buzoqni ostiga otdi! Buzoq qoziq aylanib-qoziq aylanib qochdi. Ma’rab-ma’rab qochdi. O’t lop etib to‘rkadi. O’t endi burchakda uyug‘li qumga qarab chopdi. O’t o‘zini qumga urdi. O’t qumga ag‘nab-ag‘nab chinqirdi. O’t qumga yumalab-yumalab chinqirdi. O’t tag‘in hovlini gir-gir aylanib-aylanib chopdi. Men bechora o’t quvaman deb, tag‘in ag‘nab tushdim. Men joyimdan turolmay-turolmay chirilladim. Men qo‘llarimni cho‘zib-cho‘zib chirilladim. Bovujud, ko‘chadan o‘tkinchi-ketkinchilar chopib keldi.

– Ular-da o‘chirolmadimi-a...

– O‘chirgani shu-da, tirik qoldi, o‘chirgani shu-da! Bo‘lmasa, kelnimni suyagiyam qolmas edi! Ko‘p ko‘p-da – o’tni yetib olib, qumga bosib-bosib turdi. O‘tga satillab-satillab suv sepib turdi. Gilamni ho‘llab-ho‘llab, o‘tga yopib-yopib turdi.

Men tizzamga tars-tars urib yig‘ladim. Men o‘kirib-o‘kirib yig‘ladim. Men aytib-aytib yig‘ladim.

– Ay, dala-dala demay; men o‘layin-a, ay, erkak bo‘lmay men o‘layin-a!..

– Beboqqina kelnim-a!..

– Ay, peshonam qursin-a, dunyoga kelmay men o‘layin-a!..

– Qo‘li kosov, sochi supurgi kelnim-a!..

– Darrov kiyimlarini yechib olmabsizlar-da, ena!..

– Kiyim kimni esiga kepti, deysan...

– Darrov kiyimlarini yechib olsa bo‘ldi edi, odam yonmas edi!

— Odam yonmas edi? Eb-e, odam yonmaganini ko'rib-san! Odam yonsin-da! Odam gurillab-gurillab yondi! Ham-soya-qo'llar kiyimlarini yulib oldi. Baribir odam yondi! Odam tanasi yondi! Odam gur-gur yondi!

— Qo'ying-e, ena, odam ham yonadimi! O'zlarining bo'sh-bayov bo'lib o'chirolmagansizlar!

— Eb-e, eb-e, odam yonsin ekan-da! Odam yonar ekan-da! Ho'l kundani yonganini ko'rib edingmi? Odam ana shu kundaday yonar ekan! Odam badanlari pish-pish etib yonar ekan! Odam badanlaridan suv chiqib-suv chiqib yonar ekan! Odam badanlaridan suv oqib-suv oqib yonar ekan! Odam badbo'ydan-badbo'y hid chiqarib-hid chiqarib yonar ekan!..

15

Kasalxona darvozasidan uchta mashina kirib keldi.
Mashina yo'lak chetida oyoq ildi.
Mashinalardan kattalar tushdi.
Kattalar mashinalari oldida gapirib-gapirishib turdi.
Raisimiz biz tarafladi.
Raisimiz bizni qoshimizda bosh egib turdi. Bosh chayqab turdi.

— Hay-hay, falokat-da, — dedi. — Falokat. Qalay o'zi, tilga keldimi?

— Go'rda tilga keladimi! — dedi onamiz. — Ko'zini ocholmaydi, go'rda tilga keladimi!

— Falokat oyoq ostida degani shu-da. Siz endi, momo, oldiga boring-da, ko'z-quluoq bo'lib turing, boring.

Onamiz ichkarilab jo'nadi.

Raisimiz menga qaradi. Zim-zimdan qaradi. Bir nima deyish uchun og'iz juftladi. Tag'in, indamadi.

Raisimiz yer singalab-yer singalab kattalar taraf ketdi.

16

Kallam... kallam yelkamdan bosib-bosib keldi. Kallam kattalik qildi. Kallam og'irlilik qildi.

O‘tirg‘ich qirrasiga tirsakladim. Kallamga qo‘limni tira-dim. Kallamni kaftimga oldim.

17

Kuydi-kuydi – ayolimni tani kuydi.
Kuydi-kuydi – meni bag‘rim kuydi.
Kuydi-kuydi – bolalarimni sho‘ri kuydi.

18

Kuydi-kuydi – kattalarni nimasi kuydi?
Kattalarni... oyog‘i kuydi!
Kattalar pitirlab qoldi. Kattalar zirillab qoldi. Kattalar vos-vos bo‘p qoldi!
Kattalarga bir bo‘lak kun tug‘di.
Kattalar to‘da-to‘da bo‘lib gapistishdi. Kattalar qo‘llarini bigiz etib gapistishdi. Kattalar qo‘llarini shop etib gapistishdi. Kattalar qo‘llarini musht etib gapistishdi. Kattalar yer tupurib-yer tupurib gapistishdi.
Kattalar qator bo‘lishib keldi.
Men joyimdan qo‘zg‘oldim.
Ideologiya qayg‘udoshlik ham mehribonlik bilan yelkam-ga qo‘lini qo‘ydi.
– O‘tiring, qimirlamang, o‘tiring, – dedi. Men tag‘in joyimga cho‘kdim.
Ikkita katta o‘ngim o‘tirdi. Ikkita katta chapim o‘tirdi. Tag‘in ikkita katta peshonamda tik turdi.
Ideologiya qo‘l qovushtirdi. Ideologiya bosh irg‘adi. Ideologaya xo‘rsindi.
– Falokat, falokat, – dedi. – O‘rtoq brigadir, Dehqonqulova... kasal edimi?
– Yo‘q, sog‘lom edi, – dedim. – Ayolimiz umri mehnat bilan o‘tdi.
– Balki... yoshligida kasal-pasal bo‘lgandir?
– Ayolini yoshligini bu qayerdan biladi, – dedi bir katta.

-
- Nimaga bilmayman, bilaman. Xolamizni qizini bilmaymanmi, bilaman.
 - Dehqonqulova uyida qattiq yiqilgan joyi bor edimi? – dedi Ideologiya.
 - Yo‘q?
 - Mabodo... boshini tasodifan devor-pevorga urib olib edimi?
 - Yo‘q?
 - Balki, dalada paxta ichida uxbab qolgandir? Yaxshilab eslang?
 - Yo‘q, unday bo‘lgan yo‘q.
 - Yong‘oqni ostida ham uxlardan edimi?
 - Yo‘q, uyimizda yong‘oq yo‘q.
 - Gapirganda, gap-so‘zlaridan adashar edimi?
 - Yo‘q, gaplari tappa-tuzuk edi.
 - Avlodida esi... esi emas, nima desak ekan... avlodida esi bundayroqlari bor edimi?
 - Yo‘q, ayolimiz yetti pushtigachayin palagi toza ayol!
 - Ideologiya tevarak-bosh qarab-qarab oldi. Ideologiya ovozini bir parda ko‘tardi.
 - Unda... nimaga o‘ziga o‘zi o‘t qo‘yadi? – dedi.
Men barmoqlarimga yig‘lab-yig‘lab qo‘ya berdim.
 - Endi... ko‘rgilik-da, katta, ko‘rgilik! – dedim.
Barmoqlarim orasidan dardlarim duv-duv to‘kildi.
 - Raisimiz duv-duv dardlarimni ilib-ilib oldi:
 - Dehqonqul aka chin aytadi, Klara Xodjayevna, – dedi. – Bu ko‘pga kelgan ko‘rgilik. O‘zbekiston Respublikamiz bo‘yicha shu oxirgi ikki yilda yetti yuz ellik uch xotin-qiz o‘ziga o‘zi o‘t qo‘yibdi!
 - Bu absurd!
 - Yetti yuz ellik uch xotin-qiz o‘zini o‘zi yoqibdi-ya!
 - Absurd, absurd!
 - Xudo ursin agar, Klara Xodjayevna, Xudo ursin agar!
Bu haqda matbuotda necha martalab aytadi. Qaysi bir shoir g‘azal ham bitdi.

Ideologiya peshonamda tik turmish yigitdan so‘radi:

– Kim ekan u shoir, o‘rtoq Meliyev?

– Mixail Dudin, – dedi Meliyev.

– Dudin? Oti aytib turibdi – burjua mafkurachisi!

– Burjua mafkurachisi emas, – dedi Meliyev.

– Burjua mafkurachisi bo‘lmasa, tirnoq orasidan kir izlaydimi? She’r yozaman desa, ana, qanchadan-qancha aktivistka xotin-qizlarimiz bor! Xotin-qizlarimiz orasidan ikkita kosmonavt yetishib chiqdi. Daje, AQShda ham ikkita kosmonavt xotin-qiz yo‘q!

– Yo‘q, Dudin leningradlik shoir, – dedi Meliyev.

– Leningradlik shoir? Leningradlik shoir O‘zbekistonda xotin-qizlar yonayotgani bilan nima ishi bor? Bilamiz, sovet adabiyotida hali ham ana shunday dissidentlar uchrab turadi! Dissident Soljenitsin kabi badarg‘a etsak, bilardi!..

– Dudin katta shoir, Klara Xodjayevna, – dedi Meliyev. – Sotsialistik Mehnat Qahramoni...

– Sotsialistik Mehnat Qahramoni? Nima deb yozibdi? Esingizda bormi?

Meliyev yon cho‘ntagidan bir dasta ro‘znama oldi. Bir supraday-supradayini yoyib o‘qidi:

*Ayollar yonmoqda O‘zbekistonda,
Bu haqda yozilmas bizlar tomonda,
U qanday og‘riqdir, sho‘rlik gullarni
Olovga yo‘llagan, yoqqan gulxanni?
Ularga ayondir men bilmagan sir:
Ne sabab olovga bo‘ldilar asir?
Bu haqda yozilmas, aytimas so‘zlar,
Kul ustida qanot qoqmas qaqnuslar.
Tutun-la qovushib o‘rlaydi haryon,
Manguga tark etar tanadagi jon.
Isyondir bu, soxta hayot qa‘rida,
Chimildiq ko‘rmagan kelin bag‘rida
Onalar yoshidan chaqnagan o‘tdir...*

*...Dunyo-chi, beparvo ko 'z yumib o 'tdi...
Olamni bosmoqda shomning sharpasi,
Qolmadi jahonda shodlik nafasi ,
Dam sayin tug'ilar menda ham shuki –
Bu yorug' olovda poklanish erki.
Bu haqda yozilmas bizlar tomonda,
Ayollar yonmoqda O'zbekistonda!
Bor dunyo soqovdir, so 'z demas Xudo
Inson kelajagi yonar dahr aro!*

– Inoskazatelstva! – dedi Ideologiya. – Bu inoskazatelstva! Sotsialistik realizm metodiga yet asar! Sotsialistik madaniyatni barpo etish va mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalash – reaksiyon burjua ideologiyasiga, shuningdek, o'ng va so'l opportunizm ideologiyasiga qarshi, burjuaziyaning reaksiyon madaniyati va kapitalistik turmush tarzi oldida tiz cho'kib sajda qiluvchilarga qarshi, sovet ideologiyasiga dushman bo'lgan millatchilik va kosmopolitlik ruhidagi buzg'unchiliklarga qarshi adabiyotda, san'atda va ilm-fanda siyosatdan qochish va g'oyasizlikka qarshi hujum qilish, demakdir!

– Kim biladi, Klara Xodjayevna, – deya ming'illadi Meliyev.

– Bu asar rayonimiz xotin-qizlariga tegishli emas! – dedi Ideologiya. – Rayonimiz xotin-qizlari moralno-ustoychivaya!

– Rayonimizda...

– Rayon nomidan gapirmang, o'rtoq rais! Siz bor-yo'g'i raissiz, o'zingizni biling! Rayon nomidan biz rahbarlar gapiramiz!

– O'zbekiston bo'yicha yetti yuz elliq uch xotin-qiz, rayon bo'yicha ..

– Yana rayon, yana rayon! Rayonimiz xotin-qizlari moralno-ustoychivaya!

Ideologiya shahodat barmoqni peshonasi nuqidi. Ideologiya so'zni qalin-qalin aytdi:

– Xullas, Dehqonqulova... manavinday!

Ideologiya ayol odam. Erkak bo'lsa – o'zim bilar edim!

Shunday bo'lsa-da – aytgichimni aytdim.

– Katta, – dedim. – Esi bormi-yo'qmi, ishqilib, ko'z ochib dunyo ko'rgandan buyon dalada halol mehnat qildi. Etak-etak farzand ko'rdi. Esi bordir-da.

Ideologiya gapimni korlamadi.

– Esi bo'lsa... o'ziga o'zi o't qo'yadimi? – dedi. – Shunday baxt-saodatli zamonda-ya?

– Katta...

– Shunday hur zamonda-ya? To'qlikka sho'xlik bu!

– Katta...

– To'qlikka sho'xlik bu! Xotin-qizlar erkaklar bilan teng huquqli bo'lsa! Erkaklar bilan tengma-teng mehnat qilsa! Bilmayman, xotin-qizlarga nima yetishmayapti!

– Katta...

– Kapitalistik jamiyatdagina odamlar o'z joniga o'zi qasd qiladi! Bu bizning jamiyatimiz uchun illat! Mafkuramiz uchun yot!

– Katta, u bechora ajal bilan olishib yotibdi. Hali, odam bo'ladimi-yo'qmi, bilmayman. Shunday ekan, nima qilasiz, bir bechorani yomon otliq qilib...

Ideologiya gapimni korlamadi.

– Esi bo'lsa... o'ziga o'zi o't qo'yadimi? – deya to'ti bo'ldi.

– Esi bordirki, o'ziga o'zi o't qo'yibdi! Esi yo'q odam o'z joniga o'zi qasd qiladimi? Qilmaydi, katta, qilmaydi! Boisi-shunga aqli yetmaydi!

– Iya, o'rtoq Meliyev, bu qanday falsafa bo'ldi?

– Gapni u jigitdan so'ramang, mendan so'rang, katta! Gapni men gapirdim! Men falsafa aytmadim. Men jigit gap aytdim, jigit! Chin-da, esi kam odamni dunyo bilan nima ishi bor? Esi kam odamni o'z joni bilan o'zini nima ishi bor? Esi kam odam og'zini ochib yura beradi-da, dunyo o'zi shunday bo'lar ekan, deb!

– Xullas, Dehqonqulova... shizofrenichka! Gap tamom!

– Kim-kim? – dedim.

– Shizofrenichka! O'rtoq Meliyev, shizofrenichka dehqonchasiga qanday bo'ladi?

– Psix!

– Yo'q, dalachasi-dalachasi?

– Telba!..

Tan-jonim qizidi. Qo'llarim qalt-qalt etdi. Lablarim pir-pir uchdi.

Jonim halqumimga keldi!

Bisotimda bor yomon so'zlarim bilan kattalarni tutib so'kayin, dedim.

– Ket, baring ket! – deya baqirdim.

Kattalar qotib qoldi. Kattalar bir-biriga qaradi.

– Iya! – dedi Ideologiya. – Erida ham bormi deyman, o'rtoq Meliyev?

– Xa, menda-da bor! Ayolimiz bilan loyimiz bir yerdan olingen! Bo'ldimi? Ko'ngling joyiga tushdimi? Endi, ket!

– Meni sensiramang, o'rtoq brigadir, meni sensiramang!

– Ketmaysanmi, kctmaysanmi?

– Tevaragim alangladim – biron nima izladim. Qo'llimga makkajo'xori poyasi ilashdi.

Kattalar joyidan turib ketdi.

Raisimiz qo'llidagi makkapoyaga yopishdi.

– Dehqonqul aka, ay, Dehqonqul aka! – dedi. – Tentak bo'l mang!

– Shularday katta bo'lgandan ko'ra, tentak bo'lganim yaxshi!

– Dehqonqul aka, esingizni yig'ing!

– Ushlamang qo'llimni, ushlamang deyman!..

Raisimiz qo'llarimni ketimga qayirdi. Meni o'tirgichga bosib turdi.

Kattalar ketiga qaray-qaray ichkari kirib ketdi.

Raisimiz shundan keyingina meni qo'yberdi. Qo'llimdan makkapoyani tortib oldi. Xolisga otib yubordi.

Raisimiz-da kattalar ketidan ichkariladi.

Men peshonamni tizzam qo‘ydim. Entikib nafas oлdim.

Qahrimdan qaytdim. Hovurimdan tushdim.

Ichkaridan katta do‘xtir tashqarilab keldi.

Men bir vaqtlar yaxshilik ko‘rdim – shu odamdan ko‘rdim.

Yaxshi gap eshitdim – shu odamdan eshitdim.

Shu bois – lik etib joyimdan turdim. Qo‘llarimni qo‘vushtirib turdim.

Katta do‘xtir yelkamga kaft qo‘ydi. Meni joyimga o‘tirg‘izdi.

O‘zi-da – qabatim o‘tirdi. Qo‘lini qo‘lim qo‘ydi.

Do‘xtir – do‘xtirday diltang-diltang bo‘lib o‘tirdi.

O‘tirdi-o‘tirdi – qayg‘udosh hamroz bo‘ldi:

– Dehqonqul, – dedi. – Tag‘in, mendan o‘pka-ginador bo‘lma. Men bir faqir do‘xtirman. Endi... kasalingni olib ketadigan bo‘lding.

– Ayolimiznimi? Qayoqqa olib ketaman?

– Bilmasam, qayoqqa olib ketasan.

– Yo, tuzalib qoldimi?

– Qayoqda tuzaladi, endi keldi-yu...

– Unda, qayoqqa olib boraman?

– O‘zing bilasan. Biz birinchi yordamni ko‘rsatib bo‘ldik.

Endi, kasalni davolash kerak. Biz davolay olmaymiz. Bizning kasalxonamiz kuyganlarni davolamaydi.

– Kuyganlarni qayerda davolaydi?

– Kuyganlar uchun alohida kasalxonalar bor. Toshkentda bor. Moskvada bor, yaqin yo‘l desang, Dushanbadayam bor. Kasalingni olib ket, biz boshqa saqlab turolmaymiz. Faqat, tezroq olib ket, bo‘lmasa, kech bo‘ladi...

– Eb-e, u nima deganingiz? Qayoqqa olib ketaman? Qanday olib ketaman?

-
- Bilmadim, Dehqonqul, bilmadim.
 - Buyog‘i ura-ura paxta vaqtি bo‘lsa. Paxta nima bo‘ladi? O‘zi, bu kimdan chiqqan ahmoqlik?
 - Uyog‘ini kattalardan so‘raysan. Men bir do‘xtirman.
 - Qani o‘sha... kattalar?
 - Zabt bilan ichkari jo‘nadim.
Katta do‘xtir qo‘rqib qoldi. Ko‘zлari katta-katta bo‘ldi.
Belimdan qo‘shqo‘llab quchoqlab oldi.
 - Hay, Dehqonqul, hay! – dedi. – Esingni yig‘! Baraka top, o‘tir!
 - Katta do‘xtir meni joyimga qaytarib o‘tirg‘izdi. Harsillab-harsillab nafas oldi.
 - Yomon ekansan, Dehqonqul, yomon ekansan, – dedi.
 - O‘zingiz aytdingiz-ku, kattalardan so‘raysan, deb!
 - Aytdim-qo‘ydim-da! Kattalarni oldida nima qilasan?..
– Kallapoycha qilaman!
Katta do‘xtir seskanib tushdi.
 - Nima qilasan? – dedi.
 - Kattalarni kallapoycha qilaman! Etini bir-yoqlik qilaman, suyagini biryoqlik qilaman!..
 - Do‘xtir ko‘zлari katta-katta bo‘ldi. Qorachig‘i kamaydi – oqi ko‘paydi!
 - O‘ylab gapirayapsanmi, uka? – dedi. – Esingni yig‘, uka, esingni yig‘!
 - Esimni yig‘sam-yig‘masam!..
 - Kambag‘al kattalarda nima ayb? Dunyoda tuyadan katta fillar bor.
 - Bo‘lmasa, nimaga bunday qiladi? O‘ziga o‘t qo‘ygich bizni ayolimiz bo‘lsa – kattalarga nima?
 - Sen siyosatni tushunmaysan, Dehqonqul, siyosatni tushunmaysan. Qanday davrda yashayapmiz – bilmaysan...
 - Xudo bergen davrda yashayapmiz-da, qanday davrda yashardik!

– Ana, aytdim-ku, Dehqonqul. O‘z oting o‘zing bilan dchqonsan, dehqon. Sen shunday deysan. Kattalar esa unday demaydi. O‘z joniga qasd qilish – isyon! O‘z joniga qasd qilish – davrdan norozilik! Ana, kattalar nima deydi!

– Bir begunoh bechorani psix, dedi, indamadim. Tentak, dedi, indamadim. Endi, kasalxonadan chiqarib yuboraman, deyaptimi?!

– Ha-da, chiqarib yubor, deyapti-da? Shizofrenichka, deb diagnoz qo‘yib chiqarib yubor, deyapti-da? Men aytdim, insof qilinglar, axir, dedim. Men bu ayolni go‘dakligidan bila-man, dedim.

– O‘ziga o‘t qo‘ygich ayolimiz bo‘lsa, kattalar nimadan qo‘rqadi?

– Kattalarga amal kerak, Dehqonqul! Sening ayoling kerak emas! Kattalarga mansab kerak! Sening ayoling kattalarni gazagiga dori emas! Ayollar o‘z joniga qasd qila bersa, kattalarni tinch qo‘ymaydi! Ishdan oladi, partiyadan o‘chiradi! Sening ayolingni deb, kattalar mansabidan ayriladimi? Ayrilmaydi, o‘lsayam ayrilmaydi. Yo‘lini qiladi... Tentakka chiqar, deb buyuradi. Kasalxonaga qabul qilma, deb buyuradi. Bajarmayin, meni ishdan haydaydi, partiyadan o‘chiradi. Kattalar dastidan kun ko‘rolmayman. Men nima, men bir do‘xtir-da. Chin, qasam ichib edim. Lekin tumanga kattalar xo‘jayin. Kattalar gapi bilan ish qilsam... ayoling-ku, ayoling... bola-baqralarine ham ruhiy kasalga chiqib ketadi. Onasida bor edi, deydi.. Avloddan ajdodga o‘tadi, deydi. Shizofreniya degan tamg‘a yomon tamg‘a, Dehqonqul. Shuning uchun, kel, senga bir akalik qilayin. Bir yo‘li bor. Bunday qilamiz: ayoling o‘ziga o‘t qo‘yganini falokatga yo‘yamiz. Aytaylik, ayoling gazni yoqmoqchi bo‘ladi. Gaz birdan lop etib, ayolingni yengiga yopishadi.

– Gaz? Bizda gaz nima qiladi?
– Gazimiz bor, ana, Obshir qishlog‘i adog‘idan quvurda o‘tib yotibdi.

— Quvurda o'tib yotsa, qaysi bir mamlakatga o'tib keta-yapti-da.

— Ishqilib, gazing bormi, bor-da. Shu gaz bizniki-da. Qaysi bir mamlakatga ketsa-da, ishqilib, bizning gazimiz-da. Hech bo'lmasa, ballon gazing bordir?

— O'tin bor, tappi bor.

— Xo'p, uyog'ini qo'ya ber. Gazing bor, deb faraz qilamiz. Keyin... ayol kishi emasmi, yengini o'chirish o'mniga, qo'rqib qoladi. Esini yig'ib olgunicha o't yoqasiga qarab o'rlaydi. Dod deb baqiradi. Dodini hech kim eshitmaydi. Sababi, hamma dalada bo'ladi-da... Bo'ldi, shu bilan kattalar tinchiydi-qoladi. Kattalar tinch – olam tinch!

— Mayli, nima desangiz mayli. Menga ayolimizni tuzatib bersangiz bo'ldi.

— Mana, men borman! – deya ko'krak urdi do'xtir. – O'zim davolayman! Ayoling bor-yo'g'i oltmis foiz kuyibdi, oltmis foizgina! Yaxshi bo'p ketadi!

Bolalarim ko'z o'ngimga keldi. Ko'nglim buzildi.

— Ishqilib, bolalarimni peshonasiga yaxshi bo'p ketsa bo'ldi... – dedim.

Men kaftlarimga yig'ladim.

Dardlarim kaftlarimdan seloba-seloba bo'lib oqdi.

— Otday bo'lib ketadi! – dedi do'xtir. – Oltmis foiz kuyik unday qaltis emas...

Do'xtir yelkam qoqa-qoqa ketdi. Men o'ngirlarimga yig'ladim.

21

Ayolimiz... odam bo'lindi...

22

Subhi sodiqda ayolimiz boshiga bordim.

Mozor poyida tizza bo'ldim.

Mozorni ohista-ohista turtdim – ayolimizni uyg'otdim...

– Ay, men keldim? – dedim.
Bir siqim mozor oldim – ayolimiz sochlarini ushladim...
– Ay, senga aytaman? – dedim. Tomog‘im to‘lib-to‘lib
keldi...

23

Uy burchida turmish beshikbellik ko‘zimg‘a yomon-yo-
mon ko‘rindi.

Men endi beshikni nima qilayin? Men endi beshikka
o‘zimni belayinmi?

Men beshik qarab turdim-turdim.

Shunda beshik... shunda beshik ayolimiz tobuti bo‘lib
ko‘rindi!

Ichida... ayolimiz yotmishday bo‘ldi! Badanlari oltmis
foiz kuyib-kuyib yotmishday bo‘ldi!

Ayolimiz pichir-pichir meni yo‘qlamishday bo‘ldi!

– Ha, nima deysan? – dedim.

Beshikdan javob bo‘lmadi.

– Ayt aytgichingni? – dedim.

Beshik – tobut desa tobut deguday sukut etdi.

Men ohista-ohista beshik oldilab bordim. Enkayib qo‘lla-
rimni tizzalarim tiradim. O‘ng qulog‘imni beshik tutdim.

Beshikdan ovoz bo‘lmadi.

Beshikyopg‘ich burchidan ohista ushladim. Xiyol-xiyol
ko‘tardim. Beshik ichi mo‘raladim.

Beshikda jon zoti bo‘lmadi.

Beshik ko‘zimga yomondan yomon ko‘rindi.

Beshikni ko‘rmayin-da, kuymayin-da, dedim,

Beshikni dast ko‘tarib tashqariladim.

Narvondan beshik qo‘ltiqlab tomladim. Beshikni g‘o‘-
zapoya uyumi usti tashladim.

Beshik g‘o‘zapoya botib-g‘o‘zapoya botib qoldi.

Shunda, beshikyopg‘ich shamolda hilp-hilp etti. Hilp-
hilp eta-eta beshik ketilab uchib tushdi.

Beshikyopg'ich bir uchi beshikqushda ilashib-beshikqushda ilashib qoldi.

Bovujud, beshikqush borlik bo'lди – beshikyopg'ich yer uchib tusharman-yer uchib tusharman bo'lди.

Men beshikdan qovuzni oldim. Oqo'tragichni oldim. Tag-po'shni oldim.

Sumakni oldim. Tuvakni oldim.

Barini beshikyopg'ich soldim.

Shunda, dimog'im gup-gup shiptir isi tuydi.

Men beshiktebratgichda osilib turmish ko'ztumor bilan to'qqizko'z munchoqni uzib-uzib oldim.

Ko'ztumor bilan to'qqizko'z munchoqni-da beshikyopg'ich soldim.

Beshikyopg'ichni o'rab-o'rab beshik joyladim.

Beshik kunda ochilib-ochilib qoldi.

Shunda, beshikdagi sonsiz jimjimalarga ko'zim tushdi.

Ko'zlarim kunda qamashdi.

Beshik gullari bo'lsa bordir, deya o'yladim.

Tikilibroq-tikilibroq qaradim.

Beshikdagi jimjimalar bir arabi husnixat bo'lib ko'rindi, bir jimjimador gullar bo'lib ko'rindi. Beshikda bundaychikin ohangjamolar yo'q edi – qayerdan bino bo'lди?

Shu vaqt onamiz hujrasidan tashqariladi. Kaftini peshonasi soyabonladi. Kun qaradi. Kun vaqtini bilmox bo'lди.

Shunda, meni ko'rди.

– Beshikni nimaga tomga olib chiqding, yerchilim bo'l-gur? – dedi.

Men miq etmadim.

Onamiz kaftini peshonasi soyabonlab qarashini qo'yamadi. Men aytmasam bo'lmadim:

– Endi beshik nima kerak... – dedim.

– Nimaga beshik kerak emas?

– Endi... bo'lди, – dedim. – Beshik bo'lди...

– Shu gapingga noma'qulni nonini yebsan! Olib tush pastga!

- Endi... beshikni kim tebratadi?
- Bolalarimni mayda enasi ketgan bo'lsa, mana, katta enasi bor! Mana men – momosi bor! Olib tush – o'zim beshik tebrataman! Allalab-allalab beshik tebrataman!
- Mayli, olib tushaman, bora bering, olib tushaman.
Men beshiktebratgichdagi jimjimalar tikildim. Jimjimalar nima bilan bitilmish bo'ldi, dedim.
Shahodat barmog'im uchini ho'llab-ho'llab artib ko'rdim.
Bir jimjima ko'kara-ko'kara yoyildi.
Bildim – jimjimalar ko'kqalam bilan bitilmish bo'ldi.
Qosh-ko'z bo'yagich ko'kqalam bo'lsa bordir?

24

Ayolimiz beshikka bag'ir berdi. Bolasiga ko'krak berdi.
Bolasi cho'lp-cho'lp emdi.
Ayolimiz bolasi boshidan maydagina oyna oldi, to'm-toqqina qalam oldi.
Oynani beshik uzra tutdi. Labi bilan qalam uchini ho'lladi.
Ayolimiz qoshiga qalam surtdi. Bir u qoshiga surtdi, bir bu qoshiga surtdi.
Beshikdagi bolasi miq-miq emdi.
Ayolimiz turayin dedi – beshikdagi bolasi ko'kragini qo'ybermadi. Ayolimiz beshik mixlanib-beshik mixlanib qoldi. Ayolimiz peshonasini bilaklari qo'ydi. Ayolimiz bilaklarini, beshiktebratgich qo'ydi.
Ayolimiz beshiktebratgich bitdi:
„O'-o'y, ichim kuyayapti, ichim yonayapti“.
„Ichimda bir nima qimirlayapti“.
„O'-o'y, boshim aylanayapti“.
„Dunyo ko'zimga qirmiz-qirmiz bo'lib ko'rinyapti“.
„Qirmiz-qirmiz... dumaloq-dumaloq“...
„O'-o'y, crtaga daladan javob bersa bo'lmaydimi?“.
„Boshimni yuvib olsam deb edim“.
Ayolimiz ikkiyat bo'ldi.

Beshikdag'i bolasi suttan qolmayin ikkiyat bo'ldi!

Ayolimiz ipakdayin mayin bo'ldi. Ayolimiz ipakdayin suzik bo'ldi.

Kechalari bir o'ng yog'iga o'ngarildi, bir chap yog'iga o'ngarildi.

Ayolimiz kun sanadi. Ayolimiz tun sanadi. Sanay-sanay tonglar oqladi.

25

Kun yongandan-yondi.

Dala kundan-da yondi.

Kun kalla qaynatdi, kun tovon kuydirdi.

Ayolimiz daladan bosh olib ketayin, dedi – ketolmadi.

Bola aziz bo'ldi, g'o'za boladan-da aziz bo'ldi!

Ayolimiz shiypon devoriga yelka berib o'tirdi. Yuzlarini osmon tutdi. Ko'zlarini yumdi. Og'zini kappa-kappa ochdi.

Men yelkasidan ohista turtdim.

„Ay, nima bo'ldi?“ – dedim.

Ayolimiz ko'zlarini ochdi. Tizzalarini yopdi.

„Boshim aylanayapti, – dedi. – Qonim kam“.

„Unda, suv ich“.

Ayolimiz dalalar uzra jimir-jimir etmis hilga termuldi.

„Qirmiz-qirmiz... Dumaloq-dumaloq“... – dedi.

Men qo'limda o'ynab yurmish g'o'za gulini ayolimizga uzatdim.

„Mana! – dedim. – Qirmiz-qirmiz... dumaloq-dumaloq... gul!“

Ayolimiz qo'limni qaytarib tashladi.

„Bundaychikin emas“, – dedi.

„Bo'lmasa, qandaychikin? Shu gul yaxshi-da. Idora oldidagi atirgullar bo'lmaydi! Hidi bo'lgan bilan – mahsuloti yo'q! G'o'zagul mahsuldor gul – hosil beradi!

„Odamni ko'p mayna etmasin“.

„Mayna etayotganim yo'q. Oynayi jahon bilan kinolarda-da ayoliga gul beradi-ku?“

„Oynayi jahon bilan kinolardagi odamlar qorni to‘q odamlar. Gul qorni to‘qlarni ermag. Gulni yeb bo‘lmaydi“...

„Bo‘lmasa, qirmizi dumalog‘ing nimang?“

Men jo‘rttaka shunday dedim.

Bildim – ayolimiz qirmizi olma, dedi. Bildim – ayolimiz qirmizi olmaga yerik bo‘ldi!

Dalada qirmizi olma nima qiladi? Qirmizi olma Denov bozorida bo‘ladi! Denov bozori esa qirq chaqirimcha keladi! Qachon boraman, qachon kelaman?

26

Beshikbellikkagi bitiklar salmoqli-salmoqli bo‘ldi.

Boisi – bellik tekis ham enlik bo‘ldi.

„O‘y-o‘y, Holiqov iqtisodchi ayolini Toshkan olib borib kelibdi“.

„Metro degich avtobusga minibdi“.

„Metro degich avtobus uzun-uzun emish“.

„Yer ostidan yurar emish“.

„Ichi doim salqin emish“.

Bellik pastlamish sayin bitiklar qing‘ir-qiyshiq bo‘lib bordi.

„O‘-o‘y, Temirov agronomni ayollari Samarqandga borib kelibdi“.

„Hay bir madrasalar, hay bir machitlar bor emish“.

„Madrasalar baland-baland emish, qarab bo‘lmas emish“.

„Qarayin, degichlarni ro‘moli boshidan tushib ketar emish“.

„Ro‘molim boshimdan tushib ketsin degichlar madrasa balandiga qarasin emish“.

„Temirov agronomni ayoli qarayin desa, ro‘moli boshidan tushib ketibdi“.

„Ro‘moli suvgaga uchib borib tushibdi“.

„Shunda-da bilmabdi“.

„Bir odam, ay xola, ro‘molingiz suvgaga tushib ketdi, debdi“.

„Shundagina boshida ro‘moli yo‘qligini bilibdi“.

„Voy, debdi-da, boshini qo'llari bilan yashiribdi“.

„Meniyam ro'molim suvga tushib ketsa ekan...“

„Madrasa poyida ro'molim birovgina... birovgina boshim-dan uchib tushsa ekan“...

Tagtaxtadagi bitiklar mayda-mayda bo'ldi. Chumoli iz-chumoli iz bo'ldi.

„O'-o'y, bolalarni nafaqasini yo'qlab kelsa bo'lmaydimi?“

„Qodir – 4 so'm turadi. Hanifa – 6 so'm turadi. Halima – 7 so'm 50 tiyin turadi“.

„Ayol boshim bilan ikki marta bordim“.

„Bir so'radim – pul yo'q dedi, ikki so'radim – pul yo'q, dedi“.

„So'g'in – bormadim ham, so'ramadim ham“.

„Odamga bet ham kerak-da“.

„Bu kishi bo'lsa, nafaqani sen so'ra – sen enasisan“, deydi“.

„Shu 4 so'mni so'ragani betim chidamaydi, deydi“.

„Erkak bo'p turib, bu kishini beti chidamaganda, ayol boshim bilan meni betim chidaydimi?“

„Ayolga-da bet kerak“.

„Bu kishi aytadi – o'ninchi bolaga 12 so'm 50 tiyin na-faqa beradi, deydi“.

„Bu kishi aytadi – o'ninchi boladan keyin boraman, deydi“.

„Bu kishi aytadi – 12 so'm nafaqa ber, deyishga til boradi deydi, bet chidaydi, deydi“.

„Men o'ninchi bolani qayerdan olaman?“.

„Bola besh yosh bo'lsa – shuniyam bermaydi, emish“.

„Unda... bola besh yoshdan keyin nima yeydi?“

Tagtaxta adog'idagi besh-oltita bitikni o'qib bo'lindi.

Ayolimiz adoq bitiklarni bitayotib ko'zi ketdimikin? Yo, kenjamiz ayolimiz ko'kragini yomon-yomon tortdimikin?..

Tag-tamal bitiklarni o'qib bo'ldi:

„Dunyoga kelib nima ko'rdim?“

„Beshik ko'rdim“.

„Dunyo ko‘ribneni ko‘rdim?“
„G‘o‘za ko‘rdim, paxta ko‘rdim“.
„Kun ko‘rdim – g‘o‘za ko‘rdim“.
„Tun ko‘rdim – beshik ko‘rdim“.
„Beshik mozorim bo‘ldi, dala mozoristonim bo‘ldi“.

SAKKIZINCHI BOB

1

G‘o‘zalarim ost-ostlaridan ochildi.
G‘o‘za nima uchun yerdan chiqmish bo‘g‘zi oldidan
ochiladi?

G‘o‘za yer oziq-quvvatini g‘o‘zauchlab-g‘o‘zauchlab tor-
tadi. G‘o‘za yer quvvayi qudratini quyoshlab-quyoshlab ko‘-
taradi.

Oqibat – g‘o‘za ost-ost shoxlari oziqsiz qoladi. G‘o‘za
ost-ost shoxlari quvvatsiz qoladi.

Oxir-oqibat – g‘o‘za aynan ana shu ost-ost shoxidan ochi-
ladi. Mayda-mayda ochiladi. G‘ozsiz-g‘ozsiz ochiladi.

2

G‘o‘zalarim uch-uchlaridan ochildi.
G‘o‘zauch paxtalar-da ostshox paxtalarday bebarokat-be-
barokat paxta bo‘ladi.

G‘o‘zauch paxtalar-da ostshox paxtalarday bebaror-be-
baror paxta bo‘ladi.

Boisi – qoqbel ko‘saklar uch-uch ko‘saklarga oz-oz yer
oziq qiyadi. Qoqbel ko‘saklar uch-uch ko‘saklarga kam-kam
yer quvvat qiyadi.

3

G‘o‘zalarim qoq belidan-qoq belidan ochildi.
Qoqbel ko‘sak yerda bor oziq-quvvatni tortib oladi. Qoq-
bel ko‘sak yerda bor kuch-qurbni o‘zida olib qoladi.

Shu boisdan qoqbel ko'sak paxtamisan-paxta bo'ladi!

Qoqbel ko'sak barorli-barorli paxta bo'ladi. Qoqbel ko'sak tarozi bosajak-tarozi bosajak paxta bo'ladi. Dehqon kuniga-da ana shu qoqbel ko'sak yaraydi!

Shu boisdan-da, qoqbel ko'sakni dehqonko'sak, deydilar!

4

G'o'zabarg sariq-sariq bo'lsa, dori risoladagiday barg to'kmaydi.

G'o'zabarg quruq-quruq bo'lsa, dori binoyiday barg to'kmaydi.

Shu bois, mirobdan suv so'radim.

– Oqar suv tamom bo'ldi, – dedi mirob. – Endi, suv ombordan suv beraman-da.

Suv omborda suv yillab ko'llab-ko'llab yotadi. Yil mobaynida loyqa suv ostilab cho'kib-cho'kib qoladi.

Suvni suv etgich ana shu loyqa bo'ladi.

Ana shu loyqasiz suv bilan sug'orilgich g'o'za yigirma kun hayallaydi.

Ana shu loyqasiz suv bilan sug'orilgich hosil o'ttiz-qirq foiz kamayadi.

G'o'zalarim u davrdan o'tdi – g'o'zalarimga endi oti suv bo'lsa bo'ldi.

Men dalalarimni omborsuv bilan oqar-oqmas suvlab oldim.

5

Dorilan mish g'o'za tag'in qaytib ko'sak tugmaydi. Yomondan-yomon dori bor ko'saklarni-da qovurib-qovurib tashlaydi.

6

Men ko'saklarim mo'l-ko'l ochilishini qaradim.

Nihoyat – oltmis foiz ko'sagim ochilib bo'ldi.

Tong saharda traktor ketiga o'n to'rtinchi to'rt-burchak uskuna taqdim.

Uskunada ikkita yum-yumaloq idish bo'ldi.

Men har idishga yuz ellik kilo-yuz ellik kilodan uch yuz kilo dori soldim.

Dorilashdan oldin sut ichib olishim qarz ham farz bo'ldi.

Molimiz illa bir kadi sut beradi – shuni-da men ichib ol-sam, bolalar nimani ichadi?

Men sut o'mida yaxday suv ichib oldim.

Korjoma kiydim. Ko'zoynak taqdim. Og'iz-burnimga za-harniqob taqdim. Qo'lqop kiydim.

Traktor kabinasini mahkamlab-mahkamlab yopdim.

Traktorni birinchi tezlikda haydadim.

Men saharmardonda dalalarimga zahar berdim.

Men tonglay-tonglay dalalarimni zaharladim.

Purkagich nasoslarni o'nglab-o'nglab dala zaharladim.

Purkagichlar birvarakay yigirma-yigirma to'rt egatga sa-riq-sariq zahar purkadi.

Silindrni oltinchi raqamga qo'yib-qo'yib dala zaharla-dim.

Nasos bosimini oshirib-oshirib dala zaharladim.

Men bir gektar dalamga to'rt kilo qo'lansadan-qo'lansa zahar berdim. Achchiqdan-achchiq zahar berdim.

Tong to'rkadi.

Bobotog' uzra kun shafaqlandi. Tong-tong shudringlar olol shafaqlarda ketdi. Men dala zaharlashdan tiyila qoldim – beshudring barg zaharni tan olmaydi!

Kun olis boshim aylandi.

Kun olis ko'zim yoshlandi.

Kun olis ichak-qornim tomog‘imda bo‘ldi.
G‘arra-g‘arra qusishdan armonim qolmadi.

10

Salqintob-salqintob oqshom qo‘ndi.
Men tag‘in dala zaharladim.
G‘o‘zalarim tusi o‘chdi.
G‘o‘zalarim sap-sariq bo‘ldi.
G‘o‘zalarim entikdi.
G‘o‘zalarim hansiradi.

11

Butifos barg qovjiratib-barg qovjiratib tashladi.
Butifos barg qovurib-barg qovurib tashladi.
Butifos chala-chala barg to‘kib boshladi.
Butifosda bor-yo‘g‘i bitta xosiyat bo‘ldi – butifos xom
ko‘sakka ziyon bermadi.
Xom ko‘sak bodrab-bodrab ochila berdi.

12

Zahar-zaqqum butifosdan o‘zga dori qurib qolib edimi?
Butifosdan o‘zga-da barg to‘kajak dorilar mo‘l-ko‘l
bo‘ldi.
Masalan, kalsiy sianimid degich ziyon-zahmatsiz dori
bo‘ldi. Magniy xlorat degich hid-bo‘ysiz dori bo‘ldi.
Magniy xlorat butifosdan samarali-samarali barg to‘kadi.
Magniy xlorat butifosdan avlo-avlo barg to‘kadi.
Ammo magniy xlorat xom ko‘sakka ziyon beradi.
Magniy xlorat ziyon bermish xom ko‘sak uchlari qizil
bo‘lib qizil bo‘lmaydi, sariq bo‘lib sariq bo‘lmaydi.
Gulobi-gulobi rang bo‘ladi!
Gulobi ranglari boshidan qolsin – to‘rt misqol ko‘sak ikki
misqol bo‘lib qoladi! Serfazilat tola befazilat bo‘lib qoladi!
Magniy xlorat butifosdan arzon-da tushadi.
Bir tonna magniy xlorat ikki yuz to‘qson so‘m turadi.

Bir tonna butifos ikki ming ellik so'm turadi!
Unda, kattalar nima uchun zahar-zaqqum butifos sep,
deydi?

Butifos xom ko'sakni omonlaydi, magniy xlorat xom
ko'sakni zavollaydi!

Yo el-yurt, yo kirim!

Kattalar bot-bot ko'sak ochilishni o'yladi.

Kattalar qayta-qayta paxta terilishni o'yladi.

Kattalar qishgachayin paxta terilishni o'yladi!

Yo el-yurt, yo kirim!

Kattalar kirimni tanladi!

13

Odam tong saharda aroq ichsa, nima bo'ladi?

Odam piyonista bo'ladi.

Dalalarim-da ana shu odam misol piyonista bo'lib qoldi.

Odam toltushda tamaki cheksa nima bo'ladi?

Odam bangi bo'ladi.

Dalalarim-da ana shu odam misol bangi bo'lib qoldi.

Odam namozshomda nasha cheksa nima bo'ladi?

Odam nashavand bo'ladi.

Dalalarim-da ana shu odam misol nashavand bo'lib qoldi.

Endi, ana shu og'ular barini bir odam tanavvul etsa nima
buladi?

Odam pushti kuyib kul bo'ladi. Odam nasl-nasabsiz
bo'ladi.

Dalalarim-da ana shu odamday bo'lib qoldi!

14

Badanda jon bor – qilmish-qidirmish bor.

Qilmish-qidirmish bor – jinoiy modda bor.

Odam biron imoratga ziyon bersa – falon moddaga binoan
javobgarlikka tortiladi. Odam biron texnikaga ziyon bersa –
falon modda bo'yicha qamatiladi. Odam birovni ursa – falon
moddaga binoan kesiladi.

Níma uchun odam yerni zahar dorilaydi – ammo javobgarlikka tortilmaydi?

Níma uchun odam yerni zaharlab xo'rlaydi – ammo javobgarlikka tortilmaydi?

Dunyoda ko'p-ko'p emish-emish eshitdim. Ammo yer zaharlab javobgar bo'libdi, degich emish eshitmadim.

Yer qaridi. Yer pushti kuyib zahar-zaqqum bo'ldi. Yer ko'ksi kuyib kul bo'ldi – Yer taqdir peshonasidan ko'rib yota berdi.

Yer o'z dardini aytayin dedi – yerda til bo'lindi.

15

Bozorni yaxshi ko'raman!

Noz-ne'matlar tovlana-tovlana turadi. Shirin-shakarlar bollana-bollana turadi. Achchiq-chuchuklar bo'ylana-bo'ylana turadi.

Noz-ne'matlardan ko'zim to'yadi. Shirin-shakarlardan ko'nglim to'yadi.

Bozorda yeganim oldimda bo'ladi, yemaganim ketimda bo'ladi!

Men bozorda behishtda yurmishday-behishtda yurmishday bo'laman.

Men olmasam-da – narx-navoni so'rab-surishtiraman.

Men yemasam-da – qirmizi olmani kaftimda salmoqlab-salmoqlab ko'raman. Iskab-iskab ko'raman.

Qirmizi olmadan kaftlarim rohatlanadi. Qirmizi olmadan dimog'larim huzurlanadi.

Men dunyoda borligimdan shukurlanaman!

16

Ammo... bozorda bir ayb bo'ldi.

Bozor aybi... narx-navosi yomon bo'ldi! O'-o'-o', yomon-yomon bo'ldi!

Bobotog' pistasi o'n besh so'm bo'ldi. Vaxshivor yong'og'i to'qqiz so'm bo'ldi. Dashnobod anori besh so'm bo'ldi.

Toshdan qimmat-toshdan qimmat narx-navo bo‘ldi!

Nima bo‘lsa bo‘ldi – baridan bir kilodan oldim.

Ikki dona anor bir kilo keldi.

Men anor salmoqlab-anor salmoqlab o‘yladim: dasturxonga ikkitagina anor qo‘ysa bo‘lmaydi. Katta mehmonlar nozikta’b bo‘ladi. O‘l-e, bor-yo‘g‘i ikkita anor qo‘yibdi-e, deydi.

Shu bois, tag‘in bir kilo anor oldim. Jami to‘rtta katta-katta anor bo‘ldi.

Dasturxonda to‘rt burch bo‘ladi. Ana shu to‘rt burchiga bittadan to‘rtta anor qo‘yaman.

Dasturxonim binoyiday-binoyiday dasturxon bo‘ladi!

Men anor pulini sanadim. Ich-ichimdan qirindi o‘tdi. Bar-moqlarim qalt-qalt etdi.

Bir pul qaradim, bir anor qaradim – to‘rtovgina anor uchun o‘n so‘m to‘lagim kelmadni.

Qo‘llarim qalt-qaltini bilintirmayin deya, anor pulini qo‘shqo‘llab ushladim. Anorchiga qo‘shqo‘llab uzatdim.

Ammo anorchi bildi – miyig‘ida kuldi.

– Dashnobodi anor, pulingiz o‘zingiz bilan ketadi, – dedi.

– Yaxshi anorlikka yaxshi anor...

Men bir anor bir mehnat kuniga tushayapti-da, degim keldi – deyolmadim. Anorchini oldida past ketgim kelmadni.

– Dashnobodi anorligi uchun oldim-da, – dedim.

Anorchi qo‘lini ko‘ksi qo‘ydi.

– Qulluq, osh bo‘lsin! – dedi.

Anorga meni og‘zim tegarmidi? Tekkan bilan anor osh bo‘larmidi?..

Shunda, qishloqdoshimiz Qayum qorovul kelib qoldi.

– Qani, Dehqonqul, bozorlabsan-da? – dedi.

– Ha, tirikchilik.

Qayum qorovul bir to‘rxalta bozorligimga ser soldi. Xiyol ko‘z olaytdi. Bir menga qaradi, bir bozorligimga qaradi.

– Tinchlikmi, Dehqonqul? – dedi.

– Tinchlik, osoyishtalik.

– Mabodo kayfing yo‘qmi?

-
- Umrinda og‘zimga olmaganman, Qayum aka. Nima edi?
 - Bozorligingni ko‘rib aytaman-da. Kayfi yo‘q odam ham shunday bozorlik qiladimi?
 - Dasturxonni obodi-da, Qayum aka.
 - Dasturxon obodi uchun ol, evi bilan ol-da. Bundayin bozorlik uchun mendayin dehqon bir oy terlaydi!
 - O‘zimdayin dehqon-da shu, Qayum aka, o‘zimizdayin dehqon-da shu.
 - Manavi pistami? O‘n besh so‘m-a? Yo, pirim-e, yo, pirim-e! Marx-navoni Xudo urmadi – men qutulmadim! Hali shu yaqinda pista chaqqanimni eslay olmayman. Shu qishdag'i bir to‘yda besh-oltita chaqib edimmi, bilmayman.
 - Siz shu qishda chaqibsiz ekan, men qachon pista chaqqanimniyam bilmayman. Endi, mehmon atoyi Xudo, Qayum aka. O‘zbakchilik – o‘zbakchilik.
 - O‘lma! Shu gapdan qolma, Dehqonqul, kam bo‘lmaysan!
 - Shu tevarakni mehmoni bo‘lsa go‘rga edi. Moskovdan mehmon kelayapti, Maskovdan. Bari nozik mehmon. Raisimiz aytdi.
 - Mehmon kelgan uydan baraka arimaydi, Dehqonqul, baraka arimaydi. Mehmon rizqi o‘zidan oldin keladi, deydi. Maskovchi mehmon bo‘lsa, unda, bunday qil: bozorga xurmo kiribdi. Hay, anavi yerda sotayapti, hayla!
 - Qani-qani?
 - Hayla-hayla, qozonshlapa savdolashayapti. Ana shu xurmodan bir-ikki kilo ol. Maskov yoqlarda xurmo o‘smanydi. Mehmon osh deb kelmaydi. Mehmon mehmon-da – havasaki yeysi-da.

 Qayum qorovul aytmish qator-qator xurmolar oldilab bordim.

- Xurmo qanchadan bo‘ldi? – dedim.
 - Uch so‘mdan, – dedi.
- Xurmolarni ushlab-ushlab ko‘rdim.
- Xurmo qayerniki? – dedim.
 - Subtropikniki, – dedi.

— Suptropiknikidan bir kilo torting qani.

Subtropik bog‘ shunday oldimizda. Dalamizdan yigirma chaqirim keladi,

Bozor darvoza oldidan ikki cho‘ntak maydapista oldim.

17

To‘lib-toshib uy keldim.

Bozorligimni oshxona qo‘ydim.

Bolalar bozorlik yopirildi. Bolalar bozorlik girdini oldi.

— Olma, ota, olma!

— Ota, anor bering!

— Uzum bering, uzum!

Birovi olmaga qo‘l uzatdi. Birovi anorga qo‘l uzatdi. Birovi uzumga qo‘l uzatdi.

Bolalarni qo‘lini urib-urib tashladim.

— Tort qo‘lingni, tort! — dedim.

Bolalar ketiga qo‘l bekitdi. Bolalar qo‘ltig‘iga qo‘l tiqdi.

Bolalar og‘ziga qo‘l soldi.

Bolalar mo‘lt-mo‘lt qaradi. Bolalar iltijo-iltijo qaradi.

Men boshim bilan bozorlikka imo berdim.

— Bularni yeb bo‘lmaydi, q-ha! — dedim. — Ha, q-ha, q-ha!

Men aft burishtirdim. Men bosh sarak-sarak etdim.

— Ichni og‘ritadi, q-ha! Ichni ketkizadi, q-ha! — dedim. —

Qara, puf-e, sassiq uzum ekan, puf-c!

— Menga nima olib keldingiz, ota?

— Sengami, senga bir nima olib keldim! Qani, qo‘lingni ber. Ana, ko‘rdingmi?

Bir-ikkita maydapista chaqib ko‘rsatdim.

— Ana shunday chaq! — dedim. — Qirsillatib-qirsillatib chaq, tishing baquvvat bo‘ladi! Qani, baring qo‘lingni tut!

Bolalarga maydapista bo‘lib berdim.

— Ana endi, borib o‘ynanglar! — dedim. — Boringlar!

Bolalar tarqaldi.

Faqat Qulmat o‘g‘limiz qoldi.

Kambag‘alga ket, deyolmadim — ko‘nglim bormadi.

Kambag'al Qulmat – dardmand!

Do'xtir ko'rib, vitamin yetishmaydi, dedi. Bir dasta dori bitib berdi.

Denov dorixonasidagilar bitiklarni ko'rди-ko'rди – bittasiyam yo'q, lekin bo'p turadi, tez-tez xabar olib turing, dedi.

Men aytdim: vitamin g'o'za edimidiki – tez-tez xabar olib turaman, dedim.

Tag'in qaytib bormadim.

Dardmand Qulmatimiz ingilladi:

– Ota, pomidor bering! – dedi.

Men hayronlandim – to'rxaltada pomidor yo'q bo'ldi.

– Pomidor? Qani pomidor? – dedim.

Qulmatimiz qo'li bilan xurmoni ko'rsatdi.

E, tavba-e, o'g'limiz xurmoni tanimadi!

E, tavbangdan-e, o'g'limiz xurmoni taniyolmadi!

Men palag'daroq bir xurmo olib berdim.

– Ma, bu pomidor emas, – dedim. – Bu xurmo, ha, xurmo!

Derazadan Denov tarafni ko'rsatdim.

– Hay, anavi quyuq daraxtzor bor-ku, ana shu subtropik bog', – dedim. – Subtropik bog'da xurmo o'sadi, bizni dalada g'o'za o'sadi!

Oshxona zanjirlab tashqariladim.

Og'ilxona aylanib qaradim.

O'zi, bisotimda uchovgina qo'yim bo'ldi. Ikkovi sovliq bo'ldi. Birovi so'yib sotish uchun boqilib yotmis qo'y bo'ldi.

Ana shu qo'y maskovchilarga nasib etajak bo'ldi.

Men maskovchi mehmonlarga so'yilajak qo'yimni qaradim. Dumbasini changallab-changallab qaradim.

Qo'yim oriq bo'ldi, so'yishga arzigich go'sht qilmagich bo'ldi.

18

Og'ilxona oldida kaftimni peshonam soyabonlab kun qaradim.

Shunda, oshxona derazasidan bir nima lip etib tushdi.

Yo qog'oz, yo latta uchib tushdi, deya o'yadim.
Lip etib tushmish nima chopib ketdi.
Mushuk bo'lsa kerak-ov deya, tikilib-tikilib qaradim: Nodir o'g'limiz pirillab chopib borayapti.
Bildim— oshxonadan bir nima olib qochdi.
— O‘-o‘-o‘, qayt! — deya baqirdim.
Nodir o'g'limiz qaytmadi. Quyunday-quyunday chopdi.
Men izidan quvib ketdim.
Bola bola-da – darrov holdan toyib qoldi.
Men yetib olib yelkasidan ushladim.
O‘g'limiz yelkasini silkib olib chopaman deya, beti bilan yiqilib tushdi. Tuproqda yuztuban yotib oldi.
O‘g'limiz bir nimani bag‘riga bosib yig‘ladi. Oyoqlarini tipirchilatib yig‘ladi. Yer tepinib yig‘ladi.
Tuproq changib-changib qoldi.
O‘g'limiz yig‘lay-yig‘lay – oxiri holdan toydi. O‘pkasini bosolmay hiq-hiq nafas oldi.
O‘g'limiz qalt-qalt etdi. Yelkalari pir-pir uchdi. Boshi sarak-sarak bo‘ldi.
Bola qo‘rqdi!
Ko‘zini ohista ochdi.
— Tur, uyga yur, — dedim.
O‘g'limiz ingilladi. Ko‘zini tag‘in yumdi. Yuzini yer qo‘ydi.
O‘g'limizni bir yoniga ag‘dardim. Nima ekan deya, bag‘-riga qaradim.
O‘g'limizni bag‘rida ikki dona xurmo bo‘ldi.
O‘g'limiz xurmolarni tag‘in-da bag‘ir bosdi. Yer tepib-yer tepib yig‘ladi.
— Bermayman, yo‘q, bermayman! — dedi.
O‘g'limizni dast ko‘tarib qo‘ltiqlab oldim.
O‘g'limiz qo‘ltig‘imda tepkilab yig‘ladi. Bilaklarimni tishlab yig‘ladi.
Yosh bolani tishi yomon-da – bilaklarim achishib og‘-ridi.

Bir amallab ichkari olib kirdim. Og‘ziga tars etkizib bir urdim.

Joni yomon-yomon og‘ridi, shekilli – og‘zini ushlab-ushlab yig‘ladi.

Ana shunda xurmolar yer tushdi. Xurmolar yumalab-yumalab jo‘nadi.

Men xurmolarni ushlab-ushlab keldim.

Hamsoya-qo‘llarnikidan onamiz keldi. Og‘zini ushlab yotmisht o‘g‘limizni yerdan ko‘tarib oldi.

Shunda, o‘g‘limizni og‘zi burnida qip-qizil qon ko‘rdim.

Onamiz o‘g‘limizni yer enkaytirdi. Kafti bilan og‘zi burnini artdi.

– Ha, qo‘ling sinsin-a, shugina norasidani urgan qo‘lginang sinsin-a! – dedi.

Onamiz tevarak alangladi. Tandir oldida yotmisht temir kosovni olib otdi.

Men enkayib qoldim – kosov ustidan o‘tib ketdi.

Onamiz yerdan bir siqim tuproq oldi. O‘g‘limizni og‘zi burnini artdi. Doka ro‘moli uchidan yirtish oldi. Yirtishni yumaloqlab o‘g‘limizni burniga tiqdi.

– Bola senga nima qildi-a, norasida bola senga nima qildi-a? – dedi.

Men qo‘limdag'i xurmolarni ko‘rsatdim.

– Manavini qarang, shuni olib qochdi! – dedim.

– Shugina uchun norasida bolani og‘zi burnini qon qilasani, yerparchin bo‘lgur?

– O‘ynab qo‘yay shuginadan, shuginani kilosi uch so‘mturadi!

– Shu ikkovgina xurmoga-ya? Ha, qirchingindan qiyilgin, qirchinginangdan qiyilgin!

– Ikkovgina bo‘lgan bilan salkam bir kilo keladi!

– Bir kilo kelsa, nima bo‘pti? Ha, xurmolaring boshing-dan qolsin, boshginangdan qolsin!

– Ertaga mehmon kelsa, oldiga nima qo‘yaman? Birovini bunisi yesa, birovini unisi yesa, mehmonlar nimani yeysi?

– Nima, mehmonlardan xurmo qarzing bormi, yer-chilim bo‘lgur?

– Qarzim yo‘q, ena, qarzim yo‘q. Lekin mehmon atoyi Xudo-da. Mehmon otadan ulug‘-da. Mehmonlar oldida kim degan odam bo‘lamiz?

– Unda, mo‘lroq ol edi...

– Xurmoni pulga beradi. Enam aytdi degan bilan bermaydi.

– Bola bola-da, ko‘ngli ketadi...

– Katta mehmonlar insofli bo‘ladi, ena. Nazari to‘q odamlar bo‘ladi. Barini yeb qo‘ymaydi! Dasturxonda qoldiradi! Mehmonlardan qolsa – bolalar yeydi-da!

Gapim ma’qul bo‘ldi, shekilli – onamiz o‘g‘limizni ichkari yetaklab ketdi.

Men xurmolarni yengim bilan artib-artib oldim. Joyiga olib borib qo‘ydim.

Jovuz donalariga qarab o‘tirib-o‘tirib... og‘zimni suvi qochdi! Beixtiyor qo‘l uzatdim.

Uzumdan besh-olti dona olsam – uzumbosh losh-losh bo‘lib qoladi. Uzumbosh chumchuq cho‘qilab tashlamishday-chumchuq cho‘qilab tashlamishday bo‘lib qoladi.

Oqibat – mehmonlar oldiga qo‘yar holi qolmaydi.

Men uzumdan qo‘l tortdim.

Oshxonani tashqaridan qulfladim.

Ochiq derazadan ichkari mo‘raladim.

O‘g‘limiz uyduda bo‘ldi. Burunlari tiqig‘liq oppoq doka qip-qizil bo‘ldi.

O‘g‘limiz og‘zini kappa-kappa ochib entikdi. Bir chapi o‘ngarildi, bir o‘ngi o‘ngarildi. Ko‘rpasini tepkilab-tepkilab tushirdi.

– Xurmo, ota, xurmo!.. – deya uyqusiradi.

19

– Shu... mehmonlar necha kishi o‘zi, rais bova? – dedim.

– Hozir sanaymiz-da. Bitta rejissor, ikkita operator, bitta kommentator. Jami bir mashina. Ammo odatimizni bilasiz:

yuqoridan bir mashina katta kelsa, pastdan ikki mashina katta hamroh bo'lib keladi.

– O'ynab qo'yay, mehmondan, o'ynab qo'yay. Masalasi oson ekan. Shu... bozordan qo'y go'sht olsam bo'lmaydimi, rais bova?

– Ajab odamsiz-da, Dehqonqul aka. Kinochilar bizni oldimizga ochidan o'lib kelayotgani yo'q. Mehmon osh deb kelmaydi. Qo'y obro'y-da. Kimsan – katta bir xo'jalikni mash'al brigadiri! Semizlikni qo'y ko'taradi, Dehqonqul aka.

– Chin – qo'y ko'taradi. Chin – men ko'taraman.

– Siz ham semizlikni ko'taring-da.

– Ko'taraman, rais bova, ko'taraman. Semizlikni – qo'y ko'taradi. Semizlikni – men ko'taraman.

– Ha, bali! Qo'y nima degan gap?

– Chin, qo'y qo'y-da. Shu, bolalarmi qishga ust-boshi yo'q edi, rais bova. Borlari-da yirtiq-yamoq edi. Shu qo'yni boqib-boqib, bolalarga ust-bosh olib bersam deb edim. Qo'yda hali so'ykulik hol yo'q.

– Mayli, mayli! Qo'y so'yildi oti bor, qo'y so'yildi! Bolalarga ust-boshni esa... davlat paxta terim uchun mana-mana pul beraman, deyapti. Ana shundan olib berasiz.

– Mayli, rais bova, mayli. Qo'y bo'lsa qo'y-da.

– Ha, yashang! Kim aytadi sizni o'zbak deb? O'zbak o'zi yemaydi, o'zi ichmaydi – bor topganini mehmoni oldiga qo'yadi!

– Mayli, qo'y bo'lsa qo'y-da, mayli.

– Avlod-ajdodlar... urf-odatlar... o'zbakchilik... degan-day. O'zbakni qoniqib mehmon kutgani – podsho bo'lgani!

– Xo'p, rais bova, xo'p.

– Kino bo'lasiz, kino! Tarixda qolasiz, tarixda!

– Tavba qildim, rais bova, tavba qildim.

– O'zbakni qoniqib mehmon kutgani – podsho bo'lgani!

Bir podsho bo'ling, Dehqonqul aka!

– Shunday bo'layin, rais bova, shunday bo'layin!

Norboy chavandoz otini olib keldi. Hovlimiz yuzasi ar-qonlab ketdi.

Chori magazin mudir „Volga“ mashinasini olib keldi. Bo’sag’amiz qo’yib ketdi.

Onamiz suv sepa hovli supurdi.

– Endi... bolalarni ust-boshini qaytasan? – dedi.

– Davlat paxta terim uchun ana-ana pul berarman emish.

Shu pulni olaman-u, ust-bosh uchun Denov chopaman.

– Shu, kallapoycha qilayin qo’yni ertaroq pulla, dedim...

– Qo’ya bering, ena, qo’ya bering. Bu kunlar o’tadi-ke-tadi – kino bo’lganimiz yonimizga qoladi!

Onamiz mol-holni ko’z ko’rinarli yer qantardi.

– Uyamas-da-buyamas – taqdir-peshona! – dedi.

– Eb-e, taqdir-peshonamizga nima qilibdi, eb-e? Mana, kino bo’lib tarixda qolayapmiz! Bu kunlar o’tadi-ketadi – tarixda qolganimiz yonimizga qoladi!

– Qarg’ish urgan odamni peshonasi ana shunday bo’ladi.

– Enani qarg’ishi bolaga urmaydi. Ena, enani qarg’ishi bolaga urmaydi. Og’zingizni to’ldirib qarg’ay bering – baribir qarg’ishingiz menga o’tmaydi!

Onamiz tovuqlar ko’z ko’rinib donlasin uchun – so’ri gir-dilatib don sochdi.

– Seni men emas – seni Xudo qarg’agan.

– Xudo qarg’agan? Eb-e, men Xudoga nima yomonlik qildim-e? Xudo nima deb qarg’agan-e?

– Xudo, iloyim, shu o’zbak degichni topgani aziz meh-moniga buyursin, deb qarg’agan!

Kun ko’tarildi.

Darvozamiz oldida uzundan uzun avtobus bel bo’ldi.

Avtobusdan uch-to’rtta bo’zbola tushdi.

Bo'zbolalar paxmoqsoch bo'ldi. Qora ko'zoynakli bo'ldi.
Soqoldor bo'ldi.

Bo'zbolalar darvozamiz oldida apparat joylashtirdi. Apparatlarini hovlimiz qaratdi.

Ostonada Ideologiya bilan raisimiz qora berdi.

Men bor bisotimni kiyib peshvoz bordim.

Onamiz Stalin zamonida terimchiligi uchun olgan ko'ylagini kiyib peshvoz keldi.

Men ular bilan qo'l berib ko'rishdim. Quchog'imni katta ochib:

– Qani, marhamat, xush kelibsizlar! – dedim.

Ideologiya bilan raisimiz egilib-egilib ko'rishdi. Tantanavor-tantanavor ko'rishdi.

Apparatlar shir-shir surat olib turdi.

Men mehmonlarni ergashtirdim. Butun hovli yuzini ko'z-ko'z etdim.

So'ri oldida oyoq ildim. Kulimsidim. Qo'limni ko'ksim qo'ydim. Mehmonlarga tavoze etdim.

Mikrofon sudrab yurmish jingalasoch bo'zbola o'rtani olib gap boshladi:

– O'zbek xonadoni! Bu so'zda olam-olam ma'no bor!
O'zbek xonadoni demak – „Volga“ mashina demakdir!
O'zbek xonadoni demak – qorabayir ot demakdir! O'zbek xonadoni demak – suruv-suruv qo'y-qo'zi demak, mol-buzoq, yetti xazinaning biri demakdir! Shunday emasmi, rais bobo?

– Xa, – dedi raisimiz, – xo'jaligimizda uch mingdan ziyod xonodon bor! Hammasi xuddi mana shu ko'rib turganingizday to'q, farovon xonadonlar! Xonadonlarimizda yetti xazinadan tortib mashinagacha – hamma-hamma narsa muhayyo!

– Dehqonqul aka, mana, siz shu xonodon sohibi ekansiz, noo'rin savolim uchun afv etasiz: ish vaqtida uyda nima qilib o'tiribsiz?

– Soat endigina sakkiz yarim bo'ldi, – dedim. – Ish boshlanishiga hali yarim soat bor.

- Demak, ishlaringiz to‘qqizda boshlanar ekan-da?
 - Ha, ishimiz roppa-rosa to‘qqizda boshlanib, roppa-rosa oltida tamom bo‘ladi.
 - Demak, hozir...
 - Hozir oila a’zolarimiz bilan madaniy hordiq chiqarib o’tiribmiz.
 - Dalaga boraversak ham bo‘lar, borgunimizcha ish vaqt ham bo‘lib qolar?
 - Ish vaqtiga hali yarim soatcha bor-u, mayli, bir marta ertaroq borsak boribmiz-da!
- Apparatlar darvozadan chiqqunimizga qadar surat oldi.

22

Mashinalar dalalab keldi.

Onamiz qalb amri bilan paxtakorlarga yordam bergich onaxon bo‘lib surat tushar bo‘ldi.

Rejissor onamiz bilan xo‘p ham ko‘p mashq oldi.

Onamiz ko‘rak tergich onaxon bo‘lib yo‘l belida turdi.

Jingalasoch chuchukso‘z-chuchukso‘z bo‘ldi:

- Subhidam!.. Oppoq sochlari o‘ziga yarashg‘an munis onaxon yo‘l bo‘ylab kelmoqda. Bo‘yniga etak bog‘lab ol-gan. Engashib, tuproqdan bir nimalarni oladi, puf-puflab, xas-cho‘plardan, chang-g‘uborlardan tozalaydi. So‘ng, onaxonlarga xos bir mehribonlik ila etagiga avaylabgina soladi.

– Assalomu alaykum, onaxon! Yo‘l bo‘lsin, onaxon?

Munis onaxon ona yerdan, ona tuproqdan bir dam bo‘lsada, ko‘zlarini uzmadi. Yetmishni qoralagan, ammo charchash nimaligini bilmagan qaddi-qomatini ko‘tardi. Yengi ila yuz-laridagi halol mehnat terini artdi. Mehnat gashtidan tevarakka zavq ila boqdi. Munis ko‘zlarini porladi.

– „Oq oltin“ terayapman!

Munis onaxon g‘urur va faxr ila shunday dedi-da, yana yo‘ldagi traktor izlarini titkiladi, tuproq kovladi.

– Onaxon, ismi sharifingiz, kasb-koringiz?

Onaxon kamtarlik ila javob berdi:
Ismi sharifim – Paxtaxon! Paxtaoy desangiz ham bo'ladi!
Kasb-korim – paxtakor!
– Paxtaxon! Paxtakor! Munis onaxon bu gapi ila o'zini jisman ham, isman ham – paxtaman, demoqchi! Naqadar dono o'xshatish!
Paxtakor onaxon jiddiy bo'lib qo'shib qo'ydi:
– „Oq oltin“ nondek tabarrukdir. Non ushog'ini yerda qoldirmaganimdek – bir tola „oq oltin“ni ham yerda qoldirmayman!

23

Rejissor o'ngyon cho'ntagimlab „Pravda“ soldi, champion cho'ntagimlab „Sovet O'zbekiston“ soldi. Ro'znama nomlarini ko'z ko'rinarli-ko'z ko'rinarli etib joyladi.

Rejissor tap-tap yelkam qoqdi.
– Barra kalla, barra kalla! – dedi.
Yelkamdan gup-gup chang o'rladi. Yelkamdan oppoq-oppoq chang o'rladi.
Rejissor aft burdi, rejissor kaft bilan chang quvdi.
– Fu, fu!.. – dedi.
Rejissor chang qayerdan o'rladi demishday – bir o'ngimdan qaradi, bir chapimdan qaradi, bir yer qaradi.
– Yelkasidan chang ko'tarildi, yelkasidan! – dedi raisimiz kula-kula.
– Yelka? – angraydi rejissor.
– Ha, yelka! – dedi raisimiz. – Yer nima – dehqon yelkasi nima?

Rejissor tag'in yelkam qoqdi.
– Barra kalla, barra kalla! – dedi.
Rejissor yelkam qoqa-qoqa meni mashina taraf jo'natdi.
Men yo'l-yo'lakay raisimizdan so'radim:
– Rais bova, rejissor nima deyapti?
– Barakalla deyapti, barakalla.
– Barakallani shunday deydimi?

- Ha, endi... ular VGIKda o'qigan-da, VGIKda.
- O'shanda shunday o'qitadimi?
- Ha, endi... VGIKni bitirgan-da, VGIKni.

24

Men dala boshida turmish to'rt qatorli mashinani egat sol-dim. Rejissorga qaratib haydadim. Apparatlar men taraf pesh-landi.

– Do'stlar! – deya peshvoz yurdi Jingalasoch. – Keling, avvalo, o'tmishta bir sayohat qilaylik!

Jingalasoch shunday deya, bir oppoq chanoq uzib oldi. Peshonasi uzra ko'z-ko'z etdi. Chanoq tikilib-chanoq tikilib va'z aytdi:

– Paxta! Paxta malvoylar oilasiga mansub bo'lib, gossipiumlar ajdodidandir! Gossipium – lotincha so'z bo'lib, paxta beruvchi daraxt demakdir! 1670-yilda podsho Aleksey Mixaylovichning buyrug'iga binoan Moskva shahrida ham paxta ekildi. Uni saroy bog'boni Anosov ekdi. Moskvada Izmaylov madaniyat va istirohat bog'i bor. Ana shu xushmanzara yerda paxta dalasi barpo bo'ldi. Izmaylov dalasi yaxshi hosil berdi! Mamlakatimizning Odessa va Xerson o'lkalarida ham Amerika „si-aylend“ paxtasi ekildi. Hosildor paxta bo'ldi. U yerliklar paxtani bir terib oldi. Uch kundan keyin... tag'in ochilib turdi! Kuz oxirlagunicha ochildi! Oxiri -- u yerlik mahalliy xalq paxtadan kechishga qaror qildi. Bizga hosilini bir terib oladigan o'simlik kerak, dedilar. Unday paxta esa yo'q edi! U yerliklar paxta mashaqqatiga, paxta azobiga... bardosh berolmadi! Ammo jafokash o'zbek xalqi, jafokash o'zbek yeri bardosh berdi! O'zbek xalqi, o'zbek tuprog'i umrini paxtaga baxshida etdi. Qish demadi, yoz demadi – paxta, dedi. Tun demadi, kun demadi – paxta dedi. Shundaymi, Dchqonqul aka?

Jingalasoch mikrofonini cho'zdi. Men mashinadan mikrofon enkaydim.

– Ha, shunday, – dedim. – Bizning „paxtaoy“ pichagina nozikta'b, bizning „oq oltin“ pichagina kuydirmajon!

-
- Kechirasiz, hol-ahvol ham so'ramabmiz, bu... ish qalay?
 - Muvaffaqiyatli!
 - Ish sharoitlaringiz qalay?
 - Qulay!
 - Bo'sh vaqtleringizda qanday dam olmoqdasiz?
 - Ko'ngildagiday!
 - Qanaqa dam olmoqdasiz?
 - Madaniy!
 - Ish jarayonida ahyon-ahyonda uchrab turadigan qiyinchiliklarni qanday yengmoqdasiz?
 - Mardonavor!
 - Hali-hamon ko'zga tashlanib turadigan kamchiliklarni qanday bartaraf etmoqdasiz?
 - Ayovsiz!
 - Bu yilgi rejalaringiz qanday?
 - Yuksak!
 - Dono partiyamiz belgilab bergen yo'l-yo'riqlarga qanday amal qilmoqdasiz?
 - Og'ishmay!
- Rejissor chapak chalib yubordi.
- Bravo, bravo! – dedi. – Vot, sovetskiy dehqon!

25

Osmonda pag'a-pag'a oq bulut suzdi.
Kun bulut ortida qoldi.
Dalalar xira tortdi.
Kinochilar kun angnidi.
Jingalasoch Xursandoy bilan Norguloyga „Paxta ishqi“
degich qo'shiq mashq ettirdi.
Kun bulutlar ortidan chiqib keldi.
Dalalar kunday yorug' bo'ldi.
O'qariq bo'yida ayol-qizlar saflandi. Etak boylab terim
shaylandi.
Ideologiya ayol-qizlarni bir-bir ko'zdan kechirdi. Ma'qul,
deya bosh irg'adi.

Rejissor besh-olti odim berida turdi. Oyoq kerdi. Qo'llarini bel tiradi.

Rejissor tishlari orasidan chirt-chirt tupurdi. Tupugi o'zi bilan terimchilar o'rtasi borib tushdi.

Rejissor bir yonidan papiros oldi, bir yonidan gugurt oldi. Terimchilardan ko'z uzmay papiros ezg'iladi. Chirsillatib gugurt chaqdi. Bo'yin qiyshaytirib papiros tutatdi. Gugurtcho'jni yelkasi osha otdi.

Yuragim shuvv etdi.

Gugurcho'p tushmish yer hadahalab bordim. Gugurcho'jni bosib-bosib tashladim.

„Katta, dalada papiros chekmaydi – paxta o't olib ketadi“, deyin-deyin dedim.

Bir Ideologiya qaradim, bir raisimiz qaradim.

Rais bilan Ideologiya bilib-bilmaslikka oldi.

Rejissor burqsitib-burqsitib papiros tutatdi.

Rejissor tutunlar orasidan ayol-qizlar qaradi. Papirosini labi u burchidan-bu burchi surib qaradi. Lablarini do'rdaytirib-do'rdaytirib qaradi.

Rejissor misoli kuchuk imlamishday – shahodat barmog'ini likillata Jingalasoch chaqirdi.

Jingalasoch lik-lik eta keldi. Rejissor girdida yelpatak-yelpatak bo'ldi.

Rejissor kaftini kosa etib-etib gapirdi. Qo'lini bigiz etib-etib gapirdi, barmog'ini peshonasi nuqib-nuqib gapirdi.

Jingalasoch bosh irg'ab-bosh irg'ab eshitdi. Bosh irg'ay-irg'ay terimchilar oldilab keldi. Xursandoy bilan Norguloyga boshdan-oyoq razm soldi.

Terimchilar iymanib yer qaradi. Ro'moli uchini qayirdi. Ro'molini peshonalari surdi. Ter yaltiramish bo'yinlari bilan yoriq-yoriq lablarini yashirdi.

Terimchilar ko'ylak etaklarini tortib-tortib qo'ydi.

– Bo'lmaydi! – dedi Jingalasoch. – Bu atlas bo'lmaydi!

– Yaxshi atlas-ku, – dedi Ideologiya.

- Yaxshi, yomon emas, yaxshi! Ammo bu sariq atlas-da. Sariq atlas ekranda sap-sariq chitga o'xshab ko'rindi. Chungi lentamiz rangli lenta-da.
- Unda, qanday atlas yaxshi bo'ladi?
- Juhudi atlas yaxshi bo'ladi! Ekranda turli rangda tovlab-nib ko'rindi. Juhudi atlas rang-barang-da.
- Yevreyskiy atlaslarining bormi, Xursandoy va Norguloy? – dedi Ideologiya.

Terimchilar yerdan ko'z olmadi. Kalishi uchi bilan yer titkiladi. Bosh irg'adi – yo'q ishorasini bildirdi.

- O'zlarida bo'lmasa, boshqalarda bordir? – dedi Jingalasoch. – Shunday katta kolxozda juhudni atlas topilmaydimi?
- Yevreyskiy atlas topish qiyin. Bu atlas ham yaxshiku? – dedi Ideologiya.
- To'g'ri, yaxshi atlas. Ammo gap boshqa yoqda. Bilasiz, filmimiz Ittifoqqa chiqadi, Ittifoqqa! Undan chet ellarga! Filmimizni butun jahon ko'radi, butun jahon! Ekranda sap-sariq chit ko'ylakni ko'rganlar nima deydi? Qaranglar, bechora o'zbek sovet xotin-qizlari chit ko'ylak kiyib paxta terayapti, demaydimi? Deydi! O'zbek sovet xotin-qizlari kiyigani kiyimga zor ekan, demaydimi? Deydi!

Ideologiya aftodahol-aftodahol bo'ldi.

- Vinovat, vinovat... – dedi.
- Axir, chet ellarda Boymirza Hayit, Vali Qayumxon, Buloqboshi kabi burjua-mafkuraviy dushmanlarimiz qadamimizni sanab yuribdi! Burjua-mafkurachilarimiz ekranda chit ko'ylak kiygan o'zbek sovet xotin-qizlarini ko'rsa, nima deydi? Sovet O'zbekiston och-yupun, demaydimi? Deydi! Ana, o'zbek sovet xotin-qizlari chit ko'ylak kiyib paxta termoqda, demaydimi? Deydi!

Ideologiya benavo-benavo bo'ldi.

- Biz... atlas... – deya g'uldur-g'uldur etdi. – Biz yevreyskiy atlas deganda – o'zbek xotin-qizlarini tushunamiz, o'zbek xotin-qizlari deganda – yevreyskiy atlasni tushunamiz!..

Raisimiz Ideologiya joniga ora kirdi.

– Muncha terimchiga juhudi atlasni qayerdan topamiz? – dedi raisimiz.

– Hammasiga emas, – dedi Jingalasoch. – Mana shu ikkoviga bo‘lsa bo‘ladi. Shu ikkovi yirik planda ko‘rinadi! Qolganlari shunchaki – fonda ko‘rinadi!

– Ha-a, ikkita deng, ikkita topiladi, – dedi raisimiz. – Qani Xursandoy, Norguloy, buyoqqa yuringlar, qani. Xoliqul, mashinani o‘t oldir!

Raisimiz Xursandoy bilan Norguloyni mashinasiga mindirdi. Pichir-pichir tayinladi.

– Zuv etib borib-zuv etib kelinglar! – deya eshik yopdi. – Rais aytdi, desalaring, bizni ayol ham, Chori mudirmi ayoli ham yo‘q demaydi!

26

Rejissor tishlari orasidan chirt-chirt tupurdi.

Rejissor papirosini tutatib bo‘ldi. Papiros qoldig‘ini cher-tib tashladi.

Shunday chertdi-shunday chertdi – ko‘zim ilashmay qoldi! Papiros qayerga tushdi – bilolmay qoldim!

Shunday bo‘Isa-da – papiros uchmish yoq alag‘da bo‘lib bordim. Egat oralab qaradim – topolmadim. Kaftlarimni tiz-zalarim tirab qaradim – tutun payqamadim. Hali o‘chmagan-dir deya, havo iskadim – hid olmadim.

G‘o‘zalarni bir-bir qaradim. Shoxlarini qayirib qaradim. Barglarini ko‘tarib qaradim. Papiros bir oppoq chanoqda ilashib turdi. Bilinar-bilinmas tutab turdi.

Men apil-tapil g‘o‘za uchidan silkidim – papiros egat tushdi.

Papirosni tovonim bilan ezg‘ilab-ezg‘ilab tashladim. Yer ko‘mib-yer ko‘mib tashladim.

Ana shunda ko‘nglim joylashdi.

27

Mashina keldi.

Xursandoy bilan Norguloy juhudi atlas kiyib keldi.

— Ana atlas, mana atlas! — dedi Ideologiya. — Qalay, o'rtoq rejissor?

Rejissor boshmaldoq narraytirib ko'rsatdi.

— Bravo! — dedi.

— Ana, o'zbek sovet xotin-qizlari! — dedi Ideologiya. — Ana endi burjua- mafkurachilarimizni boplaymiz. Ana endi Boymirza Hayit, Vali Qayumxonlar ekranda o'zbek sovet xotin-qizlari obrazini ko'rib, og'ziga urgan itday bo'lib qoladi!

Rejissor labiga barmoq yuritib-barmoq yuritib ko'rsatdi.

Terimchilar tushunmadni.

— Lolab deyapti, — dedi raisimiz.

— Ha, yashang, rais aka! Lolab, lołab! — dedi Jingalasoch, — pomidorrang bo'lqa, ekranda yaxshi ko'rindi!

— Kolxozimiz piri badavlat kolxozi! — dedi raisimiz. — Le-kin shu... lolab yo'g'-a!

— Lolab mineral o'g'it emas, rais aka! Lolab kolxozda bo'lmaydi! — dedi Jingalasoch. — Lolab xotin-qizlarda bo'-ladi!

— Bilaman, bilaman, — dedi raisimiz. — Kolxozimizda lolab qo'ygich xotin-qizni o'zi yo'q-da?

— Bor, — dedi Xursandoy. — Bitta bor. Maktabda o'ris tili muallimi lolab qo'yadi.

— Ana, bor ekan-ku, rais aka?

— Endi... maktab bor edimi...

Raisimiz lattachaynar bo'ldi. Bir kun qaradi, bir yer qaradi.

Endi Ideologiya raisimiz joniga ora kirdi.

Ideologiya sumkasidan barmoqday bir nimani oldi. Terimchilarni mashina taraf imladi.

— Kelinglar! — dedi.

Terimchilar mashina pana bo'ldi.

— Xayriyat-e! — deya kaft ishqadi Jingalasoch. — Kolxozi bo'yicha bitta zamonaviy ayol bor ekan!

— Uyam raykom... — ming'illadi raisimiz.

Xursandoy birinchi egatdan tushdi, Norguloy ikkinchi egatdan tushdi.

– Bo‘ldi! – dedi Jingalasoch. – yirik planda shu ikkita terimchi bo‘ladi. Uyog‘ida kim qanday tushsa tushaversin – uyog‘i shunchaki fonda ko‘rinadi!

– O‘ziyam, yirik-yirik ko‘ringulik terimchilar-da! – dedi raisimiz. – Har birovi mavsum oxirigacha sakkiz tonnadan oshirib „oq oltin“ terish majburiyatini olgan!

– Mashina bo‘l-e! – dedi Jingalasoch. – Deyarli mashina!

– Bularni oldida mashina nima degan gap! – dedi raisimiz. – Mashina buziladi, otkaz qiladi. Bular na buziladi, na otkaz qiladi!

Ideologiya ikkita lo‘ppi chanoq uzib oldi. Puf-pufladi. Silab-siypadi. Norguloy bilan Xursandoyni quloqlari ustiga qistirib qo‘ydi.

Ideologiya Norguloy bilan Xursandoyni o‘rim-o‘rim sochini yelkasidan olib ko‘ksiga tushirib qo‘ydi.

Ideologiya boshqa terimchilarga-da ko‘z-ko‘z etdi.

– Sizlar ham ana shunday qilinglar! – dedi.

Boshqa terimchilar-da quloqlariga chanoq taqdi. Boshqa terimchilar-da o‘rim sochlarni ko‘ksilarini tushirdi.

Ideologiya Xursandoy qabatini oldi.

Jingalasoch Norguloy qabatini oldi.

Apparatlar shir-shir surat olib boshladi.

– Ona tabiatimizda necha xil rang bo‘lsa, barcha-barchasi paxtazorda mujassamdir! – dedi Jingalasoch. – Ha, paxtazorda kamalak ranglarning jamiki jilolari jamuljam! Paxtazorda xotin-qizlarning piyola jarangidek sho‘x kulgisi yangraydi! So‘ng, laparlar, askiyalar, qo‘shiqlar, eshitaladi!

Jingalasoch Xursandoy bilan Norguloya mikrofon tutdi.

Xursandoy bilan Norguloy yuzlarida tabassum o'ynadi.
Tishlarini oqini ko'rsatib jilmaydi.

„Paxta ishq“ ashulasini aytib-aytib paxta terdi:

*Tun demay, kunduz demay, boshingda men parvonaman,
Sog'inib qoldim, ochil, kulsin, sevinsin har tomon...*

– Ha, dalada hurkak tog‘ ohusidek xotin-qizlar turnaqator bo‘lishib paxta termoqda! Biri qo‘yib biri qo‘sinq aytadi, boshqalari jo‘r bo‘ladi:

*Ko‘kdagi sayyoralardek – ochil, oppog‘im, chaman,
Kech kirib to subhidam ishqingda ming to ‘lg‘onaman...*

– Stop!

Rejissor shunday deya, qo‘l ko‘tardi. Egat oralab keldi.

– Xursanday i Nargulay! – dedi rejissor. – Sizniki paxtani sevadi? Sevadi! Sizniki sevgi bilan paxta teradi? Teradi! Bizniki kino qiladi!

Rejissor paxta terib-terib ko‘rsatdi.

– Vot tak, vot! – deya paxta terdi. – Sizniki vot tak muhabbat bilan paxta teradi? Teradi! Bizniki Moskvaga bayroq qiladi!

Gap Jingalasochda ketdi:

– Xursandoy va Norguloy! – dedi. – Paxtani chanoqdan sug‘urib olayotganingizda g‘o‘zalarga, ayniqsa chanoqlarga o‘zgacha bir mehr-muhabbat bilan qarang! Axir, siz paxtani sevasiz-ku! Shundaymi? Paxtaga ishqingiz tushgan-ku! To‘g‘rimi? Qo‘sinqning mazmuniyam shu, nomiyam shu – „Paxta ishq“!

Rejissor tishlari orasidan chirt-chirt tupurdi. Rejissor papiros tutatdi.

– Xursandoy! – dedi Jingalasoch. – Xo‘jayiningizni sevib qolganingizda qanday qilib muhabbat izhor qilgansiz?

Xursandoy yer boqdi. Xursandoy og‘iz ushlab-og‘iz ushlab uyaldi.

– Unday demang-e... – dedi.

– Iya, unday demangi bo‘ptimi? Tasavvur qilaman: xo‘-jayingizni yuzlariga sevgi to‘la ko‘zlarining bilan boqqansiz... sochlarini muhabbat bilan silagansiz... qo‘llarini o‘zgacha bir mehr-muhabbat bilan ushlagansiz... shundaymi? Ayt-mayapsiz – shunday! Paxtaga ham ana shunday munosabatda bo‘ling! Qarang, mana bunday!

Jingalasoch paxta terib-terib ko‘rsatdi:

– Paxtani chanoqdan mana bunday qilib muhabbat bilan olasiz! Keyin – kaftingizda vafo bilan mana bunday qilib ushlaysiz! Undan keyin – sadoqat bilan mana bunday qilib etakka solasiz!

Jingalasoch termish paxtasini Xursandoyni etagiga tashladi.

– Tushundingizmi? – dedi. – Nigohlaringizda muhabbat, vafo, sadoqat balqib tursin! Boqishlaringizda paxta ishqini barq urib tursin!

30

Apparatlar shir-shir surat oldi. Dala boshida turmish agit-mashina ashula aytdi. Terimchilar „Paxta ishqini“ni ayta-ayta paxta terdi:

*Ko‘k ro ‘moling, oq yuzing, bizlarni shaydo aylamish,
Sen bilan biz eskidan sevgi-muhabbatdek tanish.*

– Xotin-qizlar qo‘shiq aytmoqda! – dedi Jingalasoch. – Qo‘llari esa „oq oltin“da! G‘o‘zaga bir egiladi, bir qaddini rostlaydi! Chanoqlardan meni ol-ol, deb turgan oppoq paxtalarni o‘zgacha bir chiroyli harakat bilan chaqqongina oladi! Chang-larini avaylabgina puflab qoqadi, ko‘ziga surtgudek bo‘ladi! Mehr-muhabbat bilan silab-siypab, ko‘kraklariga tutilgan etakka – qalbiga soladi! Qalbi esa „oq oltin“ga to‘lib boradi.

*Nuqrayı gul-gul jamoling, bir o‘pay, ochil, kumush!
Sen chiqib Zuhro kabi – kulsang, havasga qonaman...*

– Saxy kuz oftobi baxtiyor o‘zbek xotin-qizlarining baxtiyor mehnatlarini tabassum ila yoritib turadi. Baxtiyor o‘zbek xotin-qizlari... mana, rayon partiya komiteti ideologiya kotibasi, rayon xotin-qizlar soveti raisasi Klara Xodjayevnaning qalb so‘zları:

– Bizning mamlakatimizda davlatni idora qilishga xotin-qizlarni jalg etish leninchha prinsipi og‘ishmay amalgam oshirilmoxda! – dedi Ideologiya. – Chor Rossiyasida xotin-qizlar saylov huquqidan foydalanmas edilar, Oktabr revolyutsiyasi xotin-qizlarning huquqsiz ahvolini yo‘qotib, ularga davlat, xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarida erkaklar bilan teng huquq berib qo‘ydi, kapitalistik mamlakatlarda bunday ahvolni mutlaqo ko‘rmaysiz, kapitalizmda xotin-qizlar haq-huquqdan mahrumdir!

Agitmashina „mehnat va zafar qo‘shiqlari“dan aytdi:

*Muncha shirin ekan bu – Sovet davroni
Mamnun yashar har inson – yo ‘qdir armoni.*

– Kechirasiz, Klara Xodjayevna, gapingizni bo‘laman, Klara Xodjayevna! – dedi Jingalasoch. – Mana, kolxoz agitatori Javlonboy akaning agitmashinası yalla aytmoqda, bu qanday yalla?

– Bu – „Baxt yallasi“!

– Siz rayon xotin-qizlari sardori sifatida baxt deganda niman tushunasiz?

– Men baxt deganda o‘zbek xotin-qizlarini tushunaman, o‘zbek xotin-qizlari deganda baxtni tushunaman!

*Muncha shirin ekan bu – Sovet davroni
Mamnun yashar har inson – yo ‘qdir armoni.*

– Ha, – dedi Jingalasoch. – Shoirlar „Baxtim bor deb esadi yellar“, deb kuylaganidek, oppoq dalalar uzra „Baxt yallasi“ yangromoqda! Dalalar – uyg‘oq! Dalalar – hur-baxtiyor!

– Ha, – dedi Ideologiya. – Baxt – o‘zbek xotin-qizlarining tarjimayı holiga aylanib qoldi!

Muncha shirin ekan bu – Sovet davroni
Mamnun yashar har inson – yo‘qdir armoni.

31

Men dalalarimni mashina terim uchun shayladim.
O‘qariq havorladim.
Ko‘ndalang quloq havorladim.
O‘nqir-cho‘nqir havorladim.
Yakka-yolg‘iz begona o‘tlarni yulib-yulib tashladim.
Egilib-egilib qolmish g‘o‘zalarim qaddini adl-adl rostladim.

32

Yo‘l bo‘yida o‘smish g‘o‘za kuni qursin!
O‘ngdan bir mashina keldi – yo‘lbo‘y g‘o‘zalarimga gupillatib chang urib o‘tdi. Chapdan bir mashina keldi – yo‘lbo‘y g‘o‘zalarimga gupillatib chang urib o‘tdi.
Mayda-chuyda texnikalar changitib o‘tdi. Ot-ulоqlar changitib o‘tdi. Piyodalar changitib o‘tdi.
Bari chang yo‘lbo‘y g‘o‘zalarimga gup-gup yopishdi. Chang shudring bilan qorildi-qoldi – g‘o‘zalarimda chayirday yopishib-yopishib qoldi.
Yo‘lbo‘y g‘o‘zalarim yerrang-yerrang bo‘lib qoldi. Yo‘lbo‘y g‘o‘zalarim tuproqrang-tuproqrang bo‘lib qoldi.
Barg qaysi bo‘ldi, ko‘sak qaysi bo‘ldi, tola qaysi bo‘ldi – bilib bo‘lmay qoldi.
G‘o‘zalarimni qoqib-da bo‘lmadi – g‘o‘zalarim qirs-qirs sinadi, ko‘saklarim duv-duv to‘kiladi.
Ammo... chayir chang to‘kilmaydi!
Chayir changdan qutulishni birdan-bir yo‘li bo‘ldi: avj tushda g‘o‘za bo‘shashib qoladi. Avj tushda g‘o‘za shal-payib qoladi. Avj tushda taftida chang illa g‘o‘za yopishib turadi.
Avji tush taftida g‘o‘zalarni silkib-silkib olsa – chang to‘kiladi.

Men avji tush taftida yo'lbo'y g'o'zalarim oraladim. G'o'-zalarim uchidan ushlab qoqib-qoqib oldim. G'o'zalarim uchi-dan ushlab silkib-silkib oldim.

Sakkiz egat yo'lbo'y g'o'zamni ana shunday qoqib-qoqib oldim.

Yo'lbo'y g'o'zalarim g'o'zasinbat-g'o'zasinbat bo'ldi.

33

Dalalarimni kelinday-kelinday sozladim.

Raisimiz dalalarimni aylanib-o'rgilib qaradi.

– Dalalaringiz dala bo'lmabdi, dalalaringiz o'ng yoqdagi kelin bo'libdi! – dedi raisimiz. – Dehqonqul aka, men kelin ko'rdi uchun bir qo'y aytdim! Ertaga birinchi terimda so'yasiz!

34

Dalalarim chaman-chaman bo'ldi.

Chamanlar ko'zimni olayin-olayin, dedi.

Men tonglay-tonglay ana shu chamanlarni terib-terib olaman.

G'o'zalarim ozorlanmasin uchun mashina bilan g'ildirak oldiga to'sqich o'rnataman.

G'o'zalarim juft-juft barabanlar oralig'idan ketma-ket o'tadi. Barabanlar g'o'zalarimni aylanib-aylanib qisadi. Barabanlar g'o'zalarimni qamrab-qamrab qisadi. Urchuqlar teskari-teskari aylanadi. Urchuq tishlari ana shu chaman-chaman paxtalarimni o'ziga o'rab-o'rab terib oladi.

Birinchi terim paxtamni ana shunday terib olaman!

Birinchi terim paxtam a'lo nav-a'lo nav paxta bo'ladi. Eshimli-eshimli paxta bo'ladi. Bo'lali-bo'lali paxta bo'ladi. Momiq-momiq paxta bo'ladi. Yakkachigit-yakkachigit paxta bo'ladi. Xiyol sarg'ish tovlangich paxta bo'ladi.

35

Dalalarim lo'ppi-lo'ppi bo'ldi.

Lo'ppi-lo'ppi momiqlar chanoqlardan toshayin-toshayin dedi.

Urchuqlar aylanadi/aylanadi – ana shu lo'ppi-lo'ppi momiqlarni ilib olgich cho'tkali barabanlarga ro'baro' bo'ladi. Barabanlar teskari taraf aylanadi/aylanadi – paxtalarimni qabul gumbazxonasiga uloqtiradi. Qabul gumbazxonasi shamol-parrak yordamida paxtalarimni havo bilan so'radi-so'radi – ichkovakdan mashina paxtaidishiga olib borib to'kadi.

Ikkinci terim paxtamni ana shunday terib olaman!

Ikkinci terim paxtam birinchi terim paxtamdan maydarroq bo'ladi. To'liq pishib yetilmagan bo'ladi. Siyrak-siyrak paxta bo'ladi. Kam eshim-kam eshim paxta bo'ladi. Kam momiq-kam momiq paxta bo'ladi. Momiq ich-tashi to'lqin-to'lqin paxta bo'ladi. Oq-sarg'ish paxta bo'ladi. Sariq-sariq dog'li paxta bo'ladi.

36

Men adl-adl g'o'zalarim paxtasini terib olish uchun barabanlar oralig'ini keng-keng olaman.

Men o'rtabo'y-o'rtabo'y ham kaltabo'y-kaltabo'y g'o'zalarim paxtasini terib olish uchun barabanlar oralig'ini tor-tor olaman.

Men urchuqli barabanlar ketiga havoyutgich moslama o'rnatib paxta teraman.

Havoyutgich moslama g'o'zalarim ostilab tushmish paxtalarimni so'rib-so'rib oladi.

Havoyutgich moslama egatlab to'kilmish paxtalarimni yutib-yutib oladi.

37

Uchinchi terim paxtamni qo'lda teraman.

Bir hissa qo'l terim oltmisht kilo bo'ladi.

Bir kilo paxta terish uchun ikki yuz ellik dona chanoq tozalayman.

Oltmisht kilo paxta terish uchun o'n besh ming bor chanoq egilib-chanoq egilib turaman. Oltmisht kilo paxta terish uchun o'n besh ming bor yer enkayib-yer enkayib turaman.

Uchinchi terimda osmon aynib qoladi.

Havo sovib-sovib oladi.

Yomg'ir savalab-savalab oladi.

Uchinchi terim paxtamni chala-chala ochilmish ko'sakdan terib olaman.

Uchinchi terim paxtamni tirjayib-tirjayib qolmish ko'sakdan terib olaman.

Shu bois, uchinchi terim paxtam sin-sinbati ko'saksinbat-ko'saksinbat bo'ladi,

Uchinchi terim paxtam ob-havo misol xira-xirarang bo'ladi. Aynima osmon misol tund-tundrang bo'ladi.

Uchinchi terim paxtam sap-sariq dog'li bo'ladi. Qo'ng'ir-qo'ng'ir dog'li bo'ladi.

Uchinchi terim paxtam chirimanda-chirimanda paxta bo'ladi. Eshimsiz-eshimsiz paxta bo'ladi. G'ozsiz-g'ozsiz paxta bo'ladi.

Olti misqollik paxtam uchinchi terimda uch misqol bo'lib qoladi!

38

Men ana shunda olibsotar bo'laman-qolaman!

Olibsotar oriqdan-oriq qo'y boqadi. Olibsotar tozidan-tozi qo'y boqadi.

Erta bozorda ana shu tozi qo'y oshig'i ustidan teshadi.

Olibsotar ana shu teshikka og'iz qo'yib puflaydi. Lunj shishirib-lunj shishirib puflaydi. Chiranib-chiranib puflaydi.

Qo'y bir o'lib tiriladi. Qo'y bir o'limdan qoladi.

Qo'y bir kechada semiradi. Qo'y puflanmish shar misol tarang bo'ladi.

Olibsotar azonlab qo'yni bozor soladi.

Molbozorda moljallob degich kimsa bo'ladi.

Moljallob uchun kirim bo'lsa bo'ldi – buzoqni ho'kiz
deya sotib beradi. Moljallob uchun kirim bo'lsa bo'ldi – ech-
kini qo'y deya pullab beradi.

Ana shu moljallob qo'yni maqtab-maqtab pullab beradi.
Dalalarim ana shu qo'y bo'lib-bo'lib qoladi!

Kattalar ana shu moljallob bo'lib-bo'lib qoladi!

Men ana shu olibsotar bo'lib-bo'lib qolaman!

39

To'rtinchi terimda qor yog'adi.

Havodan qish nafasi keladi.

Kechalari halqob suvlar muzlaydi.

Dalalarim bilch-bilch loy bo'ladi.

Men shilt-shilt loy botib ko'sak teraman.

Men qunishib-qunishib ko'sak teraman.

Men qalt-qalt qaltirab ko'sak teraman.

Men hovuchlarimga uflab-uflab ko'sak teraman.

Ko'saklar toshday-toshday metin bo'ladi.

Ko'saklar muzday-muzday sovuq bo'ladi.

Tosh-metin ko'saklardan qo'llarim tilim-tilim bo'ladi.

Muz-muz ko'saklardan qo'llarim yiring-yiring bo'ladi.

TO'QQIZINCHI BOB

1

It bemavrid-bemavrid hurdi. Men uyqumda eshitib yot-dim.

It jon-jahdi bilan hurdi. It qahr bilan hurdi.

Uyqum qochdi. Choponimni yelkam tashlab tashqariladim.

Tun toshday-toshday zim-ziyo bo'ldi.

Timirsikilandim-timirsikilandim – tashqi chiroqni yoqdim.

It xiyol zabtidan tushdi.

Men darvoza tarafladim.

Darvoza odob bilan tik-tik etdi. Darvoza nazokat bilan tik-tik etdi,

„Kim bo‘lsa-da, o‘zimizdan bo‘lmadi, – deya o‘yladim. – O‘zimizdan bo‘lsa, taraq-turuq uradi“.

– Kim u? – dedim.

– Biz idoradan keldik! – dedi bir ovoz. – Birinchi terimda so‘yish uchun qo‘y olib keldik!

Men darvoza zulfiniga qo‘l uzatdim.

– O‘ynab qo‘yay, qo‘ylaringdan! – dedim. – Yarim kechada qo‘yim nimam?

– Rais yubordi, rais! Ocha qoling!

– Birinchi terim ertamatan boshlanadi. Ertamatan olib kelardilaringiz-da?

– Endi, rais mash’al brigadirimiz ertalab shoshib qolmasin, dedi-da. Ocha qoling, qo‘yingizni ola qoling!

– O‘ynab qo‘yay, raisdan-da! – deya-deya darvoza zulfinini oldim.

Shunda, uchta odam zabit bilan ichkari yopirildi.

Birovi ko‘kragimga to‘pponcha tiradi.

Ikkovi hovliga avtomat o‘qtaldi.

– Qimirlama! – deya zug‘um etdi to‘pponchalik. – Qo‘lingni ko‘tar!

– Nima gap! – deya hang-mang bo‘ldim.

– Qo‘lingni ko‘tar, deyapman!

Men qo‘llarimni ko‘tarib-ko‘tarib turdim.

– Qo‘ynini kovlanglar! – dedi to‘pponchalik.

Avtomatchilar qo‘ynimga qo‘l tiqib-qo‘l tiqib ko‘rdi. Cho‘ntaklarimni bosib-bosib ko‘rdi. Uyatli-uyatli joylarimni ushlab-ushlab ko‘rdi.

Ushlamagan joylari qolmadi!

– Yo‘q! – deya to‘ng‘illadi avtomatchi.

– To‘pponchang qayerda? – dedi to‘pponchalik.

– To‘pponcha? Qandaychikin to‘pponcha? – deya hayronlandim.

– Ko‘p talmovsirama, senlarda pulemyot ham bor!

– Ketmonimdan bo‘lak balom yo‘q! – dedim.

– Senlarda-ya? Hali ko‘ramiz! Qani, ichkari boshla!

Avtomatchilar yelkamdan turtib-turtib ichkari haydadi.

To‘pponchalik to‘pponchasi bilan derazamizni zir-zir urdi.

Ichkari chiroq yondi.

Onamiz uy o‘rtasida serrayib turdi.

Bolalar uyg‘onib qoldi.

Bolalar onamiz oyoqlariga osildi. Bolalar uyqusirab-uyqusirab yig‘ladi. Bolalar ko‘zlarini nim ochib-nim ochib yig‘ladi.

Onamiz bir menga olazarak boqdi, bir avtomatchilarga olazarak boqdi.

Bir avtomatchi avtomati qo‘ndog‘i bilan onamizni turtib yubordi.

Onamiz ketilab tisarildi-tisarildi – burchak suyanib qoldi.

Bolalar onamiz girdida g‘uj-g‘uj bo‘lib oldi.

Avtomatchilar avtomat qo‘ndog‘i bilan sandiq usti bo‘g‘-jomalarni ag‘darib-ag‘darib tashladi.

Avtomatchilar sandiq qulf-zulflarini sug‘urib-sug‘urib tashladi.

Bir sandiqda ayolimiz rahmatlikdan qolmish kiyim-kechak taxloqlik bo‘ldi.

Avtomatchilar ayolimiz rahmatlikdan qolmish kiyim-kechaklarni avtomat uchi bilan ildirib-ildirib otdi.

Avtomatchilar ayolimiz rahmatlikdan qolmish kiyim-kechaklarni avtomat uchi bilan silkib-silkib otdi.

Avtomatchilar ayolimiz rahmatlikdan qolmish kiyim-kechaklarni avtomat uchi bilan qoqib-qoqib otdi.

Avtomatchilar ayolimiz lozimini otmadı – meni bag‘rimni otdi!

Bag‘rim bir o‘pirilib tushdi!

Shunda... ayolimiz lozimi ulog‘idan chiroq ilashib qoldi. Ayolimiz lozimi ulog‘idan chiroq yopinib qoldi.

Ana shunda uy-ich nimqorong'i bo'ldi.

To'pponchalik lozimni olib tashlamoq bo'lib qo'l uzatdi.

Tag'in, birdan qo'l tortdi.

– T-fu!.. – deya lozim tupurdi.

To'pponchalik ayolimiz lozimilab tupurmadi – meni betimlab tupurdi!

Bag'rim ikki o'pirilib tushdi!

To'pponchalik ayolimiz lozimini to'pponcha uchi bilan olar bo'ldi. Bir to'pponcha qaradi, bir lozim qaradi.

To'pponchasini lozim tekkizishdan hazarlandi! To'pponcha bilan onamizga ishora berdi.

– Manaviningni olib tashla! – dedi.

Onamiz hadaha lozim oldi. Lozim qo'ltiqlab burchakladi.

– Iloyim, shu qilg'ilig'ing o'zingga ursin, o'zingga bo'l-masa, bolangga ursin! – deya ming'- ming' qarg'adi.

Avtomatchilar sandiqlarni ag'darib-ag'darib qaradi. Gilam ostilarini bosib-bosib qaradi. Deraza tokchalarini taq-taq urib qaradi. Devorlarni chertib-chertib qaradi.

Uy-ich itirqin-itirqin bo'ldi!

Avtomatchilar devor bosh-adog' kosovsimon apparat yugurtirib-yugurtirib ko'rди.

Avtomatchilar oshxona titdi.

Avtomatchilar omborxona titdi.

Avtomatchilar molxona titdi.

Uy-tash itirqin-itirqin bo'ldi!

– Oltinlaring qayerda? – dedi to'pponchalik.

– Oltin? Qanday oltin?

– Apparatimiz yonib ko'rsatmayapti. Yaxshilikcha, o'zing ayt! Bo'l-bo'l!

– O'ynab qo'yay, oltin zotidan, o'ynab qo'yay. Oltin-tilla do'konda bo'ladi-da.

– Aytmaysanmi? Hali, aytasan!

To'pponchalik shunday deya, bilaklarimni juftladi. Shiqillatib kishan soldi. Kishan jilovini bilagidan o'rab oldi. Darvoza oldida turmish mashina taraf yetakladi.

O'g'limiz ketimdan ovoz berdi:
– Ota-a-a!
To'pponchalik meni mashina imladi.
– Yo'l bo'lsin? – dedim.
– Enangni uyiga!
Men mashina kira bermadim.
– Yo'l bo'lsin? Ertamatan birinchi terim boshlanadi? – dedim.
Avtomatchilar meni itargilab-itargilab mashina bosdi.
Mashina oynasidan uyimiz qaradim.
Onamiz uy bo'sag'ada serraya-serraya qoldi.
Bolalar onamiz tevaragida g'uj bo'lib-g'uj bo'lib oldi.
O'g'limiz tag'in ovoz berdi:
– Ota-a-a!..

2

Mashina zim-ziyoda yurdi-yurdi – bir ovloqni manzili jalol etdi.

To'pponchalik meni yetaklab tushdi. Hadaha bilan boshqa bir mashina soldi.

Birinchi mashinada qolmish avtomatchilarga tayinladi:
– Manavi chap yo'ldan haydanglar, – dedi. – Mabodo mafiya quvib qolsa, bor tezlik bilan haydanglar!

Mashinamiz o'ngga burilib jo'nadi.
Biqinimda to'pponcha qadalib-qadalib turdi.
– Yo'lda mafiyang daf'a qilib qolsa, manavi oyoq ostiga yotib ol! – dedi to'pponchalik. – Sen bizga tiriklayin keraksan!
– U kim? – hayronlanib so'radim.
– O'zingni ovsarlikka olma! Biz barini bilamiz!

Bir ko'prik poyida tong otib qoldi.
– Yorug' bo'p ketdi-ya! – dedi to'pponchalik. – Mashinani ko'prik ostiga ol!

Tong yorigandan-yordi.
„Halizamat birinchi terim boshlanadi“, deya xayollandim.
Mashina ko'prik ostida oyoq ildi.

— O‘zi, qayoqqa ketayapmiz? — dedim. — Halizamat terim-chilar dalalab keladi.

— O‘chir-o‘chir!

To‘pponchalik oynadan tashqari alanglab-alanglab oldi.

— Surxondaryocha mashina raqamlaring bor-a? — dedi haydovchiga. — Darrov raqamlaringni almashtir! Surxondaryocha raqam qo‘y!

Haydovchi apil-tapil mashina old-ket raqamlarini almashtirib-almashtirib oldi.

Mashina tag‘in yo‘l ravona bo‘ldi.

Mashinadan tayyora pillapoyasila oyoq bosdim.

Tayyora yerdan oyoq oldi.

— Xudoga shukur-e! — deya yelkadan nafas oldi to‘pponchalik. — Mafiyangga ham chap berdik!

3

Tom – tosh bo‘ldi.

Devor – tosh bo‘ldi.

Yer – tosh bo‘ldi.

Toshlar zaxdan-zax bo‘ldi!

Men burchakda cho‘nqayib o‘tira berdim. Peshonamni tizzalarim qo‘yib o‘tira berdim.

Dimog‘im bir is tuydi.

Is dimog‘im uchun haminqadar qo‘lansa bo‘lsa... haminqadar qadrdon-da bo‘ldi.

Is – butifos isi bo‘ldi!

4

Ikkita askar o‘rtasida bordim.

Kun kunduzimi yo kechami – bilmadim.

Qorag‘ilof eshikdan ichkariladim.

To‘rda o‘tirmish baroqqosh katta joyidan turdi. Men bilan qo‘l berib ko‘rishdi. Bosh egib-bosh egib mulozamat etdi.

Baroqqosh katta joy lutf etdi.

– Marhamat, Dehqonqul Aqrabovich, marhamat! – dedi.

Men baroqqosh katta marhamat etmish joy cho'kdim.

Baroqqosh katta o'z joyini oldi. Bosh irg'ab-bosh irg'ab iljaydi.

Baroqqosh katta betimdan ko'z olmadi – bir chapimdan qaradi, bir o'ngimdan qaradi.

– Ko'p qarab yotmang, – dedim. – Betim pes emas.

Baroqqosh katta tag'in bosh irg'adi.

– A?.. – dedi. – Bo'ladi, hayotda shunday dard bo'ladi...

Ammo yuqumli sanalmaydi...

– Ellik daraja jaziramada ketmon chopamiz, ana shundan, – dedim.

– Iya! – deya hayronlandi baroqqosh. – Unda nega yuzingiz bir tekis qora emas?

– Saraton mahali dalada ko'z ochib bo'lmaydi. Ko'zimizni qisib-qisib ketmon chopcha beramiz.

– Ha-a? Men boshqa xayolga boribman...

– Bari ko'rgilik kun bilan ketmondan.

– Bo'ldi-bo'ldi, tushundim. Xo'-o'sh, unda, tanishib qo'yaylik: men Ivan Ivanovich Ivanov bo'laman. „O'zbeklar ishi“ bilan shug'ullanaman.

To'rda bahaybat po'latsandiq bo'ldi. Sandiq uzra supraday qizil bayroq yoyilib turdi.

Baroqqosh boschi uzra o'rtoq Lenin kulib-kulib qarab turdi.

O'ng tarafda Dzerjinskiy qahrlanib-qahrlanib qarab turdi.

Baroqqosh so'ray berdi – men ayta berdim.

Aytuvlarim xatga tusha berdi.

Baroqqosh xat qarab xayol surib qoldi.

– Endi bo'ldi-a? – dedim. – O'ziyam, yetti pushtimgachayin so'rab oldingiz. Endi men ketayin.

– Qayoqqa ketasiz?

– Qayoqqa bo'lardi – uyimga-da. Birinchi terim boshlandi. Men bo'lsa, buyoqlarda yuribman. Aslida terimchilarga qo'y so'yib berishim lozim edi. Og'ziga yetar bo'ladi, og'ziga yetmas bo'ladi, so'kadi-da. O'i-a, mash'al brigadir bo'lmay,

deydi-da. Gap raisimiz qulog‘iga yetsa, undan-da yomon.

Baroqqosh lablari burchida kului.

– Jamoliddinov, Jamoliddinov! – deya kului. – Dehqonqul Aqrabovich, Dehqonqul Aqrabovich! Raisingiz shu yerda!

– Shu yerda?

– Ha-da. Siz bilan bir tayyorada keldi.

– Eb-e?.. O‘ynab qo‘yay-o‘ynab qo‘yay, qayerda-qayerda?

– Siz bilan qabatma-qabat yotibdi. Xo‘-o‘sh, qalay joylashdingiz, ma’qulmi?

– Siz bilasiz-da, men ne bilayin?

– Ishqilib, ozodaginami?

– Ozoda? Butifos isi anqib yotibdi. Chidab bo‘lmaydi.

– Endi, chidaysiz-da, Dehqonqul Aqrabovich. Bilaman, butifos hidi anqib turadi, bilaman. U joylar bir vaqtlar zaharli dorilar saqlanadigan omborxona edi. U joylarga kirib bo‘lmash edi. Illojimiz qancha, „o‘zbeklar ishi“ uchun foydalanan bo‘ldik.

– Kimlar uchun?

– „O‘zbeklar ishi“ uchun. Zaharli dori omborda o‘zbekdan boshqa xalq chiday olmaydi-da. Chunki o‘zbek xalqi yil o‘n ikki oy dalada zaharli dori sepib ishlaydi-da. Yil o‘n ikki oy zaharli dori hidlab yashaydi-da. Shu sababli o‘zbek xalqini zaharli dori omboriga joylashtirdik. Chiniqqan xalq-da, chiniqqan.

5

Kunduzlari zaxda o‘tirib turdim.

Kechalari toshdevor to‘ntarib qulflanmish kambardan-kambar taxtani tushirib yotdim.

Butifos isi dimog‘im botmadi. Dalamda yotmishdayin osoyishta yota berdim.

Darvozani daranglatib ochmish askar butifosdan aft burdi. Kaft bilan og‘iz-burun yopdi.

Askar boshi bilan chiq, imosini berdi.

Men uzun dahliz bo‘ylab yo‘l oldim.

Ketimdan kelmish askar og‘zi burnidan kaftini oldi. Bur-chakda turmish satilga enkaydi. Tomog‘ini changallab-chan-gallab o‘qchidi.

- Uh, tuf, uh! – deya o‘qchidi. – Enam-ay, ay, enam-ay!..
 - O‘rganib ketasiz-o‘rganib ketasiz! – deya dalda berdim. Askar achchiq bilan yelkamdan turtdi.
 - Yur, sendan so‘rayapmanmi, yur! – dedi.
- Men bir qalqib yo‘l oldim.

6

Qorag‘ilof eshikdan ichkariladim.

Ivan Ivanovich qulog‘idan telefondasta oldi.

Shahodat barmog‘i bilan joy buyurdi.

Men buyurilmish joy cho‘kdim.

Ivan Ivanovich po‘latsandiqlan bir juzgir oldi. Juzgir va-raqlab-varaqlab qaradi.

– Dehqonqul Aqrabovich, – dedi. – Siz poraxo‘rlar bilan osh-qatiq bo‘lib keldingiz. Siz tekinxo‘rlar bilan oldi-berdi qilib keldingiz. Bor aybingiz shu. Bu esa, ayb sanalmaydi. Shu bois, men bir-ikkita savol beraman.. Siz esa, savollarim-ga lo‘nda-lo‘nda javob berasiz – bo‘ldi! Qanchalik haqqoniy javob berasiz – shunchalik tez ozod bo‘lasiz! Kelishdikmi? Serquyosh O‘zbekistonda paxta xom ashyosini „oq oltin“ dey-dilar-a? O‘zbek xalqi g‘oyat zukko xalq – topib aytadi! Ana shu serquyosh O‘zbekistonda „oq oltin“ terimi boshlandi! Tez-tez javob berasiz – ana shu „oq oltin“ qo‘yniga yetib borasiz!

- So‘rang-so‘rang, – deya bosh irg‘adim.
- Xo‘-o‘sh, birinchi so‘rov: o‘rtoq Jamoliddinov, raisi-ningizni oltinlarini qayerga ko‘mib edingiz?

O‘yladim-o‘yladim – o‘ylab o‘yimga yetolmadim.

- O‘ynab qo‘yay, so‘rovingizdan, – dedim. – Qanday-chikin oltinni aytayapsiz?

- Qandaychikin bo‘lardi – Muruntov oltini-da.
- Oltin sariq bo‘ladi, deb eshitib edim. Ammo-lekin oltin-ni o‘zini ko‘rganim yo‘q.

– Mumkin, ko‘rmagan bo‘lishingiz mumkin. Chunki raisingiz oltinlarni ochiqcha bermaydi-da. Raisingiz... manavilarni ko‘mib tashla... deb biror nima berib edimi? Ana shuni qayerga ko‘mib edingiz?

– O‘ynab qo‘yay-o‘ynab qo‘yay, rais qayerda – men qayerda? Rais odam menga bir nima berarmidi?

– Beradi! O‘zidan xolis yashirib saqlash uchun beradi! O‘rtoq Jamoliddinov, siz ana shu oltin ko‘mmangiz qayerdaligini aytsangiz bo‘ldi – sizga javob berib yuboraman!

– Menda oltin ko‘mma nima qiladi, katta?

– Oldin aytin: raisingiz oltinlarni sandiqqa solib berib edimi yo bidonga solib berib edimi?

– O‘ynab qo‘yay, gaplaringizdan, o‘ynab qo‘yay. Bidonga oltin soladilarmi? Bidonga suv soladilar!

Ivan Ivanovich oldimga bir ro‘znama olib keldi. Ro‘znama nomini ko‘z-ko‘z etdi.

– Ko‘rayapsizmi, o‘rtoq Jamoliddinov? – dedi. – „Sobesednik“ ro‘znomasi. Butun dunyo o‘qiydi! Endi, „Sobesednik“ ichini qaraymiz!

Ivan Ivanovich ro‘znomani yoydi.

Ro‘znama qo‘shaloq betida uyum-uyum oltin tangalar suvrati bo‘ldi. Uyum-uyum oltin uzuklar bilan oltin sirg‘alar suvrati bo‘ldi. Qat-qat yuz so‘mlik bilan qat-qat ellik so‘mliklar suvrati bo‘ldi.

– O‘-o‘-o‘... – deya hushim boshimdan uchdi. – Bular qayerda, katta?

– O‘zbekistonda, Dehqonqul Aqrabovich, serquyosh O‘zbekistonda! Mana, ostida bitiklariyam bor: „Buxoro shahar sanoat mollari savdosi idorasi boshlig‘i Shodi Qudratovdan to‘rt yarim million so‘mlik oltin pul topildi, Buxoro viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i Muzaffarovdan bir million bir yuz o‘ttiz bir ming... so‘m pul, ikki yuz qirq olti ming... so‘mlik oltin buyumlar topildi“...

– Ebo-ey, ebo-ey... mucha nimani qanday qilib topdilaringiz?

– Topamiz-da, Dehqonqul Aqrabovich, topamiz-da! Hali sizning oltin ko‘mmalar ringizniyam topamiz. Mana, qanday qilib topamiz.

Ivan Ivanovich barmog‘i bilan ro‘znomadan oltin uyumlar ostini nuqidi. Nuqilmish yerda bir o‘ra bo‘ldi.

O‘ra tevaragida beshta bidon bo‘ldi. Ikkita bo‘z-bo-la o‘radan tag‘in bir bidonni arqon bilan tortib-tortib olar bo‘ldi.

Ivan Ivanovich ana shu o‘ra boshida qog‘oz-qalam ushlab turar bo‘ldi. O‘radan bidon tortib olishni nazorat etib turar bo‘ldi.

– Manavi siz-da? – deya barmog‘im bilan nuqidim.

– Men, kim bo‘lardi, men. Dehqonqul Aqrabovich, ana shu bidonlar to‘la oltin! Endi aytинг, sizda ana shunday bidonlardan nechta siр bor?

– Birovgina bidonimiz bor! – deya, shahodat barmog‘imi ni narraytirib ko‘rsatdim. – Shu birovgina bidonimiz-da darang-durung bo‘sh yotadi! Saraton chillasida shugina bidonimizni to‘ldirayin deymiz – suv topolmaymiz! Ichgani suv topolmaymiz – oltinni qayerdan topamiz?

– Siz tushunmayapsiz, Dehqonqul Aqrabovich, tushunmayapsiz. Men sizni oltinlaringiz bor, demayapman. Mana shu bidonlarni sizdayin dehqonlar uyidan topdim. Aslida ular Karimov, Do‘slov... degich poraxo‘rlarga tegishlidir! Ana endi tushundingizmi? Siz ana shunday oltin bidonlarni qayerga ko‘mib edingiz – shuni aytasiz, bo‘ldi!

– Aytayapman-ku: birovgina bidonimiz bor – ichida oltini tugul, suvi yo‘q!

– Aytayapman, aytayapman... Boring, yaxshilab o‘ylang! Marhamatimni yaxshilab mushohada eting. Men sizga eng qulay yo‘lni marhamat etayapman. Ertaroq o‘ylab bo‘lsangiz – o‘zingizga yaxshi bo‘ladi!

Ivan Ivanovich enkaydi. Yelkam osha uzaldi. Oldimda yoyilib turmish ro‘znomani oldi.

– Puf! – dedi. – Sasib ketibsiz-a! Nima balo...

-
- Unday demang, Ivan Ivanovich, unday demang. Bu is...
 - Bilaman, bilaman. Butifosda ana shunday g'arib-benavo yotgandan ko'ra... darrov-darrov aytib... qaydasan, serquyosh O'zbekiston, deya jo'nab qolsangiz bo'lmaydimi?
 - Butifos o'z oti o'zi bilan butifos-da. Boshqa joy bo'lsa yaxshi bo'lardi-da.
 - Siz tarixiy binoda yotibsiz, Dehqonqul Aqrabovich, tarixiy binoda! Siz yotgan bino XVII asrda qurilgan cherkov, ha, cherkov! Siz zindonda emas, cherkovda yotibsiz. Shuvelyan yo Vladikavkaz zindonlariga tushganingizda kuningizni ko'rardingiz! Bilasizmi, Shuvelyan zindoni o'z vaqtida nima edi? Tuyaxona edi! Vladikavkaz zindoni esa oqposhsho lashkarlari otxonasi edi! U zindonlardagi shart-sharoitlar ham o'z oti o'zi bilan tuyalar hamda otlar uchun mo'ljallangandir. Shunday ekan, shukur qiling, Dehqonqul Aqrabovich, shukur qiling. Siz cherkovda yotibsiz, cherkovda!

7

Tag'in qorag'ilof eshikdan hatladim.

- Qalay, Dehqonqul Aqrabovich? – deya ko'ngil so'radi Ivan Ivanovich.
- Baharnav-baharnav...
- Yaxshi o'tiribsizmi?
- Baharhol-baharhol...
- Xo'sh, o'ylab bo'ldingizmi?
- Nimani o'ylab bo'laman?
- Demak... o'ylamaysiz?
- O'zi... nimani o'layin?
- Demak, bir-birimizga qarab o'tira beramiz?
- O'tir, desangiz, o'tira beraman.

Ivan Ivanovich joyidan turdi. Derazadan tashqari qaradi. Qo'llarini cholvoi cho'ntagi tiqdi.

Ivan Ivanovich Lenin bilan Dzerjinskny orasida borib keldi.

Borib keldi-borib keldi – birdan aynidi-qoldi.

– Men seni o‘ylataman! – dedi. – Shunday o‘ylataman – O‘zbekiston faylasufi bo‘lib o‘ylaysan!

Ivan Ivanovich tugma bosdi. Jon-jahdi bilan bosdi. Askarlar kirib keldi.

– Manavini...

Ivan Ivanovich gapni oxirini imo-ishoralar bilan aytdi.

Askarlar meni oldiga soldi. Dahlizma-dahliz haydadi-haydadi – bir darvozadan ichkari tepib yubordi.

8

Men dalbanglab-dalbanglab bordim-bordim – zindon kin-digida serryab qoldim.

Tevarak-boshimlab alang-jalang bo‘ldim. Zindondan o‘laksa go‘sht hidi anqidi.

– Xush kelibsan, Jamoliddinov, xush kelibsan! – degich gangir-gungur ovoz eshitildi.

Nimqorong‘i burchakdan ikkita qora keldi.

Qoralar shunday burnim ostiladi.

Qoralardan qo‘lansa ter sasidi.

Ko‘nglim aynidi. Illa chidab turdim.

Qoralar birin-ketin qo‘l berdi.

– „Sadist“, – dedi.

– „Sokol“, – dedi.

Qoralar meni gir-gir aylandi.

Qoralar olchoq-olchoq gir-gir bo‘ldi. Qoralar yaltoq-yaltoq gir-gir bo‘ldi.

– Muborak shariflarini bilamiz: Jamoliddinov! Ammo ismlarini bilmaymiz?

Qoralar burnim ostida qars-qars barmoq o‘ynatdi.

Qoralar kaftlarini qulqlari yelpana etdi.

– Labbay? – dedi. – Ismlarini eshitaylik?

Men miq etmay tura berdim.

– Aytmasang, aytma! Aytmasang, biz seni ramziy ot bilan ataymiz: churban, churban! Bo‘ladimi?

– Menga qara, churban! Tiling bormi? Bo‘lsa gapir?

-
- Gapir deyapman!
 - Bu churban gapirmaydi-yov, „Sokol“, kel, qo'l to'pi o'ynaymiz.
 - „Sadist“ zindon o'ng burchini oldi.
 - „Sokol“ zindon chap burchini oldi.
 - Boshladik!
 - „Sadist“ iyagim ostilatib bir soldi.
 - Men ketim bilan „Sokol“ qoshilab gandiraklab-gandiraklab bordim.
 - „Sokol“ yelkamdan qo'shqo'llab ushladi. O'ziga o'girib oldi.
 - „Sokol“-da iyagim ostilatib soldi.
 - Men ketim bilan dalbanglab-dalbanglab „Sadist“ qo'liga borib tushdim.
 - „Sadist“ tag'in „Sokol“ga jo'natdi.
 - Men „Sadist“ bilan „Sokol“ oralig'ida borib kela berdim... Oxiri holdan toydim.
 - Aro yo'lda o'tirib qoldim. Joyimdan turayin, deya tal-pindim.
 - Bo'lmadi – o'zimni toshdan ololmadim.
 - Bo'lmadi – chapim bilan shilq etib tushdim...
 - Chap biqinim zir-zir zarb yedi.
 - Zarbdan xiyol o'zimni oldim. Ohista-ohista tevarak-boshim nazar soldim.
 - Boshimda tik turmish „Sadist“ bilan „Sokol“ni ko'rdim.
 - „Sadist“ etigi uchi bilan tag'in chap biqinim tepib-tepib oldi.
 - Chap biqinim haminqadar zir-zir qaqshadi.
 - Ey, churban, tur!
 - Seni kim aytadi – O'zbekiston dalalari lochini, deb!
 - Seni kim aytadi – olti million tonna paxta teradi, deb!

Askarlar suyab-suyab olib bordi.
Askarlar himo berib-himo berib o'tirg'izdi.

Ivan Ivanovich meni aylanib-aylanib qaradi.

– Hay-hay-hay! – dedi. – Mash’al paxtakor yomon yi-qilibdi-ya! Qayerda yiqilding? Ko‘zingga qarasang bo‘lmay-dimi?

Men mushtimni chakkamga nuqib-nuqib oldim.

– Meni urdilar... – deya ming‘illadim.

– Urdilar? Kim urdi?

– Yotqizib tepdilar...

– Yotqizib tepdilar? Kim tepdi?

Ivan Ivanovich tugma bosib askar chaqirdi.

– Jamoliddinov oldiga kim kirdi? – dedi Ivan Ivanovich.

– Birov ham kirmadi! – dedi askar.

– Ana, huzuringga birov ham kirmabdi. Nega meni al-daysan?

– Ular ichkarida o‘tiribdilar, – dedim.

– E, ha, ichkarida de... Ichkaridagilar ham senday bir zindon-bandlar-da, Jamoliddinov. Pesning chekiga moxov tushadi, dey-dilar. Sen endi kelding, ular esa necha yildan buyon sillasi qurib yetibdi. O‘shalarga kuching yetmadimi? Kim aytadi seni – olti million tonna paxta tera oladigan azamat dehqon, deb?

Men indamayin qoldim.

– Xo‘sish, endi aytarsan, Jamoliddinov?

Men miq etmadim.

– Har bandani bekitiqcha topgan-tutgani bo‘ladi.

– Bo‘ladi, shunday, bo‘ladi.

– Ha, ana! Har bandani bir yomon kunimga yaraydi deb bekitib qo‘ygan bisot-boyligi bo‘ladi...

– Bor, bizda-da bor.

– Ha, yasha! Ana shularni ayt! Qani-qani?

Men barmoq yumib sanab-barmoq yumib sanab aytdim:

– Oqtuproq dalam – bir, sho‘rtuproq dalam – ikki, qumloq dalam – uch...

– Yo‘q-yo‘q, men mol-dunyo ma’nosida aytayapman?

– Katta, dehqonda daladan bo‘lak mol-dunyo pishirib yeydimi? Dehqon davlati – yer!

-
- Chin, chin.
 - Chin bo'lsa, chin-da. Dehqon davlati – yer-da!
Men deraza bet burib oldim.
Men mum tishladim.
Ivan Ivanovich ejakilab-ejakilab so'radi.
Men mumdan-mum tishladim.
Ivan Ivanovich qaradi-qaradi – toqati toq bo'ldi. Vishsh-vishsh etdi. Bet-boshimlab tupurdi.
 - Onag'ar, baran... – deya vishilladi.
Tupurikdan aroq hidi keldi.
Ivan Ivanovich qulochkashlab-qulochkashlab chuydam urdi.
Men zarbdan ag'nab tushdim.
 - Yo'qol, baran, yo'qol!!!

10

„Sadist“ bilan „Sokol“ orasida koptok bo'lib borib kela berdim-borib kela berdim.

11

- Men havoda barmoq yurdirib-barmoq yurdirib oldim.
- Qog'oz-qalam bering, – dedim.
- Qog'oz-qalam? – deya ajablandi Ivan Ivanovich. – Qog'oz-qalamni nima qilasan?
- Yozaman.
- Yozasan? Kimga yozasan?
- Prokurorga yozaman.
- Mana, men prokuror!
- Yo'q, Bosh prokurorga yozaman.
- Xo'p, qog'oz-qalam beraman. Yozuvingni Bosh prokurorga shaxsan o'zim olib borib beraman. Undan keyin ay-tasanmi?
- Men yo'q, deya qayta-qayta bosh chayqadim.
- Men ham odamman... – deya ming'illadim.
- Ivan Ivanovich peshonasi tirishdi. Ivan Ivanovich ensasi qotdi.

– Kim-kim? – dedi. – Odamsan? Sen-a? Sen – gazandasan! Oltunga hirs qo‘ygan gazandasan! O‘zbeklar – oltinga hirs qo‘ygan gazandalar! Ana, o‘zbeklar kimlar! Oltin – avvalo, ilonlarni o‘ziga rom qiladi. Ilondan keyin, ilonsifat xalqni o‘ziga tortadi. Ilonday ochko‘z xalqni o‘ziga rom qiladi. Ilonday makkor xalqni o‘ziga rom qiladi. Sen o‘zbeklar ana shunday xalqsan!

Ivan Ivanovich oldida qalashib-qalashib yotmis qog‘ozlarni titdi.

– Davolarimni dalillab beraymi? – dedi. – Dalillaryman, dalillaryman! Mana, Karimov ishi. Shu ish yuzasidan bir guruh tergovchilarim bilan Buxoroni bosdim. Qayerda ilon bo‘lsa – o‘sha yerga e’tibor beringlar, dedim. Oldin, senday bir baranni topdim. Baran otini Said der ekan. Ana shu Said baran bizni ulkan bir qayrag‘och oldiga olib bordi. Said baran ana shu qayrag‘och ostini kovlamoqchi bo‘ldi. Shunda, qum uzra seni basharangday bir ola-pes ilon bo‘y berdi! Ilon vishilladi! Ilon bo‘ynini bo‘qoq qildi! Ilon qop-qora boshlarini adl qildi! Ilon qonun posbonlarini o‘z domiga tortish uchun shaylandi! Ammo qonun posbonlari-da qarab turmadi, ha, qarab turmadi! Men darhol bilagimday bir temir oldim. Ilon boshlariga boplاب bir soldim. Domtortar ilon boshlari majaq-majaq bo‘ldi! Ana shundan keyin Said baran qayrag‘och ostini kavladi. Qayrag‘och ostidan olam-jahon oltin zeb-ziynatlar topildi! Ana – o‘zbeklar kimlar! O‘zbeklar qonun posbonlariga ana shu ilon misol qop-qora boshlarini ko‘taradi. O‘zbeklar ana shu ilon ko‘zları bilan boqadi! O‘zbeklar ana shu ilon misol vish-vish etadi! O‘zbeklar qonun posbonlarini chaqib-chaqib olayin, deydi! O‘zbeklar qonun posbonlarini domiga tortib-tortib yuborayin, deydi! Ammo biz – o‘zbeklar boshini yanchamiz! O‘zbeklar boshini ana shu ilon boshlariday yanchib-yanchib tashlaymiz! O‘zbeklar boshini ana shu ilon boshlariday majaqlab-majaqlab tashlaymiz!

Ivan-Ivanovich yurib-yurib chekdi.

Ivan Ivanovich deraza oldida turib-turib chekdi.

Ivan Ivanovich derazadan tashqari qarab-qarab chekdi.

– Bo‘pti! – dedi. – Men seni odambashara bo‘larmikin-san, deb edim, bo‘lmading. Barandan ham o‘tding! Eshakmi, to‘ng‘izmi – shunday bir maxluq bo‘lding!

– Gektaridan qirq besh sentnerdan paxta berdim... – deya manqalandim.

– O-o, javr bo‘pti-ku-a, javr!

– Meni ohimni-da eshitajaklar bordir... – deya manqa-landim.

12

Ohimni eshitajak odam topolmadim.

Dardimni yutib yotdim-yotdim – bir nimani payqab qoldim.

„Sadist“ eshik teshigidan ohista-ohista ovoz berdi:

– „Yula“, „Yula“... – dedi.

Birov eshik ortidan keldi. Teshikdan mo‘raladi.

– Nima, nima? – dedi.

– „Yula“, qog‘oz-qalam olib kel, – dedi „Sadist“.

„Sadist“ „Yula“ dan qog‘oz-qalam oldi.

„Sadist“ maktub bitdi. Maktub bukladi. Maktub xatjildadi.

„Sadist“ xatjildni „Yula“ dan jo‘natdi.

Men-da tavallo etdim.

– Kimga yozasan? – dedi „Sadist“.

– Bola-baqralarimga-da?

– Bolalarga bo‘lsa, mayli. Lekin maktub pul bilan bo‘ladi, churban. „Yula“ har bir maktub uchun ozodlikdagi xesh-aq-rabolarimizdan pul oladi. Bo‘lmasa, „Yula“ bir qadam ham bosmaydi. Maskovda tanish-bilishlardan bormi? Aytmoqchi, sen churbanda tanish nima qiladi. Mayli, bir xayriya qilaman. Lekin bir shart bilan qilaman. Shartimni keyin aytaman. Keliishdikmi?

Men mayli-mayli, deya bosh irg‘adim.

„Sadist“, „Yula“ dan qog‘oz-qalam olib berdi.

Men kimga noma bitishni o‘yladim.

Bola-baqraga arz-dod etib bo'lmaydi. Arz-dod etganim bilan – bola-baqra qo'lidan nima keladi?

Zindonbandni bor etgich-da prokuror bo'ladi, yo'q etgich-da prokuror bo'ladi. Ammo – prokurorga noma bitib bo'lmaydi.

Ivan Ivanovich prokuror o'zimman... dedi.

Sharof Rashidovni yo'qlab noma yo'llayin dedim – Rashidov bobo olamda yo'q bo'ldi. U kishi bor bo'lsalar edi – Sharof ota, bandangni qutqar, deya noma bitar edim...

O'rtoq Brejnevga arz-dod etayin dedim – Brejnev-da yo'q bo'ldi.

Unda, dardimni kimga aytar bo'ldim?

O'yladim-o'yladim – ana shunday zotni topdim.

Tilim chiqmishdan buyon ismi sharifini yodlab-yodlab yurmish zotni topdim.

Tilim chiqmishdan buyon ismi sharifini tilimdan-da, dilimdan-da qo'ymayin yurmish zotni topdim.

Qo'llarim qalt-qalt eta-eta bitdim:

„Maskovga. Kremlga. Lenin mavzoleyiga!

O'rtoq Lenin! Siz bizning yakka-yu yagona panohimizsiz, xaloskorimizsiz!

O'rtoq Lenin! Otamiz-da siz, enamiz-da siz, emchakdoshimiz-da siz“...

Uydan chiqmish kechamdan ushbu kechamgachayin bo'l mish kechmishimni oqizmayin-tomizmayin bitdim.

Xatjildni tilim bilan ho'llab-ho'llab yopdim.

Nomamni „Yula“dan uzatdim.

„Bo'ldi! – deya xayollandim. – Oldin ozod bo'lmasam-da, ana endi ozod bo'laman!“

13

– Surxondaryodan xat-xabar keldimi, hamshahar churban? – dedi „Sokol“.

Men hayronlandim. Ajab-ajab qaradim.

– Ko'p og'zingni ochma. Biz ham o'sha yoqdan, – dedi „Sadist“.

-
- Qayerdan? – dedim.
 - Mozori Sharifdan.
 - Mozori Sharifdan? – deya ajablandim. – Mozori Sharif Afg'onistonda emasmi, „Sadist“boy?
 - Nima farqi bor, churban. Amudaryo o'ng sohili Surxondaryo, chap sohili Afg'oniston-da.
 - Hayratondan o'tasan – afg'on bo'lasan. Hayratondan qaytasan – o'zbek bo'lasan!
 - Shunday, „Sokol“boy, shunday. Hayraton degich ko'prik bor.
 - Bo'pti-da, churban, bo'pti-da. Biz Afg'onistondan qaytishimizda ana shu Hayratondan o'tib keldik.
 - Afg'onistonda nima qilib yuribsizlar, „Sadist“boy?
 - Biz Afg'onistonga baynalminal burchimizni ado etish uchun borib edik, churban.
 - Brejnev bovamiz yuborib edi, deysiz-da, „Sokol“boy?
 - Afg'onistonni bosib olib Brejnev aybi emas, churban, Brejnev aybi emas. Brejnev o'ldi-ketdi. Endi bari Brejnevni ayblayapti. Yo'q, Brejnev aybdor emas. Tangriqut Pyotr Birinchi! Tangriqut Pyotr Birinchi butun Osiyoni O'rusiya vassali etib olmoqchi edi. Shimol bahrimuhiti – Hind bahrimuhiti – Tinch bahrimuhiti... Ana shu uch bahrimuhit xilqati O'rusiya deb atalishi kerak bo'ladi. O'rusiya saltanati ana shu uch bahrimuhit xilqati aro hukmron bo'lishi kerak bo'ladi. Shu maqsadda Pyotr Birinchi 1716-yilda g'aranduq Bekovich-Cherkasskiy sorbonligida Xivaga lashkar tortadi. Ammo g'aranduq lashkari Xiva xoni Sherg'ozixondan mag'lub bo'ladi. G'aranduq Bekovich-Cherkasskiy qatl etiladi. Shu vaqtida tangriqut Pyotr Birinchi O'rusiya-Shvetsiya urushida bayon bo'ladi. G'aranduq taqdiri bilan ishi bo'lmaydi. Ammo tangriqut Pyotr Birinchi umri yakunida ikkita armon bilan olamdan ko'z yumadi. Bir armoni – O'rusiya-Prussiya urushida mag'lub bo'lganligi uchun Turkiyadan o'ch ololmay armonda o'ladi. Tag'in bir armoni – g'aranduq Bekovich-Cherkasskiy qatl uchun Xivadan o'ch ololmay armonda o'ladi. Ana shun-

dan buyon tangriqut Pyotr Birinchi armoni – O‘rusiya sultanati armoni bo‘lib keladi. Ana shundan buyon tangriqut Pyotr Birinchi armoni – Ulug‘ O‘ris armoni bo‘lib keladi. Ana shundan buyon O‘rusiya poshsholari Pyotr Birinchi tangriqut bobolari dasturilamalini amalga oshirish payida bo‘ladi.

– Eh-e-e, Afg‘onistonda yillab qon kechdik, churban, yillab!

– O‘lim bizga pisand emas edi, churban.

– Mana men o‘z qo‘lim bilan „dushman“ jonini sug‘urib oldim. Bir suv sotuvchi „dushman“ bor edi, esingdami, „Sokol“? Ko‘chada suv sotib yurardi-yu? O‘shanga suving-dan ber, desam bermadi. O‘zicha, bir nimalar, dedi. Bildim – Sho‘rolarni so‘kdi. Sho‘rolarni so‘kma, dedim-da, avtomat qo‘ndog‘i bilan boshiga bir soldim. Boshidan tirqirab qon otildi. Qonlari yuzlarimga sachradi. „Dushman“ qonini lab-larim bilan yalab-yalab oldim. Bay-bay-bay, janub qoni shunday qaynoq bo‘ladi, shunday qaynoq bo‘ladi!..

Tanamda qaltiroq qo‘zg‘aldi. Bor es-hushim junbishga keldi. Tilim kalovlanib-kalovlanib qoldi.

– Men... men „dushman“ emasman, – dedim. – Qo‘sha-qo‘sha orden-nishonlarimiz bor. Uktabr ordeni, Mehnat Qizil Bayroq ordeni...

– Demak, laycha ekansan-da, churban? Zindonda orden-nishondorlarni laycha, deydi.

– Laychalardan zindonbandlar jirkanadi, churban. Aslo orden-nishondorman, dema – tayoq yeb o‘lasan!

– Tavba qildim, menda orden-nishon yo‘q, tavba qildim! – deya talvasada qoldim. – Orden-nishon terimchi enamizda bor.

– Baribir! Orden-nishon otini ayta ko‘rma – o‘lib ketasan!

– Mana, men – Sho‘ro Ittifoqi Qahramoniman, ha, Sho‘ro Ittifoqi Qahramoni! Ishonmayapsanmi? Ana, „Sadist“ dan so‘ra.

– Chin, „Sokol“ Sho‘ro Ittifoqi Qahramoni. Qandahorni bilasan-a? „Sokol“ ana shu Qandahorni kunpayakun etishda qatnashdi. Qandahorni misoli ikkinchi Stalingrad etdi! Qan-

dahorni kunpayakun etishda ko'rsatgan jasorati uchun Sho'ro Ittifoqi Qahramoni bo'ldi.

– Ana, eshitdingmi, churban? Meni Afg'onda „Sokol“ deyishar edi – „Sokol!“

– Qulluq, „Sokol“boy, qulluq.

– Men umrimda chekkan emas edim, men umrimda ichgan emas edim. Ana shu Afg'onda o'rghanib keldim. Ittifoqqa kelsam – bariyoq qup-quruq! Nimaga bunday, dedim. Ichkilikka qarshi kurash boshlandi, dedi. Bu ahmoqchilik kimdan chiqdi, dedim. Markaziy Qo'mita kotibi Ligachyovdan, dedi. Qayerda o'sha Ligachyov – hozir bo'g'ib o'ladiraman, dedim. Ligachyovga qo'ling yetmaydi – Ligachyov Kremlida, dedi. Unda aroqdan ber – men Afg'onda qon kechib keldim, dedim. Aroq yo'q, dedi. Bir shishagina aroq qidirib shahar kezdim! Barida shu gap bo'ldi! Men kim, daydi it kim – bilib bo'lmaadi! Oxiri bir do'konchi yoqasidan oldim. Men nomi ulug', suprasi quruq Sho'ro Ittifoqi uchun jon olib, jon berdim – bir shishagina aroq ber, dedim. Do'konchi melisa chaqirdi. Ikkiti mishiqi melisa kelib, qo'llarimni qayirdi. Tayoqchasi bilan kallamga urdi. Urma meni, dedim-da – birovini ariqqa otib yubordim. Keyin bilsam – o'lib qolibdi.

14

– Shu ko'rgiliklarni ko'rishimni bilsam edim – Afg'on dan qaytib kelmas edim. Afg'on qirib yura berar edim.

– Bo'ljadi – Gorbachyov qaytarib keldi. Gorbachyov bo'lmasa edi – „dushman“larni bitta quymay qirib tashlar edim.

– Keyin, Afg'oniston ham o'zimizniki bo'lib qolar edi.

– Haliyam o'zimizniki. Ana, 1973-yilda Muhammad Dovud qo'li bilan Zohir Shohni taxtdan qulatib, ikki yuz yillik Afg'oniston shohligiga barham berdik. Muhammad Dovud gapimizga kirmay berib edi – 1978-yilda bir kechada yo'q qildik. Taxtni Nurmuhammad Taraqqiyga olib berdik!

– Hafizulla Amin gapimizga kirmay berib edi – 1979-yil-

da o‘ldirib yubordik! Taxtga Babrak Karmalni olib kelib qo‘ydik.

– Babrak Karmal Maskov o‘tir desa o‘tirmadi, tur desa – turmadi. Ammo Karmalni ayadik. 1986-yilda Ittifoqqa olib keldik. Bir kulbaga nazarbandi etdik. Karmal Xudo bexabar nazarbandi bo‘lib yota berdi.

– Taxtga Najibulloni qo‘ydik, de.

– Najibullo Maskovga sodiq ishlayapti. Najibullo vafodor laycha ekan.

– O‘zi, Afg‘oniston o‘n oltinchi jumhuriyatimiz bo‘lishi kerak edi.

– Bir hisobga o‘n oltinchi jumhuriyatimiz bo‘limganiyam yaxshi bo‘ldi. Mana, manavi churbanlarni Sho‘ro hukumati shuncha yil boqdi – bari bir tuzemetsligicha qoldi!

– Chin, shu churbanlarni odam qilamiz deb – qancha-dan-qancha mol-dunyomiz ketdi!

– Aytgiligi yo‘q.

– Yana-tag‘in, bu churbanlar boriga qanoat qilmay, Sho‘ro hukumatini talon-toroj etibdi.

– To‘qlikka sho‘xlik deb shuni aytadilar-da.

– Oldinroq bilsam edi, Hayratondan o‘tiboq – bari churban ni Termizda qirib-qirib tashlar edim!

15

– Boshqasini qo‘y, churban, bari o‘tdi-ketdi. Esingdami, nomang uchun shart qo‘yib edim? Ana shu shartimni endi aytaman: uyingdan taryok oldirib keltirtirasmani-yo‘qmi?

– Taryok? Uyimizda taryok nima qiladi, „Sadist“boy?

– Opkeltir!

– Umrim bino bo‘lib taryok nimaligini bilmayman, „Sadist“boy. Lekin qishlog‘imizda chayon chaqsa, bovalar taryok surkab davolaydi.

– Ana shundan opkeltir!

– Qancha desang – pulini beramiz!

– O‘zing ham taryok yeyishni o‘rganib ol.

-
- Bu joyni Sho‘ro zindoni, deydilar.
 - Sho‘ro zindonida taryok ycb turmasang – ajalingdan oldin o‘lasan!
 - Unday demang-e, „Sadist“boy, unday demang-e.
 - Ana, „Sokol“dan so‘ra. Masalan, sil kimga yopishadi? Sog‘lom tanaga yopishadi. Sog‘lom tana kim? Papiros chek-maydigan, taryok yemaydigan odam-da. Sen ana shunday odamsan.
 - Sho‘ro zindonini o‘z qonun-qoidalari bor, churban. Rio-ya etmasang – ajalingdan oldin o‘lasan!
 - Mana, ayt, churban: seni kana chaqayaptimi-yo‘qmi?
 - O‘ynab qo‘yay-o‘ynab qo‘yay, yeb qo‘ydi-ya, „Sa-dist“boy, yeb qo‘ydi!
 - Bilaman, kechasi bilan qirt-qirt etib chiqasan, bilaman. Bizni bo‘lsa chaqmaydi!
 - Chunki butun tanamiz zahar-zaqqum!
 - Sho‘ro kanasi ochidan o‘lsayam bizni chaqmaydi!
 - Bizni chaqib, zaharlanib o‘lishni xohlamaydi!
 - Sho‘ro kanasi ko‘p aqli kana, ko‘p dono kana!
 - Sho‘ro kanasi hamisha tozalikka rioya etadi!
 - Sho‘ro kanasi kommunistik ruhda tarbiyalangan, kommunistik ruhda!
 - Seni esa chaqadi. Chunki sening tanang – kommunistik tana!
 - Qo‘ying-e, „Sadist“boy, qo‘ying-e. Umrим o‘tdi, lekin shu noma’qul nimani yemadim – endi yemayin.
 - Unda, bizga opkeltirib ber!
 - Mayli, uydan darak bo‘la bersin, qani.

16

- Men uchun Osiyo demak – taryok demak, churban! – dedi „Sokol“. – Osiyo desa, ko‘z oldimda taryok namoyon bo‘ladi. Shu boisdan men Osiyoni hurmat qilaman! Taryok yesam – g‘amdan forig‘ bo‘laman! O‘sha afg‘on kunlarim esimdan chiqadi! Pochamir xayol bo‘laman, pochamir!

Dunyo ko‘zimga ayol bo‘lib ko‘rinadi, ayol! Taryok – muhabbat, churban, taryok – muhabbat! Mana, Sho‘ro Ittifoqi uchun „dushman“larni chumchuqday qirdim, chumchuqday! Evaziga nima ko‘rdim? Mana oqibati, churban, mana! Endi... endi odam o‘ldirsam deyman, churban, odam o‘ldirsam deyman! Qonsirayman, churban, qonsirayman! Odam o‘ldirishdan zavq olaman, churban, odam o‘ldirishdan zavq olaman! Ayollar bilan yotishdan ko‘ra – odam o‘ldirishdan rohat olaman, churban, odam o‘ldirishdan rohat olaman! Odam o‘ldirishni sog‘inaman, churban, odam o‘ldirishni sog‘inaman! Odam suykli ayolini qanday sog‘inadi – men odam o‘ldirishni ana shunday sog‘inaman! To‘shakdag‘i qip-yalang‘och ayolini ko‘rib qanday rohatlansam – o‘z qurbanimni ko‘rib ana shunday rohatlanaman, churban!..

„Sokol“ bilan „Sadist“ ust-boshlarini sug‘urib-sug‘urib otdi.

„Sokol“ bilan „Sadist“ni taryok xumori tutdi!

Men bir seskanib oldim. Ko‘zlarimni bot-bot yumib ochdim.

„Sadist“ yelkalarida igna bilan bitilmish kapitan unvonli pogon bo‘ldi. Ko‘kraklarida O‘roq va Bolg‘a bitigi bo‘ldi.

„Sokol“ ko‘kraklarida barmoqday-barmoqday harfli „KPSS“ bitigi bo‘ldi.

– Ko‘rayapsanmi, churban? – dedi „Sokol“. – Biz mana shu to‘rt harfdan iborat „KPSS“ uchun ko‘kragimizni qalqon etib edik. Ko‘kraklarimiz ana shu „KPSS“ qurbanini bo‘ldi!..

Oylab yo‘qlamadilar-yo‘qlamadilar – tag‘in haydab bordilar.

– Serquyosh Baranistondan salomlar bo‘lsin! – dedi Ivan Ivanovich. – Qarshiga borib keldim. Senlarni tergovchilaring ham baran-e! Mahalliy baranlarni ishimizga aralashtirmaylik-aralashtirmaylik, dedim. Yo‘q, milliy

urf-odatlarni biladi, dedilar, o'zbekchilikni biladi, dedilar. Xullasi kalom, oramizga Baxtiyor Abdurahimov degan bir baran tergovchini tiqdilar. Qashqadaryo viloyati bиринчи kotibi G'oipovni qo'lga olmoqchi bo'ldim. Qo'lga olar odam peshonasiga shartta to'pponcha tiraydi – qo'lga ola-di-qo'yadi-da! Abdurahimov bo'lsa – nuqul qo'lini ko'ksi-ga qo'yadi, nuqul tevarak-boshga salom beradi! Mayli, o'zbekchilik... baranchilik bo'lsa – baranchilik-da, dedim. Indamay ergashib bora berdim. Ichkari kirsam – G'oipov to'rda nahor nonushtasi yeb-ichib o'tiribdi. Dasturxonini nonushta dasturxoniym deb bo'lmaydi. Mundayroq to'y dasturxoni desa bo'ladi. G'oipov bizniyam choyga chaqirdi. Mayli, baranchilik bo'lsa – baranchilik-da, dedim-da, bir piyola choy ichdim. Keyin, G'oipovni prokuraturaga marhamat etdim. „Bir-ikkita savollarim bor“, dedim. „Shu yerda so'rasa bo'lmaydimi?“, dedi G'oipov. „Yo'q, idora yaxshi“, dedim. G'oipov „xo'p-xo'p“, deya ichkariladi. Ayoliga kiyimlarini olib kelishni buyurdi. Ayoli G'oipovning Sotsialistik Mehnat Qahramoni Yulduzlik kamzulini olib kirdi. Shunda, ichkaridan yig'i eshitildi. Hadahalab bordim. Qarasam – G'oipovning tomog'idan sharillab-sharillab qon otileyapti! Oppoq ko'ylaklari qip-qizil qon! G'oipov qo'lini qorniga uzatadi – yetmaydi, tag'in uzata-di – yetmaydi! Nimaga uzatayapti desam – G'oipov shu kunlarda ko'richagini oldiribdi ekan. G'oipov ana shu tikiq'li ko'richagiga qo'lini ti-qib – yirtib tashlamoqchi bo'libdi! G'oipov bizga qarab shunday baqirdi-shunday baqirdi! Og'riq zo'ridan baqirmadi – nafrat bilan baqirdi, nafrat bilan! „Mustamlakachilar! Senlardan qachon xalos bo'lamiz!“ – dedi. Abdurahimovga-ku, quturib baqirdi. „Yo'qol, o'zbekning xoini, yo'qol!“ dedi. Shu bilan... o'lib qoldi! Kimdan pul oldi, kimdan oltin oldi – bilib bo'lmadi! Baribir bilib olaman! G'oipovning sakkizta bola-baqrasi bilan urug'-aymog'ini olib kelib qamadim! Ana shu sakkiz-tadan biri bo'lmasa, biri aytib beradi! Ana, o'zbekchilikka

rioya etish oqibati! O'zbekchilik – baranchilik! Bo'ldi – endi Stalin, Vishinskiylar yo'li bilan ushlayman! Seni ushlab keldilar-u – ana shunday ushlayman!

– Ushlang, armonda qolmang, ushlang, – dedim. -- Ammolikin bola-baqrada nima ayb? Sakkizta begunoh jon-a, sakkizta jon-a?

Ivan Ivanovich tutaqdi.

– Nima-nima? – dedi. – Sakkizta begunoh jon? Sakkiztayam gapmi – bari o'zbek muttaham, bari o'zbek! Sen o'zbeklar Sho'ro hukumatining to'rt yarim milliard so'm pulini yeb ketgansanlar! To'rt yarim milliard so'm! Yo'q paxtani bor deb – to'rt yarim milliard so'mni manavi harom tomoqlaringdan o'tkazib yuborgansanlar! Yeb-yeb – endi bo'rilar galasiga o'xshab qutulib ketaman, deyapsanlarmi? Kechirib qo'yasanlar, kechirib! Men – Ivan Ivanovich Ivanov, to'rt yarim milliardni jig'ildonlaringdan sug'urib olaman! Tiyinma-tiyin sug'urib olaman!

– O'ynab qo'yay, ishlasa – xalq ishlabdi, yesa – xalq yeb-di-da.

– Xalq ishlabdi? Sen o'zbeklar o'roqda yo'q, mashoqda yo'q – xirmonda hozir xalqsan! Sen o'zbeklar boqimanda baransan! Sen o'zbeklar Maskov hisobiga kun ko'rasan! Maskovdan kattalar borsa – zar chopon kiygizasan, cho'ntagiga pora tiqasan. Ana, general Churbanov Baranistonda bir bo'lishida to'qqiz yuz so'mlik zar chopon kiyib keldi, o'ttiz ming so'm pul olib keldi!

– O'ynab qo'yay, Churbanov cho'z, debdiki – o'zbak cho'zibdi.

– Maskovdan katta borsa bo'ldi – oldiga olma-anor qo'yasan, qo'y so'yib qo'yasan.

– O'zbak mehmondo'st el, katta.

– Laganbardor el! Evaziga Sho'ro hukumati ko'zini bo'yaydi! Sen baranlar Baranistonni o'zida qanoatlanib qolmayсанlar. Ko'chaga chiqsang bilasan – do'konlarda minglab olado'ppi baranlar izg'ib yuribdi. Olado'ppi baranlar

do'konda ko'ziga nima ko'rinsa bo'lди – ola solib xaltasiga tiqadi-da, Baranistonga orqalab ketadi.

Shu vaqt telefon jiring-jiring etdi.

Ivan Ivanovich telefonda olis gapirishib oldi.

– Ana, baran, – dedi. – Raisingni ishini talab etishayapti. Bo'l-bo'l, deyishayapti. Sen bo'lsa – o'jar eshak bo'lib o'tiribsan!

Men nomamdan umidvor bo'ldim. O'zimni orqaga tashladim:

– O'ylayapman, – dedim. – Aytaman, o'zim aytaman.

– Bo'pti, tag'in bir o'yla.

18

–...Qaytarib aytaman, baran: bu yerda Xudo ham men, payg'ambar ham men!

– Gektaridan ellik sentnerdan paxta bergen yillarim-da bo'lди...

– Eshakni xizmati halol – o'zi harom!

– Meni-da arz-dodimni eshitar odam bordir...

– Zax zindonda dodingni kim eshitadi, kim?

– Noma bitib edim. Halizamat yo'qlaydi...

– Noma? Qachon-qachon?

– Uch-to'rt oy bo'lib qoldi.

– Uch-to'rt oy, uch-to'rt oy...

Ivan Ivanovich o'zicha shunday deya-deya, po'latsandiq ochdi.

Sandiqdan bir dasta xatjild oldi. Oldimlatib tashladi.

– Ana! – dedi, – shular ichidan o'z nomangni top, qani!

Men bitta-bittalab xatjild qaradim.

Nihoyat – o'z nomamni topib oldim.

Yuragim shuvv etdi!

Nomam termulib-termulib qoldim...

– Topdingmi? Qani, ber qani, ochib o'qiylik qani, – dedi

Ivan Ivanovich. – Xo'-o'sh..., „Maskovga. Kremlga. Lenin

mavzoleyiga! O'rtoq Lenin! Siz bizning yakka-yu yagona panohimizsiz, xaloskorimizsiz, o'rtoq Lenin! Otamiz-da siz, enamiz-da siz, emchakdoshimiz-da siz"...

Ivan Ivanovich ket chalqayib-ket chalqayib kului.

Ivan Ivanovich qorin ushlab-qorin ushlab kului.

Ivan Ivanovich ko'z yoshlab-ko'z yoshlab kului.

– Chexov bo'l-e, Chexov! – deya ko'z artdi. – Chexov qahramonlari bobom qishlog'iga, deb noma bitadi-yu? Sen ham Lenin bobom mavzoleyiga, deb bitibsan-da? „Osiyo ustida bo'ron“ degan bir kinolaring bor edi, esingdami? O'shanda senday bir baran Leninga noma bitadi. O'sha, baran oti nima edi...

– Shukur Burhonov.

– Yo'-o'q, sen o'sha baranni o'ynagan ijrochini aytayapsan. Oti... oti Yusuf Yalangto'sh! Yusuf Yalangto'sh erta-yu kech Lenindan javobnoma qaraydi... qaraydi! Lenin bo'lsa, Kreml-da o'tirib... Turkistonni zabit etish yo'llarini o'laydi! Yusuf Yalangto'shday bosmachi baranlarni qirib tashlash yo'llarini o'laydi! O'shanda yigirmanchi yillar edi. Qara, shuncha yil o'tibdi – sen o'zbeklar haliyam barandan odamga aylanmabsanlar!

– Sabr tagi oltin, deydilar. Meni-da boshimga oftob tegib qolar.

– Oftob? Qanday oftob? E, ha, oftob bo'lsa oftob-da!

Ivan Ivanovich nomamni boshim uzra oshirib otdi.

– Ana, boshingga oftob tegdi, ana! – dedi. – Ura-a-a, baranlar boshiga oftob tegdi, ura- a-a!

Ivan Ivanovich papiros ezg'iladi. Lablariga papiros qistirdi. Chirsillatib gugurt chaqdi.

Ivan Ivanovich burqsitib-burqsitib papiros tortdi.

– Quloq sol, baran, – dedi. – Sen Leninga noma bitib ahmoq bo'lma. Yaxshilab eshitib ol. Chin, bu joylar Sho'ro zindoni, deb ataladi. Aslida esa unday emas. Bu joylarni „Qizil zona“, deydilar. „Qizil zona“ning o'z qonun-qoidalari bo'ladi. Zindon ana shu „Qizil zona“ qonun- qoidalari bo'ysunadi.

„Qizil zona“da Lenin yo‘q! „Qizil zona“da Sho‘ro hukumati yo‘q! „Qizil zona“daadolat yo‘q! „Qizil zona“da inson or-nomus, inson shon-shuhrti, inson qadr-qimmati... yo‘q, yo‘q! Tag‘in yo‘q! „Qizil zona“ o‘z nomi o‘zi bilan – qizil, qizil! Qizil rang – qon rang! Qon rang bilan o‘ynashma, baran, qon rang bilan o‘ynashma! Aks holda – qizil qoningga bo‘yalasan! Aks holda – qizil qurbanlik bo‘lasan, qizil qurbanlik!..

19

– Mayli, aytma. Sen aytmasang ham, o‘zim topib olaman, – dedi Ivan Ivanovich. – Topib olayapman, bundan keyin ham topib olaman. Ana shunda o‘sha oltinlar bilan peshonangga bir uraman-da, manavi oltin bo‘lmay... deyman!

– Shunday qiling, katta, shunday qiling!
– Qilaman, qilaman! Men seni manavinday irib-chirib yotmagin, deyman-da.

Ivan Ivanovich qalam uchi bilan qo‘lim yuzi yaramni bosdi. Bosib-bosib turdi!

Yaramdan bilq-bilq yiring toshdi!

Yaram lo‘q-lo‘q og‘ridi! Yaram zirq-zirq og‘ridi!

Men apil-tapil yaramni tortib oldim.

– Ana, baran, ana! – dedi Ivan Ivanovich. – Ana shunday irib-chirib o‘lib keta berasanmi? Mayli, oltinlarni aytma. Kel, yaxshisi – men senga bor-yo‘g‘i bir savol berayin – sen ikki og‘iz gap bilan javob ber-da, qutul. Kelishdikmi?

– Oldin aytning, qani? Eshitaylik, qani?

– Xo‘-o‘sh, raisingga qancha pora bergansan?

– Pora? Qandaychikin pora?

– Qachon bergansan, nimaga o‘rab bergansan, necha so‘mlik edi?

– Umrimda birovga-da pora bermadim, birovdan-da pora olmadim.

– Bilaman, senga pora beradigan ahmoq yo‘q, bilaman. Lekin sen pora bergansan!

- Birovga-da pora bermaganman, deyapman-ku.
- Bergansan!
- Ulla o‘layin agar-a, pora bergen bo‘lsam-a!
- Bergansan! Sen – raisingga uzatasan, raising – tumaningga uzatadi, tumaning – viloyatingga uzatadi, viloyating – Markazkomga uzatadi!
- U‘lla o‘layin, birovga pora bergen bo‘lsam-a!
- Kattalarga bir nima uzatmasang..., qanday qilib brigadir bo‘lding?
- Men mehnat qila berdim-mehnat qila berdim – raisimiz ko‘tara berdi-ko‘tara berdi.
- Kechirib qo‘ysan, baran, kechirib qo‘ysan! O‘zbekiston kattalari oldin bir nima oladi – ana undan keyin bardor-bardor etadi!
- Ulla o‘layin agar-a...
- Unda, qanday qilib paxta topshirishni uzlusiz bajarib kelding? Uzlusiz-a, uzlusiz!
- Men yerga ter to‘ka berdim-ter to‘ka berdim – yer men-ga hosil bera berdi-hosil bera berdi.
- Kechirib qo‘ysan, baran, kechirib qo‘ysan! Sen o‘zbeklar yerga ter to‘kmaysan! Yo‘q-yo‘q, sen o‘zbeklar yerga ter to‘kmaysan! Sen o‘zbeklar... yergayam pora berasan! Ha, sen o‘zbeklar yergayam pora berasan! Paxtalarini deyarli yarim foizi qo‘sib yozilgan! Ha-ha, qo‘sib yozilgan! Qo‘sib yozish uchun esa – taxi buzilmagan „Lenin“dan uzatish lozim bo‘ladi! Endi ayt, raisingga nechta „Lenin“ uzatding?
- O‘ynab qo‘yay, „Lenin“dan, o‘ynab qo‘yay! Yo‘q „Lenin“ni qayerdan olaman?

Ivan Ivanovich ho‘ppaklab-ho‘ppaklab quloq-chakkam soldi.

Men o‘tirg‘ichdan jalpillab-jalpillab uchib tushdim.

O‘ng quloq-chakkam qizib-qizib og‘ridi. O‘ng quloq-chakkam shang‘-shang‘ og‘ridi.

Shu kundan e’tiboran o‘ng qulog‘im chippa-chippa bit-di-qoldi.

– Usmonxo‘jayevni bilasan-a? – dedi Ivan Ivanovich.
– Esa-chi. U kishi poshshomiz bo‘ladilar! – dedim.
– Ana shu poshshong O‘zbekiston bulbuli bo‘lib sayradi!
Navoiy, Bobur... degich baran shoirlar g‘azallarida bulbullar
xonish etadi-yu? Poshshong ana shunday bulbul bo‘lib xonish
etdi!

– Eb-e, u kishi-da zindonbandmi, eb-e?
– Ha-da, zindonband-da! Lekin Usmonxo‘jayevning ayo-
li Elnurini gapga kiritib bo‘lmadi. Elnuri oylab bandi bo‘lib
yotdi. „Ering Usmonxo‘jayev tamom bo‘ldi – endi eringdan
kech“, dedim. Qani kechsa! Boshiga it kunini soldim! Oxiri
masalani ko‘ndalang qo‘ydim: „Yo eringdan kechasan, yo jo-
ningdan kechasan“, dedim. „Mayli, jonimdan kechaman, lekin
erimdan kechmayman“, dedi Elnuri. Ana ayol – mana ayol!
Aytganda ham – yuzimga tupurib-yuzimga tupurib aytdi! Yu-
zimga tupursa ham mayli – baribir Elnuriga qoyil bo‘ldim!
Ana shundan keyin butun o‘zbek ayollariga qoyil bo‘ldim!

Ivan Ivanovich po‘latsandiqdan semizdan-semiz bir jild-
taxlam olib kelib ochdi.

– Xo‘-o‘sh, poshsho hazratingni Bosh prokurorimiz
o‘rribosari o‘rtoq Vasilyev so‘roq qildilar. Mana, so‘roq
varaqasi. Quloq sol, ana shu so‘roqdan picha o‘qib bera-
man:

VASILYEV: Siz bir necha bor SSSR Bosh Prokurori
nomiga arznomalar bilan murojaat etibsiz. Siz bu arznomalarda
qanday yo‘llar bilan pora olib-pora bergenligingizni
bayon etibsiz.

USMONXO‘JAYEV: Meni ushbu yil o‘n to‘qqizin-
chi o‘ktabrida zindonband etdilar. Men ilk kundanoq halol
yo‘ldan bordim. Oqni oq, dedim, qorani qora, dedim! Barcha
javobgarlikni bo‘ynimga olib aytdim. Tag‘in aytaman: ha,
pora olib-pora berish – O‘zbekistondan Maskovgacha kun-
dalik voqeа edi!

VASILYEV: Kimlarga pora berib edingiz?

USMONXO'JAYEV: Men birovga tuhmat qilmasdan aytib beraman! Men nima bo'ldi – ana shuni aytib beraman!..

Men KPSS Markaziy Qo'mitasi tashkiliy-firqaviy ishlar mudiri SMIRNOVga ellik ming so'm berdim. Boisi – Smirnov ochiq-oydin pul talab qildi-da! „Yordam ber-chi, yordam ber!“ dedi-da!

Men KPSS Markaziy Qo'mitasi kotibi ROMANOVga bir diplomat olib kelib berdim. Diplomatda turli-tuman milliy sovg'a-salomlar hamda yigirma besh ming so'm pul bor edi.

Men KPSS Markaziy Qo'mitasi kotibi KAPITONOVA ikki marotaba ellik ming-ellik mingdan yuz ming so'm pul berdim. Berganda-da – o'rtoq Kapitonovni firqaviy ishxonasida berdim!

Men KPSS Markaziy Qo'mitasi huzuridagi firqa nazorati qo'mitasi raisi SOLOMENSEVga yuz ming so'm pul berdim. Solomensevga ham o'z firqaviy ishxonasida berdim!

Men SSSR Bosh Prokurori REKUNKOVga Yurmala shahrida ellik ming so'm pul berdim. Bosh Prokuror qo'limdan pulni oldi-oldi-da, minnatdorchilik bildirdi. „Qo'llab-quvvatlayman“, deb va'dalar berdi.

Toshkentda REKUNKOVga tag'in ellik ming so'm pul berdim. SSSR Bosh Prokurori tag'in minnatdorchilik bildira-bildira – qo'limdan pulni oldi.

Men SSSR Oliy sudi raisi TEREBILOVga qirq ming so'm pul berdim. Ikki ming sakkiz yuz so'mlik gilam berdim. Gilamni O'zbekiston Markaziy Qo'mitasi ishlar boshqarmasi xodimlari tayyoraga arang-arang yukladilar.

Men KPSS Markaziy Qo'mitasi kotibi o'rtoq LIGACHEVga oltmish ming so'm pul berdim!..“

Ivan Ivanovich jildtaxlamni yopdi. Iplarini boyladi.

– Ana, eshitdingmi? – dedi, – Poshshoyi a'zaming-a, poshshoyi a'zaming!

Men... iloyim, qulog'im karligi chin bo'lsin, dedim.

Men... iloyim, bari aybni karligimdan ko'rayin, dedim.

Men... iloyim, umrbod kar bo'lsam bo'layin – ammo-leton... ana shu gaplarni eshitmagan bo'layin, dedim.

Shu bois – deraza boqib o'tira berdim.

– Ha, namuncha bezrayib qolding?

Shunda-da Ivan Ivanovich qayrilib boqmadim.

– Ana siz, ana Maskov... – deya ming'illadim.

– U nima deganing?

– Ana, poshshomiz oppa-oydin aytib berayaptilar-ku?

Maskovga o'z-o'zidan choychaqa uzatib... O'zbekistonni kallasi shamolda qoptimi? Maskov qo'l cho'zadiki – O'zbekiston sadaqa beradi!

– Maskovga til tekkizma, baran, Maskovga til tekkizma!

– Maskov bo'lmasa – maskovchi kattalar! Ana, poshshomiz maskovchi kattalarni oppa-oydin aytayaptilar! Yana-tag'in... nomma-nom aytayaptilar, nomma-nom! Ana, maskovchi kattalarni bandi etib gapirishsha bering-da!

– Yo'q, baran, yo'q! Mening maskovchi kattalar bilan ishim yo'q! Maskovchi kattalar – o'zimiznikilar! O'zimiznikilar – Ulug' O'ris! Ulug' O'ris bilan ishim yo'q! Ulug' O'ris nima qiliq qiladi – bari yarashadi! Men – sen baranlar bilan ishim bor!

– Yo pirim-e, yo pirim-e, bizda nima ayb?

– Maskovga pora bergansan!

– Holvani hokim yeydi – kaltakni yetim yeydi, deydilar...

Ivan Ivanovich boshimlab keldi. Ivan Ivanovich halqu-mimdan g'ippa bo'g'ib ko'tardi.

– Kinolarda Afrika ola-bula eshagini ko'rghanmisan? – dedi. – Manavi yuzlaringday ola-pes eshak? Sen ana shu Afrika ola eshagiga kelbat berasan! Manavi ola-chipor yuzlaring ham aytib turibdi. Afrika ola eshagi Afrikada nima o'jarlik etsa etadi. Boisi, Afrika – o'z oti o'zi bilan Afrika. Bu yer esa – Maskov! Sening Afrika ola eshagiday o'jarliging Maskovda ketmaydi!

Ivan Ivanovich meni silkilab-silikilab tashladi.

Men gup etib tushdim.

Ivan Ivanovich oldimga qog'oz-qalam qo'ydi.

– Ma, yoz! Raisimizga o'n ming so'm bergenman, deb yoz! – dedi. – Tag'in Afrika ola eshagiday qaysarlik eta bersang – manavi miyangga to'qqiz misqol qo'rg'oshin quyib qo'yaman! Qani, yoz!

– Men hali umrimda qo'limga o'n ming so'm pul ushlagan emasman, katta.

– Bilaman, Afrika ola eshagi! Bilaman, Afrika qaysar eshagi! Sen raisimizga o'n ming so'm berdim, deb yoz – bo'ldi!

Men qog'oz muztar bo'lib-qog'oz muztar bo'lib o'tira berdim.

Qalamni qo'limga-da olmadim!

– Soat to'rt bo'layapti, hademay tong otadi! Bo'l, baran, bo'l!

Men ko'zim ketib-ko'zim ketib o'tira berdim. Ivan Ivanovich betimga shama sepib tashladi. Men seskana-seskana ko'z ochdim.

– Raisimizga o'n ming so'm berdim deb, qog'oz qoralab ber – bo'ldi!

Men yo'q deya-yo'q deya, bosh chayqadim.

– Uh, Afrika ola eshagi! Uh, Afrika qaysar eshagi!

Ivan Ivanovich o'ng biqinim oralatib-oralatib tepdi.

Ivan Ivanovich chap biqinim oralatib-oralatib tepdi.

Ivan Ivanovich chatanoqlarim oralatib-oralatib tepdi.

22

Ivan Ivanovich nazorat etib turdi. Do'xtir ayol madda-madda yaralarimni moy doriladi.

Do'xtir ayol qon-qon yaralarimni ko'k doriladi. Do'xtir ayol momataloq-momataloq yaralarimni yod doriladi.

Do'xtir ayol... badanlarimni qaradi-qaradi... piq-piq yig'ladi...

— Nega yig‘layapsiz? — dedi Ivan Ivanovich. — Nima bo‘ldi, Nina Sergeevna?

Do‘xtir ayol og‘iz bekitib-og‘iz bekitib yig‘ladi.

— Men... men O‘zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, — deya yig‘ladi. — Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a...

— Shu baranlarni nimasiga kuyasiz? Bari haromtomoq, bari boqimanda!

— O‘zbekiston unday emas... O‘zbeklar unday emas...

23

— Dalilingiz bordir-da: raisimizni qulf-kalit etib o‘tiribsiz?

— Bo‘ladi, dalil bo‘ladi!

— Unda, meni beyoziqdan-beyoziq bandi etmang-da? Men bola-baqram oldiga borayin-da?

— Yo‘q! Men Ivan Ivanovichman! O‘zlariningni o‘z qo‘llaring bilan yo‘q qilaman! Birovingni ko‘zingni birovingga o‘ydiraman! Birovingni kallangni birovingga yediraman! Birovingni joningni birovingga oldiraman! O‘zim esa — pok-pokiza bo‘lib qolaman! Bu yo‘l — Ivan Ivanovich Ivanovlar yo‘li!

— Xudo xayringizni bersin, beyoziqdan-beyoziq...

— Eshak semirsa, oxurini bulg‘aydi, deydilar! Sen baranlar mazaxo‘rak bo‘lib qolding, mazaxo‘rak! Sen baranlar qorning to‘yib qoldi! Shunday keta bersalaring — qanjiq itday bolalab bora berasanlar! Ana, ko‘z ochib yumguncha yigirma milliyon bo‘ldilaring! Yigirma milliyon xalq-a! Sen boqimandalarga nonni qayerdan topamiz! Yo‘q, biz yigirma milliyon boqimandani boqmaymiz! Baliq boshidan sasiydi, boshidan! Yigirma milliyonni bosh-boshliqlaringdan boshlab kamaytiramiz! Bosh-boshlaringdan boshlab kamaytiramiz!

O‘z-o‘zidan ko‘nglim ozdi. Yuragim behol bo‘ldi. Ko‘zlarim tindi.

Suv, deyin dedim — holim kelmadı.

Oldimda turmish piyola uzaldim. Choyqoldiqni og‘zim oldim.

Ivan Ivanovich qo'limdan piyolani yulqilab-yulqilab oldi.

– Buyoqqa ol! – dedi. – Senga kim qo'yibdi choy ichishni!

Og'zimdag'i og'zimda qoldi, bo'g'zimdag'i bo'g'zimda qoldi. Men mo'lt-mo'lt qoldim.

Ivan Ivanovich boshmaldog'ini lunjlarimga nuqib-nuqib oldi.

Og'zimda turmish choy pirq-pirq otildi.

Tomog'imda turmish choy tiqilib-tiqilib qoldi.

Men qir-qir yo'taldim.

Men ko'zlarim yoshlanib-yoshlanib yo'taldim.

Men Ivan Ivanovichga mo'lt-mo'lt boqib yo'taldim.

– O'l, shu kuningga! – dedi Ivan Ivanovich. – Ivan Ivanovich Ivanovlar piyolasidan choy ichishni sen baranlarga kim qo'yibdi?! Ana shunday yo'talib-yo'talib – Bobomurod Omonovday o'lasan-qolasan! Namuncha angrayasan? Ha, Bobomurod Omonov o'ldi! Termiz ketgan tergovchilarim telefonda aytib berdi. Omonov o'z ajali bilan o'ldi, deb o'ylaysanmi? Ana shu-da, baransan-da, baran! Omonov ham senday oyoq tirab turib olib edi. Nimani so'rasha – „Usmonxo'jayevga javob beraman, Usmonxo'jayevga javob beraman“, deb turib olib edi. Oxiri... olgichini oldi! O'limichi etib urdilar! Tepib-tepib – muzxonaga olib kirib tashladilar! Yetmish yashar chol muzxonaga bardosh berarmidi? Ana, o'ldi-ketdi! Bobomurod Omonov – Sotsialistik Mehnat Qahramoni edi, Ulug' Vatan urushi ishtirokchisi edi, xalq deputati edi! Sen kimsan?! Itday o'lasan-ketasan! Yo'qol, yigirma milliyon baran, yo'qol!

Yuztuban bo'lib yota berdim.

Shunda, yelkamdan tepki yedim.

Men boshimni ko'tarib qaradim.

Boshimda „Sadist“ bilan „Sokol“ turdi.

-
- Ha, churban? – dedi „Sadist“, – o‘lib-po‘lib qolma-dingmi?
 - O‘lma, qo‘y, o‘lma, – dedi „Sokol“. – Sen hali bizga keraksan.
 - Nimaga miq etmaysan, gapir.
 - Men darmonim yo‘q, deya bosh chayqadim. Hovuchimni og‘zim olib bordim – suv ishorasini berdim.
 - Masala ravshan, – dedi „Sadist“. – Bechora churban och.
 - Yarim kechada qayerdan to‘q bo‘ladi, – dedi „Sokol“.
 - Endi birato‘la tamaddi etadi-da.
 - Oldin hojat olib borib kelaylik.
 - Qani, qo‘ltig‘idan ol.
 - „Sadist“ bilan „Sokol“ hidoyat qo‘llarini uzatdi.
 - Meni ohista-ohista tuvak olib bordi.
 - Ko‘nglim „Sadist“ bilan „Sokol“ hidoyatidan taskin oldi.
 - „Ursalar-da mayli. Shular bo‘lmasa, holim ne kechar edi?“ – deya xayollandim.
 - Burchakda turmish tuvak oldida tik bo‘ldim.
 - Teskari qarab turinglar, – dedim.
 - Uyalasanmi? Yo‘g‘-e?
 - Uyaladi-da! – dedi „Sadist“, – O‘zbeklar birov oldida yozilish uyoqda tursin... O‘zbeklar tikka turib choptirmaydi!
 - Or-nomusli o‘zbek xalqining sadag‘asi ketsang-da! – dedi „Sokol“.
 - „Sadist“ bilan „Sokol“ shunday deya-deya, teskari bo‘lib turdi.

25

- ...Men cholvorimni tortib-tortib tugmaladim.
- Men tuvakdan bir qadam oldin bosib turdim.
- Bo‘ldi! Ana endi qaray beringlar! – dedim.
- „Sadist“ bilan „Sokol“ tag‘in qo‘ltiqlarimdan kirdi. Tiz-zalarimdan olib tosh o‘tirg‘izdi.
- Ajabdan bir „Sadist“ qaradim, bir „Sokol“ qaradim.
- Nima qilayapsizlar? Men o‘tirib bo‘ldim! – dedim.

- Endi... tamaddi etamiz!

Qani, palov yegich qo'lingni ber, qani.

„Sadist“ o'ng qo'limni oldi. Tuvak olib bordi.

Kaftimni... tezagim bosdi.

- Ay, nima qilayapsizlar, ay!..

- Seni tamaddi ettiramiz.

- Bechoragina, holdan toyib qolding.

- Bari tomoqdan-da, tomoqdan.

- Qani, oshamlab-oshamlab ol, qani.

- Ay, u tezak, u tezak!.. – deya, tipir-tipir etdim.

- Nima farqi bor? – dedi „Sadist“. – Atala oldin qozonda edi. Qozondan kosaga o'tdi. Kosadan qorningga o'tdi. Qorningdan tuvakka o'tdi. Mana endi... tag'in qorningga o'tadi! O'sha-o'sha atala!

- Chin, u teshikdan kiradi – bu teshikdan chiqadi! – dedi „Sokol“.

- Ha-da, farqi yo'q! Farqi – bir teshik yuqorida, bir teshik quyida!.. – dedi „Sadist“.

- Qani, katta-katta ol, qani!

Men barmoqlarimni yummadim. Men barmoqlarimni tik tutdim.

- O'ldir! – dedim. – Mayli, o'ldir!..

- Yo'q, biz seni o'lasmaymiz.

- Biz seni tamaddi ettiramiz, tamaddi.

Joyimdan turayin, deya talpindim.

Tuvak oyoq tirab kuchandim.

Men „Sadist“ bilan „Sokol“ga kuch bermadim.

Shunda, „Sokol“ chuydamdan bosdi.

Men shunda-da kuch bermadim!

Endi, „Sadist“ bo'ynimni chatanoqlari orasi olib-olib bo'g'di. Kekirdagimga bashmaldoq bosib-bosib bo'g'di...

Men og'zimni kappa-kappa ochdim. Hir-hir etdim.

„Sokol“ qo'lro'mol bilan tezak oldi. Misoli palov oshatmishdayin-palov oshatmishdayin og'zim soldi.

Men yutinmadim – tezagimni og'zimda ushlab turdim.

„Sadist“ boshimni chayqab-chayqab oldi. „Sadist“ boshimni siltab-siltab oldi.

Men shunda-da yutinmadim!

„Sokol“ ichimga sozlab-sozlab ko‘rmusht urdi!

Ichim shilq etdi!

Ichim tortdi – tezagimni tortib oldi...

– Osh bo‘lsin! – dedi „Sadist“.

– Osh bo‘lsin! – dedi „Sokol“.

– O‘qchiyapti... tuyilib qoldi-yov!

– Tuyilib qolsa... to‘qson besh choy ichiramiz-da! „Sadist“ tuvakdan bir hovuch siydk oldi. Og‘zimdan siydk quydi...

– Osh bo‘lsin!

26

– Bir yildan oshdi! – dedi Ivan Ivanovich. – Afrika ola eshagiday oyoq tirab yotishingga ham bir yildan oshdi! Yota ber, qaysar eshak bo‘lib yota ber! Ana shunday o‘lasan-ketasan!

– Birovga o‘lim tilamang. Ajali yetgan o‘ladi.

– O‘lasan! Bekordan-bekor o‘lasan! Xo‘sh, o‘lsang – sen baranni kim yo‘qlaydi! Yo‘qlaydigan yo‘lboshching qolmadi! Mana, qulq sol: raising Botirov zindonda yotibdi. Ijroqo‘m raising Xoliqulov zindonda o‘z tomirini o‘zi kesib o‘ldi! Tumaning firqa qo‘mitasi birinchi kotibi Mirzaboyev zindon ikkinchi qavatidan o‘zini o‘zi tashlab o‘ldi! Viloyating ijroqo‘mi raisi Beknazarov zindonda o‘z joniga o‘zi qasd etib o‘ldi! Viloyating firqa qo‘mitasi birinchi kotibi Karimov zindonda yotibdi. O‘zbekiston Ichki Ishlar vaziri Yahyoyev zindonda yotibdi. O‘zbekiston Bosh Prokurori Bo‘rixo‘jayev zindonda yotibdi. O‘zbekiston Bosh Vaziri Xudoyberdiyev zindonda yotibdi, O‘zbekiston Jumhuriyati Qo‘mitasi birinchi kotibi Usmonxo‘jayev zindonda yotibdi! Ana, raisingdan tortib poshshonggacha zindonda yotibdi! Bor boshpanohing zindonda yotibdi! Xo‘sh, endi seni kim yo‘qlaydi?

„Chin, chin, – deya o‘ylab qoldim. – Raisimizdan tortib, poshshomizgachayin zindonda yotibdi-ya!“

– Zindonimda yigirma besh ming bo‘ldilaring – yigirma besh ming! Bari zindonbandlarim – Yo‘lchi Yulduz zindonbandlar! Zindonimda to‘rtta Markazqo‘m kotibi yotibdi – Usmonxo‘jayev, Aytmurodov, Salimov, Abdullayeva! Zindonimda yigirmata general yotibdi! General Yahyoev... Dunyoda general zoti to‘lib yotibdi, baran. Lekin o‘zbek Yahyoyevdayi kamdan-kam topiladi. O‘zbek Yahyoyevdan Maskov generallari ham saboq olar edi. Maskov generallaridan bitta Shchelokovni o‘zbek Yahyoyev bilan yonma-yon qo‘ysa bo‘lar edi. Boshqa generallar o‘zbek Yahyoyev oldidan o‘ta bersin edi. Ana shu Yahyoyevday yigirmata generaling zindonimda yotibdi! Zindonimda sakkizta viloyat kotibi yotibdi. Zindonimda o‘nta Sotsialistik Mehnat Qahramoni yotibdi! O‘nta Sotsialistik Mehnat Qahramoniyam O‘zbekiston yulduzları! Jami yigirma besh ming yo‘lchi Yulduzing zindonimda yotibdi!

Ivan Ivanovich zo‘rma-zo‘raki iljaydi.

– Yo‘lchi yulduzlarining bola-chaqasi-yu, qarindoshurug‘lariyam zindonimda yotibdi! – deya iljaydi. – Poshshong Usmonxo‘jayevni yigirma uchta bola-chaqasi bilan qarindoshurug‘i yotibdi! Bilasanmi poshshong Usmonxo‘jayevni zindonband etish uchun kim qo‘l qo‘ydi? SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi o‘rtoq Gromiko qo‘l qo‘ydi, Gromiko! Xo‘-o‘sh... Karimovni yigirma bitta bola-chaqasi yotibdi! Xudoyberganovni o‘n beshta bola-chaqasi yotibdi! Kamolov, Rajabov, Jabborov degichlarni sakkiz-to‘qqiztalab bola-chaqasi zindonimda yotibdi!.. Qahramon Onalaringgacha zindonimda yotibdi – Qahramon onalaringgacha! Zindonbandim Saidova o‘n ikkita farzand onasi bo‘ladi! Zindonbandim Doliyeva o‘n bitta farzand onasi bo‘ladi! Zindonbandim Matg‘omova o‘n bitta farzand onasi bo‘ladi! Zindonbandim Alimova to‘qqizta farzand onasi bo‘ladi...

Ivan Ivanovich iljaya-iljaya choy ichdi.

– Anavi payg‘ambariningni oti nima edi... Xo‘-o‘sh... xotiram o‘lsin-a... Afsus, o‘sha payg‘ambariningni qo‘liga kishan

solistga ulgurolmadim, afsus. Xudo mendan oldin jonini olib qo'ydi! O'sha payg'ambaringni oti nima edi...

– Muhammad payg'ambar.

– Yo'q-yo'q... Xo'-o'sh... Sharof Rashidov! Afsus, Sharof Rashidovingni zindonband etishga ulgurolmadim, ming afsus!..

Ivan Ivanovich po'rillatib-po'rillatib choy ichdi. Ivan Ivanovich kiborona-kiborona aytdi:

– Endi... O'zbekiston toj-taxtini o'zimiz boshqaramiz! O'zbekiston Markazqo'mi kotibi Anishchev, O'zbekiston Xalq Nazorati Qo'mitasi raisi Yefimov, O'zbekiston Bosh Prokurori Buturlin, Toshkent shahar prokurori Terkin, Toshkent shahar firqa qo'mitasi birinchi kotibi Satin... Jami o'ttiztacha azamat! Azamatlarni Maskov yubordi! Nasib bo'lsa – ana shu azamatlar O'zbekistonda pichoqqa ilashadigan o'zbekni omon qoldirmaydi! Nasib bo'lsa – ana shu azamatlar bosh ko'targan o'zbekni boshini yanchib-yanchib keladi! Nasib bo'lsa – ana shu azamatlar ko'zi ochilgan o'zbekni ko'zini o'yib-o'yib keladi!

Devordan sado bo'ldi – mendan sado bo'lindi. Men toshday-toshday bo'lib o'tira berdim.

Ivan Ivanovich horiqulodda aynidi...

Ivan Ivanovich zahar yuz bo'ldi.

Ivan Ivanovich tana ko'z bo'ldi.

Ivan Ivanovich qalt-qalt qo'l bo'ldi.

– Xali zindonbandlarim ellik mingta bo'ladi! Xali zindonbandlarim yuz mingta bo'ladi! – deya lik etib turdi. – Pichoqqa ilashajak o'zbek – omon qolmaydi! O'zbekiston – tutday kallak bo'ladi!

„Sadist“ bir tarafimlab keldi, „Sokol“ bir tarafimlab keldi. Men apil-tapil turib o'tirdim.

– Tun sovuq keldi, churban, – dedi „Sadist“.

– Tiqilishib yotaylik...isib yotamiz, – dedi „Sokol“.

„Sadist“ bilan „Sokol“ o'ng-chapimni olib o'tirdi.

- Churban, – dedi „Sokol“. – Bilasan, men Sho‘ro hukumatidan nafratlanaman!
- Men esa jirkanaman! – dedi „Sadist“.
- Ammo yashab qolish kerak! – Zindonda bo‘lsa-da, odamday yashab qolish kerak!
- Tashqaridan ichkilik olib turamiz.
- Taryok olib turamiz.
- Oldi-berdimizni Sho‘ro qonunbozlari biladi.
- Sho‘ro Bosh prokurorigacha biladi!
- „Yula“dan boshlab Bosh prokurorgacha bizning dastyorligimizni qiladi!
- Bosh prokuror dastyorimiz bo‘lgach – yemakni qusmog‘i-da bo‘ladi...
 - „Sadist“ bilan „Sokol“ bilaklarimdan oldi. Qo‘llarimni ketim qayirdi-ketim qayirdi – yelkam olib bordi.
- Qo‘llarim qirs-qirs etdi.
 - A-a-a-ay!.. – deya ovoz berdim.
 - „Sadist“ bilaklarimni bir nima bilan o‘rab-o‘rab boyladı. Men tishimni tishimga bosib-bosib turdim.
 - „Sokol“ bo‘ynimdan bosdi.
 - Men yuztuban enkayib-enkayib turdim.
 - Men tizzalarimni yig‘ib-yig‘ib turdim.
 - „Sadist“ cholvorimni qo‘shto‘llab tortqiladi.
 - Oyoqlarini yoy!
 - Tizzalarinigni och!
- Men jon-jahdim bilan tizzalarimni qapishtirib-qapishtirib turdim.
 - „Sokol“, sindir oyog‘ini, sindir!
 - „Sokol“ etik uchi bilan tizzalarim ko‘zilab-tizzalarim ko‘zilab tepdi.
- Tizzalarim etik tepkilarni ko‘tarolmadi. Tizzalarim o‘z-o‘zidan yoyildi.
 - Shunda, cholvorim lip etib tushdi...
 - Bay-bay-bay! – deya, „Sadist“ quymuchlarim shapatildi. – Tarvuz, misoli tarvuz!

-
- Umr bo‘yi yotib yegach... tarvuzday bo‘ladi-da!
 - Bilqillaydi-ya, bilqillaydi! – deya, „Sadist“ quymuchlarim shapatiladi.
 - Men bor ovozim bilan baqirdim:
 - „Yula“-a-a-a!..
 - Baqirma, churban, baqirma! Yarim kechada „Yula“ qoldimi!
 - „Yula“-a-a-a!.. – deya, yig‘lab-yig‘lab qo‘ya berdim.
 - Baqirma deyapman!
 - Nima... qizmisan?
 - Qizmidingki... dod deysan?
 - „Yula-a-a-a!.. – deya, yig‘lab-yig‘lab qo‘ya berdim.
 - Osmon – tosh bo‘ldi.
 - Yer – tosh bo‘ldi.
 - Devor – tosh bo‘ldi...
 - Aytaman, „Sadist“boy, aytaman! – deya, yig‘lab-yig‘-lab yolbordim.
 - Ana endi o‘zingga kelayapsan! – dedilar.
 - Qo‘ybering, „Sokol“boy, meni qo‘ybering! – deya, yolborib-yolborib yig‘ladim. – Aytaman, „Sadist“boy, mana-mana aytaman!
 - Ana endi esing kirdi! – dedilar.
 - Mendan qo‘l oldilar.

28

Oppoq qog‘oz tikilib-tikilib shaylandim. Qalam ushlab-ushlab shaylandim.

- Qani, yoz, qani, – dedi Ivan Ivanovich. – SSSR Bosh prokurori o‘ribbosari o‘rtoq Sorokoga...

Ivan Ivanovich aytib-aytib turdi.

Men bitta qoldirmayin, bitib-bitib turdim.

- Qani, menga ber, qani, – dedi Ivan Ivanovich. – Ay, kuchingdan, jigit! Ana endi jigitmisan-jigit bo‘lding! Shugina gap uchun Sho‘ro qonun posbonlarini bir yildan ziyod qiynading-a!

- Endi... ust-boshimni bersangiz deb edim.
- Ust-bosh? Ust-boshni nima qilasan?
- Manavi zindoni ust-bosh bilan qishloq borib bo‘ladimi?

El-yurt nima deydi? Do‘st bor, dushman bor...

Ivan Ivanovich og‘iz ushlab-og‘iz ushlab kului. Ivan Ivanovich bet changallab-bet changallab kului.

Ivan Ivanovich ko‘z artib-ko‘z artib kului.

- Hay, jigit-ay, jigit-ay!.. – dedi. – Ayt, tag‘in nima qilay?

– Tag‘in... meni kechasi bir mahalda olib kelib edilar. Men bediramdan-bediram kelib edim. Shu bois... ayta berayinmi?

- Ayt-ayt?

– Shu bois... bir-ikki so‘m yo‘lkira qarz berib tursangiz... deb edim. Bola-baqram oldiga eson-omon yetib borsam, armonim yo‘q... Omonatingizni chaqama-chaqa jo‘nataman...

Ivan Ivanovich xandon-xandon kului.

O‘NINCHI BOB

1

Sayyor sud Denov paxta zavodi madaniyat saroyida bo‘ldi.

- Joyingizdan turing, sud kelayapti!

El-yurt to‘la saroy bir qalqib oldi.

–...Aybdor Jamoliddinov Dehqonqul Aqrabovichga so‘ng-so‘z beriladi!

Bola-baqralarim qoshimda bo‘ldi.

Xesh-aqrabolarim qoshimda bo‘ldi.

Ko‘ngil yetarlarim-da qoshimda bo‘ldi.

Unda, tag‘in, kimim... tag‘in kimim yo‘q bo‘ldi?

- Shu... shu, dalalarimni bir ko‘rib ketayin, – dedim.

– Kimni-kimni? – dedi qozikalon.

– Dalalarimni bir ko‘rib ketayin...

Qozilar o‘zaro qarashib-qarashib oldi. Qozilar o‘zaro bosh irg‘ashib-bosh irg‘ashib oldi.

— ...Jamoliddinov Dehqonqul Aqrabovich O'zbekiston Jumhuriyati jinoyat tuzugining 153-moddasiga binoan... sakkiz yil muddat bilan ozodlikdan mahrum etiladi!

El-yurt to'la saroy bir yig'lab oldi!

2

Zindonmashina ravon-ravon yurdi. Zindonmashina do'-qib-do'qib yurdi.

Zindonmashina bir joyda manzil etdi.

Temir eshik lang ochildi.

Qizil askar avtomat bilan tush, ishorasini berdi.

Men zindonmashinadan tap etib tushdim.

Favqulodda yorug'dan ko'z ochoimadim. Ko'zlarimni chirt yumib turdim.

Ohista-ohista ko'z ochdim...

O'zimni... o'zimni shiyponimiz oldida ko'rdir!

Tevarak-boshim dalalarim bo'ldi.

Dalalarim sokin-sokin bo'ldi.

Dalalarimda qarg'alar uchib-qo'nib turdi.

Dalalarimda qoramollar o'tlab-o'tlab yurdi.

G'o'zalar shipshiydam g'o'zapoya bo'ldi.

G'o'zapoyalar shumshuk-shumshuk bo'ldi. G'o'zapoyalar sariq-sariq bo'ldi.

G'o'zapoyalar bo'y-bastidan... ushbu yil hosili mo'l-mo'l bo'ldi!..

3

Qizil sorbon bir dalalarim qaradi, bir men qaradi.

„Mana, dalalaringga-da olib keldik, — demish bo'ldi. —

Xo'sh, endi nima deysan?“— demish bo'ldi.

— Nu? — dedi Qizil.

Qizil! Dalalarimda Ivan Ivanovichlik etmay tur, endi.

Dalalarim bilan omon-esonlashib olayin, endi.

Qizil! Dalalarimda Ivan Ivanovichlik etmay tur, endi.

Ko'nglim tub-tubida kuyuklarim bor, kuyuklarim... Kuyuklarimni dalalarimga yorayin, endi. Kuyukni kuyuk olsin, endi..

4

Ivan Ivanovich! Men senga yuz o'ttiz yil yurtim to'rini berdim, yuz o'ttiz yil uyim to'rini berdim – ammo sen bilan el bo'lmadim!

Ivan Ivanovich! Men sen bilan yuz o'ttiz yil yelkama-yelka kun kechirdim, yuz o'ttiz yil chizgan chizig'ingdan chiqmadim – ammo sen bilan el bo'lmadim!

Yuz o'ttiz yil tur desang, turdim, o'tir desang, o'tirdim, yuz o'ttiz yil kul desang, kuldim, yig'la desang, yig'ladim – ammo sen bilan el bo'lmadim!

Ivan Ivanovich! Men yuz o'ttiz yil o'zim kiymadim – senga kiydirdim!

Ivan Ivanovich! Men yuz o'ttiz yil o'zim kiymadim – senga kiydirdim, yuz o'ttiz yil o'zim yemadim – senga yedirdim, yuz o'ttiz yil o'zim ichmadim – senga ichirdim... ammo sen bilan el bo'lmadim!

Ivan Ivanovich! Men yuz o'ttiz yil kofir to'q – musulmon tinch, maqomda kun ko'rdim... ammo sen bilan el bo'lmadim!

Dini boshqa minba'd-minba'd el bo'lmaydi! Tili boshqa minba'd-minba'd el bo'lmaydi!

Ivan Ivanovich! Sen tirigim tirmog'in yeding, sen o'ligim yog'in yeding – ammo to'ymading!

Ivan Ivanovich! Men ochlikdan o'lmadim – sen to'qlikdan yorilmading!

Ivan Ivanovich! Men seni yuz o'ttiz yil to'ng'ich akam, dedim. Bo'ldi – men endi seni to'ng'ich akam, demayman.

Men endi seni to'ng'ich aka degich tillarimni kesib itga tashlayman!

5

– Nu? – dedi Qizil.

Ivan Ivanovich! Dalalarimda nu-nulamay tur, endi.

Dalalarim diydoriga to‘yib-to‘yib olayin, endi.

Ivan Ivanovich! Sen dala nimaligini bilarmiding? Sen sadqayı dala ket!

Sen qo‘s sh jomadon ko‘tarib daydishni bilasan. Sen g‘ildirakli jomadon sudrab daydishni bilasan.

Sen qaysi yurt mevazor – shu yurtni makon etasan. Sen qaysi el mehnatkash – shu elni makon etasan.

Ivan Ivanovich! Qaysi yurt mevali-chevali bo‘ladi – shu yurt sen uchun vatan bo‘ladi!

Qator-qator daydib kelasan-u... osoyishta-osoyishta el-yurtni alg‘ov-dalg‘ov etasan.

Ota bilan bolani gjij-gij etasan.

Aka bilan ukani kov-kov etasan.

Hamsoya bilan hamsoyani oqkaltak-qorakaltak etasan.

O‘rtada maza-maza... Sen maza etasan! Sen o‘rtada payg‘ambar bo‘lib davron surasan. Sen o‘rtada qozikalon bo‘lib davron surasan.

Ivan Ivanovich! Sen qadam qo‘ymish el-yurt aslo tinch-tutuv bo‘lmaydi. Sen qadam qo‘ymish el-yurt aslo tinib-tinchimaydi.

Ivan Ivanovich! Sen ko‘zingga tuproq to‘maguncha – sen el-yurtga to‘ymaysan!

6

– Nu? – dedi Qizil.

Ivan Ivanovich! Picha oyoq il, endi.

Dalalarim bilan xayr-xo‘splashib olayin, endi.

Dalalarim bobolarim achchiq-achchiq ko‘z yoshlaridan dala bo‘ldi.

Dalalarim otalarim sho‘rpeshona terlaridan dala bo‘ldi,

Dalalarim ayollarim gulday hazon umridan dala bo‘ldi.

Dalalarim – bobolarim sho‘r-sho‘r peshonasi.

Dalalarim – otalarim yag‘ir-yag‘ir yelkasi.

Dalalarim – ayollarim xazon-xazon umri.

Men... dalalarimni deya, qaytib kelaman!

Tupkani tagidan bo'lsa-da, qaytib kelaman!

Ana shunda sho'rtuproq dalamga a'lo nav paxta ekaman.

Undan a'lo-a'lo tola olaman.

Qumloq dalamga moy bergich paxta ekaman. Undan xushta'm-xushta'm paxtamoy olaman. To'yimli-to'yimli paxtamoy olaman.

Oqtuproq dalamga oqlik mo'l paxta ekaman. Undan yegulik oqlik olaman. Ichgulik oqlik olaman.

Men qaytib kelaman!

Men hali dalalarimda elektr motorli traktorlar minib ter to'kaman. Kun nuri bilan yurgich traktorlar minib ter to'kaman. Olti g'ildirakli traktorlar minib ter to'kaman.

Mazkur traktorlar qar-qarlamaydi – bilinar-bilinmay odimlaydi!

Kabinasida barcha sharoitlar muhayyo bo'ladi: mitti sovutgichi bo'ladi. Mitti muzxonasi bo'ladi. Mitti choy qaynatgichi bo'ladi. Tayyoralardagiday chanoq-jo'mragi bo'ladi.

Men qaytib kelaman.

Yetti iqlimdan bo'lsa-da, qaytib kelaman.

Ana shunda paxtamni cho'tkali-cho'tkali mashina bilan yig'ib-terib olaman.

Mashina bilan bir oralaboq terib olaman. Boshqa qaytib dala oralamayman.

Yig'im-terimni bosh-adoq bir mashina bilan bajaraman. Bir vaqtmi o'zida bajaraman.

Mashina a'lo tola paxtamni alohidelaydi, mundayroq tola paxtamni alohidelaydi.

Ayni vaqtda paxtamni xas-cho'pdan pokizalaydi. Changg'ubordan forig'laydi.

Tolani bir yoqli etadi, chigitni bir yoqli etadi.

Paxtamni o'zi taxlaydi, o'zi toylaydi. Toylnarni yuk mashina joylaydi.

Tog'ay Murod

Yuk mashina paxtamni dalalarimdan fabrika olib jo'-naydi.

Men qaytib kelaman.

Yetti qavat yerni ostidan bo'lsa-da, qaytib kelaman.

Men dalalarimni deya, qaytib kelaman.

Meni dalalarim qaytarib keladi...

1986 – 1991 yillar.

MEN

Men Surxondaryo viloyati, Denov tumani, Xo'jasoat qishlog'ida dunyoni ko'rdim.

Shu qishloqda katta bo'ldim. Shu qishloqda o'rta maktabni bitirdim.

Maktabda hikoyalar mashq etdim.

Toshkent Davlat Dorilfununi Jurnalistika fakultetini tammomladim.

Dorilfununda hikoyalar mashq etdim.

Jumhuriyat radiosida to'rt yil muharrir bo'lib ishladim.

Qizil Armiya saflarida harbiy xizmat qildim.

Ikki yil „O'zbekiston fizkulturachisi“ gazetasida tarjimon bo'ldim.

„Fan va turmush“ jurnalida ikki yil muharrir bo'lib ishladim.

Moskvadagi Jahon Adabiyoti institutida o'qib keldim.

Men o'rta maktabni bitirib, shunday niyat etdim: o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha uylanmayman, oila qurmayman, bিrор idorada faqat tirikchilik uchun ishlayman.

Men faqat bir maqsadni ko'zladim: o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha jahon adabiyotini o'qish. Faqat o'qish, o'qish, o'qish, qo'l qotib qolmasin uchun mayda-mayda hikoyalar mashq etib turish.

Men shu niyat yo'lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon-shuhrat qizg'anmadim.

Men dunyo talashmadim!

Faqat izlandim, faqat o'qidim.

G'animlarim meni ishdan haydadilar.

Kurashda bir tabiat qonuni bor: polvon davrada mag'lub bo'lsa, taqdirga tan berib ketmaydi. Yo'q, polvon o'zini bo-

qadi. Polvon o'zini parvarishlaydi. Polvon tinimsiz mashq oladi. Raqibidan mag'lubiyat alamini olish uchun shaylanadi. Raqibidan alamini olmasdan-da qo'ymaydi.

Men go'dakligimdan davralarda kurashib katta bo'ldim.
Polvonlik ajdodimda bor, polvonlik qonimda bor.

Menda ana shu polvonlik qonim qo'zg'aldi.

Men g'animplarimdan alam olish uchun shaylandim.

Men kim ekanimni bir ko'rsatib qo'yish uchun katta asarga qo'l urdim.

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda „Yulduzlar mangu yonadi“ nomli birinchi qissamni yaratdim.

Men bu qissam bilan g'animplarimga: „Mana, men kimman!“ degan bo'ldim.

Qissa elga manzur bo'ldi.

O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi hisobot yig'ilishida yilning eng yaxshi qissasi, deya baholandi.

G'animplarim bir kuydi, bir kuydi-ye!

Bu – tasodif, dedilar. Kesakdan olov chiqdi, dedilar. Fisq-fasod tarqatdilar.

Bir chaqasiz kunlarim bo'ldi. Ijara haqini to'lay olmay, ijara dan haydalmish kunlarim bo'ldi. Boshpanasiz kunlarim bo'ldi.

Men qishlog'imga qaytdim.

Onam sandiq kavladi. Lattalar ostidan bir tuguncha oldi. Tugunchani uch-to'rt aylantirib ochdi.

Tugunchadan besh-olti so'm pul chiqdi.

Onam shu pulni menga uzatdi.

Shunda... men bir boshqa bo'lib qoldim. Men tashqari otilib chiqib ketay, dedim.

Bu pul... onamni... o'limlik puli bo'ldi.

Men devorni ushlab qoldim.

– Olmayman... – dedim.

– Ol, sen shoир bo'lsang bo'ldi, ol, – dedi onam.

– Yo'q... – deya bosh chayqadim.

– Ol, sen shoир bo'lmaguningcha men o'lmayman, –

dedi onam. – Men sening shoirligingni ko‘rmagunimcha o‘lmayman.

Men tag‘in Toshkent qaytib keldim.

Men endi onamni o‘limlik puli bilan tirikchilik kechirib izlandim.

Bir jurnal muharriri meni ishga olaman, dedi.

Ammo g‘animlarim xabar topib, meni ishga oldirmadilar.

– O‘zi boshqa, asari boshqa, – dedilar.

– O‘zidan asari yaxshi, – dedilar.

– Asari kerak, o‘zi kerak emas, – dedilar.

Ana shunda polvonlik qonim tag‘in qaynadi.

„Uh, qoraqo‘ngizlar! – deya, g‘animlarimni ichimda yandim. – Sen qoraqo‘ngizlar kim-u, men kim ekanimni ana endi ko‘rasanlar!“ – deya qo‘zgaldim.

Kech kuzda yurtimizga yo‘l oldim.

Sattor chavandoz degich bilan til topishdim. U menga bir ot topib berdi. Men... otlandim!

Sattor chavandoz bilan qishloqma-qishloq yurdim. To‘yma-to‘y yurdim. Ko‘pkarima-ko‘pkari yurdim.

Kunduzlari turli yurtlardan kelmish chavandozlar bilan ko‘pkari chopdim.

Necha bor otlardan yiqildim.

Kechalari to‘yxonalarda chavandozlar bilan gurung qildim.

Chavandozlar do‘mbira chalib, ko‘pkarilardan so‘yladi, otlardan so‘yladi, chavandozlardan so‘yladi.

Uzun qish ko‘pkarixona – ish joyim bo‘ldi, chavandozlar – hamxonam bo‘ldi, otlar – birodarim bo‘ldi.

Nihoyat, ko‘klamda „Ot kishnagan oqshom“ nomli ikkinchi qissamni jurnalga ko‘tarib keldim.

Qissa adabiyot osmonida bir momoqaldiroq bo‘ldi.

O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi hisobot yig‘ilishida yilni eng yaxshi qissasi, deya baholandi.

Men yelkamdan nafas oldim. Men entikdim. Men xumor dan chiqdim!

Yurtimiz tog‘ etagida So‘fi Olloyor qabri bor. Shu qabr qabatida tog‘chorbog‘ bor.

Men bir qishni ana shu yurtim chorbog‘ida qishladim. So‘fi Olloyor bobo bilan qabatma-qabat yotib, „Oydinda yur-gan odamlar“ nomli qissa bitib keldim.

Qissani chop ettirish uchun uch yil sarson-sargardon bo‘ldim. To‘rtinchi yil kuya-pisha chop ettirdim.

Shu qissadan keyin meni olqishlovchilar ko‘paydi. Meni qo‘llab-quvvatlovchilar ko‘paydi.

O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi qissalarimga Oybek mukofotini berdilar.

Ittifoq Yozuvchilar Uyushmasi s’yezdiga delegat etib sayladilar.

Ittifoq Yozuvchilar Uyushmasi pravleniyesi a’zoligiga sayladilar.

G‘animlarim qoraqurday g‘imirlab qoldilar.

Dunyoda qanaqa mag‘zava bor – meni boshimdan to‘kdi-lar. Dunyoda qanday fisq-fasod bor – meni nomimga tupuk-lab yopishtirdilar.

Tog‘ay Murod nomimni qop-qora etdilar.

Men ular haqida „Momo yer qo‘shigi“ nomli qissa yaratdim.

Savob ish barcha uchun bo‘ladi. Ayol-erkak uchun bo‘la-di. Yosh-qari uchun bo‘ladi. Yetti yashar-u, yetmish yashar uchun bo‘ladi.

Men el-yurt uchun ana shunday bir savob ish qilgim keldi.

Seton-Tompsonni „Yovvoyi yo‘rg‘a“ kitobini o‘zbekcha-ga tarjima etdim.

Tabiat, jonivorlar hayotidan so‘ylaguvchi mazkur kitob yetti yashar kitobxon uchun-da, yetmish yashar kitobxon uchun-da birday suyukli, birday ardoqlidir.

Ana shu vaqt qatag‘on avj oldi.

Ishdan hayda-hayda avj oldi. Firqadan o‘chir-o‘chir avj oldi. Sur-sur avj oldi.

Nihoyat... qama-qama avj oldi.

O'zbek ziylilari kishanband bo'ldi. O'zbek ziylilari maxbus bo'ldi.

O'zbek ziylilari kechalab-kechalab Moskvaga olib ketildi.

So'roq Moskvada bo'ldi. Sud Moskvada bo'ldi. Hukm Moskvada o'qildi.

Ana shunda polvonlik qonim qaynadi!

Endi qonim o'z g'animlarim uchun qaynamadi. Yo'q, o'z g'animlarim o'z yo'lida qoldi.

Endi qonim... olamjahon g'animlarim uchun qaynadi. Endi qonim... qudratli g'animlarim uchun qaynadi.

– Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!

Men ana shunday shahd bilan olamjahon g'animlarim sari shaylandim.

Jahon Adabiyoti institutida o'qish uchun yo'l oldim.

Barcha hayron bo'lib qoldi.

Boisi – men endigina uylanib edim.

– Savodni mazasi yo'q, Moskvada o'qib kelmasak bo'lmadi, – dedim. Dardim o'qish bo'lmadi. Dardim prokuratoralar bo'ldi, dardim sudlar bo'ldi.

Bir oyog'im institutda bo'ldi, bir oyog'im sudlarda bo'ldi.

Men tanish-bilish yo'li bilan tergov matnlarini sotib oldim. Ikki og'iz axborot olish uchun yarimtalar quydim.

O'shanda O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi qissalarim uchun Oybek mukofotini berib edi. Ana shu mukofot pulini zindonlardan axborot olish uchun sarfladim.

Men ertadan kechgacha sudlarda o'tirdim. Sud yo'laklarida o'tirdim. Sud zinapoyalarida o'tirdim. Sud darvozalari ortida tik turdim.

Sudga kiritmasa, qo'shni uylar cherdagiga chiqib sudni poylab o'tirdim.

Men uzun kunlar sud idoralari tevaragida aylanib-aylanib yurdim.

Men o'z ko'zim bilan ko'rdim: o'zbek xalqini yulduz ziylolarini tepib-tepib zindonmashinaga bosdilar. O'zbek xalqini gultoj ziylolarini urib-urib zindonmashinaga soldilar. O'zbek xalqini sara ziylolarini oyoq-qo'lidan olib, zindonmashinaga otdilar...

Men Moskvada o'qimadim, men Moskvada o'zbek ziylari qayg'usi bilan yashadim.

— Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman!

Men Moskvadan ana shu niyat bilan qaytib keldim.

Men beshinchи sinfdan boshlab paxta terdim. Dorilfunun davrida, ish davrida paxta terdim.

Bo'yim paxtada o'sdi. Aqlim paxtada kirdi. Savodim paxtada chiqdi.

Ammo romanni boshlab... paxta nima ekanini bilmasligimni anglab qoldim. Oppoq qog'oz bilan yuzma-yuz bo'lib... paxta bilan men begona ekanimizni bilib qoldim.

Men uchun paxta qaysi bir... qaysi bir dengiz ostida o'sajak o'tday bo'lib tuyuldi.

Men paxta masalasida bir... go'rso'xta ekanimni bilib qoldim.

Men endi necha o'nlab paxtachilik darsliklarini o'qidim. Necha o'nlab qishloq xo'jalik kitoblarini o'qidim.

Paxtada o'tnish kunlarimni bir-bir esladim. O'zim bilmish paxtakorlarni bir-bir yodladim.

Baribir... baribir bo'lmadi.

Men o'zimni... xalq hayoti bilimdoni, deya o'ylar edim, xalq xarakteri bilimdoni, deya o'ylar edim, xalq ruhiyati bilimdoni, deya o'ylar edim.

Men paxta bilan yuzma-yuz bo'lib... men hali o'zbek dehqonini bilmasligimni angladim. Men paxta bilan yuzma-yuz bo'lib... men hali paxtakor kim ekanini bilmasligimni angladim.

Men qog'oz-qalam g'amladim. Men Surxon dalalarini nishonladim.

Ikki bor jumhuriyat gazetasida: „Men paxta dalalariga ketaman“, deya so‘z berdim. El-yurtga ikki bor so‘z berdim.

Ilk ko‘klamda Oltinsoy tumaniga yo‘l oldim. Tuman kat-talari bilan yuzlashdim.

Men sizni Aliqulov brigadasiga olib boraman, – dedi xo‘jalik raisi Toshboyev. – Faqat aybga buyurmaysiz, Aliqulovni bet-boshi sal oqarib qolgan.

– Oqarib qolgan? – deya angraydim.

– Chin, chin, – dedi tuman vakili. – Dastlab ko‘rishimda men ham shunday deb o‘ylab edim.

– Beti haligi bir kasalday oqarib qolgan, – dedi Toshboyev. – Bari jaziramada kuyib- pishib ishlashidan.

Rais aytmiss Aliqulov dala shiyponini makon etdim.

Men bo‘lajak... Dehqonqul bilan yuzma-yuz bo‘ldim.

Men bo‘lajak... Dehqonqul dalalarini ish joyim etdim.

Dehqonlar qanday kiyimda bo‘lsa – men ham shunday kiyinib oldim.

Dehqonlar o‘tirsa – o‘tirdim, dehqonlar tursa – turdim.

Chigit ekish boshlandi.

Men dehqonlar bilan chigit ekdim.

Men... dehqon bo‘lib, chigit ekdim!

Men g‘o‘za yaganaladim. G‘o‘za chopiq qildim. G‘o‘za o‘toq qildim. G‘o‘zaga go‘ng berdim. G‘o‘zaga suv taradim. G‘o‘za chilpidim.

Men dehqonlar bilan paxta terdim.

Men g‘o‘zalarga suv taray-taray, necha-necha tonglarni oqladim.

Men shiyponlarda uxbab qoldim. O‘qariq bo‘ylarida uxbab qoldim. Egatlarda uxbab qoldim.

Men Surxon dalalarida olti oy kezdim. Surxon oftobida olti oy kuydim. Surxon changlarini olti oy yutdim.

– Men o‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman!

Men ana shunday orzuda dalalar bilan xayr-xo‘splashdim.

Tog'ay Murod

Nihoyat, orzularim oxir-oqibati – ushbu roman bo‘ldi.

Men nimaga erishgan bo‘lsam – barchasi uchun g‘animlarimdan minnatdor bo‘ldim.

G‘animlarim bo‘lmasa – men Tog‘ay Murod bo‘lolmas edim.

Yashasin, g‘animlarim!

Tog‘ay Murod

M U N D A R I J A

Nasrda bitilgan dostonlar	5
Birinchi bob	16
Ikkinchchi bob	39
Uchinchi bob	60
To‘rtinchi bob	92
Beshinchi bob	118
Oltinchi bob	144
Yettinchi bob	179
Sakkizinchi bob	221
To‘qqizinchi bob	253
O’ninchchi bob	297

**„ZIYO NASHR“ nashriyoti o‘zbek va jahon adabiyo-
ti yozuvchilarining eng sara asarlarini chop etishni
rejalashtirgan. 2019-yilda nashriyot quyidagi
kitoblarni nashrdan chiqardi.**

**Lev Tolstoy
HOJIMUROD**

Buyuk rus adibi Lev Tolstoyning „Hojimurod“ nomli qissasi asrlar osha kitobxonlar c’tiboridan tushmay keladi.

Bu – inson taqdirining murakkabligi, vatanparvar, ozodlik kurashchilari nominining unutilmasligi bilan bog’liqdir, balki...

Ushbu to’plamdan joy olgan qissadagi qahramonlar bilan g’oyibona uchrashuv tasavvur olamingizni boyitishiga ishonamiz.

**Anton Chexov
UYQU ISTAGI**

Dunyo adabiyotida A.P. Chexov buyuk hikoyanavis sifatida mashhur. U hikoyalari orqali ushbu janmi yangi pog’onaga ko’tarib bergenligi ham bor gap. O’zbek adabiyotida realistik hikoyalarning paydo bo’lishida yozuvchining muayyan o’rnini bor. Xususan, A. Qahhor va undan keyingi davr o’zbek hikoyalari A.P. Chexov ta’siri sezilib turadi.

Ushbu kitobda yozuvchining eng sara hikoyalari jamlangan.

Anton Chexov
SEMIZ VA ORIQ

Dunyo adabiyotida A.P. Chexov o‘z ovozi va o‘z so‘ziga ega bo‘lgan noyob ijodkorlardan biri sifatida tan olingan. U hikoyalari orqali ushbu janrni yana bir taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tarib bergenligi ham bor gap. O‘zbek adabiyotida realistik hikoyalarning paydo bo‘lishiga ham ayni yozuvchining asarları sabab bo‘lib, Abdulla Qahhor va undan keyingi bir qator yozuvchilarimiz hikoyalarining muvaffaqiyatida mazkur adibning maktabi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kitobda yozuvchining eng sara hikoyalari jamlangan.

Chingiz Aytmatov
BO‘TAKO‘Z

Chingiz Aytmatov qissalarida inson va qadriyat ulug‘ligi yonmayon qo‘yiladi. Yozuvchi qancha ruhiyat tahliliga kirib borsa, shuncha ajodolar merosiga e’tibor qaratadi. Shuning uchun ham uning asarlarida inson qismati orqali ruhiyat va qadriyat tushunchasi zimdan kurash olib boradi. Bu jihat sizga taqdim etilayotgan uch go‘zal qissada ham aks ettirilgan.

HAYOTNING BESH TORTIG'I

Qo'lingizdag'i kitobda Jahon adabiyoti vakillarining eng yaxshi hikoyalari o'rinni olgan. Mark Tvenning „Hayotning besh tortig'i“ Abu Ammarning „Bir shisha sut“, Rey Bredberining „Koinot sovg'asi“ kabi mahorat bilan yaratilgan hikoyalalar jamlangan.

Ishonamizki, ezgulikka yo'g'rilgan hikoyalalar to'plami sizning domiy hamrohingiz bo'lib qoladi.

BUYURMAGAN BOYLIK

Hikoya – jahon adabiyotida boy tarixga ega ommabop janr. Sizga havola qilinayotgan mazkur to'plamdan aksariyat Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan mashhur adiblarning hikoyalari o'rinni olgan. Hikoyalalar rang-barang mavzularda bo'lishidan qat'i nazar mchr-muhabbat, ezgulikka tashnalik, oliyjanoblik, insonparvarlik, ehtiroslarning jo'shqinligi, badiiy puxtalik kabi fazilatlar ularni uyg'unlashtiradi. Jahon adabiyotining eng sara hikoyalari sizda katta taassurot qoldiradi, deb umid qilamiz

Mirzakalon Ismoiliy QIZLAR DAFTARIGA

Ardoqli adib Mirzakalon Ismoiliyning qo'lingizdag'i kitobda qalamga olingen qizlarning o'y-kechinmalari, entikishlari, hazil-muto-yiba qilishlari, chug'urlashlari, o'z o'rnida xafa bo'lishi-yu, nafratlanishlari tabiiy va samimiydir. Saodat buvi ham ularni ko'ngliga yaqin oladi, ba'zan tengdoshday suhbatlashgan bo'ladi. Qizlarning mu-nozaralarda faol qatnashishi-chi?

Asarda yor tanlash va oilaviy hayot borasida xususiy hodisalar orqali turmushda ko'p uchraydigan masalalarga e'tibor qaratilgan. Bu voqealar o'ylab topilgan emas. Balki hayotda sodir bo'lib, keyin yozuvchi qalamida badiiy sayqal topgan. O'ylaymizki, bu kitob qal-bingizda chuqur iz qoldiradi.

Abdulla Qahhor ADABIYOT MUALLIMI

Abdulla Qahhor hikoyalari teran mazmun-mohiyati, voqealar tasvirining rang-barangligi hamda ifoda tilining raxonligi bilan ajralib turadi. Qaysi hikoyasini o'qimang, asar syujetidagi aqchebiq haqiqat hajv pardasiga shunday mohirona o'rabi berilganki, ham kolasiz, ham kuyasiz. Adib asarlarining ta'sirchanligi va umrboqiyligi ham shunda.

Hukmingizga havola etilayotgan hikoyalar to'plami umumiy o'rta ta'llim maktabi o'quvchilari, akademik litsey va o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari talabalari hamda keng kitobxonlar ommansiga mo'ljallangan.

O'tkir Hoshimov HURKITILGAN TUSH

Mazkur to'plamdan O'tkir Hoshimovning turli yillarda yozilgan eng sara hikoyalari o'rinni olgan. Hikoyalarda turfa taqdirlar-u voqealar adibning o'ziga xos uslubida jilo topgan. Ularni o'qirkansiz, go'yo oramizdagi odamlar bor samimiyyati bilan sahifalarga ko'chgandek tasavvur uyg'otadi, befarq qoldirmaydi.

Eng muhimi, bu asarlar hali hamon o'z o'quvchisini yo'qtogani yo'q. Shunday ekan, Siz ham adib qalamining mo'jizakor kuchiga asir bo'lib qolishingizga ishonamiz va maroqli mutolaa hamrohingiz bo'lsin, deymiz.

Xudoyberdi To'xtaboyev SARIQ DEVNI MINIB

O'zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlari nafaqat respublikamizda, balki chet ellarda ham ma'lum va mashhur. Uning „Sariq devni minib“ sarguzasht romanı bolalar hayotidan olib yozilgan bo'lib, ularning sevimli kitoblaridandir. Bu asarda orzu-havasga eltadigan chinakam yo'l – halol mehnat, yaxshi xulq-odob va qunt bilan o'qishda ekanligi ta'kidlanadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev SARIQ DEVNING O'LIMI

O'zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning „Sariq devni minib“ sarguzasht romanining ikkinchi qismi „Sariq devning o'limi“da asar qahramoni Hoshimjon hayotida mas'uliyatlari davr boshlanadi. Tabiatan ziyrak, fahm-farosatli Hoshimjon katta bir operatsiyada qatnashib, uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlaydi. Voqealar rivoji bilan esa asarni mutolaa qilish davomida tanishasiz.

Xudoyberdi To‘xtaboyev

JANNATI ODAMLAR

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarimizning sevimli adibi, bir qancha roman, qissa va ertaklar muallifi Xudoyberdi To‘xtaboyevning „Jannati odamlar“ asarini o‘qir ekansiz, chuqur o‘yga tolmay, qolmaysiz. Unda o‘tmishda yashab o‘tgan bobolarimizning bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibati, insonparvarligi, halolligi, xalqi uchun, Vatani uchun jonini ham ayamay ko‘rsatgan beminnat xizmatlari yorqin ifoda etiladi. Mutolaa yakunida asar qahramonlarining haqiqiy Jannati odamlar ekaniga ishonch hosil qilasiz.

Asar keng kitobxonlar ommasiga ma’qul bo‘ladi, degan umiddamiz.

Xudoyberdi To‘xtaboyev

QAYDASAN BOLALIGIM

Xudoyberdi To‘xtaboyevning o‘quvchilarimizga havola etilayotgan ushbu kitobini biz umumiy nom bilan „Qaydasan, bolaligim“ deya nomladik. Yangi tuhfaga yozuvchining siz sevgan, shu vaqtga qadar qo‘ldan qo‘ymay o‘qib kelayotgan qissa va hikoyalari, shu jumladan, ertaklari jamlangan. Taqdim etilayotgan har bir asar Xudoyberdi To‘xtaboyevning bolalik yillari, bolalik orzulari, bolalik sevinchlari, bolalik sog‘inchlari haqida so‘zlaydi. Bir paytlar siz kabi bola qalbi bilan dunyoga sig‘magan, orzularini qahramonlari timsolida gavdalantirgan va o‘z o‘quvchisini hayratlar ummoniga g‘arq qilgan adibni bu gal bolaligini, tug‘ilgan qishlog‘ini sog‘ingan, yuraklari gup-gup urib, o‘scha manzil tomon talpintirgan tengdoshingiz siymosida ko‘rasiz.

Kitobdan o‘rin olgan har bir asar qalbingizda shunday iliqlik va yorug‘lik paydo qiladi!

Xudoyberdi To‘xtaboyev
QUYONLAR SALTANATI

Bolalar adabiyotining chinakam fidoyi ijodkori Xudoyberdi To‘xtaboyevning bolajonlarimizga atalgan navbatdagi tuhfasi ham o‘ziga xos badiiy qimmatga sazovor asar, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ikki yosh o‘siprin yigitning orzulari, ularning tengdoshlaridan ajratib turadigan fazilatlari, qalamga olingan har bir voqea-hodisaning zamiridagi yaxshilikka, ezgulikka undash istagining mavjudligi, o‘ylaymizki, bu gal ham kitobsevar muxlislarimizni quvontiradi. Shu bilan birga, kitob qahramonlariga o‘xshash istagi ularning ham qalbi-da paydo bo‘lsa, biz o‘zimizni maqsadimiz sari bir qadam oldinga tashlaganmiz, deb hisoblaymiz.

Kitob mutolaasiga marhabo, yosh do‘stlar!

Erkin Vohidov
VATAN SOG‘INCHI

Ushbu saylanmada O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning turli yillarda yaratilgan dilbar she’rlarining eng saralari jamlangan.

Erkin Vohidov
DILDA ISHQ DARYOCHADIR

Muhabbat tuyg‘usi insonga Yaratgan tomonidan ato etilgan eng oliy tuyg‘udir. Bu tuyg‘u asrlar mobaynida shoirlarni qalam tebratishga undab kelgan qudrat manbayidir. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu she’riy guldasta inson qalbining inja tuyg‘usi – muhabbatga bag‘ishlangan she’rlaridan saralandi.

O'tkir Hoshimov
SHAMOL ESAVERADI

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning asurlari sal qimiz tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Buning boisi adib asurlarining hayotiyligi, tilining jozibadorligida.

Qo'lingizdagি to'plamdan O'tkir Hoshimovning „Shamol esave radi“, „Cho'l havosi“ qissalari o'rinn olgan.

Xudoyberdi To'xtaboyev
JONGINAM SHARTINGNI AYT'

Tinchgina xonadon. Shirin turmush kechirayotgan oilada arzimagan xat tufayli mojaro boshlandi. Ayniqsa, bu tushunmovechiliklarga qo'-ni-qo'shni, hatto asar qahramoni ishlaydigan maktab rahbariyatining aralashuvidan so'ng „doka ro'molning qurishi“ qiyin kechadi...

O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning „Jonginam, shartingni ayt“ qissasi sizni zeriktirib qo'ymaydi. Kitobdan sevimli adibimizning turli yillarda yozgan hajviy hikoyalari ham o'rinn olgan.

Adabiy-badiiy nashr

TOG‘AY MUROD

OTAMDAN QOLGAN DALALAR

Roman

„Ziyo nashr“

nashriyoti

Toshkent – 2019

Muharrir

Abdurahmon Jo‘rayev

Badiiy muharrir

Bahodir Ibrohimov

Musahhih

Oybek Haydarov

Sahifalovchi

Habibulloh Haydarov

Nashriyot litsenziyası AA № 0008, 27.03.2019

18.10.2019 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.

Offset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 16,8. Nashriyot-hisob tabog‘i 15,42.

Adadi 10000 (2-zavod 5000). Sharhnomasi № 22–19.

Buyurtma raqami 994.

„Ziyo nashr“

Mas’uliyati cheklangan jamiyatni

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.


«Credo Print» MChJ

kitob fabrikasida chop etildi.

Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01/05

www.credoprint.uz



90046

84(56)6
M 89

Tog'ay Murod

Saylanma

I jild



ZIYO NASHR



t.me/zyonashr
fb.com/zivo.nashr
ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-5706-1-0



9 789943 570610